

Y30.2

33  
11-73

Z.Y. YO'LDOSHEV, X.T. XALILOVA



**MILLIY VA JAHON  
IQTISODIYOTI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**Z.Y. Yo'ldoshev, X.T. Xalilova**

# **MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan iqtisodiyoti yo'nalishlari talabatlari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2014*

UO'K: 336.14(575.1+100)

KBK 65.9(50')

M 50

Y-69

**Mas'ul muharrir:**

*N. Haydarov – iqtisod fanlari doktori, professor.*

**Taqrizchilar:**

*Y. Abdullayev – iqtisod fanlari doktori;*

*A. Bekmurodov – iqtisod fanlari doktori professor.*

**M50** Milliy va jahon iqtisodiyoti / Z. Yo'ldoshev [va boshq.].  
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi –  
T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 352 b.  
ISBN 978-9943-05-690-9

«Milliy va jahon iqtisodiyoti» kursi bo'yicha qayta tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanmada Milliy va jahon iqtisodiyoti tushunchasi, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi, uni bozor iqtisodiyotiga o'tishi, Respublikada milliy iqtisodiyotning shakllanishi, uning rivojlanishini ta'minlovchi omillar, milliy iqtisodiyotning tarkibini qayta qurish, ishlab chiqarish va sotsial majmualarni isloh qilish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada strategik rejalashtirish, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati, rivojlangan, rivojlanayotgan hamda iqtisodi o'tish davriga xos bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma iqtisodiy oliy o'quv yurtlari talabalari, professor-o'qituvchilari hamda milliy va xalqaro iqtisodiyotda qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

UO'K: 336.14(575.1+100)

KBK 65.9(50')

HISBN 978-9943-05-690-9

© Z.Y. Yo'ldoshev va boshq. 2014

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014

---

## KIRISH

O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning bozor munosabatlariga asoslangan Milliy iqtisodiyoti shakllana boshladi.

Milliy iqtisodiyot — bu ma'lum bir davlat hududida tarixan tashkil topgan, bir-biri bilan maqsadi va mehnat taqsimoti bog'liq bo'lgan tarmoqlar yig'indisidir.

Yagona tizim sifatida milliy iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan munosabatlari, boshqaruv tizimi, umumiy iqtisodiy infrastrukturasi va mustaqil qonunchiligiga ega bo'lgan mustaqil davlatchilikni taqozo qiladi.

Jahon (xalqaro) iqtisodiyoti esa bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi, xalqaro aloqalarga intiluvchi barcha milliy iqtisodiyotlar yig'indisidir.

Milliy va jahon iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, integratsiyalashuv omillari, tendensiyalarini iqtisodiy oliy o'quv yurti talabalarining bilishlari maqsadga muvofiqdir.

Bakalavr darajasini o'layotgan har bir talaba mustaqil davlatning iqtisodiy siyosatini, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'z modelini, uning shakllanish jarayonini bilmog'i lozim.

Milliy va jahon iqtisodiyoti kursi oliy o'quv yurtlarining moliya, bank ishi, soliq va soliqqa tortish, sug'urta ishi, buxgalteriya hisobi va audit hamda boshqa iqtisodiy yo'nalishlarida o'qiyotgan bakalavr-talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan chuqur va ko'p qirrali jarayonlarni o'rganishga undaydi.

Milliy va jahon iqtisodiyoti kursida O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi, iqtisodiyotni isloh qilish jarayonlari, o'zbek milliy modelining mohiyati hamda respublika aholisining yuqori turmush darajasiga ega bo'lgan iqtisodiy



rivojlangan davlatlar qatoriga bosqichma-bosqich o'tish jarayonlari o'rganiladi.

Milliy va jahon iqtisodiyoti kursi quyidagi vazifalarni hal qilishga e'tiborni qaratadi:

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurish va rivojlanishning o'ziga xos yo'llari va muammolarini o'rganish;

– respublikaning iqtisodiy potensialini, uning tarkibi va o'sish dinamikasini tahlil qilish;

– iqtisodiyotning boshqarish vazifalari va asosiy prinsiplarini hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik rejalashtirish va davlat tomonidan iqtisodiyotning tartibga solish tizimini o'rganishi;

– mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil qilish, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik o'rnatish tartibini o'rganish;

– globallashtirish jarayoni va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv shakllari, uning mexanizmlarini o'rganadi va h.k.

Milliy va jahon iqtisodiyoti kursi mamlakatimiz iqtisodiyoti, uning iqtisodiy komplekslari, iqtisodiy islohotlar, ularning natijalari, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarini hamda rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davriga xos bo'lgan davlatlar iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

O'quv qo'llanma moliya, bank ishi, soliq, soliqqa tortish, sug'urta ishi, buxgalteriya hisobi va audit, qimmatli qo'g'ozlar va birja ishi hamda boshqa iqtisodiy yo'nalishlarda o'qitilishini nazarda tutib hamda ishchi o'quv rejasidagi ajratilgan soatlarni kamligini e'tiborga olib, unga O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida moliya-kredit tizimi kabi ixtisoslik fanlaridan o'tiladigan hamda alohida fan sifatida o'qitiladigan xususiylashtirish va tadbirkorlikning ayrim mavzulari qaytarish bo'lmasligi uchun, ongli ravishda mazkur kursga kiritilmadi.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda yaratilgan sharoit va yordam uchun Toshkent Moliya instituti rektori U. Azizovga hamda «Mintaqaviy iqtisodiyot» kafedrasini mudiri Z. Abdalovga mualliflar minnatdorchilik bildiradi. Shuning bilan

birga mualliflar statistik ma'lumotlarni yangilashda, ularni tahlil qilishda ko'rsatgan amaliy yordami uchun «Mintaqaviy iqtisodiyot» kafedrasini o'qituvchisi Aliyev Sanjarga ham o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Mazkur o'quv qo'llanma lotin alifbosida birinchi marta chop etilganligi uchun ayrim xato va kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin.

Shuning uchun qo'llanmaning mazmuni va sifatini yaxshilashda qaratilgan har qanday fikr-mulohazalar mualliflar tomonidan inobatga olinib, keyingi nashrlarida foydalaniladi.

*Mualliflar*

## I bob. MILLIY IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

---

### *Reja:*

- 1.1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi, mazmuni, kursning predmeti.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi.

### **1.1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi, mazmuni, kursning predmeti**

Iqtisodiyot keng ma'noda — bu bir tomondan, o'ziga xos qonunlar asosida rivojlanadigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini birlashtirgan xo'jalik bo'lib, ikkinchi tomondan iqtisodiyot, yuqori mehnat unumdorligiga erishish, aholining turmush darajasini yaxshilash va cheklangan resurslardan unumli foydalanish maqsadida iqtisodiy qonunlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan eng qadimiy fanlardan biridir.

Iqtisodiyotning 3 xil tushunchasi bor:

- ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi;
- tuman xo'jaligi, mamlakat yoki mamlakatlar xo'jaligi yoki dunyo xo'jaligi;
- iqtisodiy munosabatlarning tarmoqlararo yoki funksional aspekt (tomon)larini o'rganadigan fan tarmog'i.

«Milliy iqtisodiyot» atamasi esa keyingi yillarda «mamlakat iqtisodiyoti», «respublika iqtisodiyoti», «milliy xo'jalik», «xalq xo'jaligi», «ijtimoiy ishlab chiqarish» tushunchalarining sinonimi sifatida ilmiy adabiyotga, boshqarish va xo'jalik amaliyotiga kirib keldi.

Milliy iqtisodiyotning quyidagi xarakterli belgilari va shart-sharoitlari mavjud:

- milliy va davlat suvereniteti;
- hududiy yaxlitlik;
- iqtisodiy maydon va huquqiy muhit birligi;
- yagona to'lov vositasi — milliy pul birligi, moliya tizimi yaxlitligi;

– ichki bozorning rivojlanganligi, tashqi iqtisodiy va geopolitik munosabatlarning barqarorligi va boshqalar.

Milliy iqtisodiyot murakkab tizim sifatida tashkiliy, tuzilmaviy, resurs, institutsional va boshqa kichik tizimlar, komponentlardan tarkib topadi.

**Tashkiliy jihatdan** – xo‘jalik yuritish subyektlar yig‘indisi – tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, ishlab chiqarish turlari, tarmoqlar, mintaqalar, ularning o‘zaro aloqalari va munosabatlaridan iborat.

**Tarkibiy jihatdan** – xo‘jalik majmualari – sanoat, agrosanoat majmuasi, yoqilg‘i-energetika majmuasi, qurilish majmuasi va boshqalar.

**Resurslar bo‘yicha** – imkoniyatlar yig‘indisi – tabiiy xomashyo, demografik va mehnat, ilmiy hamda innovatsion, ishlab chiqarish, ekologik xususiyatlardan iborat.

**Institutsional jihatdan** – bozor institutlari va milliy bozor segmentlari yig‘indisi – ishlab chiqarish vositalari bozori, tovar va xizmatlar bozori, kapital bozori, ipoteka bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, fond bozori, mehnat bozori, intellektual mulk obyektlari bozori, uy-joy bozori va boshqalardan iborat.

**Harakat qilish va boshqarish darajasi bo‘yicha** milliy iqtisodiyot makrodarajada (butun iqtisodiyot) mezodarajada (tarmoq va mintaqalar) va mikrodarajada (korxonalar, birlamchi ishlab chiqarish) tahlil qilinadi.

**Milliy iqtisodiyot** mamlakat iqtisodiyotining faoliyat ko‘rsatish shakli bo‘lib, mamlakat hududida yashovchi asosiy millat (xalq)ning tarixan shakllangan va rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan belgilanadigan, mahalliy, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan xo‘jalik tarmoqlari, korxonalari, mehnat uyushmalari, hududlari va mintaqalari tizimidir.

**Milliy iqtisodiyot fani** – iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish muammolarini yangi sharoitda, mustaqillik sharoitida o‘rganadigan iqtisodiy fanlar tizimidagi yosh fan.

**Milliy iqtisodiyot** – bu tarmoqlar xususiyatini birlashtirgan, mujassamlashtirgan kompleksdir.

**Milliy iqtisodiyot** – bu mamlakat xo‘jaligi, uning tarkibi va ayrim elementlarining o‘zaro bog‘liqligidir.

**Milliy iqtisodiyot** – iqtisodiyotning ham milliy (nomos), ham iqtisodiy (oikos)qismlarini birlashtiradi. «Milliy» so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «*natio*» – xalq so‘zini «iqtisodiyot» esa grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «*oikonomike*» – uy xo‘jaligini boshqarish san‘ati ma‘nosini anglatadi.

Iqtisodiyot, **milliy** deb atalsa ham, u ma‘lum bir millat manfaatini ifodalamay, balki umummilliy manfaatlarga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot kapitalizmning vujudga kelishi bilan bog‘liq hodisadir. U, eng avvalo, XVII asrning o‘rtalarida Angliyada qaror topdi. Hozirgi paytda uning kapitalistik, sotsialistik, postsotsialistik va kam rivojlangan mamlakatlardagi kapitalistik shakllari mavjud.

Masalan, kapitalistik milliy iqtisodiyotga uning amerikacha, nemischa, yaponcha shakllari to‘g‘ri keladi. Sotsialistik milliy iqtisodiyot esa Xitoy, Vyetnam va Kubada mavjud bo‘lib, asosiy soha va tarmoqlarda davlat mulkini va korxonalarini saqlab qolgan holda, xususiy mulkchilikdir. Tovar-pul munosabatlariga asoslangan o‘rta va kichik xo‘jaliklar va boshqa bozor munosabatlariga keng yo‘l ochilayotgan iqtisodiy faoliyat shakllarini kiritish mumkin.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida va sobiq SSSRda o‘ta markazlashgan ma‘muriy davlat sotsializmining inqirozga uchrashi natijasida vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlarda postsotsialistik iqtisodiyot qaror topdi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin bozor munosabatlariga asoslangan, o‘ziga xos demokratik milliy iqtisodiyotni shakllantira boshladi. Mamlakatda davlat va xususiy mulkchilikka asoslangan, ko‘p ukladli aralash iqtisodiyot vujudga keldi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismini shaxsiy, guruh, shirkat, jamoa, aksiyadorlik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot inson faoliyatining asosiy jihati va jamiyat hayotining poydevoridir. Shu boisdan, «avval iqtisod, keyin siyosat»

deyiladi. Inson tirik jon bo'lgani uchun, birinchi navbatda, uning moddiy talab ehtiyoji qondirilishi kerak, chunki unga faqat **iqtisodiy faoliyat** orqali erishiladi. Kishilar hamisha iqtisodiyot bilan mashg'ul bo'ladilar, chunki shu yo'l bilan o'z risq-nasibasini yaratadilar.

**Iqtisodiy faoliyat** — u yoki bu mamlakat, butun insoniyat alohida individlari, guruhlari, ijtimoiy qatlamlarning faoliyatidir.

**Iqtisodiy faoliyat — bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlardir.**

Bunday holatning mavjudligi tufayli, iqtisodiy faoliyat:

— **birinchidan**, u yoki bu ehtiyojlarni qondirishning ustuvor ahamiyatga egaligi;

— **ikkinchidan**, maqsadning dolzarbligi;

— **uchinchidan**, boshqa muqobil maqsadlarga qaraganda unga erishish uchun to'lanadigan haqning narxini tanlash bilan bog'liq muammoni hal etadi.

Bu uch holat iqtisodiy faoliyatning mazmunini ifodalaydi. Iqtisodiy faoliyatni o'rganishda milliy chegaralarini tanlab olish hozirgi zamon texnikasi, siyosati rivojlanishi va umum-milliy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlat ma'lum **bir sohani yoki umuman iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli** rivojlantirishning u yoki bu sharoitlarini yaratadi. Bu o'z navbatida, mamlakatning jahon iqtisodiyotida ma'lum o'rin egallashida katta ahamiyat kasb etadi.

**Jahon xo'jaligi** insoniyatning butun tarixi davomida shakllangan jarayondir. Jahon xo'jaligining rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, turli mamlakat va regionlar o'rtasida savdo-moliya, ishlab chiqarish munosabatlarining muntazam o'rnatilishi, eski tosh qurollaridan eng murakkab elektron hisoblash mashinalaridan foydalanishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir.

Shunday qilib, jahon xo'jaligi yoki **Jahon iqtisodiyoti** doimiy o'zgarishda va harakatda bo'ladigan, bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi, xalqaro aloqalarga intiluvchi milliy xo'jaliklar yig'indisidir.

Jahon iqtisodiyoti haqida o'quv qo'llanmaning oxirgi boblarida batafsil to'xtib o'tiladi.

O'zbekiston **Milliy iqtisodiyoti** mavjud bo'lgan barcha sohalar, birlashmalar, korxonalar va tashkilotlarning yig'indisidir. Ular yagona iqtisodiy tizim, umumiy qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan.

Mazkur **fanning predmeti** alohida mamlakat miqyosidagi iqtisodiy faoliyatni, iqtisodiy jarayonlarni, uning tarmoqlarini, hududiy va funksional tarkibini qamrab oladi.

Milliy iqtisodiyot fanining predmeti quyidagi jarayonlarni o'rganadi:

1. Milliy iqtisodiyotning shakllanishi.
2. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi.
3. Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish.
4. Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishning milliy o'zbek modelining mohiyati.
5. Iqtisodiyotning boshqarish shakllarini qayta qurish, yangi boshqaruv tashkilotlari tizimini yaratish, davlat boshqaruvini tashkil qilish.

Milliy iqtisodiyot fani, xususan, iqtisodiyot nazariyasi, statistika, iqtisodiy geografiya, tarix, sotsiologiya, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyot iqtisodiy fanlarning tarkibiy qismi sifatida umumiy qonunlar asosida rivojlanadi. U, avvalo, iqtisodiyot nazariyasi bilan bog'liq. Ma'lumki, iqtisodiyot nazariyasi fani inson va jamiyatning iqtisodiy faoliyati, ya'ni moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini, shu bilan birga, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar hamda ularni amal qilish mexanizmini o'rganadi. U kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Milliy iqtisodiyot kursi iqtisodiy rivojlanish va takomilla-shishining bir, maxsus davriga, ya'ni markazdan turib boshqariladigan iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga to'g'ri keladi. Bu eski iqtisodiy tizimni tubdan isloh qilish va yangi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining yaratish davrini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takror ishlab chiqarish **Milliy iqtisodiyotning predmeti** bo'lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot kursi moliya va kredit, soliq va soliqqa tortish, sug'urta kabi iqtisodiy fanlarning nazariy tomonlarini ma'lum davlat — O'zbekiston Respublikasining xususiyati va sharoitiga bog'laydi. Bo'lajak iqtisodiyot mutaxassisleri e'tiborini o'z mamlakatining iqtisodini chuqur va har tomonlama o'rganishga qaratadi. Milliy iqtisodiyot fanini o'rganish makro va mikroiqtisodiyot, sotsiologiya, tarix, iqtisodiy geografiya, statistika, informatsion texnologiya va boshqa fanlarni chuqur bilishni taqozo etadi. Chunki, iqtisodchi-mutaxassis iqtisodiy faoliyatning barcha jarayonlarini to'liq va har tomonlama o'rganishi uchun iqtisodiy, huquqiy, texnika va boshqa fanlardan mukammal bilimga ega bo'lish lozim.

## **1.2. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi**

1991-yil 31-avgust kuni Toshkent shahrida Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

Maxsus qaror bilan O'zbekiston SSR «O'zbekiston Respublikasi» deb ataladigan bo'ldi. **1-sentabr — Mustaqillik kuni**, deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasining **Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida qonun** qabul qilindi.

- 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasining **Davlat bayrog'i** tasdiqlangan;
- 1992-yil 2-mart O'zbekiston Respublikasi **Birlashgan Millatlar Tashkilotiga** a'zo bo'lib qabul qilingan;
- 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining **Davlat gerbi** tasdiqlangan;



- 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** qabul qilingan;
- 1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasining **Davlat madhiyasi** tasdiqlangan;
- 1994-yil 1-iyulda O'zbekiston Respublikasining **milliy valutasi** muomalaga kiritilgan.
- 2006-yil 25-yanvarda O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi **unitar davlat** bo'lib, davlat hokimiyati hokimiyatning taqsimlanish nazariyasiga binoan mustahkamlangan. **Unitar davlatda** davlat tuzilishi shakli, davlat hududi tarkibida, federatsiyadan farqli ravishda, federativ birlik (shtat, yer)lar bo'lmaydi, balki **u ma'muriy-hududiy birlik** (viloyatlar, tumanlar va hokazo)larga bo'lingan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiy jihatdan bo'linmas yagona davlatni tashkil qiladi. Uning tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat 158 ta tuman 119 ta shahar kiradi. **Maydoni** – 448,9 ming km<sup>2</sup>, chegaralarining uzunligi – 6621 km, **aholisi** – 31,0 mln kishi, undan 51,3 % shahar, 48,7 % qishloq aholisini tashkil qiladi. 1 km<sup>2</sup> ga to'g'ri keladigan aholi soni 69 kishidan iborat. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlari – 28,5 mln. ga, shundan sug'orishga yaroqli yerlar 5 mln ga, jami ekin maydoni 3,7 mln. ga ni tashkil qiladi<sup>1</sup>. O'zbekiston Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh. Bayram kunlari bir yilda 9 kun.

**O'zbekiston – suveren demokratik respublika.** Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning

<sup>1</sup> Respublika aholisining o'sish sur'ati pasayish tendensiyasiga egadir.

*Masalan:* 1970–1979-yillarda o'sish sur'ati 3 % ni, 1980–1989-yillarda 2,6 % ni, 1990–2001-yillarda o'sish sur'ati 1,8 % ni tashkil qildi. 2001–2010-yillarda o'sish sur'ati 1,3 % ni tashkil qildi. BMTning ma'lumotiga qaraganda 2001–2010-yillarda O'zbekistonning aholisi 3 mln. kishiga yaqin miqdorda o'sdi. O'zbekiston hududi bo'yicha dunyoda 41-o'rinda, aholi soni jihatidan 58-o'rinda turadi. Aholining o'rtacha yoshi 26 ga teng.

manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini hamda davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tizimini belgilaydi, **ichki va tashqi siyosatini amalga** oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir.

O'zbekiston Respublikasining **davlat tili o'zbek tilidir**. Islom dini asosiy din hisoblanadi. U o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Pul birligi **so'm** hisoblanadi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan **iqtisodiy siyosat** shakllanib, istiqbol yo'nalishlari belgilab olindi. Sobiq ittifoqning parchalanishi oqibatida O'zbekistonga o'ta markazlashgan, direktiv usul bilan boshqarilgan, mulkchilikning cheklangan turlariga asoslangan iqtisodiyot meros qilib qoldirilgan edi. Bu esa chuqur iqtisodiy inqirozga olib keldi. Ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad ko'rsatkichlari pasayib ketdi va hokazo.

Respublika Prezidenti va hukumatining zudlik bilan qat'iy choralar ko'rish natijasida, eng avvalo, yangicha **iqtisodiy siyosat** ishlab chiqildi. Uning negiziga **bozor iqtisodiyoti asos qilib olindi**. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan, ayniqsa, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa qator Osiyo davlatlari namunalaridan to'g'ri foydalanilgan holda, mumkin qadar tezroq, **aholining hech bir tabaqasiga katta ziyon yetkazmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tish kerakligi davlat siyosatining mazmunini tashkil qildi**. Buning uchun har taraflama keng iqtisodiy islohotlar o'tkazish rejalashtirildi va respublikada bozor munosabatlariga o'tishning quyidagi nazariy **asoslari va mezonlari aniqlandi**:

- «iqtisodning mafkuradan holi bo'lishi va uning siyosatdan ustuvorligi;
- «davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- «qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi;

- «xalq manfaatlariga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni yurg'izish;

- «bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tib borish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan rivojlanishning bu **besh tamoyili** amalda o'zining hayotiyiligini to'la tasdiqladi. Amaliy ish jarayonida O'zbekiston tub iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning o'ziga xos yo'lining to'g'riligi va ta'sirchanligi tasdiqlandi. Bu tamoyillar jahon jamoatchiligi tomonidan ma'qullandi. Mazkur tamoyillarni amalga oshirib, respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, eng muhimi – bozor munosabatlarini joriy etish sari bosqichma-bosqich ilgarilab borish ta'minlandi.

O'zbekistonda o'tish davrining o'zidayoq iqtisodiy barqarorlikni ta'minlabgina qolmay, mamlakatni **iqtisodiy o'sish sari olib chiqdi**, kelgusida uni yanada jadalroq rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Natijada jahon iqtisodiy adabiyotida haqli ravishda taraqqiyotning «O'zbekiston modeli», «O'zbekiston fenomenini» degan tushunchalar paydo bo'ldi. Shu borada bir misol keltirish o'rinlidir. Bugun barcha davlatlarni tashvishga solayotgan, hali-beri davom etayotgan, jahon miqyosida eng dolzarb, eng og'ir masala bo'lib turgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozni hisobga olgan holda, O'zbekiston oxirgi 7 yil davomida dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida o'rtacha 8–8,5 foiz iqtisodiy o'sishga erishayotgani mamlakatimiz salohiyati barqaror rivojlanib borayotganining yaqqol dalilidir. O'zbekiston iqtisodiyoti 20 yil davomida 3,5 barobardan ziyod o'sdi. Yalpi ichki mahsulot jon boshiga 2,5 barobar oshdi.

O'zbekiston Respublikasi yaqin o'tmishda umumittifoq xalq xo'jaligi majmuyining tashkiliy qismiga kirar edi. Shu bilan birga Sobiq ittifoqdagi **mehnat taqsimotiga, asosan, xomashyoni yetkazib beruvchi** mavqeyini egallardi. Bunday sharoitda xalq xo'jaligini «**milliy iqtisodiyot**» tushunchasi bilan taqqoslash mumkin emas edi.

Endilikda O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi, iqtisodiy rivojlanishning o'z yo'lini tanlash imkoniyati

yaratilishi bilan respublikada hozirgi zamon **milliy iqtisodiyoti shakllana boshlandi**. Mustaqillik yillarida O'zbekiston yangi davlatchilikni shakllantirish, istiqlolni real mazmun bilan to'ldirish, Sovet Ittifoqining qulashi tufayli vujudga kelgan yalpi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bozor munosabatlariga o'tishning qiyin va mashaqqatli yo'lini bosib o'tdi. O'tgan davr sobiq yagona xalq xo'jalik majmuasi xarobalari o'rnida **milliy iqtisodiyotning** tamal toshining qo'yish davri hamdir. Bugun mamlakatda yangi iqtisodiy tizimning asosiy unsurlari shakllantirilgan — yangi iqtisodiy hokimiyat organlari, milliy moliya, ichki va tashqi bozor, bozor institutlari tizimi, xo'jalik qonunchiligi me'yorlari yaratildi.

«... Mamlakatimiz 1991-yilda o'z mustaqilligini e'lon qilib, tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. O'tgan davrda amalga oshirilgan barcha ishlarimizni baholar ekanmiz, bugungi O'zbekistonning shakllanishidagi **ikki bosqichni alohida ajratib ko'rsatish uchun barcha asoslarimiz bor: birinchi bosqich** — 1991–2000-yillar o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlar davri. **Ikkinchi bosqich** — 2001–2010-yillar iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarini isloh qilish aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta'minlash!...

Jahon xo'jaligining shakllanishi ham bir necha bosqichlardan iboratdir.

1. (XV–XVII asrlar) — yangi yerlarning ochilishi — buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq bosqich bo'lib, asosiy savdo yo'llari Hind va Atlantika okeani orqali o'tgan. Buyuk Britaniya, Portugaliya, Ispaniya Gollandiya kabi davlatlar eng katta mustamlakalarga ega bo'lgan va jahon savdosiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi — 1990–2010-yillari asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlarini. — T.: O'zbekiston, 2011-yil, 85-bet.

2. (XVIII–XIX asrlar) – xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakatlari va regionlarini qamrab olgan davr. Xalqaro mehnat taqsimoti, jahon bozorining rivojlanishi, mexanizatsiya va mashinalashgan sanoat Yevropaning bir qancha mamlakatlari va AQSHda vujudga keladi.

3. Jahon iqtisodiyotining kengayishi (XIX asr oxiri XX asr o'rtalarini o'z ichiga oladi) bunda transport, qit'alararo aloqalar, dunyo bozorining tez rivojlanishi (yetakchi davlatlar tomonidan dunyoning qayta bo'lib olinishi, kapital migratsiyasi).

4. Jahon iqtisodiyotining chuqurlashuvi (XX asr oxiridan hozirgacha) yirik mashina industriyasi, transport va dunyo bozorining birgalikda rivojlanishi, jahon xo'jaligining global-lashuv, integratsiyalash jarayonlarini chuqurlashishi, yirik mintaqaviy integratsiyaning vujudga kelish davri.

Har qanday jamiyatning shakllanishi va taraqqiy etishida shu jamiyatni boshqara oladigan qonunlar va dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashga va erkin fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilindi: «**Mulkchilik to'g'risida**», «**Korxonalar to'g'risida**», «**Kooperatsiyalar to'g'risida**», «**Ijara to'g'risida**», «**Tadbirkorlik to'g'risida**», «**Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida**», «**Chetel investitsiyalari haqida**», «**Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari to'g'risida**», «**Soliq solish to'g'risida**», «**Dehqon xo'jaligi to'g'risida**», «**Fermer xo'jaligi to'g'risida**», «**Raqobat to'g'risida**», «**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida**» va hokazolar kabi 600 dan ortiq qonun, 12 ta kodeks qabul qilindi. Kodeks bu – sohalar bo'yicha qabul qilingan qonunlarning mujassamlanishidir.

O'zbekistonda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi **ishlab chiqarish sohasiga** alohida e'tibor berildi va berilmoqda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog'i **sanoatning an'anaviy rivojlangan turlari** – qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati kabilar bilan bir qatorda mutlaqo yangi sanoat sohalarini tashkil etish zarur bo'ldi. O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri **qishloq xo'jaligi hisoblanadi**. Uning asosiy bo'g'ini bo'lgan

paxtachilik eng rentabelli va xaridorgirdir. Shu sababdan, kelajakda ham paxtachilikni rivojlantirish, uning tarmoq infrastukturasida qulay, mos hajmi va salmog'ini aniqlash, shuningdek, tola sifatini tubdan yaxshilab, dunyo standarti darajasiga keltirish eng dolzarb muammodir.

Davlatimiz nisbatan katta hududga ega va uning geografik o'rni ham alohida xususiyatlarga molik. **Bu holat qurilish va transportni** ham jadal sur'atlar bilan rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Yalpi ishlab chiqarish maydonlarini, **uy-joy, yo'l qurilishi, madaniy-maishiy muassasalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslarining** mustaqil moddiy-texnik poydevorini yaratish qurilish sohasining mazmunini tashkil etadi.

Sobiq SSSR davrida respublikada transportning muhim turi bo'lgan dengiz transportiga ega emasligimiz, temiryo'lining esa past darajadaliigi va **faqat bir tomonga, shimolga qaratilganligi** ushbu jabhalarda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutdi. Shuning uchun bu sohani rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, havo transporti respublika hayotida muhim o'rin egallaydi. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan passajir va yuk tashish aloqalarini o'rnatdi.

**Davlat iqtisodiy siyosatining asoslari qilib quyidagilar belgilandi:**

a) qisqa muddat ichida respublikamizni xomashyo ishlab chiqaradigan davlatdan dunyo bozorlarida raqobat qila oladigan, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan mustaqil iqtisodiyotga ega, qudratli davlatga aylantirish;

b) **iste'mol bozorini, avvalo, ichki resurslar hisobiga to'ldirish**, aholining oziq-ovqat, kundalik sanoat tovarlariga bo'lgan ehtiyojini juda qisqa vaqt ichida to'liq ta'minlash;

d) aholi daromadlarining **narx-navo bilan mutanosibligini** ta'minlash, buning uchun zarur bo'lgan ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish;

e) puxta ishlangan **qonunlarga asoslangan holda** davlat suvereniteti (daxlsizligi)ni ta'minlash, birinchi navbatda, xalq

manfaatlarini himoya qiladigan **teng huquqli, o'zaro foydali tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish**;

d) ichki iste'mol bozori himoyasini ta'minlash, davr talabiga javob beradigan **moliya-pul siyosatini ishlab chiqish, uni takomillashtirib borish** va hokazo.

Prezidentimiz I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» degan asarida «**Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir**»<sup>1</sup> degan edi.

**Respublikada bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish** ularning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni taqozo etadi.

**Birinci bosqich** butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Bu bosqichda yangi tuzum uchun ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo'yildi. **Birinci bosqichda:**

1. O'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish.

2. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, shuningdek, **yengil sanoat, qurilish va transport sohasidagi ayrim korxonalarni aksiyadorlik asosida qayta qurish** hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.

3. **Moliyaviy ahvolni** barqarorlashtirish, moliya va soliq siyosati; kredit-pul siyosati, narx-navo bo'yicha va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat, ularni rivojlantirish va takomillashtirish kabi juda katta ishlar amalga oshirildi.

<sup>1</sup> I.A. Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». – T.: O'zbekiston, 2009-yil, 179-bet.



Respublikada jamiyatni isloh qilishning **ikkinchi bosqichining** vazifalari **quyidagilar deb belgilandi:**

1. Davlat mulklarini xususiylashtirish sohasidagi boshlangan ishni oxiriga yetkazish.

2. Ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, korxonalar, tarmoqlarning ham, umuman, davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish.

3. Milliy valuta – so'mni yanada mustahkamlash.

4. Iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifati va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish va hokazo.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun 1995-yil burilish yili bo'ldi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi deyarli to'xtatildi. Bir yilda u atigi 0,9 foizga teng bo'ldi va 1996-yildan boshlab hozirgacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning barqaror ijobiy dinamikasi davom etmoqda: 1996-yilda uning o'sishi 1,7 foizni, 1997-yilda 5,5 foizni tashkil etdi. Bino-barin, mamlakatimiz 1998-yil natijalari bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmining 1990-yil darajasiga erishishda hal qiluvchi qadam tashladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha bu darajaga mamlakatimiz 1995-yilda to'la erishgan edi. 2012-yilda mamlakatimiz YAIM 8,2 %, 2013-yil 8% ni tashkil qildi.

Shunday qilib, hali o'tish davrining o'zidayoq O'zbekistonda ko'p ukladli, aralash, ko'p tarmoqli, tashqi beqarorlashtiruvchi omillardan holi milliy iqtisodiyotining shakllanishi, asosan, tugallandi<sup>1</sup>.

**Tayanch iboralar:**

- *milliy iqtisodiyot;*
- *jahon iqtisodiyoti;*
- *iqtisodiy faoliyat;*
- *davlat mustaqilligi;*

<sup>1</sup> N. To'xliyev. «Taraqqiyotning o'zbek modeli». – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2012-y. 140-bet.



- siyosiy mustaqillik;
- iqtisodiy mustaqillik;
- iqtisodiy siyosat;
- unitar davlat;
- suveren demokratik respublika;
- ma'muriy-hududiy birliklar;
- milliy va jahon iqtisodiyotining shakllanish bosqichlari;
- boshqaruv tizimi.

### **Nazorat savollari**

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Jahon iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?
3. «Milliy» so'zining ma'nosi nima?
4. Iqtisodiyotning uch xil tushunchasi xususida nima deya olasiz?
5. Milliy iqtisodiyotning shakllanish jarayoni qanday?
6. Milliy iqtisodiyotning xarakterli belgilari va shart-sharoitlari qaysilar?
7. Milliy iqtisodiyotning kapitalistik, sotsialistik, postsotsialistik va kam rivojlangan mamlakatlardagi kapitalistik shakllari qaysilar?
8. Iqtisodiy faoliyat mazmuni qanday?
9. Jahon iqtisodiyotining shakllanish bosqichlari qanday?
10. Milliy iqtisodiyot kursining predmeti va uni boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi nimada?
11. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari nimada?
12. Unitar davlat deganda nimani tushunasiz?
13. O'zbekiston suveren demokratik respublika ekanligining ma'nosi nima?
14. Bozor munosabatlariga o'tishning o'zbek modeli, uning mohiyati va ahamiyati nimada?
15. Davlatning iqtisodiy siyosati va uning asoslari to'g'risida nimalar deya olasiz?
16. Bozor munosabatlariga o'tishning qanday bosqichlarini bilasiz?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston». 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston». 2009.
3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: O'zbekiston. 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2013-yil 19-yanvar.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: 7-dekabr, 2012-yil.

6. Азимов Р.С. «Узбекская модель» реформирования и модернизации экономики, ее эффективность в преодолении последствий мирового финансово-экономического кризиса. – Т.: «Узбекистан». 2009.

7. Yusupov A.T., Xodiyev B.Y. Iqtisodiyot o'zbekcha-ruscha qisqacha lug'at. – T.: «O'zbekiston». 2012.

8. To'xliyev N. va boshqalar. «O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari». – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.

9. To'xliyev N. «Taraqqiyotning o'zbek modeli». – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2012.

10. Shodiyev R.H., Maxmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti. T. 2005.

11. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T. 2004.

12. Umarov T.A. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyot rivojlani-shining nazariy jihatlar. T: Avtoreferat. 2010.

13. Almanax. O'zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2011.

## II bob. MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR

*Reja:*

2.1. Milliy iqtisodiyotning faoliyatini ta'minlovchi omillar.


2.2. Iqtisodiyotning shakllari va rivojlanishini belgilaydigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi.

2.3. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari.

### 2.1. Milliy iqtisodiyotning faoliyatini ta'minlovchi omillar

Ma'lum bir davlatning iqtisodiy faoliyatini chegaralab, uni jahon hamjamiyatidan ajratib olish mumkin emas. Shuning uchun ham milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiy tizimining bir bo'lagi sifatida qaralishi lozim.

Demak, milliy iqtisodiyotning xususiyatlari nafaqat ichki, balki tashqi omillarga ham bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotga ta'sir etadigan omillar ikki guruhga bo'linadi: **tashqi va ichki**. Ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir (1-chizma).



1-chizma. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar.

Jahon hamjamiyatining **iqtisodiy omillariga**, eng avvalo, u yoki bu davlatning milliy iqtisodiyotining ixtisoslik yo'nalishini belgilaydigan xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) kiradi.

XMT – ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shakli.

XMT natijasida mehnat unumdorligi o'sishi, iqtisodiy tumanlar shakllanishi ro'y beradi.

XMTda ishtirok etish jahonning barcha davlatlari uchun qo'shimcha iqtisodiy samara berib, o'z ehtiyojlarini eng kam xarajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini beradi.

Shunday qilib, XMT – bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimi. U alohida davlatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish ixtisoslashuviga asoslanadi.

**Siyosiy omillar** har xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, u yoki bu mahsulot yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatishni ta'qiqlab qo'yish; embargo e'lon qilish, u yoki bu savdo-siyosiy uyushmalariga qabul qilish yoki qilmaslik; diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi yoki buzilishi; u yoki bu harbiy-siyosiy tashkilotlarga kirish, u yoki bu davlat bilan borayotgan urush holati va hokazo.

Jahon hamjamiyatida namoyon bo'ladigan **demografik omillar**, eng avvalo, ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ishchi kuchlarining migratsiyasi (bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi) bilan bog'liqdir. Bunday holat qaysidir davlat uchun yaxshi ko'rsatkich bo'lishi va uning aksi – qaysidir davlat uchun salbiy bo'lishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotga **madaniy omillar** ham kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, umummadaniyati kuchli bo'lgan davlatlarning boshqa davlat madaniyatiga ta'siri (bosqinchiligi – ekspansiya) tufayli uning iqtisodining pasayishiga (foyda keltirib turgan madaniyat va san'at tarmoqlari daromadlarini pasayib ketishi tufayli) olib keladi.

Milliy iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi **ichki omillar** (2-chizma).

**Shaxsiy-insoniy omil** – bu mehnat qilish qobiliyatidan iborat bo'lmish **ishchi kuchi** va uning faoliyat qilishidir. Shaxsiy insoniy omil mehnatga layoqatli aholi, uning jismoniy va aqliy qobiliyati, bilim hamda saviyasi, malaka va mahoratidir. 2011-yilda O'zbekistonda mazkur mehnatga layoqatli aholi soni 17,2 mln. kishini tashkil qiladi.

**Moddiy ashyoviy omil** – bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy shakldagi vositalar. Uning tarkibiga tabiiy boyliklar, ulardan olingan xomashyolar, mashina-mexanizm, asbob-uskuna va qurilmagan inshootlar kiradi. Ular ishlab chi-


qarish vosita (fondlari)lari deb ham yuritiladi. Ular ma'lum narxda hisoblanib, pulga chaqilgan shakli, ya'ni qiymat-pul shakli MDH mamlakatlarida **ishlab chiqarish fondlari** nomini olgan. Moddiy ashyoviy-omillar tarkiban uch qismdan iborat (3-chizma).

Moddiy-ashyoviy omil bilan shaxsiy-insoniy omil birikib mehnat jarayoni, ya'ni ishlab chiqarish yuzaga keladi. Buning natijasida turli-tuman mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi.



2-chizma. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar.

**Tadbirkorlik qobiliyati** oddiy ishchi kuchidan farq qilib, ishlab chiqarishda boshqarishdan iborat bo'lgan alohida vazifani bajaradi. U tabiatan ishbilarmonlik qobiliyati bo'lib, alohida bir iste'dod, yuksak bilim, maxsus tayyorgarlik va mas'uliyat mujassami, demakdir.



3-chizma. Ichki omillarning o'zaro ta'siri.

Tadbirkorlik qobiliyati moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ishchi kuchining samarali birikishini, iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natija olinishini ta'minlaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishida ichki va tashqi omillarning ahamiyati ortib bormoqda.

**Ichki omillar** orasida tabiiy va mehnat resurslarining miqdori hamda sifati, asosiy kapitalning hajmi, ilmiy texnika va innovatsion taraqqiyot hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

**Tashqi omillar** orasida jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuv kuchayishining ahamiyati ortmoqda.

Milliy iqtisodiyotga **globallashuvning** ta'siri ziddiyatli kechadi. Bu jarayonda, **bir tomondan** xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, mamlakatga arzon tovarlarning kirib kelishi ko'payadi, natijada milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida iqtisodiy rivojlanishga to'siq paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, tashqaridan zamonaviy texnologiya, investitsiya, innovatsiya va kreditlar kirib keladi.

Ishlab chiqarishni **modernizatsiyalash va rekonstruksiya** qilish, innovatsion texnologiyalarga o'tish imkoniyatlari kengayadi, natijada iqtisodiy rivojlanish ta'minlanadi (bu masalalarga qo'llanmaning keyingi bo'limlarida alohida to'xtalib o'tamiz).

## 2.2. Iqtisodiyotning shakllari va rivojlanishini belgilaydigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

**Milliy iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari.** Insoniyat tarixi xo'jalik yuritishning turli xil shakllarini biladi.

**An'anaviy yoki natural iqtisodiy tizim.** Bu o'ta ko'hna va qoloq iqtisodiy tizim, uzoq vaqtgacha o'zgarmay qolgan uchun arxaik (eski) tizim deb baholanadi. Bu tizimda qo'l mehnati hukmron, ishlab chiqarish natural xarakterga ega: mehnat unumdorligi va turmush darajasi g'oyat past. Iqtisodiy aloqalar xo'jalikning o'z ichida yuz beradi. Boshqalar bilan oldi-sotdi munosabatlari bo'lmaydi. Bu tabiatan berk iqtisodiyot davlat siyosati ta'siridan holi bo'ladi. An'anaviy iqtisodiy tizimning alomatlarini hali sivilizatsiya girdobiga tortilmagan, urug'-aymoq-

chilik sharoitida yashayotgan ba'zi bir Afrika xalqlarida uchray turadi.

**Bozor iqtisodiyoti tizimi.** Bu bozordagi talabni qondirishga qaratilgan, bozor orqali hamkorlikni taqozo etuvchi erkin va demokratik tizim. U xususiy mulkchilik, bozor uchun ishlash, cheklanmagan iqtisodiy tanlov, naf ko'rish va raqobat kabi tamoyillarga asoslanadi. Bozor tizimida daromad topish chegaralanmaydi, boy bo'lish ta'qiqlanmaydi, o'ziga to'q, farovon yashovchi odamlarning moddiy tengsizligi mavjud bo'ladi. Bozor tizimi asosida tovar ishlab chiqarish va pul yotadi. Bozor tizimi dunyoning barcha mamlakatlarida bor, lekin uning rivojlanish darajasi har xil.

**Totalitar-rejali yoki buyruqbozlik-ma'muriy iqtisodiyot tizimi.** Bu to'la-to'kis davlatlashtirilgan iqtisodiy tizimdir. Uning asosi davlat mulki hisoblanadi, ishlab chiqarish davlatning reja-topshiriqlariga binoan yurgiziladi, nima ishlab chiqarish masalasi davlatning buyrug'iga binoan hal qilinadi. Boy bo'lish ta'qiqlanadi, kambag'allarning tengligi hukm suradi. Bunday iqtisodiy tizim sobiq sotsialistik mamlakatlarda bo'lgan.

**Aralash iqtisodiy tizim.** Bu har xil darajada bozor va nobozor aloqa munosabatlarining qorishmasidan iborat tizimdir. Bu tizimda bozor vositalari bilan birgalikda rejalashtirish, hamkorlik va saxovatga asoslangan iqtisodiy aloqalar mavjud bo'ladi. Iqtisodiyot yuksak texnologiya g'oyat yuqori mehnat unumdorligiga asoslanadi, bu esa moddiy to'kinchilikni ta'minlaydi. Aholining ko'pchiligi mulk sohibiga aylanadi.

**Iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish imkoniyatini beradigan usullar.** Xalqaro bozorda raqobatbardoshlik afzalligining ko'rsatkichi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholaydigan muhim ko'rsatkichdir. Milliy iqtisodiyotda u yillik milliy daromad hajmini yil davomida sarflangan barcha resurslarning qiymatiga bo'lgan nisbatidir.

**Mamlakatning boyligi quyidagi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan baholanadi:**

1. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YIM).

2. Tabiiy resurlar qiymati.

3. Mehnat resurslarining qiymati.

4. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va turlari korxonalarining qiymati.

Mamlakat ixtiyoridagi mavjud resurlar yuqoridagi ko'rsatilgan usullar bilan aniqlanishi mumkin. Milliy iqtisodiyot faoliyati har xil makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Mahsulot qanchalik ko'p ishlab chiqarilsa, mamlakat shunchalik boy bo'ladi, iqtisodiyot samarali faoliyat ko'rsatadi va hokazo. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot xilma-xildir.

Uning soni va xillari millionlar bilan o'lchanadi hamda xilma-xil o'lchov birliklari bilan ifodalanadi (dona, metr, tonna, kilovat soat va hokazo) ularni bir-biri bilan taqqoslab yoki qo'shib bo'lmaydi.

Shuning uchun ularning hammasini yagona asosga keltiradigan, yagona o'lchov birligi zarur bo'ladi. Ana shunday ko'rsatkich bo'lib, amaliyotda qiymat ko'rsatkichlari qo'llaniladi (so'm, dollar, yevro, rubl, funt sterling va hokazo).

Makroiqtisodiyotda quyidagi ko'rsatkichlar yordamida iqtisodiyotning rivojlanishi yoki pasayishi, uning yutuq va kamchiliklari aniqlanadi, o'lchanadi:

- «Yalpi milliy mahsulot (YMM).
- «Yalpi ichki mahsulot (YIM).
- «Inflatsiya.
- «Davlat budjeti taqchilligi.
- «Deflator-inflatsiyaning haqiqiy darajasini ifodalovchi.

$$\text{Ko'rsatkich} = \frac{\text{YIMning amaldagi baholarida}}{\text{YIM solishtirma baholarida}}$$

• «Iste'mol baholar indeksi.

• «Ishsizlik darajasi va ishsizlik soni, aholining ish bilan bandlik darajasi.

• «Aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, uning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Ishlab chiqarishning natijalarini ifodalaydigan makroiqtisodiy ko'rsatkich bu **YALPI MILLIY MAHSULOT (YMM)** hisob-



lanadi. YMM bir yil ichida milliy xo'jalikda yaratilgan, taqsimlangan va foydalaniladigan pirovard yakuniy mahsulotlar qiymatidir.

YMM mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar yig'indisining **pul shaklidagi ifodasidir** (mamlakatda yoki uning tashqarisidagidan qat'i nazar). Milliy xo'jalikda yaratiladigan juda katta har xil mahsulot va xizmatlar iste'mol va investitsiya tovarlariga yoki ishlab chiqarish vositalari mahsulotlariga bo'linadi.

Bu ko'rsatkich, ya'ni YMM ko'rsatkichi 1987-yildan BMT metodologiyasi bo'yicha hisoblana boshlandi.

$$YMM = YIM +$$

Shu mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari
---

-

Xorijiy investorlar va ishchilarni shu mamlakatdan olgan foyda va daromadlari
---

Ma'lumki, har xil davlatlarda tashqi savdo saldosini (qoldig'i) bir xil emas va u YMM tarkibiga qo'shiladi. Bu, o'z navbatida, YMM hajmini o'zgartirib yuboradi.

Natijada YMM ko'rsatkichi taqqoslab bo'lmaydigan holga kelib qoladi.

Shuning uchun mamlakat iqtisodining rivojlanish darajasini aniq ifodalaydigan ko'rsatkich bo'lib, **yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi (YIM)** hisoblanadi.

YIM – bu mamlakatning iqtisodiy faoliyatini umumlashtirib ifodalovchi ko'rsatkichdir. U mazkur **mamlakat hududida pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatiga tengdir.**

YIM jami ijtimoiy mahsulot – YIM (C+V+M) dan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat.

YIM – bu iste'molga tayyor hayotiy ne'matlarni bildiradi. Shu sababli uning tarkibiga qayta ishlash yoki qaytadan sotishga mo'ljallangan mahsulotlar kirmaydi.

Masalan, xomashyo, material, yonilg'i, energiya, urug'lik, ozuqa, transport xizmati, ulgurji savdo, tijorat, moliyaviy

xizmatlar va boshqalar YIM qiymatiga qo'shilmaydi. Aks holda, YIM ham takroriy hisoblardan holi bo'lmay edi.

YIM bu ichki mahsulot. Chunki u mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha rezidentlar (qaysi millat va qaysi davlat fuqarosiga mansub ekanligidan qat'i nazar) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YIM natura va pulda hisoblanadi. Naturada ayrim mahsulotlarning hajmi, miqdori va soni aniqlanadi. Masalan, ko'mir, paxta, don, sement kabilarning miqdori tonnada, taxta, gaz esa kubometrda aniqlanadi.

Mahsulotlar xilma-xil bo'lganligidan ularni yagona moddiy naturada aniqlab bo'lmaydi. Masalan, o'qitish yoki davolash xizmatini tonna, m, m<sup>3</sup> orqali o'lchab bo'lmaydi. Shu sababli ularning ko'lamini (hajmi, miqdori, soni) necha pullik xizmat ko'rsatilganiga qarab aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi yaratilgan mahsulotlar ( $M$ ) va xizmatlar miqdorini ( $X$ ) ularning bozor narxiga ( $P$ ) ko'paytmasidan iborat:

$$YIM = \sum MP + \sum XP.$$

Mazkur mavzuni yakunlar ekanmiz quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. YIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati orta boradi. Oxirgi 40–50 yil ichida jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishi moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan sohani tubdan o'zgartirib yubormoqda. Moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan sohaning chegarasi kengayib, ortib bormoqda. FTT yangi texnologiyalarni yaratadigan bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib bormoqda.

2. 80-yillar oxiridan boshlab AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarda axborot ishlab chiqarish keng rivoj topmoqda. U kishilarning mehnat faoliyatini uchinchi kuchli sohasiga aylanib qoldi. AQSH milliy iqtisodiyotida yangi tarmoqning ulushi YIM hajmida shu davr ichida 50 % dan oshgan.

3. O'zbekiston iqtisodiyotida ham xizmat ko'rsatadigan sohalarning ulushi ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

### 2.3. Raqobatbardoshlilik ko'rsatkichlari

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlilik darajasi uning tabiiy resurslar salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi) ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

**Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliliği** — mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyatidir. Iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozorlarda sotish qobiliyatiga aytiladi.

**Raqobatbardoshlilik darajasi quyidagi besh muhim omilga tayanadi:**

**1. Sanoat rivojlanganligi.** Sanoat mahsulotlarini aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, sanoat mahsulotlari ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eksport miqdori, umumiy hajmi. Ushbu ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent viloyati, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari bo'yicha hududlarga nisbatan ancha yuqoridir.

**2. Qishloq xo'jaligi rivoji.** Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, 1 ga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerga to'g'ri keladigan suv miqdori, (ming m.kub), qishloq xo'jalik yerlari maydoni (ming ga), fermerlar soni (10 ming kishiga).

**3. Xizmat ko'rsatish sektori rivoji.** Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmatlar, hududning pullik xizmatlari ulushi, pullik xizmatlarning umumiy hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan savdo aylanmasi, hududning umumiy savdo aylanmasi ulushi.

**4. Hududlarning investitsiya faolligi.** Umumiy investitsiya hajmida hududning investitsiya ulushi, asosiy kapitalidagi

investitsiya ulushi (mlrd so'm), xorijiy investitsiya (mln so'm), asosiy fondlar harakati (mlrd so'm), nodavlat sektordagi qurilish ishlari (mlrd so'm).

**5. Inson kapitali.** Oliy o'quv yurtlarida o'qiydigan talabalar soni (10 ming kishi), OO'Y larda tayyorlanadigan mutaxassislar soni (10 ming kishi), ilmiy xodimlar (10 ming kishi), shahar aholisining zichligi (1000 kishi kv.km).

Bu o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'zaro jiddiy farq qilishi mumkin. Bu bozorlarda ichki va tashqi muhitni tashkil etuvchi omillarning turlicha ekanligi, ya'ni to'lovga qodir talab hajmi, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasidagi farq, olib borilayotgan tashqi savdo siyosati va hokazolar bilan belgilanadi.

*1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2000-yil	2011-yil
Yalpi ichki mahsulot	mln dollar	35,277	99,712
Sanoatning YIMdagi ulushi	foiz	14,2	24,0
Qishliq xo'jaligining YIMdagi ulushi	foiz	30,1	17,6
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd so'm	1387	17451
Qurilish mahsulotlari	foiz	6,0	6,1
Xizmatlar	foiz	37,2	44,5

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent – 2012.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillarida, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish

va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslikka erishdi.

1-jadval ma'lumotlarida xizmatlar sohasi 2000-yil 37,2% ni tashkil qilgani holda 2011-yil 44,5% bo'lgan.

Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2005-yildan e'tiboran yiliga 7–9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti «O'zbekiston oxirgi yetti yil davomida dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida o'rtacha 8–8,5 foiz iqtisodiy o'sishga erishayotgani mamlakatimiz salohiyati barqaror rivojlanib borayotganining yaqqol dalilidir»<sup>1</sup>, – deb ta'kidlagan edilar.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi rivojlantirishining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, hududlarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi. Hududlarning rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

2-jadval ma'lumotlarida 2013-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8% ni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8%, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 6,8% ni, xizmatlar hajmi 13,5% ga, chakana savdo tovar aylanmasi 14,8% ga o'sdi.

Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3% miqdorida profitsit bilan ijro etildi.

1. Aholi farovonligi darajasi.
2. Raqobatbardoshlilik darajasi.
3. Infrastrukturaning rivojlanish darajasi.

Mazkur ko'rsatkich 0 dan 1 gacha bo'lib, 3 guruh hududlarga ajratiladi:

---

<sup>1</sup> Prezident I. Karimovning O'zbekiston mustaqilligining yigirma bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi, 2012-yil 1-sentabr.

O'zbekiston Respublikasining 2013-yilda rivojlantirishning  
makroiqtisodiy  
ko'rsatkichlari (oldingi yilga nisbatan foizda)\*

Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil
Yalpi ichki mahsulot (YIM)	108,2	108,0
Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	107,7	108,8
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi	107,0	106,8
Kapital qo'yilmalar hajmi	111,6	109,3
Chakana savdo aylanmasi	113,9	114,8
Xizmat ko'rsatish hajmi	114,2	113,5

\*«Xalq so'zi» gazetasi, 2013-yil, 19-yanvar.

1-guruh – raqobatbardoshlikning yuqori ko'rsatkichi –  $0,66 \leq I \leq 1$ ;

2-guruh – o'rtacha ko'rsatkich –  $0,33 \leq I \leq 0,65$ ;

3-guruh – raqobatbardosh bo'lmagan hudud –  $0,00 \leq I \leq 0,32^1$ ;

**Mamlakatning raqobatbardoshlik darajasi quyidagi omillar bilan bilan ifodalanadi:**

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM, YMM, MD, YHM.

2. Ishsizlik.

3. O'rtacha oylik ish haqi.

4. Aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi.

5. Shahar aholisi zichligi.

6. Ming kishiga to'g'ri keladigan kasalxona o'rni.

**Tayanch iboralar:**

- milliy iqtisodiyotni ta'minlovchi tashqi omillar;

<sup>1</sup> Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение». № 5–6, 2009.

- milliy iqtisodiyotni ta'minlovchi ichki omillar;
- bozor iqtisodiyoti tizimi;
- buyruqbozlik-ma'muriy iqtisodiyot tizimi;
- yalpi milliy mahsulot;
- yalpi ichki mahsulot;
- inflatsiya;
- deflator;
- iste'mol baholar indeksi.

### **Nazorat savollari**

1. Milliy iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga qanday omillar kiradi?
2. Milliy iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi ichki omillarga qanday omillar kiradi?
3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
4. YMM, inflatsiya, davlat budjeti taqchilligi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Yalpi ichki mahsulot to'g'risida nimalar deya olasiz? Bu ko'rsatkich nima uchun kerak?
6. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari qaysilar?
7. Raqobatbardoshlik darajasini qaysi omillar ifodalaydi?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston». 2009-yil 11-bet.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqilligining yigirma bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. «Xalq so'zi». 2012-yil 1-sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi 1990–2010-yillar asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari, hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar. – T.: «O'zbekiston». 2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: 7-dekabr 2012-yil.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

6. Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение». № 5–6, 2009.
7. Yusupov A.T., Xodiyev B.Y. Iqtisodiyot o'zbekcha-ruscha qisqacha lug'ati. – T.: «O'zbekiston». 2012.
8. To'xliyev N. «Taraqqiyotning o'zbek modeli». – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2012.
9. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. – T.: 2004.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi 2000–2010-yil ma'lumotlari asosida.
11. Almanax. O'zbekiston 2011-yil. Iqtisodiy izlanishlar markazi. – T.: 2011.



### III bob. MILLIY BOYLIK, AHOLI VA MEHNAT RESURSLARI

---

#### *Reja:*

3.1. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibi.

3.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish asoslari.

#### 3.1. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibi

**Boylik** degan tushuncha iqtisodiy nazariyada keng qo'llaniladi. Birinchi marta boylik degan tushunchani angliyalik iqtisodchi A.Smit kiritgan. U yaratilgan mahsulotlarning jamg'arilishini **boylik** deb atagan va uni ishlab chiqaruvchilar mehnati oshiradi deb uqtirgan. 1664-yilda ingliz olimi Uilyam Petti milliy boylikni hisoblagan olimdir. U birinchi marta boylikning **otasi mehnat, onasi esa yerdir**, — degan.

Hozirgi zamon nazariyotchilari ham yaratilgan mahsulot ishlab chiqarish resursiga aylanib, boylik hosil etishini e'tirof etadilar. Milliy boylik yoki ijtimoiy boylik umumiy iqtisodiy kategoriyadir. Ishlab chiqarish bor joyda milliy boylik vujudga keladi.

**Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida yaratilgan va jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual boyliklar hamda tabiat inoqlaridan iboratdir.**

Milliy boylik o'z ichiga moddiy va nomoddiy ne'matlarni, yaratilgan san'at asarlarining intellektual salohiyatini hamda barcha tabiat resurslari va boyliklarini oladi.

Milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

**Moddiy buyumlashgan boylik** ishlab chiqarishning unumli mehnatining natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini

**jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.** Boylikning bir qismi har yili ishdan chiqarilib va qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Milliy boylik mehnat natijasida yaratiladi va ko'payib boradi.

Milliy boylikning **inson mehnati bilan yaratilgan qismi**, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- **ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar;**
- **noishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar.** Asosiy fondlarning bu turiga davlatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy xarakterdagi obyektlar kiradi;
- **aylanma fondlar.** Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlaridan iborat bo'lib, asosiy fondlarning taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi;
- **tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi.** Ular ishlab chiqarish bosqichida mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potensial tayyor mahsulot hisoblanadi;
- **moddiy zaxiralar va ehtiyojlar.** Bunga muomala bosqichidagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zaxiralar, davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari kiradi. **Moddiy zaxiralar** iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi. **Davlat ehtiyojlariga** oltin zaxiralari, sug'urta va mudofaa ehtiyojlari uchun zarur zaxiralar kiradi;
- aholining uy, tomorqa va yordamchi **xo'jalikda jamg'arilgan mol-mulki.** Bunga uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik **tarkibiy qismlarining** mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. **Asosan, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi.**

Moddiy buyumlashgan **boylik o'sishining asosiy omillari** bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mehnat unumdorligining o‘shishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadda jamg‘arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o‘shishi jamiyat moddiy qiymatliklari ko‘payishning asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur‘atlar bilan rivojlansa madaniyat, san‘at, fan kabi nomoddiy sohalar ham o‘shib va takomillashib boradi.

**Milliy boylik** nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi, balki uning **bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi.**

Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat olib borishi va rivojlanishi uchun, shuningdek, bevosita aholining turmush darajasini ta‘minlash va oshirib borish uchun zarur bo‘ladi. Bunday boyliklarga **ta‘lim, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, sport** sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qiymatliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyotlar va san‘at asarlari alohida o‘rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san‘atning rivojlanish darajasi, jamiyat a‘zolarining to‘plagan **ilmiy bilimlari va intellektual darajasi**, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va sportning rivojlanish darajasi o‘z ifodasini topadi.

**Intellektual mulk** deganda mualliflar intellektual faoliyatining nomoddiy haq-huquqlari va qonun yo‘li bilan mustahkamlangan vaqtincha yoki individuallashtirish vositalari tushuniladi. Intellektual mulk huquqini belgilovchi qonunchilik mualliflarining individual va ijodiy faoliyatining ayrim shakllaridan foydalanishning monopoliyasini belgilaydi va shu yo‘l bilan boshqalar foydalanishida muallifdan ruxsat olishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010-yil 20-dekabrda PQ-1444-sonli qaroriga mu-

vofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga innovatsiyaviy texnologiyalar hamda ilmiy texnikaviy ishlanmalarni keng tatbiq etishni rag'batlantirishni kuchaytirish muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining **intellektual mulk agentligi** tashkil qilindi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi **Intellektual mulk agentligining** asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish, ularni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, ixtirolar sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda boshqa intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish intellektual mulk obyektlari huquqiy egalarning huquqlarini himoya qilish;

- ixtirolar, foydali modellar sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk obyektlari ekspertizasini o'tkazish hamda ularni davlat ro'yxatiga olish;

- innovatsiya texnologiyalari hamda ixtirolarni, ilmiy-texnikaviy va sanoat ishlanmalarini badiiy-konstruktorlik hamda ijodiy ishlarning boshqa turlarini ishlab chiqishga har tomonlama ko'maklashish;

- intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy boylikning boshqa qismi **tabiiy boyliklar** ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. **Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyat rivojiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi.** Foydali qazilma boyliklari, o'rmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

**Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib,** shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil 22-23-son, 227-modda.

ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi shuki, **tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.**

O'zbekiston yer resurslari va yerosti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Chunki yer har qanday jamiyat va mamlakatning beqiyos boyligidir. Yer bu — qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi. O'zbekiston hududi doirasida shakllantiruvchi yillik suv oqimi 10 kub km.ga yaqin. Boshqa mamlakatlar hududidan oqib keluvchi suv oqimi 89 kub km.ni tashkil qiladi. O'zbekistonda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan.

O'zbekiston hududida **oltin, mis, uran, kumush, rux, volfram, molibden**, aluminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliyli va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'tga chidamli xomashyolar, bentonit, marmar va boshqa bezak toshlari topilgan. Asosiy yoqilg'i energetika **resurslari** neft, gaz ko'mir konlari ochilgan. Rivojlangan elektroenergetika tarmoqlari mavjud.

O'zbekistonda 100 ga yaqin mineral-xomashyo turlarining mavjudligi respublika iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini, ayniqsa gaz, oltin ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metallurgiya, qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda qurilish materiallarining 400 dan ortiq konlari mavjud.

Shu kungacha respublikada hammasi bo'lib **mineral xomashyo turlaridan 70 ga yaqini ishlab chiqarishga jalb etilgan.**

O'zbekistonda 4000 tonnadan ortiqroq katta zaxiraga ega bo'lgan 3 ta uran koni aniqlangan. Respublikada zaxirasi **2 trilion m<sup>3</sup> gaz, 2 mlrd tonna ko'mir**, ko'p miqdordagi mis konlari topilgan. Hozirgi davrga kelib aniqlangan milliy boylik manbalari ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, tabiiy gaz, qo'rg'oshin, rux, ko'mir va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlabgina qolmay, balki ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini ham bermoqda.

O'zbekistonning yerosti boyliklari paxta dalalarining hosildorligini oshirishga muhim hissa qo'shadi. Turon yonuvchi

slanetslaridan mahalliy slanets konlari bazasida o'g'it sifatida ishlatiladigan va paxta hosildorligini oshirishning muhim omili bo'lgan smola olish masalasi hal qilingan. Ko'p miqdorda yangi qurilish materiallari, **masalan**, keramzit ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan betonitlar, Toshkent metropoliteni uchun zarur bezak toshlari va boshqalar ishlab chiqarilishi tashkil qilingan.

Mamlakatimizda topilgan konlarning zaxiralari nafaqat ichki ehtiyojlarni to'la qondirishga qodir, balki energiya manbalarini tashqariga eksport qilish imkonini ham beradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan baquvvat **iqtisodiyotning asosi yaratildi**. O'nlab yangi tarmoq va sohalarga asos solindi, ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolgan minglab ishlab chiqarish korxonalari butunlay qaytadan zamonaviy, yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlandi. Hamma sohada iqtisodiyotni liberalizatsiyalash va modernizatsiyalash ketmoqda.

### 3.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish asoslari

Milliy boylik jamiyatning iqtisodiy kuch-quvvatini ko'rsatadi va iqtisodiy potensialni tashkil etadi. **Jamiyatning ishlab chiqara bilish qobiliyati iqtisodiy potensial deb ataladi**. Bu qobiliyat ishlab chiqarish resurslari miqdori va sifati bilan belgilanadi, yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi. Shu sababli uning muhim ko'rsatkichi bo'lib, **yalpi milliy mahsulot** ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu mahsulotni ishlab chiqarish esa milliy boylikning hajmi va strukturasi, undan yaxshi foydalanilishiga bog'liqdir. Shunday ekan, iqtisodiy potensial yuksalgan sari jamiyat tobora boyib boradi.

Iqtisodiy potensial jamiyat a'zolarining ehtiyojini qondirish uchun ishlatiladi. Agar ehtiyojlar to'laroq qondirilsa, iqtisodiy potensial samarali ishlatilgan bo'ladi. **Iqtisodiy potensialning to'rt xil unsuri** (elementi) mavjud:

1. Mehnat potentsiali.
2. Ilm-ma'rifat potentsiali.
3. Texnika-texnologiya potentsiali.

#### 4. Tabiiy potensial.

**Mehnat potentsiali** – jamiyatdagi mehnatga layoqatli, bilim va malaka, ishlab chiqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir. Mehnat potentsialining miqdoriy o'lchami ishga yaroqli kishilar soni bo'lib, uning o'sib borishi aholining ko'payishidan kelib chiqadi. Sifat jihatidan mehnat potentsiali mazkur aholining bilim saviyasi, kasbiy malakasi va tajribasini bildiradi. Mehnat potentsiali ishlab chiqarish orqali Milliy boylikni oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

Inson resurslari – bular kishilar, ular faqat moddiy ne'matlar yaratib qolmay, shu bilan birga ularni iste'mol ham qiladilar. Kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlari jihatidan bir xil bo'la olmaydilar. Bunga ularning jinsi, yoshi, sog'ligi, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi va boshqa ijtimoiy, ruhiy-fiziologik sifatlari sabab bo'ladi, shuning uchun bir kishi ikkinchisiga o'xshamaydi.

2014-yil respublika aholisi 31,0 mln kishini tashkil qildi, ulardan mehnatga qobiliyatli aholi soni 17,2 mln.dan ortiqroqdir.

Mehnat resurslari tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirgi paytda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan aholi ham kiritiladi. Mehnat resurslari iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lgan, band bo'lmasa ham mehnat qilishlari mumkin bo'lgan kishilarni qamrab oladi.

Boshqacha aytganda, mehnat resurslari mehnat qilish imkoniyatiga ega haqiqiy va potensial xodimlardir.

Mehnat resurslari shakllanishini o'rganishda ularni yosh guruhlari bo'yicha ko'rib chiqishimiz ham maqsadga muvofiqdir. Kishilarni guruhlarga ajratishda ularning yoshi chegaralarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Bu masalani hal etishda huquqiy asoslangan va amalda mavjudlarini ajratish muhim rol o'ynaydi. Bunda inson organizmining nafaqat biologik xususiyatlari, balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, aholining turmush darajasi, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimining holati, o'rtacha umr davomiyligi va boshqalar ham hisobga olinadi. Shularga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy

nuqtayi nazardan aholining yoshiga ko'ra 6 guruhga bo'lish mumkin:<sup>1</sup>

**1. Bolalar (15 yoshgacha)** – mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo ushbu guruh salmog'i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki bu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resurslari safiga qo'shiladi.

**2. O'smir yoshlar (16–24 yosh)** – mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, ular tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mavjud bo'lib, mehnat faoliyati aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi.

**3. O'rta yoshlilar (25–30 yosh)** – ular o'zi jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'lgan va jamiyatda ma'lum yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki bu tarkibda yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

**4. 31–59 yoshdagi aholi** – ushbu guruhdagi aholi yuksak mehnat salohiyatiga ega bo'lib, hayotiy va ish tajribasining yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko'nikma va malakalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etadilar hamda mehnat jamoasida alohida o'rin egallaydilar. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegarasidagi kishilarning iqtisodiy faollik darajasi boshqalarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori qismida pensiya yoshiga yetgan ayollar hamda mehnat faoliyatini yakunlash taraddudida bo'lgan erkaklar ham mavjud.

<sup>1</sup> Q.X. Abduraxmonov. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: «Mehnat». 2009-yil, 163-bet.



**5. 60 dan 70 yoshgacha bo'lganlar** – bu qatlam vakillari **pensiya yoshiga yetgan** aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi.

Lekin, ularning orasida o'z ish faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar), ular ham butunlay nafaqaga chiqish va mehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'ladilar.

**6. Keksalar (70 va undan katta yosh)** – ularning aksariyati mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga ko'ra, aholi mehnat layoqati bo'yicha uch guruhga ajratiladi (3-jadval).  
Jumladan:

- mehnatga qobiliyatli yoshgacha (0–15 yosh);
- mehnatga qobiliyatli yoshdagi (16–54 yoshli ayollar, 16–59 yoshli erkaklar);
- mehnatga qobiliyatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar).

3-jadval

Aholining yosh bo'yicha tarkibi

Dunyo bo'yicha	%	O'zbekiston bo'yicha	%
15 yoshgacha	29	15 yoshgacha	34
15 yoshdan 65 yoshgacha	64	15 yoshdan 65 yoshgacha	61
65 yoshdan kattalar	7	65 yoshdan kattalar	5

*Manba.* Almanax. O'zbekiston – 2010: iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Ilm-ma'rifat potentsiali** – ilm-ma'rifatga xizmat qiluvchi moddiy va insoniy resurslar, fan erishgan darajadir. Ilm-ma'rifat potentsialini unga sarflangan mablag'lar hamda ilmiy pedagogik kadrlar soni hamda malakasi belgilaydi.

Ilm-ma'rifat rivojiga qanchalik ko'p mablag' sarflansa, uni samarali ishlatish ta'minlansa, iqtisodiy o'sish shunchalik tezlashib, milliy boylik ko'payadi (4-jadval).

## MDH davlatlari aholisining ilm-ma'rifat potentsiali

Mamlakatlar	Mustaqil tadqiqotchilar					1 mln ga to'g'ri keladigan ilmiy tadqiqotchilar
	Jami soni	Fan doktoriari		Fan nomzodlari		
		soni	%	soni	%	
1. Qozog'iston	11,524	1166	27,6	3058	72,4	674
2. Qirg'iziston	2500	251	29,5	600	70,5	490
3. Tojikiston	5617	596	22,2	2090	77,8	814
4. O'zbekiston	26,145	2721	22,8	9231	77,2	954

Manba. [www.google.ru](http://www.google.ru) «Страны в цифрах», 2010 г.

**Texnika-texnologiya potentsiali** – jamiyatdagi mashina-mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnikaviy darajasi va texnologik tizimlar majmuyini o'z ichiga oladi. Bu potentsial fan yutuqlari naqadar yangi texnika va texnologiyada moddiy-lashganligini bildiradi. Texnika-texnologiya darajasi fan taraqqiyotiga monand tushishi shart, ammo buning uchun fan yutuqlarini amaliyotda joriy etishni ta'minlovchi iqtisodiy vositalar amal qilishini talab qiladi. Agar bunday vosita bo'lmasa, fan va texnika potentsiali bir-birini ta'minlamay qo'yadi. Masalan, sobiq SSSRda yer yuzidagi olimlarning 25 foizi ishlagan, lekin fan bilan texnikani bog'lovchi vosita zaifligidan, ulkan mamlakat ishlab chiqarish darajasi bo'yicha dunyoda 68 o'rinni egallagan. Texnika-texnologiya potentsiali ilmiy potentsialdan yuqori bo'lishi ham mumkin, ammo bu hol ishlab chiqarish import qilingan texnika-texnologiyaga asoslanganda yuz berdi. Masalan, Yaponiyada ilm-fan va ta'lim iqtisodiy rivojlanishda asosiy omilga aylandi. Yaponiyada YIM ko'payishining uchdan ikki qismi ushbu omil hisobiga bo'ladi. Bu mamlakatda ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik izlanishlariga (NIOKR) sarf-

lanadigan mablag'lar quyidagicha taqsimlangan: fundamental nazariy tadqiqotlarga 12,6 %, amaliy tadqiqotlarga 24,2 %, ularni ishlab chiqarishga 63,2 %. Bu sohadagi o'rtacha ish haqi mamlakatdagi o'rtacha ish haqidan 2,6–3 marta yuqori.<sup>1</sup>

**Tabiiy potensial** – tabiiy resurslar miqdori va sifati, tabiiy sharoit, iqlim, relyef, ob-havo sharoiti. Tabiiy potensial cheklangan va notekis joylashgan bo'ladi. Tabiiy potensialni yer, suv zaxiralari, o'rmon va yerosti boyliklari, suv boyliklari, iqlim qulayliklari tashkil etadi. Ular iqtisodiyotga ko'maklashuvi yoki unga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ammo tabiiy resurslar yaratgan to'siqlarni ilmiy va texnikaviy potensial bartaraf etishi mumkin. Masalan, Yaponiya tabiiy resurslari kamyobligini yuksak texnika-texnologiya potentsiali vositasida ortig'i bilan qoplaydi.

Iqtisodiy potensial unsurlari birgalikda amal qilib, bir-biridagi yetishmovchilikni to'ldira oladi.

Ularning samarali amal qilishi uchun jamiyatdagi iqtisodiy sharoit ulardan to'laroq foydalanish yuzasidan **ham manfaatdorlik, ham javobgarlikni yuzaga keltirishi zarur**. Iqtisodiy potentsialning o'sishini va samarali ishlashini ta'minlovchi kuch – **bu erkin bozor mexanizmidir**.

**Tayanch iboralar:**

- boylik;
- milliy boylik;
- moddiy buyumlashgan boylik;
- nomoddiy boylik;
- tabiiy boylik;
- iqtisodiy potentsial;
- mehnat potentsiali;
- ilm-ma'rifat potentsiali;
- tabiiy potentsial.

**Nazorat savollari**

1. Boylik va milliy boylik tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?
2. Milliy boylik tarkibiga nimalar kiradi?

<sup>1</sup> R.X. Shodiyev, E.R. Maxmudov. Jahon iqtisodiyoti. – T.: 2005-yil. 120-bet.

3. *Moddiy buyumlashgan boylik deganda nimani tushunasiz?*
4. *Nomoddiy boylik tarkibiga nimalar kiradi?*
5. *Tabiiy boylik tarkibiga-chi?*
6. *Iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy boylik o'rtasida qanday bog'liqlik bor?*
7. *Iqtisodiy potensial deganda nimani tushunasiz?*
8. *Iqtisodiy potensial qanday unsurlardan tashkil topgan?*
9. *Mehnat potensialining mohiyati nimada?*
10. *Ilm-ma'rifat potensialining mohiyati nimada?*
11. *Texnika-texnologiya potensialining mohiyati nimada?*
12. *Tabiiy potensialning mohiyati nimada?*

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov I.A.* Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlantirishini ta'minlash — bizning oliy maqsadimiz. — T.: «O'zbekiston». 2009.
2. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari kafolatlari. — T.: «O'zbekiston». 1997-y. 207-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — T.: 2011-yil, 22–23-son.
5. *Abdurahmonov Q.X.* Mehnat iqtisodiyoti. — T.: «Mehnat». 2009.
6. Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение». № 5–6, 2009.
7. *O. Ato-Mirzaev, H. Tuxlijev* Природа, население, экономика. Государственное научное издательство «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси». — T.: 2009.
8. *Yusupov A.T., Xodiyev B.Y.* Iqtisodiyot o'zbekcha-ruscha qisqacha lug'ati. — T.: «O'zbekiston». 2012.
9. *To'xlijev N. va boshqalar.* O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. — T.: UzME 2010-y. 280-bet.
10. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot — T.: 2004.
11. *Shodiyev R.X, Maxmudov E.R.* Jahon iqtisodiyoti. — T.: 2005.
12. Almanax. O'zbekiston — 2011. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. — T.: 2011.

## IV bob. MODERNIZATSIYA VA MILLIY IQTISODIYOT

---

### **Reja:**

- 4.1. *Innovatsion texnologiyalar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.*
- 4.2. *Modernizatsiyalash – davr talabi.*
- 4.3. *Lokalizatsiya.*
- 4.4. *Diversifikatsiyaning iqtisodiyotdagi o'rni.*

### **4.1. Innovatsion texnologiyalar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli**

Hozirgi vaqtda innovatsiya tushunchasi keng qo'llanilmoqda. **Innovatsiya** inglizcha so'z bo'lib, **yangilik kiritish** degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvdir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida rivojlanib istiqbolli bo'ladi.

Fan va texnikaning muttasil ravishda hamda o'zaro bog'liq holda rivojlanishi tufayli modernizatsiya jarayoni vujudga keladi. Ijtimoiy talab va ehtiyojlarning o'sishi ta'sirida fan va texnika jadallashadi. Bu, o'z navbatida, tabiiy kuchlar va resurslarni insonga xizmat qildirish, ishlab chiqarishda zarur ma'lumotlarni aniq maqsadni ko'zlab qo'llash imkonini beradi.

#### **Fan-texnikani jadallashtirish tufayli:**

- mehnat unumdorligini oshirishga erishiladi;
- asbob-uskunalardan, moddiy resurslardan, xomashyolardan oqilona foydalanish zarurati yangi texnologiyaning vujudga kelishini ta'minlaydi;
- ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish imkoniyatlarini yaratadi;
- texnika taraqqiyoti mutaxassislarning kasbiy mahoratini o'zgartiradi, shuningdek, yangi kasblar vujudga kelishini ta'minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti o'zaro bir-birini taqozo etadigan **ikki shaklda amalga oshiriladi:**

1. Fan va texnikaning an'anaviy negizlarini nisbatan sekinroq hamda qisman takomillashtirishni bildiruvchi **evolutsion shakl**.

2. Prinsipial jihatdan yangi texnika va texnologiyani vujudga keltiradigan, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o'zgartirishga olib keladigan **inqilobiy shakl**.


Iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning hal qiluvchi vositasi fan-texnika taraqqiyoti (FTT)ni butun choralar bilan jadallashtirishni zarurat qilib qo'yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish milliy iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi **robotlashtirishni, kompyuterlashtirishni** keng miqyosda amalga oshirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda «Butun mamlakatni kompyuterlashtirish» indeksi tushunchasi mavjud. Bu soha bo'yicha butun jahon iqtisodiy forumi bo'lib o'tdi. Bu forum dunyo mamlakatlaridagi texnika-texnologiyaning rivojlanishi darajasini ko'rsatib berdi. Indeksning o'rtacha darajasi «0» ga teng deb olindi. Unga ko'ra dunyo mamlakatlarining kompyuterlashish islohotlari quyidagicha (1-diagramma):

1-diagramma. **Kompyuterlashtirish indeksi.**

- 0,5      0      0,5      1,0      1,5      2,0



**Fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi.**

**Fan-texnikani jadallashtirish uchun:**

- ilm-fanni ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish;
- ilmiy xodimlar tarkibini takomillashtirish;
- milliy iqtisodni rivojlantirishda ahamiyatli ixtirolarni ishlab chiqarishga tezroq joriy qilish;
- sanoatning yetakchi tarmoqlarini, eng avvalo, mashinasozlik mahsulotlarining o‘shir sur‘atlari va yangilanishini ta‘minlash;
- yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- inson omilidan **unumli foydalanish, boshqarish va ta‘lim tizimini qayta qurish** kabi tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

**Fan-texnikaning hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlari:**

1. Kompyuterlashtirish.
2. Energetikani, xususan, quyosh energiyasini rivojlantirish.
3. Transport va aloqaning yangi turlarini joriy qilish.
4. Yangi texnika va texnologiyalar (nanotexnologiyalar)ni o‘zlashtirishni jadallashtirish.
5. Yangi konstruksion materiallarni vujudga keltirish hamda foydalanish.
6. Biotexnologiya, chiqitsiz texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.
7. Aloqa atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida kosmosdan keng foydalanish va boshqalar hisoblanadi.

Jahon xalqaro maydonida hamda bozorlarida O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish yuqori texnologik tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni rivojlantirishda yuqori faollik qayd etilmoqda va bu ishlab chiqarishining o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyul-dagi «**Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida**»gi 916-sonli qarorini amalga oshirish, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta‘minlovchi asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq

qilishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi, Fan va texnika rivojlanishini muvofiqlashtirish Qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, Investitsiya va savdo Vazirligi va Texnologiyalar transferi Agentligi asosiy o'rinni egallaydi.

**Investitsion** talab bilan innovatsion taklifni bog'lovchi doimiy ish yurituvchi maydon, innovator va potensial iste'molchi va investorlar to'g'ridan to'g'ri o'zaro aloqa o'rnatish, intellektual mulk bozoriga aylanishida innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishda yarmarka muhim rol o'ynamoqda.

Mamlakatimizdagi 2012-yilgi innovatsiyalar yarmarkasida 500 ga yaqin yangi, noyob, innovatsion ishlanmalar ko'rsatildi: sanoatda (190 ta loyihalar), qishloq xo'jaligi (100 ga yaqin), sog'liqni saqlash va farmatsevtika (90 ga yaqin), informatsion texnologiyalar (50 dan ortiq), fan va ta'lim (30 ga yaqin). Buning o'ziga xos tomoni – 50 ga yaqin kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun maxsus ishlab chiqilgan, sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika sohasidagi loyihalar hisoblanadi. Masalan, o'simlik chiqindilarini qayta ishlash va suvni tozalash uskunasi hamda quyosh energiyasini ishlatadigan avtonom energoqurilma va boshqa loyihalar.

Innovatsion ishlanmalarni va texnologiyalarni tijoratgiriligini oshirish iqtisodiy, ijtimoiy va tabiatni asrash sohasidagi muammolarni yechishni undashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bu tadbirlar innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va shakllantirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda intellektual mulk obyektlarini baholashni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, 2011-yilda respublikamizda 558 yangi ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi. Shu jumladan, oziq-ovqat sanoatida 195 ta, qurilish materiallari sanoatida 155 ta, yengil sanoatda 129 ta, yog'ochni qayta ishlash sanoatida 19 ta, mashinasozlik sanoatida 6 ta, kimyo sanoatida 4 ta va boshqa obyektlar ishga



tushirildi. Qishloq xo'jalik tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash bo'yicha 71,6 ga maydonda 187 ta issiqxona tashkil qilindi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha minitexnologiyalar va ixcham uskunalar xarid qilish uchun kichik biznes subyektlari, fermer xo'jaliklari hamda agrofir-malarga 3,9 mlrd so'mlik kreditlar taqdim etildi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlarini ta'minlashni yaxshilash uchun lizing asosida TTZ traktorlari va boshqa texnika yetkazib berildi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 9,9 ming tonna sig'imga ega 11 ta yangi meva-sabzavot ombori va sovutkich kameralari ishga tushirildi. «2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi dastur doirasida qiymati 104,3 mln dollarga teng kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi.

#### **4.2. Modernizatsiyalash – davr talabi**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009–2012-yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir. Iqtisodiy islohotlarni ta'minlashga yo'naltirilgan bunday tadbirlar jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish

<sup>1</sup> Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadlarimizdir. Prezident I.A Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2009-yil.

sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadini oshirish imkonini berdi<sup>1</sup>.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, odatda, uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid ayrim lug'atlarda unga quyidagi mazmunda ta'rif beriladi: «**Modernizatsiya obyektini yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan, mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi**»<sup>2</sup>. Fikrimizcha, bu modernizatsiya tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

**Modernizatsiya** – an'anaviy jamiyatni ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy tarixiy jarayondir.

Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R. Nureyev uni neoklassik va keyinscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, Keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi yangilanish jarayoni degan fikr ilgari surilgan.

Inqirozga qarshi choralar dasturining mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni jadallashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyalash jarayonlarini kengaytirishni o'zida aks ettiradi. «Qanchalik g'ayritabiiy tuyulmasin, – deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov – jahon iqtisodiy inqirozi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib

<sup>1</sup> Economic.doc.ru.


<sup>2</sup> *Islom Karimov. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari».* – T.: «O'zbekiston» 2009, 39-bet.

borish zarurligini kun tartibiga yanada o'tkir qilib qo'ymoqda va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz va resurslarimizni safarbar etishni talab etmoqda».

Shu maqsadda umumiy qiymati 24 milliard AQSH dollaridan ziyod 300 ta investitsiya loyihasi ustida ish boradi. Bunda yangi qurilgan 18,5 dollarni, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash — 6 mlrd dollarni tashkil etadi. Mablag'lar, birinchi navbatda, yoqilg'i-energetika, kimyo, neft va gazni qayta ishlash, metallurgiya, yengil sanoat va to'qimachilik, qurilish materiallari, mashinasozlik sanoatlari sohalariga yo'naltiriladi. «Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, — deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz, — raqobatbardoshlika erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin»<sup>1</sup>.

Modernizatsiyalash — ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangilash, uni zamonaviy talablar va me'yorlar, texnik shart-sharoitlar, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirishdan iborat bo'lib, u mikrodarajada amalga oshiriladi. Chunki, asosan, mashinalar, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalashtiriladi. Ammo modernizatsiya mezo va makrodaraja obyekti bo'lib ham hisoblanadi (4-chizmaga qarang). Bu jarayon hukumatning iqtisodiy siyosati, investitsiyalar va kapital qo'yilma hamda kreditlarni bir tekis va maqsadga muvofiq joylashtirilishi orqali tarmoqlar, shuningdek, iqtisodiyot miqyosida boshqariladi.

<sup>1</sup> *Islom Karimov*. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. — «Xalq so'zi», 2012-yil, 20-yanvar.



4-chizma. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish.

Mamlakatda modernizatsiyalash darajasini ifodalaydigan mezon (ko'rsatkich)lar sifatida sanoat ishlab chiqarishi tarkibining takomillashuvi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va asosiy kapitalga investitsiyalar nisbati, eksport va import tovarlar tarkibining o'zgarishini ko'rsatish mumkin.

5-jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, o'tgan o'n yillikda O'zbekiston sanoatida ishlab chiqarish tarkibining takomillashuvi xo'jalikning energiya xomashyo tarmoqlari rivojlanishi hisobiga emas, balki mashinasozlik va metallsozlik sohasi ulushining keskin o'sishi (16,2%) barobarida kechdi. Bu iqtisodiyot sektorlarining modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish jarayonlaridagi ijobiy holatlar hisoblanadi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida qayta ishlash tarmoqlarida yengil sanoat ulushining pasayishi kuzatildi. Bu holat mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishda hali barqaror ijobiy natijalarga erisha olma-

ganimizni, iqtisodiy o'sishda xomashyo yo'nalishining barham topmaganligini bildiradi. Biz, albatta, «kechikkan modernizatsiya», «quvib boruvchi modernizatsiya» modellari yo'lidan bormasligimiz kerak. Bu modellar, odatda, sobiq mustamlaka va yarimmustamlaka, qoloq mamlakatlar tomonidan qo'llanadi, ular o'z ichki imkoniyatlari hisobiga modernizatsiyalashni amalga oshirishga qodir emas. Bunday sharoitda modernizatsilayashning Yevropa va AQSHda qaror topgan endogen tipini milliy zaminga o'zlashtirib ko'chirish samaraliroq, tejamliroq va maqsadga muvofiq bo'ladi.

*5-jadval*

**O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishning ichki tarmoq tarkibi (% hisobida)**

Sanoat tarmoqlari	2000-yil	2005-yil	2012-yil
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, jami shundan:	100,0	100,0	100
Elektroenergetika	8,5	11,3	7,9
Yoqilg'i	15,3	16,2	17,3
Metallurgiya	11,4	19,4	13,0
Mashinasozlik va metallga ishlov berish	9,9	13,0	16,2
Qurilish materiallari	5,4	3,6	5,3
Yengil sanoat	19,1	16,6	13,4
Oziq-ovqat	13,3	8,2	14,6
va boshqalar	17,1	11,7	12,8

O'zbekiston uchun esa modernizatsiyaning endo-egzogen qo'shma tipi, ya'ni modernizatsiyalashning o'ziga tegishli, ichki imkoniyatlarga tayanib, shu bilan birga rivojlangan mamlakatlar tajriba va yordamidan foydalanib amalga oshirish samaraliroq bo'ladi. Bu xulosani 6-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik sur'atlari asosiy

**O'zbekistonda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish dinamikasi  
(oldingi yilga nisbatan % hisobida)**

	2000-yil	2010-yil	2012-yil
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	105,9	108,3	108,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	101,0	113,6	111,3

kapitalga investitsiyalar kiritishdan yuqoriroq. Ammo keyingi yillarda, ayniqsa, global moliyaviy inqirozgacha bo'lgan davrda investitsiyalarning o'sish sur'atlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdan 2 martadan ziyodroq yuqori. Hatto inqiroz davom etayotgan 2010-yilda ham, investitsiyalar sanoat mahsulotlariga qaraganda ko'proq o'sgan.

Bu modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda muhim manba hisoblanadi. Chetel investitsiya va kreditlari 2000-yilda barcha investitsiyalarning 23,2, 2010-yilda 28,8 foizini tashkil etdi.

**O'zbekistonning eksport va import tovarlari tarkibi, %**

Tovarlar guruhi	2000-y.	2005-y.	2012-y.
<b>EKSPORT</b>			
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,6
Oziq-ovqat	5,4	3,8	6,7
Kimyo mahsulotlari	2,91	5,3	5,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,3	11,5	37,4
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	8,0
Mashina va asbob-uskunalar	3,4	8,4	7,0
<b>IMPORT</b>			
Oziq-ovqat	12,3	7,0	9,9
Kimyo mahsulotlari	13,6	13,6	14,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,8	2,5	7,3
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	35,4	43,3	45,4

7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan davr ichida eksport tarkibida xomashyo yo'nalishi ayrim tovarlar guruhi (paxta tolasi) bo'yicha kamaygan bo'lsa-da, enegriya xomashyo guruhi bo'yicha 3,0 barobarga yaqin o'sgan. Mashina va asbob-uskunalar eksporti bo'yicha ham uncha katta bo'lmagan ijobiy siljish bor. Import tarkibidagi tovar guruhining ulushi deyarli o'z-garmagan, ammo mashina va asbob-uskunalar bo'yicha barqaror yuqori ko'rsatkich (45,4 foiz), garchi inqirozgacha bo'lgan ko'rsatkichdan 5,5 punktga past bo'lsa-da, saqlanmoqda. Bu iqtisodiy sektorlarni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonini amalga oshirish sharoitida ijobiy tendensiya hisoblanadi.

Shunday qilib, respublika milliy iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish **modernizatsiya rivoji** bilan chambarchas bog'liq.

Shuni e'tiborga olib, 2012-yilda iqtisodiyotimizga 11 mlrd 700 mln AQSH dollari, jami investitsiyalarning qariyb 74% ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratildi va 2012-yilning o'zidayoq 205 ta yirik investitsiya obyekti qurib bitkazildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ilg'or texnologiyaga asoslangan holda mahsulot ishlab chiqarishni taqozo etadi. Ilmiy-texnikaviy faoliyatni bozorga o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Davlat nazariy izlanishlarni doimo qo'llab-quvvatlab, moliyaviy tomondan ta'min etib turadi.

Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni keng ko'lamda amaliyotga joriy qilish, bevosita xo'jalik shartnomalari asosida amalga oshiriladi va olingan natijalar mahsulot sifatida qabul qilinadi. Fan va texnikani zamon talabiga mos tarzda rivojlantirish uchun uning hozirgi va kelajakdagi o'rnini aniqlab bera oladigan ilmiy izlanishlarni olib borishni kengaytirish zarur.

Fan samaradorligini oshirishdagi asosiy omil fan va texnika uchun bo'lgan **javobgarlikni oshirishdir**. Ana shundagina fandagi ilmiy xulosalarni texnikaga mahsulot sifatida o'tkazilishi va haqiqiy bozor iqtisodiyoti ro'yobga chiqishi, institutlar o'zlariga xos bo'lmagan joriy ishlardan xalos bo'lishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan ba'zi mamlakatlarda ilmiy tajriba, konstruksiya ishlari institutlariga qilingan umumiy xarajatlarning 20% va undan ham ko'prog'ini davlat moliyalashtiradi. Bizda ham davlat mablag'larini anchagina qismi modernizatsiyaga sarflanmoqda.

Modernizatsiya sohasida kreditlashtirish uzoq davr mobaynida faqat yangi fan-texnikani joriy qilishga qaratilgan edi. Yangi mahsulotning yaratilishi turli bosqichlarda xarajatlar tuzilmasini oqilona o'zgartirish, ilmiy tekshirish institutlariga kredit berishni to'g'ri yo'lga qo'yish, shu bilan birga, jahon tajribalarining ijobiy tomonlarini ham amalda qo'llashni taqozo qiladi.

Soliqlar tizimi va imtiyozli soliqlar ilmiy tajriba, konstruktorlik ishlari institutni boshqarishning muhim vositalari hisoblanadi. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tajriba, konstruktorlik ishlari institutlariga to'g'ri mutanosib xarajatlarning **o'sib borishi bilan birga soliqlar chegirmasi joriy qilingan** (bu chegirma juda katta yordam beradi, 20-50% ni tashkil etadi).

Fan-texnikani rivojlantirish uchun sarflangan mablag'larning **iqtisodiy samaradorligi (FTT) quyidagicha hisoblanadi:**

$$FTT = \frac{IT}{\sum X},$$

bunda,

$IT$  – yangi texnikani qo'llash natijasida olingan iqtisodiy tejam;

$\sum X$  – ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlar.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib **foydaning o'sishi, tannarxning kamayishi hisoblanadi.**

Foydaning o'sish ko'rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta P_{it} = (Ts_t - C_1)A_t$$

bunda:



$P_i$  – prognozlash davrida foydaning o‘shishi ( $t$  yil), so‘m hisobida;

$T_s$  va  $C_t$  – ulgurji baho va bir birlik mahsulotning tannarxi (texnika kiritgandan keyingisi);

$T_s, C_t$  – ulgurji baho va bir birlik mahsulotning tannarxi (yangi texnika kiritilmasdan avvalgisi);

$A_t$  – yangi mahsulotning  $t$  yildagi hajmi.

Yangi texnikani joriy qilish natijasida mahsulot tannarxining kamayishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta S = (C_t - C_t)A_t,$$

bunda:

$\Delta S$  – Yangi texnikani joriy qilish, tannarxni kamaytirishdan kelib chiqadigan samaradorlik;

$C_t$  – yangi mahsulot tannarxi ( $t$  yildagi);

$C_t$  – eski mahsulot tannarxi;

$A_t$  – yangi mahsulotning  $t$  yildagi hajmi.

### 4.3. Lokalizatsiya

Korxonalar o‘rtasidagi koorperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, o‘zaro chambarchas bog‘langan jarayonlardir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat koorperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

**Lokalizatsiya bu** – mamlakat hududida mahalliy xomashyo asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish.

**Lokalizatsiya** quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir.

**Iqtisodiy jihatdan** lokalizatsiya – mamlakat hududlarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash, import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy budjetga soliq tushumlarining ko‘payishiga imkoniyat yaratib beradi.

**Siyosiy jihatdan** lokalizatsiya – davlat tadbirkorlar, xorijiy investorlarga turli xil imtiyozlarni berish asosida ishlab chiqilgan

maxsus dastur miqyosida mahalliy resurslardan samarali foydalanilgan holda ichki talab mahsulotlarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi.

**Texnik va texnologik jihatdan** lokalizatsiya – iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy xomashyoni ishlab chiqarishga jalb etish maqsadida yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish kasbiy malakani oshirish imkoniyatini beradi.

**Kasbiy jihatdan** mamlakat hududlarida lokalizatsiya asosida yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliy ishchi kuchining kasbiy mahoratini oshirish, ularni ilg'or texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, korporativ boshqaruv bo'yicha malaka oshirish imkoniyatini beradi.<sup>1</sup>

O'zbekistonda lokalizatsiyalashtirishni tashkil etishda 2012-yil uchun ishlab chiqilgan dastur bo'yicha 830 dan ortiq loyiha amalga oshirildi.

Mahalliyashtirish dasturi asosida amalga oshirilgan texnik va texnologik yangilanishlar tufayli Jizzax viloyatidagi «Yevroaziya Karpet» korxonasi ishga tushdi. Mahalliy xomashyodan foydalanish darajasi 56,2 % ga yetdi. Korxonada chetga sarflamayotgan valutani tejash hisobiga mahsulot tannarxi 30 % gacha kamaydi. Germaniya, Belgiya davlatlaridan keltirilgan texnologiyalar yordamida ishlab chiqariladigan gilamlar raqobatbardoshligi bilan ajralib turibdi. Ma'lumki, keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari davom etayotgan ayni paytda sifatli va arzon qurilish materiallariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Prezidentimizning 2009-yil 19-iyunda qabul qilgan «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga ko'ra Navoiy viloyati Xatirchi tumanida «Navoiyqishloqqurilish-servis» MChJ tomonidan g'isht zavodi ishga tushdi. Korxonada zamonaviy texnologiya asosida yiliga 20 mln dona pishiq g'isht ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxonada 65 ish o'rni yaratildi. Ma'lum bo'lishicha, hududdagi tuproq pishiq g'isht tayyorlash

<sup>1</sup> *Вазянский А.М.* Локализация производства, как одно из условий развития социально-экономических систем. [avazyanc@rambler.ru](mailto:avazyanc@rambler.ru).

uchun yaroqsiz hisoblanadi, lekin zamonaviy texnologiya yordamida bu muammoni hal etish mumkin ekan. Tuproqdan namlik so'rib olinib, qattiq bosimda zichlanadi va o'ta mustahkam, pishiq g'isht tayyorlanadi.

Davlatimiz rahbarining 2010-yil 23-martda qabul qilgan «2010-yilda sanoat koooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy-lashtirish Dasturi to'g'risida»gi qaroriga ko'ra «O'zkimyosanoat DAK tizimidagi «Maksam-Chirchiq», «Jizzax plastmassa», «Navoiyazot» ochiq aksiyadorlik jamiyati korxonalarida magniy sulfat, kaliy nitrat, kaliy o'g'iti, diametri 630 mm bo'lgan polietilen quvurlarni o'lchovchi uskunalar, mahalliy-lashtirish dasturi asosida esa 147,7 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Dastur samaradorligini oshirish maqsadida turli xil imtiyozlar o'rnatilgan. Xususan, lokalizatsiyalashtirish doirasida loyihalarni amalga oshirayotgan korxonalar:

- daromad solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- mulk solig'idan, shuningdek, ishlab chiqarishni lokalizatsiyalashtirish maqsadida keltirilayotgan jihozlar, texnologiyalar boj to'lovlaridan ozod qilinadi.

#### 4.4. Diversifikatsiyaning iqtisodiyotdagi o'rni

**Diversifikatsiya** tushunchasi milliy iqtisodiyotimizda 90-yillardan keyin qo'llanila boshlandi. Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, **diversus** – turli, har xil va **facere** – bajaraman, degan turli-tumanlashtirish, o'zgartirish ma'nosini anglatadi. U ishlab chiqariladigan tovar va mahsulotlar nomenklaturasining kengayishiga, ishlab chiqarishning yangi yo'llarini o'zlashtirish hisobidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy samara va inqirozning oldini olish bo'lib, bu ishlab chiqarishni **diversifikatsiyalash** deyiladi.

Buyuk fransuz olimi va faylasufi Rene Dekart (1596–1650) shunday degan edi: «Mavjud muammolarni tarkiblarga va

qismlarga bo'lish va uni hal qilish» degan ma'noda izohlab iqtisodiyotda qo'llay boshlagan.

Amerikalik iqtisodchi S. Fredrix fikricha, «diversifikatsiya bu 1 dan ortiq aktivga ega bo'lish» degan ta'rifni beradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya so'zining mohiyati ko'pgina mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinadi, ya'ni har bir sohani tahlil qilganda diversifikatsiyaning shu sohaga taalluqli tomonini ko'rib o'tishga harakat qilinadi. Ba'zi olimlar diversifikatsiyaga baza topish maqsadidagi firmalarning asosiy faoliyatidan tashqari ish olib borish sohasidagi marketing faoliyatining strategiyasi sifatida qarashadi.

Masalan, U. Kaporliskiy va A. Filinalarning fikricha, «Diversifikatsiya firmaning asosiy faoliyatidan tashqari yangi faoliyat turini o'zlashtirish borasida olib boradigan, ya'ni marketing strategiyasidir.

**Diversifikatsiyaning maqsadi** – bozor konyunkturasi o'zgarishini o'z vaqtida anglay olish va korxonaning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirishdan iborat. Ushbu ta'rifga, asosan, konyuktura o'zgarishi yangi texnika va texnologiya, fan yutuqlarini joriy qilish jarayonlarini inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatishi lozimligi ta'kidlanadi. Diversifikatsiya – ishlab chiqariladigan yoki import va eksport qilinadigan tovarlar assortimentini ko'paytirish, turlarini o'zgartirish, shuningdek, ishlab chiqarish va savdo-sotiq samaradorligini oshirish har qanday bankrotliklarning oldini olish maqsadida ishlab chiqarishning yangi sohalarini o'zlashtirishdir. Diversifikatsiya nafaqat bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoki yagona xo'jalik faoliyatiga bog'liqlikning oldini olish uchun, balki an'anaviy bozorlardagi ulushini oshirish, yangi bozorlarni egallash, kapital oqimi uchun yangi sohalarni izlab topish va boshqa maqsadlarda ham amalga oshiriladi.

Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda diversifikatsiya jarayonini yangi bozorlarga chiqish maqsadida korxonaning asosiy faoliyatidan tashqari marketing strategiyasi sifatida talqin etiladi. Ammo bunday ta'rifga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki tashqi savdo,

ya'ni eksport va import ham asosiy ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi.

Asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiya va rekonstruksiya qilmasdan, uning xarakterini o'zgartirmasdan turib, tashqi aloqalarda sezilarli natijalarga erishib bo'lmaydi. Eksport tarkibini diversifikatsiyalash zarurati nafaqat tashqi, balki ichki imkoniyat va omillarga ham bevosita bog'liq.

Masalan, O'zbekistonda eksportning muhim komponentlaridan hisoblanadigan bir qator rangli metallar tiklanmaydigan resurslar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda ularning zaxiralaridan foydalanishni keskin oshirish kelgusida bu tabiiy resurslar kamayib ketishi bilan bog'liq noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir misol. O'zbekiston eksportida paxta tolasi katta ulushni egallab keladi. Uning hozirgi ulushi uncha katta bo'lmas-da, kelgusida ham saqlanib qoladi, albatta. Lekin paxta tolasi eksporti ob-havo sharoitiga, xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining tebranib turishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, uni eksport qilishdan keladigan daromadlarning beqarorligiga olib keladi.

Bundan tashqari, paxta xomashyosini ishlab chiqarish yer va suv resurslariga bevosita bog'liqligi tufayli, uni ishlab chiqarishni ko'paytirib borish imkoniyatlari cheklangan. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, yo'l va boshqa infratuzilma, uy-joy qurilishining kengayishi ham paxta ekin maydonlarining qisqarib borishiga olib keladi. Shunday qilib, bir xil turdagi mahsulotni katta miqdorda eksport qilish, iqtisodiy jihatdan noqulay bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining bir xil turdagi mahsulot eksportiga bog'lanib qolishiga olib keladi. Uni kamaytirib borish esa dastlab ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi diversifikatsiya jarayoniga rejali va uzluksiz yondashish zarurligini taqozo etadi. O'zbekiston iqtisodiyotida 2011–2015-yillardagi eng muhim vazifa – makroiqtisodiy barqarorlik va izchil yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, uning sifat ko'rsatkichlarini iqtisodiyot tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni

modernizatsiya etish, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot hamda xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hisobiga yaxshilashdan iborat.

Yalpi ichki mahsulotning yiliga 8 foizdan ortiq bo'lgan darajadagi barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, umuman 2011–2015-yillar davomida uning hajmi 1,5 barobar, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha esa 1,6 barobar hisobidagi o'sishga erishish ko'zda tutilmoqda. Bunda iqtisodiy o'sish barqarorligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, past inflatsiya ko'rsatkichlari va milliy valuta kursining barqarorligi orqali ta'minlanadi.

Kelgusi yillarda ichki talabning oshib borishiga muhim ahamiyat beriladi. Chunki jahon iqtisodiyoti va mahsulotlar bozorlaridagi beqarorlik sharoitida bunday yondashuv iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning barqarorlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi omili sifatida muhim o'rin tutadi. Raqobatdoshlikka erishish, dunyo bozorlariga chiqish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik yangilash orqali amalga oshirilishi mumkin.

2012–2016-yillarda qiymati 6 mlrd 200 mln dollar bo'lgan 270 dan ortiq investitsiya loyihasini, ya'ni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, Surg'ul koni bazasida Ustyurt gaz-kimyoo kompleksini, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar, Qo'ng'iro't soda zavodining ikkinchi navbati sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqaradigan zavodini qurish boshlanadi. Shuningdek, Tollimarjon IES da 2 ta bug'-gaz qurilmasi, Angren IESda yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari, transporter tasmasi ishlab chiqariladi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010-

yildagi 24 % dan 2015-yilda 28 % ga, qurilishda – 6,4 % dan 7,6 % ga oshirish imkonini beradi. Natijada 2011–2015-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobar ortgani holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,5 % dan 13,5 % ga tushadi.

Mamlakatimiz va uning barcha mintaqalarida o‘ta qulay ishchan muhitni yaratish, tabdirkorlikka yanada ko‘proq erkinliklar berish, asossiz turli byurokratik to‘siqlarni barham toptirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal sur‘atlarda, birinchi navbatda ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali tarmoqlarda rivojlantirishni, mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 52,5% dan 2015-yilda rivojlangan mamlakatlardagi kabi, 60%dan yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.<sup>1</sup>

#### **Tayanish iboralar:**

- modernizatsiya;
- fan-texnika samaradorligi;
- lokalizatsiya;
- diversifikatsiya;
- innovatsiya;
- texnika-texnologiya;
- mahalliy lashtirish.

#### **Nazorat savollari**

1. Innovatsiya tushunchasi. Uning ahamiyati va afzalliklari nimada?
2. Modernizatsiya nima va uning zaruriyati nimada?
3. Fan-texnika taraqqiyoti nimalarda o‘z aksini topadi?
4. Qanday omillar ta’siri ostida FTTi jadallashadi?
5. FTTning qaysi yo‘nalishlarini bilasiz?
6. FTTning samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash usullarini ayting.
7. Diversifikatsiyaning iqtisodiyotdagi ahamiyati. Uning maqsadi.
8. O‘zbekistonda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati qanday?

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlar. – T.: «O‘zbekiston». 2011-y. 119-bet.

9. *Lokalizatsiya nima? Unga beriladigan imtiyozlar qaysilar?*  
10. *Lokalizatsiyaning qanday jihatlari mavjud?*

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: «O'zbekiston». 2009.
2. *Karimov I. A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. Asarlar, 16-jild. – T.: O'zbekiston. 2008. 163-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 916-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-dekabrda 1236-sonli qarori bilan «Mahalliyashtirish» dasturi.
6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar. –T.: «O'zbekiston». 2011.
7. *Саидова Г.* «Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства. Широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке». Т. 2009.
8. *То'хлиев N.* Taraqqiyotning o'zbek modeli. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti – T.: 2012-y.
9. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot. – T.: 2004.
10. *Вазянский А.М.* Локализация производства, как одно из условий развития социально-экономических систем. avazyans@rambler.ru
11. *Сейтмуратов P.A.* Модернизация общества и структурное обновление экономики Республики Узбекистан. – T.: Государственное научное издательство «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси». 2006.



## V bob. MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI

---

### *Reja:*

- 5.1. Milliy iqtisodiyot tarkibi, uning mazmuni va asosiy shakllari.
- 5.2. Iqtisodiy faoliyat tarkibini tahlil qilish.
- 5.3. Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

### **5.1. Milliy iqtisodiyot tarkibi, uning mazmuni va asosiy shakllari**

Iqtisodiyot murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega. U har biri aniq funksiyani bajaradigan va shuning bilan birga boshqa bo'g'inlar harakatini ta'minlaydigan keng tarmoqli turli xil bo'limlar tizimidan iborat. Shuning uchun **iqtisodiyotning tarkibi doimo rivojlanish va takomillashtirishda bo'ladigan murakkab organizmdir.**

**Iqtisodiyotning tarkibi (strukturasi)** deganda ma'lum omillar ta'sirida yuzaga kelgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimotini ifodalaydigan **iqtisodiyot tarmoqlarining nisbati** tushuniladi.

Ma'lumki, markazlashgan **boshqaruv tizimida muayyan mamlakat iqtisodiyoti «xalq xo'jaligi» iborasi bilan ifodalanar edi.**

Bunday yondashuvda mamlakat iqtisodiyoti ikki sohaga, ya'ni:

- «Ishlab chiqarish» sohasi;
- «Noishlab chiqarish sohasi»ga bo'lingan xalq xo'jaligi tarmoqlari tasnifiga asoslanar edi.

#### **Ishlab chiqarish sohasi:**

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- o'rmon xo'jaligi;
- qurilish;
- yuk transporti;

- ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi aloqa;
- moddiy texnika ta'minoti;
- savdo va tayyorlov tashkilotlari;
- umumovqatlanish korxonalari;
- boshqa har xil ishlab chiqarish faoliyatlari.

#### **Noishlab chiqarish sohasi:**

• uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish;

- sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sotsial ta'minot;
- xalq ta'limi;
- madaniyat va san'at;
- moliya, kredit va davlat sug'urtasi;
- boshqarish;
- mudofaa;
- har xil noishlab chiqarish faoliyatlari.

Xalq xo'jaligini bu tartibda guruhlash iqtisodiyotni ma'muriy buyruq bilan boshqarish sharoitida vujudga kelgan bo'lib, haddan tashqari markazlashgan rejalashtirish uslubiga asoslangan edi.

Bunday tasnif bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera olmaydi. Chunki unga asoslanib:

- noishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan ijtimoiy qiymatni aniqlash;
- tarmoqlarni mulk shakllariga ajratib o'rganish;
- tadbirkorlikning yangi strukturasi o'ldirishga oid ko'pgina ko'rsatkichlarni aniqlash imkoniyati bo'lmaydi.

**Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligining ikki sohasidagi chegara yo'qoladi**, yangi turli-tuman mulkiy tizim vujudga keladi.

Natijada, **turli mulk shakllari ko'rinishida bozor iqtisodiyotining quyidagi subyektlari** shakllanadi:

- iqtisodiy mustaqil **mulk egasi**, ya'ni iste'molchi bo'lgan ayrim kishilar yoki guruhlar. Bularga, odatda, yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmay, o'z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi;

- firma, korxonalar, xo'jaliklar va ularda band bo'lgan **tadbirkorlar**. Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar;

- **davlatning barcha mahkama-idora tashkilotlari**. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar, bozor va unda qatnashuvchilar faoliyati ustidan nazorat qiladilar.

Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'zaro aloqaga kirishadilar. Ishchi kuchi, yer, kapital va boshqa vosita egalari ularni korxonalar, firmalarga sotadi. Ular, o'z navbatida, ishlab chiqarish omillaridan foydalanib, tovar ishlab chiqaradi va xizmatlar ko'rsatadilar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining **1993-yilda qabul qilingan MHT (Milliy hisoblar tizimi)ning 3-tahririda Milliy iqtisodiyot ikki qismga ajratilgan:**

1. Ichki iqtisodiyot.

2. Qolgan dunyo (tashqi dunyo).

**Ichki iqtisodiyot 5 sektorga ajratilgan:**

1. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini (nomoliyaviy korxonalar).

2. Moliya tashkilotlari.

3. Davlat tashkilotlari.

4. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy tashkilotlar.

5. Uy xo'jaligi.

Milliy iqtisodiyotning ikkinchi qismi – **qolgan dunyo** yoki **tashqi dunyo** sektoridir. Unga tashqi iqtisodiy aloqalar kiradi. Bu sektor, asosan, chet davlatlar va mamlakat institutsional birliklar (rezidentlari) o'rtasidagi *muomalalarni hisobga olish uchun xizmat* qiladi. Ishlab chiqarish jarayoni, tovar resurslari, xizmat ko'rsatishda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi mutanosiblikni tavsiflash maqsadida MSTda institutsional birliklar tarmoqlar tasnifining xalqaro standarti (TTXS)ga binoan quyidagi *to'rt guruhga* bo'linadi:

- bo'limlar (jami 17 ta bo'lim);

- bo'limchalar (jami 20 ta blok);

- tarmoqlar turkumlari (jami 169 ta faoliyat turi);

- tarmoqlar turkumlari (jami 292 ta sinf).

Bunday guruhlash tarmoqlar bo'yicha tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish jarayonidagi oqimlarni tahlil qilishda qo'l keladi.

**Makroiqtisodiyotni sektorlarga bo'lib o'rganish** bozor munosabatlarini tartibga solish uchun zarur bo'lgan **makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda, makroiqtisodiy tahlilni amalga oshirish va makroiqtisodiy qonuniyatlarini aniqlashda, makroiqtisodiyotni boshqarish uchun zarur bo'lgan tegishli tavsiyalarni tayyorlashda** katta ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari, har bir sektorning o'z vazifalari bor (8-jadval).

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari BMTning 1993-yilda qabul qilingan MHTda **bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda** yagona iqtisodiyotni ikki sohaga ajratish tavsiya qilinadi, ya'ni:

**1. Tovar ishlab chiqarish sohasi** – bunda buyum, gaz, suv va energiya shaklida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatiladi. Bu sohaga sanoat, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, qurilish tarmoqlari kiritiladi.

**2. Xizmat ko'rsatish sohasi** – bunga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tarmoqlar kiritilgan.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi statistika xizmati YIM, bandlik, mehnat haqi va boshqa ko'rsatkichlarni soha va tarmoqlar bo'yicha hisoblaydi va e'lon qiladi.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyot **turli qism va bo'laklardan tashkil topgan murakkab tizimdir**. Iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi o'zaro nisbat **iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi** deb ataladi. Iqtisodiyotni alohida qismlarga bo'lish asosida turli belgilar yotadi, shuning uchun **tarkiblarning tuzilishi** bir necha turlarga ajratib o'rganiladi:

1. Ijtimoiy tuzilishi.
2. Tarmoq tuzilishi.
3. Takror ishlab chiqarish tuzilishi.
4. Hududiy tuzilishi.

**Ijtimoiy tuzilish** – bu iqtisodiyotning turli **mulkchilik shakllari** o'rtasidagi o'zaro nisbatdir.

## Sektorlar va ularning vazifalari

T/r	Sektorlar	Institutsional birliklar (korxonalar)	Sektorlarning vazifalari
1.	– Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektori (nomoliyaviy korxonalar)	– Firmalar – Korxonalar – Kooperatsiyalar – Konsernlar – Konsortsiyalar va boshqalar	– Tovar ishlab chiqarish va moliyaviy bo'lmagan xizmat ko'rsatish
2.	– Moliyaviy tashkilotlar sektori	– Markaziy bank – boshqa banklar – sug'urta kompaniyasi va pensiya fondi	– mamlakatda pul muomalasini tartibga solish – sug'urtalash va nafaqalarni belgilash
3.	– Davlat tashkilotlari sektori	– qonun chiqaruvchi organlar – ijro etuvchi organlar – nazorat etuvchi organlar	– milliy daromad va boylikni qayta taqsimlashda qatnashuvchi boshqa tashkilotlar (Moliya Vazirligi, soliq, bojxona qo'mitasi va hokazo) – milliy daromad va milliy boylikni qayta taqsimlash – makroiqtisodiy mutanosibliklarni ta'minlash – soliq, boj, turli badal va to'lovlarning to'lanishini nazorat qilish

72

4.	– Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy tashkilotlar sektori	– Notijorat tashkilotlari – kasalxonalar – dam olish uylari – o'quv yurtlari – osoyishtalikni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va boshqalar	– aholining talabini qondirish – bepul davolash – bepul ta'lim berish – bepul maishiy xizmat ko'rsatish – bepul tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash – xayriya ishlarini bajarish
5.	– Uy xo'jaligi sektori	– Ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi bo'lgan yakka va guruh shaxslar – oilalar – ibodatxonalarda yashovchilar – uzoq muddat ruhiy kasalxonalarda davolanayotganlar – qamoqxonalardagilar – qariyalar va bolalar uyidagilar – armiyadagilar va hokazo	– bozor ehtiyoji va xususan shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish

73

O'zbekistonda mulkchilik turlari davlat, jamoa, xususiy va aralash mulkchilik tarzida shakllanadi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlar soni, asosiy fondlar va ishlab chiqarish bo'yicha bu bo'g'inlarning har birining ulushi respublika iqtisodiyotining ijtimoiy tuzilishini aks ettiradi.

Iqtisodiyotning **tarmoq tuzilishi bu turli tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro nisbatdir**, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa o'rtasida yoki qazib oluvchi hamda qayta ishlovchi tarmoqlar o'rtasidagi, moddiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar va hokazolar o'rtasidagi nisbatdir. Tarmoq tuzilishi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ifodalaydigan muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Yuksak rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hisyasi yuqori, qayta ishlovchi tarmoqlarning hisyasi esa qazib oluvchi tarmoqlardan ustun bo'lgan iqtisodiyot tuzilishiga xosdir.

U mehnat va kapitalning yuqori darajada unumdorligidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanganligidan va pirovard natijada aholining turmush darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning **takror ishlab chiqarish** tuzilishi bu kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy nisbatlari, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish o'rtasidagi, iste'mol hamda jamg'arish o'rtasidagi o'zaro nisbatlardir. Takror ishlab chiqarish tuzilishi **iqtisodiy o'sishning imkoniyatlarini** ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Iqtisodiyotning **hududiy** tuzilishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining hududiy jihatlarini aks ettiradi va alohida hududlarning umummilliy ko'rsatkichlardagi hissasini aniqlaydi. U butun mamlakat bo'yicha turmush sharoitini barqarorlashtirish maqsadida aniqlanadi va tadqiq qilinadi. Ma'lumki, ma'muriy jihatdan O'zbekiston 1 ta avtonom respublika, 12 viloyat va Toshkent shahridan iboratdir. Unda 119 ta shahar, 158 ta qishloq **ma'muriy tumanlari** mavjuddir.

Iqtisodiy rayonlashtirish belgilari bo'yicha mamlakatimiz **6 ta iqtisodiy mintaqaga bo'linadi**:

**1. Toshkent iqtisodiy mintaqasi.** Toshkent viloyati va Toshkent shahri hududlaridan iborat bo'lib, 15,6 ming m<sup>2</sup> terri toriyaga egadir. Bu mintaqaga respublikaning 3,48% maydoni va 17,01 % aholisi to'g'ri keladi. Bu mintaq o'rta hisobda mamlakat milliy daromadining 26,0 % va 32,5 % dan ortiqrog'ini sanoat mahsuloti ishlab chiqaradi.

**2. Ishlab chiqarish potentsiali bo'yicha ikkinchi o'rin Farg'ona iqtisodiy mintaqasiga** to'g'ri keladi. Bu mintaq Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarini o'z ichiga oladi va 18,5 ming m<sup>2</sup> hududga egadir yoki 4,12 % respublika hududini egallaydi. Unda aholining 28,57 % yashaydi. Bu mintaq O'zbekiston milliy daromadining 26 %ini, sanoat mahsulotining 31,5 % ini, 36,8 % qishloq xo'jalik mahsulotining, 28,3 % tovar oborotini ishlab chiqaradi.

**3. Markaziy iqtisodiy mintaq** Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlarini o'z ichiga oladi. Bu mintaq respublikaning 37,45 % hududini egallaydi, aholi soni jihatidan 20,07 %, milliy daromadining 18,6 %, sanoat mahsulotining — 14,6 %, qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining — 20,8 % ini ishlab chiqaradi.

**4. Janubiy iqtisodiy mintaq** — Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan iboratdir. U respublikaning 10,85 % hududini va 17,01 % aholisini tashkil qiladi. Bu mintaqada qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik rivojlangan. Unda respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 19,4%, sanoat mahsulotining 12,4% ini, milliy daromadining 14 % shu mintaq yetishtiradi.

**5. Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasi** o'z ichiga Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini oladi. U respublika hududining 5,66 %ini, aholisining 6,46 %ini oladi.

Bu mintaqada o'rta hisobda respublikaning 6,1 % milliy daromadi, 2,7 % sanoat mahsuloti va 8,6 % qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti yetishtiriladi.

**6. Orolbo'yi iqtisodiy mintaqasi.** Unga Qoraqalpog'iston Avtonom respublikasi va Xorazm viloyati kiradi. Bu regionda respublikaning 38,47 % hududi va 10,88% aholisi joylashgan. Bu mintaq respublika sanoat mahsulotining 6,3 %ini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 12,5% ini yetishtiradi.

## 5.2. Iqtisodiy faoliyat tarkibini tahlil qilish

Iqtisodiy faoliyat tarkibi u yoki bu mamlakat, butun insoniyat alohida individuallari guruhlarini ijtimoiy qatlamlarining faoliyatidir.

Iqtisodiy faoliyat tarkibini tahlil qilishda milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo'limlari, tarmoqlar va ularning o'sish sur'atlari, mahsulot turlari bo'yicha o'sish darajalari va hokazo ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Tarkibiy tahlil asosida iqtisodiy siyosat ishlab chiqiladi. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

**1. Mulkiy munosabatlar tahlili.** Respublikamizda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida «Mulchilik to'g'risida», uni «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlar va «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni va boshqa huquqiy hujjatlar qabul qilindi (9-jadval).

9-jadval

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida davlat va nodavlat sektorlarining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi<sup>1</sup> – 2012-yil

	Davlat sektori (%)	Nodavlat sektori (%)
Yalpi ichki mahsulot	17,5	82,5
Sanoat mahsuloti	15,4	84,6
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	0,19	9,9
Qurilish	7,8	92,2
Transport	36,8	63,2

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi – T.: «O'zbekiston», 2011-yil 47-bet.



Aloqa	4,29	5,8
Chakana tovar aylanma hajmi	0,29	9,8
Xizmat ko'rsatish sohasi	18,3	81,7
Iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni	18,5	81,5

**2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik darajasini tahlil qilish.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini shakllantirish islohotlar taqdirini belgilovchi shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda qisqa vaqt ichida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning huquqiy shart-sharoitlari hamda tashkiliy tuzilmalari yaratildi. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, o'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sug'urta agentligi, konsalting, injiniring, lizing, firma va kompaniyalar, ish olib boradilar.

Xususiy korxonalar to'g'risidagi qoidalar qonun nuqtayi nazaridan mustahkamlandi. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish tartibi tubdan yangilandi va soddalashtirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76% dan ko'prog'i mehnat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi, kichik biznes va tadbirkorlikni izchil rivojlantirish uchun zarur omillar yaratdi. Natijada ularning soni 2012-yil 1-yanvardan 246441 tani tashkil qildi. Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqilayotgan sanoat mahsulotlarining hajmi 2011-yili salkam 21% ni tashkil qildi. Bu sanoat tarmog'ida o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning YIMdagi ulushi 2011-yilda 54,0% ni tashkil qildi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini joriy etishga keng e'tibor

berilmoqda. Natijada, respublikamizda 2013-yili 970 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, shundan xizmat ko'rsatish va servis sohasining hissasi 250 mingtani, kasanachilik sohasi hissasi esa qariyb 210 mingdan oshiqrog'ini tashkil qiladi. Yangi ish o'rinlarini yaratishda, shuningdek, aloqa, axborotlashtirish, moliya, bank, transport xizmati ko'rsatish, maishiy texnika va avtomobillarni ta'mirlash sohaslarining hissasi oshib bormoqda (50,0 % ga yaqin).

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uch muhim masalani yechishni ko'zda tutadi.

**Birinchi masala** – yaqin besh-o'n yil ichida ushbu sohada yalpi ichki mahsulotning 50–60 foizini ishlab chiqarishga erishish. Kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi YIM tarkibida 2013-yilda 55,8 % ni tashkil qildi.

**Ikkinchi masala** – bu sohani rivojlantirish aholini ish bilan ta'minlash va uning daromadlari o'sishining eng muhim manbalaridan biriga aylanishi lozim.

**Uchinchi masala** – mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori bo'lmish kichik va o'rta **mulkdorlar** sinfini shakllantirishni tezlashtirish hamda uni rivojlantirish zarur.

**3. Ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri belgilash.** Ustuvor yo'nalishlarni, sohalarning to'g'ri belgilanishi nafaqat ilgari taqchil hisoblangan mahsulot turlarini keng ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga, balki ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga ham imkon beradi, shu bilan birga, butun iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

**Hozirgi davrda ustuvor yo'nalishlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:**

– aholini ijtimoiy himoyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, pensiya ta'minotini yanada yaxshilash va hokazo;

– iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish (korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlashni jadallashtirish va modernizatsiyalash, raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimlarini tezroq xalqaro sifat standartlariga o'tkazish va hokazo);

– qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish;

– kichik va xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish;

– kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish;

– sog'liqni saqlash bo'yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish;

– elektr energiya tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish;

– mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va hokazo.

**4. Ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish.** Ma'lumki, ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'stirish xalqning turmush darajasini oshirish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda 1997-yilda birinchi marta YIM ishlab chiqarish hajmi aholi sonining o'sish darajasidan yuqori bo'ldi. Bu o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

O'zbekistonda YIMning o'sish sur'ati 2007-yilda – 9,5 %, 2010-yilda 8,5 %, 2011-yilda – 8,3 %, 2012-yilda – 8,2%, 2013-yilda 8% ni tashkil etdi.

10-jadval

O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi

Ko'rsatkichlar \ Yillar	2000	2007	2010	2011	2013
Yalpi ichki mahsulot	103,8	109,5	108,5	108,3	108,0
Sanoat mahsuloti	105,9	112,1	108,3	106,3	108,8
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	103,1	106,1	106,8	106,6	106,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	101,0	125,8	109,2	107,9	11,3

10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000-yildan boshlab mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha sohalarida muntazam o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

**5. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining miqdor va sifat jihatidan o'sish sur'atlari tahlil qilinadi.** O'zbekistondagi izchil iqtisodiy siyosat, o'tmishdan meros qolgan qiyin og'ir ahvoldan tezda chiqib ketish va muttasil rivojlanish tufayli MDH davlatlari orasida 2004-yildayoq 1990-yilgi darajaga yetish imkoni yaratildi.

MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston iqtisodiy tanglikdan eng kam talafotlar bilan chiqdi, u boshidan kechirgan iqtisodiy tushkunlik davri eng qisqa bo'ldi. O'zbekistondagi iqtisodiy yangilanishning muhim va e'tiborli yana bir tomoni borki, u ham bo'lsa, meros qolgan an'anaviy tamoyillardan tashqari, iqtisodiy islohotlar yuzaga chiqargan yangi omillarga ham tayanildi.

Ular barqaror va ishonchli bo'lganidan tashqi kuchlarning iqtisodiyotimizga ko'rsatgan salbiy ta'sirini sezilarli darajada kesa oldi.

Shu sababli, jahon bozorida *paxta, oltin va mis narxining pasayishiga, jahonda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay* O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari barqarordir. O'zbekistonda YIMning o'sish sur'ati 2013-yilda ham 8,0 %ni tashkil qildi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 %, qishloq xo'jaligi 6,8 % ga, chakana savdo oboroti hajmi 14,8 %ga oshdi. Xalqaro valuta jamg'armasi missiyasi rahbari Veronika Bakalu xonimning fikricha, «O'zbekiston iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Soliq-budjet va tashqi faoliyat sohalarida mustahkam pozitsiya, bank tizimining barqarorligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondoshish mamlakatni global inqirozning salbiy oqibatlaridan himoya qildi»<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlaridan farqli, O'zbekistonda sakrab o'sishga harakat qilingani yo'q. Boshqalarda iqtisodiy o'sish xomashyo

<sup>1</sup> Xalq so'zi. 2013-yil 19-yanvar.

yoki yoqilg'i-energetika resurslarining jahon bozoridagi narxiga qarab, bir yuqorilab, bir pasayib turadi. Iqtisodiy o'sish birdaniga 10–12 %ga qadar yuqorilab borsa, so'ngra pasayib 2–3 %ga qadar tushib ketadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning jahon bozori konyunkturasiga bog'liq tomonlari bilan birgalikda, undan holi bo'lgan sohalari ham rivoj topmoqda.

Ular mamlakat ichki bozori uchun ishlaydi va tez sur'atlarda rivojlanib boradi, tashqi bozorga qaramlik kuchsizlanishi esa, uning barqarorligini kafolatlaydi. Ammo, globalizatsiya sharoitida eksportga ishlash zarur bo'ladi, chunki eksporti yo'q mamlakatning kelajagi bo'lmaydi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga, eng avvalo, zamonaviy texnologik jihozlar bilan qurollangan yangi, ilg'or ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish va ishga tushirish yo'li bilan iqtisodiyotga kapital qo'yilmalarni jalb etish hajmini oshirish orqali erishilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda chetellik yirik kompaniyalar bilan hamkorlikda Asakada yengil avtomobillar, Toshkent va Samarqandda avtobuslar, Samarqandda yuk avtomobillari ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi qurilishi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining rekonstruksiya qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2006-yildan Qo'ng'irotda soda zavodida kalsiyli soda, Samarqand kimyoy zavodida nitrokalsiyfosfat o'g'iti ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi, 2010-yildan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi mahsulot bera boshladi. Mamlakatimizda industrial tarmoqlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga mustahkam zamin yaratishda O'zbekiston Respublikasi «Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi» muhim rol o'ynamoqda. Jamg'arma iqtisodiyotda ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan o'nlab strategik loyihalarni moliyalashtirish ishlarini olib bormoqda.

Prezidentimiz ishlab chiqqan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy

o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan to'rtta strategik dasturning amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu dasturlar sanoat, infratuzilma, transport va aloqa qurilishini rivojlantirish, moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Dasturlarning asosiy vazifasi makroiqtisodiy barqarorlik, yaqin yillarda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlarini 8 foizdan kam bo'lmagan darajada ta'minlash, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatning ishlab chiqarish va resurslar salohiyatidan unumli foydalanish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 11-apreldagi «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risidagi farmoni ham xuddi ana shu yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

2008-yilning oxirida hukumatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan mintaqaviy va qit'alararo noyob logistika markazi sifatida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etilgan edi.

**6. Iqtisodiyotni boshqarish tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish.** Sobiq ittifoq parchalanib ketgach, O'zbekistonda umumittifoq vazirliklari tugatildi. O'zbekiston hududida joylashgan ittifoq va ittifoq-respublika bo'ysunuvidagi korxonalar **milliylashtirildi.**

Bu korxonalar o'z faoliyat sohalariga qarab ixtiyoriy ravishda davlat tarmoq konsernlari, davlat uyushmalariga aylantirildi. Islohotlarning **birinchi bosqichi mobaynida tarmoq vazirliklari uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalar, ittifoqlar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirish yo'li bilan batamom tugatildi.** Avtomobil transportida, qurilishda, qishloq xo'jaligida boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

Umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar va faoliyat sohalarida, masalan, sayohatchilik, transport, madaniyat, kino-lashtirish tizimi va boshqalarda milliy kompaniyalar tuzildi.

Ularning boshqa boshqaruv tizimidan farqi shundaki, ular iqtisodiy jihatdan batamom mustaqildir. 1992-yil yanvar oyidan boshlab, viloyat, tuman va shahar joylardagi vakillik hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik joriy etildi. Boshqaruv xodimlarining umumiy soni oldin 35,5 % ga, keyinroq yana 22 % ga qisqardi.

### 5.3. Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyot tarkibini qayta qurish iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli hal qilishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyot tarkibini qayta qurish iqtisodiy mustaqillikka erishish, milliy iqtisodiyotni barpo etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. O'zbekiston iqtisodiyotining amaldagi tarkibi sobiq Ittifoqdagi mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi tamoyillari asosida o'nlab yillar mobaynida shakllangan edi. Unda O'zbekistonga:

- arzon xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar hamda strategik mineral resurslar yetkazib berish;
- sanoat markazlarida ishlab chiqarilgan tayyor mollarni sotishning keng bozori mavqeyi ajratilgan edi.

**Mamlakat iqtisodi oziq-ovqat mahsulotlari, energoresurslar importiga va qishloq xo'jalik xomashyosi va qimmatli metallar eksportiga asoslangan edi.** Xalq xo'jaligining bunday mustamlaka tarkibi sharoitida jahon bozorida raqobat qilish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining turmush darajasini ko'tarish imkoniyatini bera olmas edi.

Shuning bilan birga O'zbekiston raqobatbardosh tarkibga ega bo'lgan milliy iqtisodiyot tarkibini tashkil qilish imkoniyatlariga ega edi. Mamlakatning yerosti va yerusti boylik resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish, vujudga kelgan nomutanosibliklar hamda ziddiyatlarga barham berish, ijtimoiy

ishlab chiqarishning tarmoq va hududiy tarkibini qayta qurish lozim edi.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda **tarkibiy tuzilish siyosati aniqlandi**. U, eng avvalo, respublikaning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini, shuningdek, aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratishni nazarda tutdi. **Tarkibiy siyosat**, qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga, texnologik jarayonlarning tugallanganlik darajasini oshirishga, mamlakat yoqilg'i energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashga qaratildi.

Ilgari tashqaridan keltirilgan yuzlab mahsulot turlari shu yerning o'zida ishlab chiqarila boshlandi.

Respublikada industriyaning tayanch tarmog'i hisoblangan, ya'ni yoqilg'i energetika, aviatsiya va avtomobil qurilish, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo sanoati va hokazodan tortib, to yengil sanoat korxonalariga hamda juda ko'p qishloq xo'jalik mahsulotlarini **qayta ishlaydigan korxonalar** qurildi.

Respublikada eng katta sanoat tarmoqlari bo'lib yengil va yoqilg'i energetika sanoati hisoblanadi. Oxirgi yillarda mashinasozlik sanoatining ulushi 1,5 barobarga oshgan va hokazo. Buning sababi mamlakatimizda ichki va tashqi kredit vositalarining asosiy qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun baza hozirlashga qaratilganligidadir. Bu avtomobil va neftni qayta ishlash zavodlari, yangi avtomobil va temiryo'llar, yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatini o'nlab yangi va zamonaviylashtirilgan korxonalarni qurishga imkon berdi. 1997-yilning o'zidayoq Ko'kdumaloq konida kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Farg'onada ip yigiruv fabrikasi ishga tushirildi. Ma'lumki, O'zbekistonning sanoat qudrati, asosan, bir necha yirik shaharlarda to'plangan edi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yirik **qurilishlarning geografiyasi** ancha kengaydi. Bu siyosat uzoq vaqtdan beri hukm surib kelayotgan sanoat taraqqiyotidagi **mintaqaviy nomutanosiblik va ziddiyatni sezilarli yumshatdi**. Tabiiyki, iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirishda kompaniyachilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, u birdaniga takomiliga yetib ham qolmaydi. Bu



o'zgarishlar muntazam davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ular davr talabi va iqtisodiy siyosatdan kelib chiqib, tarmoqlararo hamda tarmoqlar ichida to'xtovsiz davom etaveradi.

Prezident I. Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida «**Iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirmay turib chinakam mustaqillikka erishib bo'lmaydi**» degan edi (333-bet). Iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirishning asosiy vazifasi **xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifati va raqobatbardoshligini** jahon bozori talablari darajasiga yetkazishdan iboratdir. Ana shuni nazarda tutib, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida an'anaviy bo'lgan paxta va oltindan boshqa turdagi **eksport mavjud bo'lmagan bo'lsa**, endilikda **yangi turdagi tovarlar paydo bo'ldi**.

Bu rangli metallar, avtomashinalar, mineral o'g'itlar, to'qimachilik mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlaridir. **Bu bilan, eksport-import tarkibi yangilandi.**

Import o'rnini bosuvchi tovarlarning ko'plab yaratilishi, mamlakatning importga qaramligini ancha chekladi, chunki bu bilan, mamlakatimiz o'zini-o'zi mahsulotlar bilan ta'minlashga bir qadar erishdi.

Ilgari O'zbekiston o'zini yoqilg'i-energetika resurslari bilan ta'minlash uchun ularni katta **miqdorda import qilar va bunga 600 ming tonna paxta tolasi qiymatiga teng pul mablag'lari sarflanar edi**. Yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish O'zbekistonni bu sohada chetga qaramlikdan va katta miqdordagi valuta sarfidan xoli etdi. Tarkibiy o'zgarishlar natijasida O'zbekiston oziq-ovqat ta'minotida ham, mustaqillik tomon jiddiy qadam tashladi. Bunga birinchi navbatda, don ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali erishildi. Natijada, O'zbekistonning donga bo'lgan **talab-ehtiyojlari to'liq o'z ishlab chiqarishi hisobidan qondiriladigan bo'ldi**.

Tarkibiy o'zgarishlar mamlakatning salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Shu maqsad yo'lida mahalliy xomashyoni **chuqur qayta ishlab, undan tayyor yoki yarimtayyor**, hatto, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga o'tildi

va bu katta naf keltirdi. Paxtani sotish o'rniga undan kalava ip tayyorlab, **uni jahon bozorida sotishdan 3 marta ko'p daromad olina** boshlandi. Muhimi, bu sohaning rivojlanishi yangi ishchi o'rinlar hisobiga aholini band qilish, uning daromadlari manbalarini oshirish imkonini yaratdi.

Tarkibiy o'zgarishlar tufayli O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning **an'anaviy sohalari bilan birgalikda yangi sohalari ham rivojlantirila boshlandi**. Bunday asosiy omillardan **birinchidan**, sanoatlashuv bo'lsa, **ikkinchidan**, servis sektorining tez sur'atlarda o'sishiga ahamiyat berilganligi bo'ldi va hokazo.

Iqtisodiyotimizdagi tarkibiy o'zgarishlar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, aholi farovonligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida amalga oshirildi. Bu, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, texnologik siklning tugallanganlik darajasini oshirish, mamlakatning yoqilg'i energetika ta'minoti va oziq-ovqat mustaqilligiga erishishga oid muammolarni hal etishda o'z ifodasini topdi. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Ilgari faqat chetdan keltirilgan minglab turdagi mahsulotlarni, shu jumladan, avtobenzin, konchilik sanoati, quvurlar ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, yengil avtomashinalar, murakkab maishiy texnika, optik tolali va boshqa xil kamyob tovarlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Bugun minglab turdagi sanoat mahsulotlarining yorliqlariga biz ko'rganda faxr-iftixor tuyg'ularini his qiladigan: «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan», degan so'zlar bitilgan.

O'zbekistonda xususiy va kredit-moliya mablag'larining asosiy qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asos yaratish maqsadlariga safarbar etildi. Bular avtomobil va neftni qayta ishlash zavodlari, yangi temiryo'l va avtomobil yo'llari qurilishi, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, shuningdek, o'nlab modernizatsiya qilingan yangi yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati korxonalaridir. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning industrial qudrati ilgari, asosan, Toshkent, Samarqand, Andijon,

Farg'ona, Chirchiq kabi yirik shaharlarda jamlangan edi. Bugungi kunga kelib, yangi investitsiya loyihalari geografiyasi sezilarli tarzda kengaydi. Buning natijasida iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibi mukammallashib bormoqda.

Ustuvor tarmoqlarni to'g'ri belgilab olish avvallari tanqis bo'lgan mahsulotlar turlarini keng miqyosda ishlab chiqarishga keng yo'l ochish bilan cheklanmadi, balki ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibining takomillashuviga ham yordam berdi. Ayni paytda, iqtisodiy taraqqiyotda o'ziga xos lokomotiv vazifasini ham o'tadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va import o'rni bosuvchi mahsulotlar turlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ichki bozorni xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi tizimini rivojlantirish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish, O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish bilan bog'liq boshqa yo'nalishlar eng ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi. Investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish tarmoqlari ulushi 70 foizdan oshib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning real ko'rsatkichlarini oshirish sari keng yo'l ochdi.

Eng muhim tarmoqlar bilan bir qatorda ilg'or, yuksak ilmtalab yuqori ishlab chiqarishlar – avtomobilsozlik, samolyotsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va metallsozlik, shuningdek, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ham jadal rivojlantirilmoqda. Neft-gaz qazib olish va qayta ishlash sanoati, rangli metallurgiya, avtomobil sanoatida yaratilayotgan qudratli salohiyat butun mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotida muhim omil bo'lmoqda.

**Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish quyidagi vazifalarni hal qilishi lozim:**

1. Respublika uchun eng asosiy bo'lgan tarmoqlarni, jumladan, yoqilg'i-energetika va g'alla majmualarini rivojlantirish,

yangi tarmoqlar yaratish, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat tarmoqlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish.

2. Tabiiy, mineral-xomashyo, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish.

3. Boshqa davlatlardan xomashyo resurslarini eng muhim turlari, butlovchi va oziq-ovqat mahsulotlari olib kelinishini qisqartirib, ana shu mahsulotlar o'rnini bosadigan korxonalarni rivojlantirish asosida respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish.

4. O'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga aholi va iqtisodiyotning eng muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

5. Korxonalarni zamonaviy ilg'or texnologiya, energetika uskunalari, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash.

6. Xodimlar malakasini oshirish va milliy ishchi kadrlarga ega bo'lish.

7. Aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish. Tashabbuskorlik va omilkorlikni rag'batlantirish.

8. Iqtisodiyotning mutanosib rivojlantirishni ta'minlash va uning bir tomonlama ixtisoslashuvini, shuningdek, tarmoqlar ichidagi hamda hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish.

9. Respublikaning eksport imkoniyatini kengaytirish.

10. Agrar sektorda qayta qurishni tugallash. Ekin maydonlarida paxta, g'alla, yem-xashak ekinlarini, sabzavot va hokazolarning optimal variantlarini yaratish, qishloq xo'jaligida boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllarini takomillashtira borish.

11. Sanoat, transport, aloqa, kimyo va neft kimyo sanoatini, avtomobilsozlik, telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish.

12. Chetel turizmini rivojlantirish.

13. Yangi boshqaruv strukturasi vujudga keltirish va takomillashtirib borish. Ularda ishlaydigan kadrlarga, ularning kasbiy tayyorgarligiga yanada yuqori talablar qo'yish va hokazo.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning yettita yo'nalishlari belgilab berilgan.

**Birinchi muhim ustuvor yo'nalish** — bu Mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik biz uchun muqaddas ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarga tayangan holda yashash, ana shu bebaho merosni asrab-avaylab, uni kelgusi avlodlarga yanada boyitgan holda yetkazish demakdir.

Ayni vaqtda mustaqillik bizdan zimmamizga olgan xalqaro majburiyatlarga rioya etish va ularni bajarishni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi talablariga, xalqaro huquqning umumme'tirof etilgan me'yorlarga qat'iy amal qilib yashash mas'uliyatini so'zsiz yuklaydi.

Bu — uzoq-yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlik asosida yashash, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib obro' va o'rin egallash uchun doim intilish va kurashish demakdir.

**Ikkinchi ustuvor yo'nalish** — bu mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligi, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdan iborat.

**Uchinchi ustuvor yo'nalish** — bu bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lib erkin iqtisodiyotning tamoyillarini joriy etish.

Bu yo'nalish yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydigan, fuqorolarning muhim daromad manbayi va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo'lgan xususiy sektorning mavqeyini yanada oshirish, kichik-o'rta biznes hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu borada tashqi iqtisodiy faoliyat hamda valuta bozorini erkinlashtirish, milliy valutaning erkin almashuvini ta'minlash, milliy valutamiz — so'mimizning barqarorligi va xarid quvvatini

har tomonlama oshirish taraqqiyotimizning yangi bosqichidagi asosiy vazifalarimizdan biridir.

**Iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni** amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, eksport rivoji, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashning muhim sharti bo'lgan **xorijiy investitsiyalar**, avvalombor **xususiy sarmoyalarni jalb etish**, buning uchun tegishli investitsion muhit va investorlar uchun kafolatlar yaratish.

Shuningdek, tashqi va ichki investitsiyalarni butun iqtisodiyotimizni yangilashga, oltin-valuta zaxiralarimizning barqaror o'sishiga xizmat qiladigan yetakchi tarmoqlarga birinchi navbatda yo'naltirish.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda **xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirish**, dunyo iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv, *Jahon Savdo Tashkilotiga* a'zo bo'lish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

**To'rtinchi ustuvor yo'nalish** — bu inson huquqlari va erkinliklarini so'z hamda matbuot erkinligini, shuningdek, oshkorlikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir.

Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda «to'rtinchi hokimiyat» darajasiga ko'tarilishi lozim.

**Beshinchi ustuvor yo'nalish** — fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha aytganda, bu — «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir.

Bu yo'nalish ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-boqich jamoa tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi.

Buning uchun avvalombor davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim.

Hayotimizni erkinlashtirish yoʻnalishlarining yana bir muhim yoʻli markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyí tuzilmalariga, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich oʻtkaza borishni taʼminlashdir.

**Oltinchi ustuvor yoʻnalish** — bu sud-huquq sohasini isloh qilish boʻyicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish. Sudlar tom maʼnoda mustaqil boʻlgan holdagina qonunlarning qatʼiy ijrosi va ularning haqiqiy ustuvorligi soʻzsiz taʼminlanadi.

**Yettinchi ustuvor vazifa** — bu barcha islohotlarimizning bosh yoʻnalish va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili hamda meʼzonidir.

Bu demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish demakdir.

Ijtimoiy infratuzilmani taʼlim va sogʻliqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan taʼminlash tizimini takomillashtirish, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan muhofaza etish, aholining sotsial soha boʻyicha talab va ehtiyojlarini qondirish masalalariga davlatning doimiy eʼtiborini har tomonlama kuchaytirish.

Maʼlumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Oʻzbekiston iqtisodiyotiga ham taʼsir koʻrsatmasdan qolmaydi. Shuning uchun Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yoʻnalishlarida buni eʼtiborga olish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish boʻyicha 2009—2012-yillarga moʻljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng **ustuvor yoʻnalishi** boʻlib qoldi.

Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga 2013-yil uchun quyidagi ustuvor vazifalar belgilab qoʻyilgan:

1. Yuqori oʻsish surʼatlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish.

2. Iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadal-lashtirish va uning koʻlamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish.

3. Yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish.

4. Iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga axborot kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish.

5. Faol investitsiya siyosati yurgizish. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash.

6. Har bir hudud uchun ustivor tarmoqlarni aniqlash, sanoat ishlab chiqarishni, ayniqsa qayta ishlash tarmoqlarini, xizmat ko'rsatish sohasini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani tezkor va muvozanatli rivojlantirishni, hududlarni tarmoqlar bilan uzviy bog'lagan holda kompleks rivojlantirishni ta'minlash.

7. Yangi ish o'rinlarini tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muhim tamoyil va ustivor yo'nalishlarning barchasini izchil amalga oshirish natijasida o'zimizning asosiy maqsadimizga — rivojlangan, ma'rifiy, huquqiy demokratik davlatlarda mavjud bo'lgan hayot darajasiga erisha olamiz, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash imkoniga ega bo'lamiz.

**Tayanch iboralari:**

- iqtisodiyot tarkibi;
- soha, majmua;
- milliy hisoblar tizimi;
- ichki iqtisodiyot;
- tashqi (qolgan dunyo);
- sektorlar;
- institutsional birliklar;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;
- ijtimoiy tuzilish;
- tarmoq tuzilishi;
- takror ishlab chiqarish tuzilishi;
- hududiy tuzilish;
- iqtisodiy region;
- ustivor yo'nalish;
- kichik biznes va tadbirkorlik;
- ishlab chiqarish samaradorligi;
- tarkibiy tuzilish siyosati;



- investitsiya;
- xorijiy investitsiya;
- xususiy sarmoya.

### **Nazorat savollari**

1. Milliy iqtisodiyotning tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Soha, sektor va kompleks tushunchalarining bir-biridan farqi nimada?
3. Milliy hisoblar tizimida milliy iqtisodiyot qanday tasniflanadi?
4. Makroiqtisodiyotni sektorlarga bo'lib o'rganishning ahamiyati nimada?
5. Sektorlar va ularning institutsional birliklari to'g'risida nimalar deya olasiz?
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda yagona iqtisodiyotni ikki sohaga ajratish tajribasi, tovar ishlab chiqarish sohasi va xizmat ko'rsatish sohasi, ularning mohiyati nimada?
7. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi nimani anglatadi?
8. Ijtimoiy tuzilish nimani anglatadi?
9. Tarmoq tuzilishi-chi?
10. Takror ishlab chiqarish tuzilishi-chi?
11. Hududiy tuzilishi-chi?
12. Iqtisodiy rayonlashtirish belgilari nimalardan iborat?
13. O'zbekiston qanday iqtisodiy regionlarga bo'linadi?
14. Iqtisodiy faoliyat tarkibi qanday tahlil qilinadi?
15. Mulkiy munosabatlar tahlilida nimalarga e'tibor beriladi?
16. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik darajasi qanday tahlil qilinadi?
17. Ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri belgilash nimalarga asoslanadi?
18. Ishlab chiqarish samaradorligi qanday tahlil qilinadi?
19. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmini miqdor va sifat jihatidan o'sish sur'atlarini tahlil qilishdan maqsad nima?
20. Iqtisodiyot tarkibini qayta qurishning vazifalari nimalardan iborat?
21. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
22. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishni 2013-yilda qanday ustuvor yo'nalishlari belgilangan?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2002-yil 30-avgust. «Xalq so'zi» gazetasi.

2. *Karimov I.A.* «Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'lida». Tom 16. — T.: «O'zbekiston». 2008-y.

3. *Karimov I.A.* «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish — davr talabi» mavzusida 2009-yil 13-fevral kuni bo'lib o'tgan «2008-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim ustuvor vazifalari»ga bag'ishlangan Respublika Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2009-yil 14-fevral.

4. *Karimov I.A.* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

5. *Karimov I.A.* «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» — T.: «O'zbekiston». 2009-y.

6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat nashriyoti. 2009-yil.

7. O'zbekiston Respublikasining davlat va ma'muriy tuzilishi. Toshkent. 1996-yil.

8. Общий классификатор всех видов экономической деятельности. (ОКЕД). Ташкент. 1995 г.

9. *To'xliyev N.* Taraqqiyotning o'zbek modeli. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2012-yil.

10. *Azimov R.S.* 2009-yil 22-maydagi xalqaro konferensiyadagi qilgan ma'ruzasi. — T.: 2009.

## VI bob. REAL SEKTOR TARMOQLARI

---

### *Reja:*

- 6.1. Sanoat – milliy iqtisodiyotning yirik sohasi.
- 6.2. Qishloq xo'jaligi.
- 6.3. Kapital qurilish.
- 6.4. Transport, yo'l xo'jaligi va aloqa.

### **6.1. Sanoat – milliy iqtisodiyotning yirik sohasi**

Milliy iqtisodiyotning real sektori o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarini oladi. Ma'lumki, bu tarmoqlarda moddiy ne'matlar moddiy buyum shaklida ishlab chiqariladi. Undan tashqari, ishlab chiqarish majmuyi o'z ichiga yuk tashish transportini, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi aloqa tarmoqlarini, savdo va tayyorlov tashkilotlarini, umumovqatlanish korxonalarini ham oladi.

Real sektor tarmoqlari ichida sanoat milliy iqtisodiyotning yirik yetakchi sohasi bo'lib hisoblanadi. Unda 1552,7 mingdan ortiq ishchi va xizmatchi mehnat qilishadi. Bu tarmoqlarda band aholining soni 13,4 % ni tashkil qiladi. Sanoatning 100 dan ortiq tarmoqlari bo'lib, ulardan 6 tasi bazaviy (tayanch) hisoblanadi.

Asosiy fondlarning 40 % dan ko'prog'i sanoat hissasiga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 24 % dan ortiqrog'i sanoatda yaratiladi. Sanoat tarmog'ida 15200 mayda, o'rta va yirik korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari faoliyat ko'rsatayapti. Yalpi ichki mahsulot yetishtirishda nodavlat sektorning ulushi 84,6 % ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotining tarmoq tarkibi quyidagicha.

Sanoat mahsulotlarining ichida yoqilg'i **energetika majmuasi**ning o'rni alohida.

Uning tarkibiga gaz, neft va neftni qayta ishlash, ko'mir va energetika kiradi. Bu majmuaning hissasi sanoat ishlab

chiqarishida 27,8 %dan ortiqrog'ini tashkil qiladi. O'zbekiston jahondagi **o'nta yirik gaz ishlab chiqaruvchi** mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr stansiyalari va issiqlik elektr stansiyalari mavjud. Metallurgiya majmuasi tarkibiga qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi, boyituvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran, aluminiy xomashyosi, nodir metallar va boshqa qator qazilma boyliklarining aniqlangan zaxiralari ko'p.

O'zbekistonda **oltinning 30 ta koni topilgan**. Qazib olinadigan **oltinning umumiy miqdori bo'yicha** O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida **ikkinchi**, kumush, qo'rg'oshin, rux va volfram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida **oltin ishlab chiqarish hajmi bo'yicha sakkizinchi**, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchi o'rinda turadi.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalaridir, yangi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy qayta qurishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol mollarining uchdan bir qismi yengil sanoat korxonalarini tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu yerda an'anaviy yetakchi soha to'qimachilikdir (11-jadval).

*11-jadval*

**Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atining o'sishi**  
(foiz hisobida)

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2011-yil (2010-yilga nisbatan % hisobida)</b>	<b>2013-yil (2012-yilga nisbatan %)</b>
Sanoat – jami	106,3	8,8
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	112,2	121,0
Qurilish materiallari sanoati	111,9	113,6
Yengil sanoat	104,7	113,0

Oziq-ovqat sanoati	113,1	109,0
Boshqa sohalar	111,0	111,5

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent. O'zbekiston – 2011.

**Sanoatning o'sish sur'atlari va tarmoq tarkibi.** Sobiq sovet xo'jalik yuritish tizimining barham topish davridagi biroz pasayishdan so'ng yurtimizda 1996-yildan boshlab sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib bormoqda. 2013-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 % ga o'sdi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda avtomobilsozlik, neft-gaz, kimyo, zamonaviy qurilish materiallari, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, takomillashgan oziq-ovqat, zamonaviy turdagi mahsulotlarni ishlovchi yengil sanoat tarmog' turlari vujudga keldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida avtomobilsozlik sanoati alohida o'rin egallamoqda.

Bu tarmoq Asaka shahrida AQSHning «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan, Samarqand shahrida Yaponiyaning «ISUZU» kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Germaniyaning «MAN» kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o'z ichiga oladi.

Ana shunday o'zgarishlar natijasida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990–2010-yillarda 11,6 barobar o'sdi.

Faqat oxirgi 10 yilning o'zida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 7,1 barobar, avtobuslar – 2,6 barobar va yuk avtomobillari tayyorlash – 12,9 barobar oshdi (12-jadval).

Neft qazib chiqarish va neftni qayta ishlash sanoatining yaratilishi mamlakatimizning energetik xavfsizligini ta'minladi. Neft va gaz kondensati qazib olish 1990-yilga nisbatan 1,4 barobar o'sdi.

Tabiiy gaz ishlab chiqarish sur'ati 1990–2010-yillar davomida 1,6 barobar, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi esa 15,2 barobar ko'paydi. Muborak gazni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushirildi. Sho'rtaneftegaz korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan qurilma o'rnatildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2012-yilda Surg'il koni bazasida hatto dunyo mezonlari bo'yiga ham noyob bo'lgan, qiymati 2,5 mlrd dollardan ziyodni tashkil etadigan Ust-yurt gaz-kimyoo kompleksi qurilishi boshlandi. Ushbu majmua 4,5 mlrd m<sup>3</sup> tabiiy gazni qayta ishlash natijasida 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi.

Energetika mustaqilligini ta'minlash hamda neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqloq yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan chetel kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi («Teknip», Fransiya) va Sho'rtan gaz-kimyoo majmuasi («ABB») barpo etildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq rekonstruksiya qilindi. Gaz-kimyoo tarmog'ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Qo'ng'iroq soda zavodida 2006-yildan boshlab kalsiyli soda, Samarqand kimyoo zavodida nitrokalsiyfosfat o'g'iti ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, 2010-yilda mintaqamizda yagona bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi ishga tushirildi. Uning 2 navbatining qurish ishlari boshlab yuborildi.

Yog'ochni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoatida ishlab chiqarish hajmi 13,4 barobar, oziq-ovqat sanoatida 5,7 barobar, yengil sanoatda 3,8 barobar o'sdi.

Ip-kalava ishlab chiqarish 2,2 barobar ko'paydi. Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21 million kvadrat metr dan ziyod bo'ldi.

O'tish davrining murakkab sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida iqtisodiyotning bazaviy

Asosiy turdagi sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish prognozi\*

T/r	Sanoat mahsulot turlari	O'lov birligi	2012-yil	2013-yil	2015-yil (prognoz)
1.	Yengil avtomobillar	ming dona	235,5	245,0	260,0
2.	Avtobus va yuk avtomobillari	ming dona	3,7	3,0	3,2
3.	Kuchli tok kabellari	ming km.	13,6	13,5	14,5
4.	Muzlatkichlar	ming dona	17,8	90,0	110,0
5.	Televizorlar	ming dona	26,7	105,0	112,5
6.	Energiya tejaydigan lampalar	ming dona	2007,6	28400,0	28870,0
7.	Kaliy o'g'itlari	ming tonna	125,3	200,0	450,0
8.	Kalsiyangan soda	ming tonna	92,0	100,0	100,0
9.	Qurilish oynasi	ming m <sup>2</sup>	13051,4	12140,0	13000,0
10.	Keramik plitalar	ming m <sup>2</sup>	4350,0	3800,0	5800,0
11.	Paxtadan ip kalava	ming tonna	140,6	345,6	524,0
12.	Tayyor gazmollar	million m <sup>2</sup>	56,4	241,4	304,0
13.	Trikotaj buyumlar	mln. dona	64,6	132,7	241,3

tarmoqlari, xususan, neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini jadal rivojlantirish uchun davlat barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Natijada chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi va O'zbekiston sanoatining tarmoq tarkibi ancha diversifikatsiya qilindi va mutanosiblashdi.

\* Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish, o'quv qo'llanma. «O'qituvchi». – T.: 2013.

Sanoatni barqaror, jadal va mutanosib rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilash negizida sanoatning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosadigan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2011–2015-yillarda yurtimizda sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,6 barobar oshirishga qaratilgan.

Sanoat tarmoqlari samaradorligi va raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida, 2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida dastur qabul qilindi.

Ushbu Dasturda jami 47,5 mlrd dollarlik 500 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish belgilangan.

Dasturda energetika, neft-gaz-kimyoy, kimyoy, to'qimachilik va yengil sanoat sohalari, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlarni jadal rivojlantirish nazarda tutilgan.

Xususan, 2011–2015-yillarda yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish doirasida mamlakatimiz **energetika salohiyatini** yanada rivojlantirish, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, iste'molchilarni energiya bilan ishonchli va sifatli ta'minlash, energiya quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'nlab investitsiya loyihalari amalga oshiriladi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2015-yilga borib sanoatda sarflanadigan energiya ulushini kamida **30 foiz kamaytirish** mo'ljallanmoqda.

Kimyoy mahsulotlari ishlab chiqarishda raqobat qila olish ustunliklariga, jumladan, tabiiy resurslarning ulkan salohiyatiga, qudratli ishlab chiqarish va texnik baza hamda yuqori malakali kadrlarga ega bo'lgan kimyoy sanoati investitsiyalar va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun jalb etuvchan yo'nalish hisoblanadi.



Bu sohada 2011–2015-yillarda kimyo ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish, materiallar va tayyor mahsulotlarning prinsipial yangi turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga qaratilgan 30 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshiriladi va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,6 barobar oshiriladi.

2011–2015-yillarda **mashinasozlik** sohasida yengil avtomobillar ishlab chiqarishni 1,2 barobar, zamonaviy avtobuslar ishlab chiqarishni 1,3 barobar, sovutkich va muzlatkichlar ishlab chiqarishni 4 barobar hamda televizorlar ishlab chiqarishni 5,1 barobar oshirishga qaratilgan 80 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Xususan, 2011-yilda «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobillarning kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxonaning foydalanishga topshirilishi nafaqat ichki ehtiyojlarni to‘liq ta‘minlash yoki mahalliy avtomobillarning mahalliyashtirish darajasini oshirish, balki avtomobil dvigatellarining tashqi bozorlarga eksport qilish imkonini ham yaratadi. Samarqand viloyatida katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» rusumidagi avtotransport vositalarini ishlab chiqaradigan va ularga xizmat ko‘rsatadigan majmuaning tashkil etilishi ham yuk avtomobillariga butlovchi qismlar ishlab chiqarish bo‘yicha koorperatsiya aloqalarining rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

Vertikal integratsiyalashgan yangi **zamonaviy to‘qimachilik** majmualarining qurilishi paxta tolasini yurtimizda qayta ishlash hajmining 2 barobardan ziyod oshishini ta‘minlaydi. Bu, o‘z navbatida, 2011–2015-yillarda kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlari tayyorlashni 3,2 va 2,6 barobar hamda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari eksportining 1,7 barobar oshirish imkonini beradi.

Dasturning ustuvor yo‘nalishlaridan biri **farmatsevtika** sanoatini rivojlantirishdir. Ushbu yo‘nalishda farmatsevtika korxonalarini tashkil etish va modernizatsiya qilish orqali 150 dan ortiq zamonaviy dori preparatlarining yangi turlarini o‘zlashtirish, shu orqali dori-darmonlar iste‘moli tarkibida yurtimizda ishlab chiqarilgan dori-darmonlar ulushini 3 barobardan ziyod oshirish nazarda tutilgan.

Kelgusida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi salohiyatidan to'liq foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur zonada yetakchi xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar, eng yangi isitish moslamalari, kimyo va neft-kimyo mahsulotlari, maishiy elektronika va aloqavositlari ishlab chiqarish bo'yicha o'nlab yuqori texnologiyaga asoslangan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimizdagi xomashyo va tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni jadal amalga oshirish sanoat tarkibida qayta ishlash tarmoqlarining ulushini oshirib, 2010-yildagi 41 foizdan 2015-yilda 49 foizga yetkazish imkonini beradi.

Dasturni amalga oshirish 2011–2015-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortib, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga yetkazilishi, shuningdek, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportining oshishini ta'minlaydi.

Bunda umumiy eksport hajmida sanoat mahsulotlarining ulushi 1,4 barobar ortadi.

**Sanoat ishlab chiqarish** dasturi sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatlarining yakuniy natijalarini o'z ichiga oladi va jamiyat talabiga muvofiq ma'lum nomenklaturada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmini ifodalaydi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish natura va qiymat ko'rsatkichlarida o'lchanadi.

**Natura ko'rsatkichlari nomenklatura va assortimentda beriladi.**

**Nomenklatura** bu sanoat mahsulotlarining turlaridir. Masalan, traktor, ekskavator, poyafzal, mebel va hokazo.

**Assortiment** – biron-bir sanoat mahsuloti guruhidagi ayrim xil buyumlar tarkibi, ularning nisbati va navlari. Masalan, Mineral o'g'itlar – azotli, kaliyli, fosforli o'g'itlar; yoki **kostyumlar** ichida – erkaklar, ayollar, bolalar kostyumlari, **poyafzal** ichida – erkaklar poyafzali, ayollar poyafzali, bolalar

poyafzali va hokazo. Assortiment, mahsulot nomenklaturasini konkretlashtiradi, detallashtiradi va iste'molchilarning aniq talabini qondiradi.

Natural ko'rsatkichlar sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmini aniq ifodalaydi. U konkret mahsulot ishlab chiqarishni ifodalagani uchun ham unga bo'lgan talab va ishlab chiqarishni bir-biri bilan balanslash (muvofiqlashtirish) imkonini beradi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmini aniqlash uchun tovar va yalpi mahsulot ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Tovar mahsuloti** o'z ichiga tayyor mahsulotlar qiymatini, sotish uchun mo'ljallangan yarimfabrikatlar qiymatini hamda kapital qurilish uchun ishlatiladigan sanoat xarakteridagi ishlarning qiymatini oladi.

**Tovar mahsuloti** ko'rsatkichi hajmiga shu korxonada ishlab chiqarilgan va ana shu korxonaning o'zida boshqa mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan mahsulotlar kirmaydi. Bu usul *zavod uslubi* deb ataladi.

**Yalpi mahsulot ko'rsatkichi** tovar mahsuloti ko'rsatkichidan tugallanmagan ishlab chiqarishning o'sishi yoki kamayishi hajmi bilan farqlanadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dasturi jamiyatning sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabi va bu talabni qondirish imkoniyatlari asosida tuziladi. Sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoj quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarishning ehtiyoji.
2. Aholining talabi.
3. Eksport.
4. Davlat rezervlarini to'ldirish.
5. Boshqa talablar.

**Ishlab chiqarish ehtiyoji** korxonalar, tarmoqlar, boshqarmalar, vazirliklar va milliy iqtisodiyot bo'yicha umumlashtiriladi.

**Aholining sanoat mollariga bo'lgan talabi** uning soni yoki har 100 yoki 1000 kishiga to'g'ri keladigan me'yor (norma)lar asosida aniqlanadi. Bunday prognozlarni ishlab chiqishda aholining mahsulotlar sotib olish qobiliyati, pul daromadlari va xarajatlari hisobga olinadi.

Sanoat mahsulotlarining *eksportga* bo'lgan ehtiyoji tashqi savdo rejasi asosida chet mamlakatlar bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra belgilanadi.

**Davlat rezervini** to'ldirish ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dasturining muhim qismi hisoblanadi. Bu mamlakat iqtisodiyotida xomashyo material, yonilg'i, yoqilg'i, uskuna va hokazolar bilan ta'minlashda qiyinchiliklar tug'ilib qolganda, tabiiy ofatlar yuz berganda, xalqaro vaziyatlar og'irlashganda va hokazo vaziyatlar yuz berganda foydalanilishi mo'ljallangan mahsulotlar fondidir. Uning hajmi o'sha sharoitdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarga qarab hal qilinadi. Sanoat mahsulotlariga bo'lgan **boshqa talablar** ham mahsulotning turiga qarab, uning u yoki bu maqsad uchun ishlatilishi me'yor (norma)lariga qarab aniqlanadi.

Sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab aniqlangandan so'ng **ishlab chiqarish imkoniyatlari** ko'rib chiqiladi.

Sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab va ishlab chiqarish imkoniyatlari o'rtasidagi nisbat moddiy balans tuzish yordamida aniqlanadi. Imkoniyatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. U yoki bu mahsulot bo'yicha yil boshidagi qoldiq.
2. Mahsulot ishlab chiqarish.
3. Import.
4. Davlat rezervlaridan foydalanish.
5. Boshqa tushumlar.

**Imkoniyatlar** ichida eng asosiysi bu ishlab chiqarish hisoblanadi. U ishlab chiqarish quvvatlari balansi tuzish yo'li bilan aniqlanadi.

**Ishlab chiqarish quvvati** bu mavjud ishlab chiqarish vositalaridan belgilangan ixtisoslashuvga va ish tartibiga muvofiq to'lato'kis foydalanilganda bir yil ichida (sutka, smenada) ishlab chiqarish mumkin bo'lgan eng ko'p mahsulotdir. Ishlab chiqarish quvvatlari balansi quyidagi ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi:

1. Yil boshidagi ishlab chiqarish quvvati.
2. Dasturlashtirilayotgan davr mobaynida ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi (tashkiliy-texnikaviy tadbirlar; «Rekonstruksiya va modernizatsiya»; Yangi qurilish hisobiga va hokazo).

3. Ishlab chiqarish quvvatlarining ishlab chiqarishdan chiqib ketishi.

4. Yil oxiridagi ishlab chiqarish quvvatlari.

5. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatlari.

6. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti.

7. Ishlab chiqarish mahsulotining hajmi.

**Yil oxiridagi ishlab chiqarish quvvatlari** yil boshidagi ishlab chiqarish quvvatlariga yangi kiritilgan ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shib, ishlab chiqarishdan chiqib ketgan quvvatlarni ayirib tashlaganiga tengdir.

**O'rtacha yillik kiritilgan (chiqarilgan) quvvatlar** yangi kiritilgan (chiqarilgan) quvvatlar miqdorini yil oxirigacha qolgan to'liq oylar miqdoriga ko'paytirib, 12 ga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_x = O'_{o'y} \cdot O'_{f.k.}$$

bunda:

$M_x$  — mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

$O'_{o'y}$  — o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatlari miqdori;

$O'_{f.k.}$  — o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatlardan foydalanish koeffitsiyenti.

## 6.2. Qishloq xo'jaligi

Xalqimiz turmush farovonligini yaxshilashda mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ahamiyati beqiyosdir. Qishloq xo'jaligi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki muhim xomashyo sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Bu soha yirik tarmoqlararo makroiqtisodiyot majmuyi bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlar yig'indisidir. Buni agrosanoat kompleksi deb yuritiladi. **Agrosanoat kompleksi** — murakkab tizim bo'lib, uni isloh qilish

boshqa tarmoqlar bilan tarkibiy bog'liqligidan kelib chiqadi. Shuning uchun bu tizim **4 sohaga ajratiladi.**

**1. Birinchi soha — sanoat tarmoqlari.** Ular qishloq xo'jaligini moddiy-texnika vositalari, xususan, traktor va qishloq xo'jaligi mashinalari, chorvachilik va yem-xashak ishlab chiqarish uchun zarur texnika vositalari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish uchun kimyo vositalari va hokazolar bilan ta'minlaydi.

**2. Ikkinchi soha — bu bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidir.** Unga o'simlikchilik, chorvachilik, qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan agrokimyo, veterinariya va boshqa sohalar kiradi.

**3. Uchinchi sohaga — qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, transportirovka qilish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadigan tarmoqlar kiradi.**

**4. To'rtinchi soha — infrastruktura sohasi —** mamlakat aholi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi iqtisodiy va texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar yig'indisidan iboratdir. Ularning asosiy maqsadi, vazifasi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoatni qishloq xo'jaligi xomashyosiga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir.

Milliy iqtisodiyotda eng katta ahamiyat kasb etadigan va texnik jihatdan yaqin integratsiya bu ikkinchi va uchinchi qishloq xo'jaligi sohalaridir. Albatta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'p va sifatli ishlab chiqarish juda muhim masala. Shuning bilan birga ikkinchi muhim masala uni saqlash, ishlab chiqarilgan mahsulotni qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi uzoq ishlab chiqarish jarayoniga egadir. Iste'molchilar yil davomida bir tekis mahsulot bo'lishini xohlaydilar. **Shuning uchun ham bu masalani hal qilish to'rtinchi soha tarmoqlari, ya'ni rivojlangan ishlab chiqarish infrastukturasi mavjud bo'lishini taqozo qiladi.** Shuni qayd etish lozimki, sobiq SSSR davrida ikkinchi va uchinchi sohani, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va saqlash, qayta ishlash tarmoqlarini birlashtirish maqsadida Gosagroprom tashkil qilingan edi. Bundan maqsad yagona rahbarlik ostida bir-biri

bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jalik sohasini boshqarish, rejalashtirish va moliyalashtirish imkonini yaratish edi.

Mamlakatda boshlangan qayta qurish iqtisodiy va siyosiy demokratlashtirish jarayoni yangi **agrar siyosatni ishlab chiqishni** zarurat qilib qo'ydi. Bu siyosatning asosiy maqsadi qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurish, har xil mulkchilik, xo'jalik va xo'jalik yuritish shakllari asosida agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga o'tish edi. Tabiiy ravishda rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik usuli o'rniga agrosanoat majmuyiga rahbarlik qilishning yangi shakllari tashkil topa boshladi.

Afsuski, tarmoqni boshqarishdagi qayta qurishlar agrosanoat majmualaridagi (ASM) nomutanosibliklarni hal qila olmadi. ASMning texnik va moliyaviy yordam, infrastrukturani, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash tarmoqlariga ko'rsatilmay qolaverdi.

Natijada, agrosanoat majmuasining bu tarmoqlarning quvvati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining imkoniyatlaridan orqada qoldi. Oqibatda, tez buziladigan mahsulotlar, ya'ni kartoshka, sabzavot, meva va hokazolarning sezilarli qismi iste'molchilarga yetib bormay qolaveradi. Qayta ishlaydigan korxonalarining soni kam, borlarida esa kam samarali eski texnika saqlanib qolinaverdi. Bularning hammasi katta muammoga aylanib qola boshladi va tarmoqning qayta qurishni zarurat qilib qo'ydi. Bu muammo mustaqillik davrida asta-sekin o'zi yechimini topa boshladi.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning hal qiluvchi tarmoqlaridan biridir.

Respublika aholisining 50 foizdan ziyodrog'i qishloq joylarida yashaydi. Respublikada mehnatga qobiliyatli bo'lgan mehnat resurslarining (17157,6 ming kishi), iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni, ya'ni 25 % ga yaqini qishloq va o'rmon xo'jaligida xizmat qilishadi. Yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmogda 2000-yil bu boradagi ko'rsatkich 30,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 16,8% ni tashkil etdi.

Respublika qishloq xo'jaligiga **dehqonchilikni**, ya'ni g'alachilik, paxtachilik, sholikorlik, kanopchilik, lavlagikorlik,

mevachilik, tokchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalaridan va **chorvachilikni**, ya'ni qoramolchilik, qo'ychilik, xususan, qorako'chilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, pillachilik sohalaridan iboratdir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosini paxtachilik tashkil qiladi. O'zbekiston jahonda paxta hosilini yetishtirish bo'yicha 5-o'rinda, paxta tolasi eksporti bo'yicha (AQSHdan keyin) 2-o'rinda turadi. O'zbekistonda asosiy valuta tushumi ana shu paxtadandir. Paxta dunyodagi 90 ta davlatda yetishtiriladi. O'rta hisobda dunyoda yiliga 18 mln tonna paxta tolasi olinadi. AQSH va Xitoyda yiliga 4 mln tonnadan, Hindiston 3 mln tonna paxta tolasi yetishtiradi. Dunyoda yetishtiriladigan paxta tolasining 6 % ni O'zbekiston Respublikasi yetishtiradi. 2013-yilda respublikamizda 3,360 mln tonnadan ortiq paxta yetishtirildi. Har bir gektar yerdan 26,5 sentner hosil olindi.

Shuningdek, respublikada yetishtiriladigan meva, uzum, sabzavot, poliz mahsulotlarining ko'p qismi qo'shni davlatlarga chiqariladi. Respublikada meva, uzum va sabzavotning yuqori sifatli navlari yetishtiriladi. O'zbekiston o'zining sifatli pillasi va qorako'li bilan dunyoga mashhur.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida 28 mln ga yaqin qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar mavjud. Shundan 4,2 mln ga sug'oriladigan yerlar hisoblanadi va ulardan ishlab chiqariladigan mahsulotning 95–97% olinadi. Respublikadagi jami ekin maydonining 42–43% paxta, 40 foizini don ekinlari, 4 foizini sabzavot, 2,5 foizini kartoshka va poliz ekinlari hamda 10 foizga yaqinini yem-xashak va boshqa ekinlar egallaydi. Ekin maydonlarini ekin turlari bo'yicha optimal taqsimlanishi natijasida g'alla mustaqilligiga to'lig'icha erishildi. Hozir g'alla eksport qilinmoqda.

Respublika qishloq xo'jaligida mulkchilikning quyidagi shakllari mavjud.

**1. Koorperativ** (jamoat xo'jaliklari, xo'jaliklararo korxonalar, shirkat uyushmalari, davlat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan xo'jaliklar, jamoat mulkiga aylantirilgan fermerlar va boshqalar).

**2. Davlat** (davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv tajriba va tajriba xo'jaliklari).



**3. Xususiy** (dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiylashtirilgan korxonalar).

**4. Aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari.**

Respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining deyarli 100 % iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda.

Respublika Prezidentining farmoniga binoan Qishloq xo'jaligi vazirligi, 1996-yil 1-noyabrdan boshlab Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga birlashtirildi. Farmonga, asosan, uning aniq vazifalari va funksiyalari belgilandi. Joylarda viloyat va tuman Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari tashkil qilindi.

Respublikada qayta ishlash tarmoqlari uchun yangi uskunalar va boshqa zarur vositalar sotib olindi. Qayta ishlash korxonalari bevosita ishlab chiqarish joylarida tashkil qilina boshlandi. Qo'shma korxonalar tuzila boshlandi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti (FAO)ning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi 86 ta davlat o'z aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmaydi, ya'ni dunyoning 1 mlrd.ga yaqin aholisi ochlikda yashamoqda.

Tojikiston Respublikasida aholi ehtiyojining atigi 50–55 %i o'zida ishlab chiqarilgan don mahsulotlari hisobiga ta'minlanadi. Respublikamiz o'z aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlab, chetga ham chiqarmoqda.

Qishloq xo'jaligining ish samaradorligi yuqori bo'lgan zamonaviy texnika vositalari bilan lizing asosida ta'minlash tizimining joriy etilishi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ladi. Bu qishloq mehnatkashlarini texnika bilan ta'minlashni katta istiqbolga ega ekanligidan dalolat beradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jalik samaradorligini yuksaltirishni asosiy omili sermehnat yumushlarni texnika zimmasiga yuklashdir. Jahon tajribasi tarmoq ishlab chiqarishining barqarorligi, yuqori unumdorligi ishlab chiqarish kuchlarining kompleks rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, moddiy texnika bazasining kuchliligi va kadrlar uchun shart-sharoit yaratilganligi bilan bevosita mutanosibligini ko'rsatadi.

Paxtadan mato, sun'iy charm, plastmassa, pilik, fotoplyonka, qog'oz, bo'yoq, paxta yog'i, sovun, margarin, glitserin, texnik moylar, chigit po'stlog'idan metil, etil spirtlari va sirka kislotasi olinadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan mustaqillik yillarida 100 dan ortiq ingichka va o'rta tolali serhosil paxta navlarining yaratilishi hosildorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Ushbu navlar tezpisharligi, turli kasallik va qishloq xo'jalik zararkunandalariga chidamliligi, yuksak tola sifati bilan ajralib turadi va ularga jahon bozorida talab katta bo'lmoqda.

Qishloqda xususiy fermer xo'jaliklarining talablari asosida barcha turdagi zarur xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi jadal rivojlandi. Shu davr mobaynida qishloqlarda 1424 ta mini bank, 1714 ta MTP (mashina traktor parki), 2324 ta yoqilg'i – moylash materiallari va mineral o'g'itlar sotish shahobchalari, 1711 ta suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, 300 ta konsalting markazi va boshqa infratuzilmalar tashkil etildi.

AQSH qishloq xo'jaligi infrastrukturasi yaxshi rivojlangan davlat.

AQSH qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha jahonning asosiy eksportyori hisoblanadi. Ya'ni, bug'doyning 45,0 %, makkajo'xori donining 55,0 %, arpaning 10,0 %, paxtaning 33,0 % uning hissasiga to'g'ri keladi. AQSHda meva, poliz, sabzavot ekinlari, chorvachilik mahsulotlarini sanitariya-gigiyena talablari darajasida saqlash uchun ombor va muzxonalar yetarli. Masalan, qishloq xo'jaligi uchun bitta maxsus avtomobilning o'zi bir vaqtda 80 bosh qoramol, 260 bosh cho'chqa va 6000 ta parrandani tashish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi aniq-ravshan belgilab olindi. Mazkur strategiya zamirida qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, paxta yakkahokimligiga barham berish, yurtimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda g'alla bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish vazifasi mujassam edi.

1998-yilda qishloqda faol institutsional o'zgarishlar bosqichi boshlandi.

Agrar islohotlar hamma joyda bozor munosabatlarini joriy qilish va xususiy mulk shaklini rivojlantirishga qaratildi.

Zarar ko'rib ishlayotgan hamda samarasi past jamoa va kooperativ xo'jaliklari tugatilib, ularning yerlari uzoq muddatli ijaraga xususiy fermer xo'jaliklariga yoki umrbod meros huquqi bilan dehqon xo'jaliklariga berildi.

Fermerlik harakatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imtiyozlar berildi, xususiy fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarini maqbullashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxtaning tezpishar va serhosil navlarini yaratish, shuningdek, paxta navlarini har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti va suv bilan ta'minlanish darajasini inobatga olgan holda rayonlashtirish bo'yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Agrar sohadagi islohotlar natijasida xususiy fermer xo'jaliklarining to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va ularga meros huquqi bilan uzoq muddatga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishini rag'batlantiradigan huquqiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini 50 yil muddatga ijaraga berish mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashning bozor prinsiplariga to'liq javob beradigan va fermer xo'jaliklari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan tushgan o'z daromadlari hisobidan barcha xarajatlarni qoplashda moliyaviy mablag'lardan foydalanish usuli va shaklini tanlashda ularning mustaqilligini ta'minlaydigan ishonchli tizim yaratildi.

Qishloq xo'jaligini isloh etish borasida aniq maqsadga qaratilgan ishlar natijasida mamlakat agrar sektori deyarli barcha tarmoqlarining dinamik rivojlanishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik mahsulotlarining hajmi muntazam ravishda oshib bordi:

– 2013-yil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko‘paydi. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish 6,8%, jumladan, dehqonchilik 6,4%, chorvachilik 7,4% ga o‘tdi;

– paxta xomashyosining yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi ulushi qisqarib, 47,7 foizdan 11,1 foizga tushdi, dehqonchilik va chorvachilikning boshqa mahsulotlari ulushining o‘shishi, asosan, ularning hosildorlik va mahsuldorlik darajasining oshishi hisobidan ta‘minlandi;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan zamonaviy minitexnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etildi.

2013-yil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, modernizatsiyalash va intensivlashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar agrar sektorda sifat o‘zgarishlarini ta‘minlamoqda. Noqulay ob-havo sharoitlari va suv taqchilligiga qaramay, barcha asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha yuqori hosil yetishtirildi va yig‘ib olindi: – 3,360 mln tonna paxta xomashyosi, 7,8 mln tonna g‘alla, 8,4 mln tonna sabzavot mahsulotlari hosili olindi.

2008–2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi qabul qilindi. Melioratsiya ishlarini moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta‘minlash maqsadida, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘arماسi tashkil etildi. Yerlarning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga davlat yordamini ko‘rsatish mazkur jamg‘armaning asosiy vazifasidir.

Quyidagilar qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarning sifat natijasi tariqasida namoyon bo‘ldi:

– ishlab chiqarish samaradorligi oshdi – asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligi o‘tdi;

– xususiy fermer xo‘jaliklarida rentabellik ortdi va oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror tarzda ishlab chiqarish masalasida mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydigan darajada ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yo'lga qo'yish orqali qo'shimcha qiymat yaratish, mahsulot ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 1 mln 427 ming tonnasi qayta ishlashga, 450 ming tonnasi eksportga 1 mln 466 ming tonnasi Toshkent shahri va boshqa yarmarka bozorlarida sotilishi, 562 ming tonnasi budget tashkilotlariga ajratilishi va qolgani ichki iste'mol uchun yetkazib beriladi. Fermer va dehqon xo'jaliklari aholi tomorqalarida mahsulotlarning ekilishi ustidan monitoring o'rnatildi. Ekish uchun zarur bo'lgan urug'lik, mineral o'g'itlar, ko'chatlar yetkazib berishning optimal tizimi yaratildi. Bugungi kunda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish maqsadida Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi orqali 22 mln AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ochildi.

Imtiyozli ravishda 0,75 foiz yillik stavka bilan 25—30 yilgacha kreditlar ajratildi. Bundan tashqari, jahon banki bilan birgalikda sohani rivojlantirish uchun 110 mln AQSH dollari miqdoridagi kredit liniyalari ajratish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish **hajmi natura va qiymat ko'rsatkichlarida** ifodalanadi.

Natura ko'rsatkichlari ma'lum davr ichida bevosita mahsulot ishlab chiqarishining hajmini aniqlaydi va u tonna, sentner, litr va hokazolarda ifodalanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi qiymat shaklida o'lchanadigan **Yalpi mahsulot ko'rsatkichida** ifodalanadi. **Dehqonchilik mahsulotining Yalpi mahsulot ko'rsatkichi** barcha qishloq xo'jaligi ekinlaridan olingan yalpi hosilga tugallanmagan ishlab chiqarishning o'sishi (kamayishi) va bog'lar, ko'p yillik o'simliklarni yaratish uchun ketgan xarajatlarni qo'shish yo'li bilan topiladi.

Ayrim olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi hosildorlik darajasi va ekin maydoniga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining **hosildorlik darajasiga** yangi sara urug'lar, ularning sifati, ekinlarga mineral va mahalliy

o'g'itlarni solish, o'simlikchilik madaniyatining oshishi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash kabi ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi **ekin maydonlariga** ham bog'liqdir.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer davlat mulki hisoblanadi. Davlat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar va xo'jaliklarga, shuningdek, fuqarolarga muddatsiz yoki vaqtinchalik foydalanish uchun yer ajratib beradi.

Davlatning yer fondi barcha yerlarni — haydalma yerlar, daraxtzor, yaylov, pichanzor, o'rmonzor, qo'riq va bo'z yerlar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlarning jamini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishning asosi bo'lib haydaladigan yerlar hisoblanadi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning **samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlarda baholanadi:**

- 1) 1 gektardan olingan hosildorlik darajasi;
- 2) 1 sentner mahsulotning tannarxi;
- 3) 1 ga ekindan olingan sof daromad hajmi.

**Chorvachilikning yalpi mahsuloti go'sht, sut, tuxum, jun va boshqa mahsulotlarning** hamda chorva mollaridan olingan buzoq, qo'zi va hokazolar qiymatidan, mol va parrandalarni o'stirish, semirtirish qiymatidan hamda suv havzalarida yetishtirilgan baliqchilik qiymatidan iboratdir.

Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti dehqonchilik va chorvachilik yalpi mahsulotlari hajmiga bog'liq bo'ladi.

Mustaqillik yillarida jamiyatimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Avvalo, davlatning iqtisodiy mustaqilligi va aholining yuqori turmush darajasini ta'minlay oladigan, jahon andozalariga mos keladigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish modeli yaratildi hamda izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Natijada davlat xo'jaliklari to'la tugatildi, jamoalar mazmunan tamomila yangi asosda qayta tashkil etildi. Ular o'rniga **uchta zamonaviy shakl — shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi va dehqon**

**xo'jaligi tizimi tarkib topdi.** Ishlab chiqarishni tashkil etishning xuddi shu ko'rinishi endilikda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi.

Ular safida o'zbek xalqining asrlar davomida tarkib topgan mentalitetiga, mehnatkash xalq turmush tarziga mos keladigan dehqon xo'jaliklarining mustaqil ishlab chiqarish subyektini sifatida mavjud bo'lishi jahon agrar fani nazariyasi va amaliyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishning mutloq yangi tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bank, moddiy-texnika ta'minoti, agroservis, moliya, soliq, tashqi iqtisodiy aloqalar xizmatlari faoliyati butunlay o'zgartirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar tezda o'z natijasini berdi. Sobiq «qizil imperiya» davrida hatto sut-go'shtni ham chetdan import qilish darajasiga tushirilib qo'yilgan O'zbekiston, qisqa fursat mobaynida oziq-ovqat mollari bo'yicha chetga **qaramlikdan ozod bo'ldi va o'zini-o'z mahsulotlari bilan ta'minlay boshladi.** Bu borada paxta yakka hokimligidan qutilish va g'allani yetishtirish bo'yicha erishilgan yutuqlarni alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Mustaqillik yillarining boshlaridanoq mamlakat qishloq xo'jaligini chuqur isloh qilish davri boshlandi. Respublika qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlar qabul qilindi.

Mahsuldorligi past davlat va jamoat xo'jaliklarining **norentabel qoramolchilik fermalari mehnat jamoalari mulki qilib berildi.**

Chorva mollari zotini yaxshilash tadbirlari ishlab chiqildi. Andijon, Sirdaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlarida shirkat xo'jaliklari negizida qoramolchilik naslchilik zavodlari, Andijon, Namangan, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlarida jamoa xo'jaliklarida **naslchilik xo'jaliklari** tashkil etildi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi ixtisoslashgan xo'jaliklarida zotli mollar yetishtiriladigan va sotiladigan tayanch punktlar ishi yo'lga qo'yildi. Kimoshdi savdosi orqali qora mollar xo'jaliklar va aholiga sotildi.

**Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 18-martidagi farmoniga asosan, 1998–2000-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi ishlab chiqildi. Qishloqda islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator tadbirlar belgilandi. **Qishloq xo'jaligini moddiy va moliyaviy, texnikaviy jihatlardan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi** va qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda katta rol o'ynadi.

Kartoshka meva-sabzavot mahsulotlari, chorva parranda sut, tuxum qorako'l terisi va jun mahsulotlariga **erkin (kelishilgan) narxlar joriy etildi**, bu esa xo'jaliklarning o'zi yetishtirgan mahsulotlarni o'z xohishicha foydalanishga imkon yaratdi. Davlat buyurtmasi faqat paxta va donga nisbatan saqlanib qoldi. **Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish agrar siyosatdagi muhim yo'nalishga aylandi.**

Respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishda **xalqaro tashkilotlar dasturidan foydalanish yo'lga qo'yildi.**

Qishloq joylariga sanoatni olib kirish, zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan **kichik korxonalarni ochish hisobiga yangi ish joylarini yaratish ustuvor vazifadir.** Qishloqda tub islohotlarni o'tkazish, qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbayidir.

O'zbekistonda hamisha **dehqon yer egasiga emas, yerning o'ziga biriktirilgan.** Rossiyada esa **krepostnoy dehqon pomeshchikniki** bo'lib kelgan. Birgina shu hodisaning o'zi ham xususiy mulkchilik yerga egalik qilishning yagona shakli bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Dehqonchilikda oilaviy pudrat shaklini qo'llash, daromadni taqsimlashda paychilik usulidan foydalanish, pay orqali mulkka egalik qilish, daromad olish, shartnoma asosida ishlash bugungi kunda maqsadga muvofiqdir.

Respublikada **sug'orish** dehqonchilikning zaruriy sharti va moddiy asosidir. Sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish, suv ta'minotini yaxshilash, daryolar oqimini mavsumiy va ko'p



yillik boshqarish uchun suv omborlari, to'g'onlar qurilishi, irrigatsiya shaxobchalarini yaxshilash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Yerni melioratsiyalash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolashtirishda erishilgan yutuqlar ekinlar hosildorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'tarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikaning o'zida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi asosiy jarayonlar mexanizatsiyalashtirildi va qo'l mehnatidan foydalanish ancha qisqardi. Qishloq xo'jaligida asosiy dala ishlari (yer haydash, ekish, kultivatsiya bilan bir vaqtda o'g'itlash, don ekinlarini yig'ib olish va boshqa) to'liq, ekin qator oralarini ishlash yuqori darajada mexanizatsiyalashtirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 viloyat birlashmasi, 158 tuman ishlab chiqarish korxonasi, 28 ta'mirlash zavodi, 64 kichik korxonalar va 13 ta qo'shma korxonalar bor.

Traktor, yuk avtomobili, aftobus va yengil avtomobil, buldozer, paxta terish mashinasi, g'alla kombayni, xashak o'rgich, traktor tirkamalari, kultivator, chigit ekish seyalkasi, purkagich va boshqa ko'plab qishloq xo'jaligi tizimida qishloq tadbirkorlari va qishloq xo'jaligi korxonalariga servis xizmati ko'rsatish tashkil etilgan.

Barcha viloyat va tumanlarda 160 dan ortiq ishlab chiqarish-texnika markazlari ishlaydi. Mayda ulgurji do'konlar, ijara servis shaxobchalari orqali qishloq xo'jaligi mashinalari, ehtiyot qismlar, uzellar, butlovchi detallar sotiladi va boshqa turli xizmatlar ko'rsatiladi.

Respublikada mavjud qishloq xo'jaligi texnikasi parkidan oqilona foydalanish, uni ishlatish xarajatlarini qisqartirish qishloq xo'jaligi texnikasi xo'jaliklardan qoldiq qiymat bo'yicha mashina-traktor parklari balansiga beriladi va yerni ekishga tayyorlash, qishloq xo'jaligi ekinlariga ishlov berishga hosilni yig'ib-terib olishga doir mexanizatsiyalashgan ishlarni **xo'jaliklar bilan shartnomalar** bo'yicha bajaradi.

2003-yil 27-oktabrda O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risidagi» qonuniga muvofiq qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish maqsadida «**2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarining rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida**» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unga, asosan, fermer xo'jaliklarining ustuvor yo'nalishlari sifatida rivojlantirib, qishloq xo'jaligidagi islohotlarni jadallashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrda «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni chiqdi.

Unda kelgusi yillarda sanoat uchun eng muhim xomashyo manbai bo'lgan, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirish va eksport salohiyatini oshirishni ta'minlaydigan **qishloq xo'jaligi** sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohani texnik hamda texnologik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozir respublikamizda fermerlik harakati o'z tarkibiga 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirgan. Mavjud bo'lgan haydaladigan yerlarning 85 %dan ortig'i fermerlar hissasiga to'g'ri keldi.

Hozirgi kunda fermerlik harakati xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida fermer xo'jaliklari uyushmasi **O'zbekiston fermerlari kengashiga**, viloyat va tumanlarda esa **fermerlar kengashiga** aylantirildi.

Ushbu tuzilmalarning huquq va kafolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi. Mazkur kengashlarning asosiy vazifasi davlat va xo'jalik boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan munosabatlari, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, bir so'z bilan aytganda, hamma yerda fermerlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

**2015-yilda 2010-yilga nisbatan** qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 barobar oshirish ko'zda tutilgan.

Bu borada kelgusi yillarda qishloq xo'jaligida olib boriladigan o'zgarishlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini oshirish negizida mahsulot yetishtirish hajmining izchil o'sib borishini ta'minlashning asosiy shakli bo'lgan fermerlik institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'ladi.

Kelgusi yillarda o'simlikshunoslik sohasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilg'or agrotexnologiyalarni, xomashyo va suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni, seleksiya va urug'chilik usullarini joriy etishga alohida ahamiyat beriladi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2011–2015-yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'tarish, mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foiz oshirish, shuningdek, sug'orish uchun suv sarfini 12 foiz kamaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bu chora-tadbirlar meva-sabzavot mahsulotlari tayyorlashni 1,5 barobar, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzum yetishtirishni 1,3 barobar ko'paytirish, ularning qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibidagi umumiy ulushini, texnik ekinlar va g'alla yetishtirish hajmini barqaror saqlab qolgan holda, 2010-yildagi 59 foizdan 2015-yilda 70 foizga yetkazish hisobidan qishloq xo'jaligida ishlab-chiqarish tarkibini sifat jihatidan o'zgartirishga ko'maklashadi.

2011–2015-yillarda chorvachilikning yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish doirasida naslchilik ishlarini takomillashtirish, mustahkam ozuqa bazasi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida sohaga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Bu chora-tadbirlar naslchilik xo'jaliklarini 2,5 barobar, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish, zooveterinariya punktlarining zamonaviy uskuna va inventarlar bilan ta'minlash darajasini oshirish imkonini beradi. Natijada kelgusi yillarda yirik va mayda shoxli qoramollarning bosh soni 1,3 barobar

ko'payadi, go'sht va sut mahsulotlari 1,3 barobardan ziyod oshadi.

Parrandachilik va baliqchilikni jadal rivojlantirish kelgusi yillarda chorvachilik mahsulotlari hajmi o'sishida qo'shimcha omil bo'ladi. Xususan, parrandalar bosh sonini 2010-yilga nisbatan 1,8 barobar oshirgan holda, 1000 dan ziyod xususiy parrandachilik fermalari va mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1,6 barobar oshirish imkonini beradigan 670 ta xususiy baliqchilik xo'jaligini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzoq muddat saqlash quvvatlarini tashkil etish va qayta ishlash hajmini kengaytirish borasidagi kompleks chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilib, qishloq joylarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash ko'xonalarini ishga tushirish, oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish va assortimentini kengaytirish natijasida 2011–2015-yillarda meva-sabzavot konservasi ishlab chiqarish 1,7 barobar, go'sht konservasi – 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlari – 1,8 barobar, sut mahsulotlari 1,9 barobar, sariyog' tayyorlash 1,8 barobar oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qayd etilgan prognoz parametrlariga erishish uchun 2011–2015-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash va unumdorligini oshirish choralari ko'riladi.

Maxsus tashkil etilgan Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi mablag'lari hisobidan 2011–2015-yillarda meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikasi xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng qator loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash imkonini beradi.

Kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi ishlar davom ettiriladi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini 28 mingdan ziyod yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi avlod traktorlari,

kombaynlar, buldozerlar, ekskavatorlar va tirkama texnikalar bilan ta'minlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash natijasida traktorlar va kombaynlar parki o'rta hisobda 60 foiz, ekskavatorlar va buldozerlar parki 90 foiz yangilanadi, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligi ortib, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yurtimizda Germaniyaning «Klaas» kompaniyasi va boshqa ilg'or xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda zamonaviy turdagi qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan yangi korxonalar tashkil etilishiga xizmat qiladi.

**Qishloq xo'jaligini isloh qilish quyidagi prinsiplarga asoslanishi lozim.**

1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy masalalari davlat agrar siyosatining ta'sirida hal qilinadi.

2. Qishloq joylaridagi davlat korxonalarini ishlab chiqarish vositalariga jamoa va xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jaliklar tuzgan holda qayta quriladi.

3. Yerga davlat mulkchiligini qat'iy ravishda ta'minlash, unga xususiy mulk bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarda mulk egasi hissini yaratish, ularning o'z mehnati natijalariga ega bo'lishligini ta'minlash.

5. Moddiy rag'batlantirish hissini rivojlantirish va hokazo.

Yuqorida keltirilgan prinsiplarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar quyidagi ustuvor yo'nalishlarda kechishi kerak:

- 1) yer munosabatlarini takomillashtirish;
- 2) fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, uning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy shart-sharoitini yaratib berish;
- 3) qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish;
- 4) qishloq xo'jaligida soliq va baho siyosatini takomillashtirish;
- 5) qishloq xo'jalik boshqarish tizimini yanada takomillashtirish;

- 6) qishloq xo'jalik moddiy-texnika xizmatini rivojlantirish;
- 7) qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish;
- 8) ilmiy izlanish va kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirishga e'tiborni kuchaytirish va h.k.

### 6.3. Kapital qurilish

**Qurilish** – respublikadagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan biri. Respublika iqtisodiyotida yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibida solishtirma hissasiga ko'ra sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi. Yalpi ichki mahsulotning 13,2 % ga yaqini iqtisodiyotda band bo'lgan ishchi va xizmatchilardan 1055,0 ming kishi yoki 9,1 % qurilish hissasiga to'g'ri keladi.<sup>1</sup>

Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, asosiy **fondlarning qayta takror ishlab chiqarish** uchun sharoitlarni ta'minlaydi, iqtisodiyotning **maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi** kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning **yangi tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, bo'sh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga** jalb etishga yordam beradi.

**Qurilish majmuyi** bu asosiy fondlarni bevosita qayta ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydigan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va loyiha izlanish ishlarining yig'indisidir.

Qurilish majmuyi qurilish obyektlarini loyihalashtirishdan to'ishga tushurgungacha bo'lgan barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi.

**Texnologik jihatdan qurilish majmuyi o'z ichiga:**

- bevosita qurilishni yoki qurilish ishlab chiqarishini;
- qurilish materiallari sanoatini;
- konstruksiya va detallar qurilishi sanoatini (yig'ma temir-beton, metall konstruksiyasi, yog'och va h.k.);

<sup>1</sup> Almanax. O'zbekiston 2011. – T.: 2011. 21-25-betlar.

– maxsus loyihalash va izlanish tashkilotlarini, korxonalar va birlashmalarni oladi.

Shunday qilib, **qurilish majmuyi** – qurilish ishlab chiqarishini, loyihalash tashkilotlarini hamda zarur uskunalar, konstruksiya va detallar, qurilish materiallarini ishlab chiqaradigan korxonalarni o'z ichiga oladigan murakkab tizimdir.

Qurilish majmuyining asosi bo'lib **qurilish ishlab chiqarishi** hisoblanadi. **Qurilish ishlab chiqarishi bu doimiy malakali ishchi va mutaxassislarga, zarur qurilish montaj ishlarini olib bora oladigan texnikaga** ega bo'lgan qurilish va montaj tashkilotlarining yig'indisidir.

Qurilish ishlab chiqarishi yoki kapital qurilish doimiy ravishda bino va har xil maqsadlar uchun qurilmalar yaratadi yoki rekonstruksiya qilishni ta'minlaydi.

**Uning mahsuloti** ekspluatatsiyaga tayyor ishlab chiqarish korxonalari, yo'llar, turarjoylar, jamoat binolari va boshqalar hisoblanadi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra kapital qurilish jarayoni bu asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarishdir.

Qurilish jarayoni **xo'jalik va pudrat** usulida olib boriladi.

**Xo'jalik usuli** – bu qurilishni bevosita quruvchilarning o'zlari (korxonalar, tashkilotlar, firma va hokazo) olib boradilar. Bunda qurilayotgan obyekt ana shu korxonani (tashkilotni) o'zi uchun mo'ljallangan bo'ladi.

**Pudrat usuli** buyurtmachilar bilan shartnoma asosida doimiy harakatdagi quruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan qurilishdir. Unda ikki tomon: birinchi – pudratchi, ya'ni qurilish tashkiloti va ikkinchi – tomon: buyurtmachi (davlat tashkiloti, kooperativ, xususiy korxonalar, tashkilot va hokazo) qatnashadi.

Ular o'rtasida munosabat shartnoma asosida belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida qurilish sohasida ham **iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon oxirgi yillarda chuqurlashib bormoqda**. Xususan:

- qurilishning boshqaruv tarkibini kuchaytirish;
- qurilish monopoliyasiga barham berish;

– qurilish tashkilotlarini aksiyalash va xususiylashtirishni chuqurlashtirish;

– pudrat ishlari bozorini tashkil qilish;

– kapital qurilishni tashkil qilishda, investitsion loyihalarni tatbiq qilishda tartib o'rnatish va boshqa tadbirlar amalga oshirildi.

**Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida** qurilish ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ayrim qurilish vazirliklari tugatildi. Masalan, O'zsanoatfuqaroqurilish, O'zqishloqxo'jalik qurilishi, O'zkolhoz qurilishi, O'zsuvqurilishi davlat konserni va hokazolar tugatildi.

Mulkchilikning turli shakllariga o'tkazilgan **ixtisoslashgan davlat konsernlari, kompaniyalar, davlat-aksiyadorlik birlashmalari, uyushmalar** tashkil etildi. Ularning eng yiriklari: «Qurilish-lizing», «O'zbek invest», «O'ztransqurilish», «O'zavtoyol» konserni. «O'zbekenergiya davlat aksiyadorlik kompaniyasi» ham qurilish ishlarini bajaradi. Bu tashkilotlar respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan katta qurilishlarni olib bormoqda.

Respublikada sanoat qurilishi, uy-joy va boshqa ijtimoiy maqsadlardagi obyektlarni qurish bilan shug'ullanadi. Qurilish tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari, transport, loyiha-konstruktorlik va boshqa tashkilotlarni ixtiyoriy asoslarda birlashtiradi.

**Qurilish industriyasi negizini davlat, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qo'shma va boshqa pudrat qurilish-montaj tashkilotlari**, shuningdek, o'z moddiy-texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo'lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo'jaliklar tashkil etadi. O'zbekistonda ko'plab qurilish-montaj trestlari, qurilish sanoati korxonalari, quyi pudrat tashkilotlari, kichik korxonalar, loyiha, ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatadi. Qurilish-montaj ishlarining deyarli barchasini ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – bu ixtisoslashtirilgan, kompaniya, birlashma, trestlar va boshqarmalarga uyushgan.



Qurilish moddiy-texnika bazasining muhim tarkibiy qismini qurilish materiallari sanoati tashkil etadi. Respublikada qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ularning tur xilini ko'paytirish yildan-yilga ortib bormoqda. Respublikada mahalliy xomashyo resurslaridan beton uchun sun'iy yengil to'ldiruvchilar (keramzit, alikopol, agloporit), issiqlik izolatsiyasi materiallari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qurilishda polimer materiallar, plastmassa mahsulotlari, linoleum, polietilen quvurlar, sintetik smolalar asosidagi lok va bo'yoqlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Qurilish industriyasida yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallaridan ko'proq foydalanilmoqda. Bino va inshootlarning yirik qismlarini, uy poydevorlari, devor panellari, zinapoyalar va boshqalarni zavod usulida tayyorlaydigan yangi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Binolarning zilzilabardoshligi ta'minlangan. Qishloq joylarida loyihalash-qurilish tamoyillari o'zgardi. Imoratlarni tiklashda yengil konstruksiyalar ko'proq qo'llanilmoqda, xo'jaliklar qo'rg'onlarini qurishda uy-joylar bilan bir paytda madaniy-maishiy muassasalar, ishlab chiqarish binolari kompleks foydalanishga topshirilmoqda.

O'zbekistonda qudratli iqtisodiy salohiyatni barpo etishdagi muvaffaqiyatlar bevosita qurilish bilan bog'liq.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin kapital qurilishi yangi dastur asosida davom ettirildi. Respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan avtomobil, oltin qazib olish, neft va boshqa sanoat tarmoqlarida yangi korxonalarni qurish boshlandi. Barcha viloyatlarda sanoat korxonalari, uy-joylar, madaniy-maishiy binolar, bozor va savdo rastalari, hammom, choyxona, kasalxona, mahalla markazlari, masjidlar qurildi, o'nlab me'moriy komplekslar, tarixiy yodgorliklar, madrasalar, masjidlar ta'mirlandi.

Toshkentda «Turkiston» saroyi, «Milliy bank» binosi, «Navro'z» restorani, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek haykallari va xiyobonlari, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog', Andijonda Bobur bog'i va muzeyi, Farg'onada «Ramziy darvoza» barpo

etildi, Samarqand viloyatining Urgut shahrida keng ko'lamda qurilish ishlari olib borildi; Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Toshkent traktor zavodi, Parkent «Quyosh» majmuasi (Toshkent viloyati), Toshkent «Zenit» zavodi, Angren rezina-texnika buyumlari zavodi, respublika banklari assotsiatsiyasining binosi, Asaka avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Uchqo'rg'on – Namangan suv quvuri, G'azalkent oyna zavodi va boshqa ko'pgina obyektlar qurildi. Qurilish sohasida **xalqaro hamkorlik yaxshi samara bermoqda**. Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida xalqaro klassdagi mehmonxonalar qurilishi, xususan, Sheraton mehmonxonasi hamda, Rossiya, Do'stlik va boshqa mehmonxonalarini qayta ta'mirlash ishlari olib borildi. Respublika tarixida birinchi marta kapital qurilishi sohasida chetel investitsiyalari jalb etildi. Respublika Prezidentining 1996-yil 31-yanvardagi «Toshkent shahridagi uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida» Farmoniga ko'ra aholining turarjoy sharoitlarini yaxshilash maqsadida Toshkent davlat-aksiyadorlik uy-joy jamg'arma banki («Toshkent uy-joy jamg'arma bank») tashkil etildi.

Bu bank Toshkent shahrida aholini uy-joy bilan ta'minlashda juda katta rol o'ynadi. Shuni e'tiborga olib, bu tashkilot **respublika ahamiyatiga molik bank** deb tan olindi va barcha viloyatlarda shunday viloyat banklari tashkil qilindi.

Qurilish majmuyi strategik ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi juda muhim **sotsial-iqtisodiy vazifalarni bajaradi**:

1. Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining asosiy fondlarini yangilanishini va o'sishini ta'minlaydi.

2. Iqtisodiyotning tarkibiy qayta tuzilishini ta'minlaydi.

3. Ustuvor tarmoq va sohalarni qurish, rekonstruksiya qilish orqali makroiqtisodiy proporsiyalarni muntazam ravishda takomillashtirib boradi.

4. Qurilish majmuyi ishlab chiqarishni, madaniy-maishiy tarmoqlarni hudud jihatdan joylanishini yaxshilaydi. Bu, o'z navbatida, viloyatlar aholisini ish bilan bandlilik darajasini oshiradi.

Shunday qilib, qurilish majmuyi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga, jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy arxitektura va dizayn asosida barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo'lgan shinam uy-joylar barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2009-yilning «**Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili**» deb e'lon qilinishi qishloqda uy-joy qurish, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlantirishni jadallashtirish dasturini 2010-yilning muhim ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritilishiga to'liq asos bor.

Zamonaviy qishloq arxitektura va me'moriy rejalashtirish talablariga mos kelishi, bosh reja asosida tartib bilan qurilishi, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tarmoqlariga (elektr, gaz uzatish tarmoqlari, suv ta'minoti, yo'llar va boshqa) ega bo'lishi bilan ajralib turishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan Farmoni iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri kapital qurilishda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning sifat jihatdan yangi bosqichi hisoblanadi.

Mazkur Farmonning qoidalarini hayotga tatbiq etish, hech so'zsiz, kapital qurilishda tub o'zgartirishlarni amalga oshirish, tarmoq bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablariga mos keladigan xo'jalik munosabatlarini keng joriy etishga imkon beradi.

Yangi qurilish obyektlari mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish uchun mehnat va moddiy-texnika resurslari sarf bo'ladi. Pul shaklidagi bu xarajatlar kapital qo'yilmalarni tashkil etadi.

**Kapital qo'yilmalar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy fondlarni yangitdan yaratish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish uchun yo'naltiriladigan xarajatlar yig'indisidir.**

Kapital qo'yilmalarining hajmi har bir obyekt bo'yicha loyihalar va smetalar asosida belgilanadi.

Barcha xarajatlarning yig'indisi yoki **kapital qo'yilmalarining hajmi ularning foydalanish yo'nalishlariga qarab quyidagi tarkibda tashkil topadi.**

1. Texnologik tarkib.
2. Takror ishlab chiqarish tarkibi.
3. Tarmoq tarkibi.
4. Hudud tarkibi.

**1. Texnologik tarkibda** xarajatlar maqsadli ravishda guruhlanadi:

– qurilish montaj ishlarining (QMI) qiymati. U o'z ichiga quruvchilarning ish haqini, foydalanadigan material va konstruksiyalarning qiymatini, qurilish texnikasining amortizatsiyasini va boshqa xarajatlarni oladi;

– uskunalar qiymatini: qurilish obyekti uchun texnologik, energetik va uskunalar qiymati;

– boshqa xarajatlar: loyiha – qidiruv ishlari, qurilish obyektlari uchun kadrlar tayyorlash va boshqarish.

Kapital qo'yilmalarining umumiy hajmida bu xarajatlarning nisbati texnologik tarkibni yoki ularning ichki tuzilishini tashkil qiladi:

– kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi qurilishning turi va xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Masalan, sanoatda – xarajatlarning ko'pchilik qismi antiqurilish uchun uskunalar, instrument va inventarlar sotib olishga ketadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida – xarajatlarning aksariyat qismi qurilish-montaj ishlarini egallaydi.

**2. Takror ishlab chiqarish tarkibi** kapital qo'yilmalarni asosiy fondlarning turlari bo'yicha takror ishlab chiqarishga yo'naltirilishi ifodalanadi.

Unda **yangi qurilish**, mavjud korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va ularni texnik jihatdan qayta qurollantirish bo'yicha nisbat ko'rsatiladi:

– yangi qurilishga, dastlabki tasdiqlangan loyihaga binoan, yangi maydonlarda olib borilayotgan korxonalar, bino, obyektlar qurilish kiradi;

– mavjud korxonalarni kengaytirish yangi loyihalar asosida ikkinchi va undan keyingi tartibdagi qurilishlarni, qo‘shimcha sexlar qurilishini anglatadi;

– harakatdagi korxonalarni rekonstruksiya qilish ularning to‘lig‘icha yoki qisman qayta qurilishini bildiradi. Unda yangi qurilish yoki harakatdagi asosiy ishlab chiqarish sexlarini kengaytirish mumkin emas. Rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda ma‘naviy va fizik jihatdan eskirgan uskunalar almash-tiriladi.

Bu, o‘z navbatida, yangi, hozirgi zamon texnologiyasi asosida ishlab chiqarish hajmini ko‘paytiradi va uning texnik darajasini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, industrial rivojlangan iqtisodiyotda yangi qurilish uchun sarflanayotgan xarajatlarning salmog‘i, mavjud korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiya qilish uchun sarflanayotgan xarajatlar salmog‘idan kamroq bo‘ladi:

– davlatni bu yo‘nalishda olib borayotgan investitsiya siyosati texnologik tarkibni takomillashtirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki kapital qo‘yilmalar tarkibida asosiy fondlarning aktiv qismiga xarajatlar sarflanishi maqsadga ko‘proq muvofiqdir.

Tarkibiy qayta qurish muammolarining hal qilinishi yangi tarmoqlarning yaratilishi va mavjud korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish masalasining yechilishi – respublikada mustaqillik yillarida misli ko‘rilmagan darajada qurilish ishla-rining olib borish imkonini berdi.

Mamlakat iqtisodiyotiga kapital qo‘yilmalarni ajratish sezilarli darajada ko‘paydi. 2013-yil qurilish ishlari hajmi 16,6% ga o‘sdi.

**3. Kapital qo‘yilmalarning tarmoq tarkibi** iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida foydalanilayotgan kapital investitsiyalar salmog‘i va hajmini ifodalaydi.

Tarmoq tarkibi, eng avvalo, mablag‘larni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlari bo‘yicha taqsimlanishini, undan so‘ng tarmoq sohalari, ya‘ni sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa, uy-joy va hokazolar bo‘yicha taqsimlanishini konk-retlashtiradi.

Investitsiyalarning tarmoqlararo tarkibi ma'lum davrda hal qilinadigan vazifalarning xarakteridan va ularning ustuvorligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilishning boshlanish davrida investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish sohaslariga ko'proq ajratilgan.

Keyingi yillarda kapital mablag'larning tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishida noishlab chiqarish sohaslariga, xususan, uy-joy, kommunal tarmoqlariga, ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslariga ham e'tibor kuchayib bormoqda.

2012-yilda iqtisodiyotimizga 11 mlrd 700 mln dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki 2011-yilga nisbatan 14 %ga o'sdi.

Chetel investitsiyalari ko'paydi. Masalan, 2012-yilda ularning salmog'i 2 mlrd 500 mln dollarni tashkil qilib, kapital qo'yimalarning tarkibida 22 % dan ko'prog'ini tashkil qildi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirishni kengaytirish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, asosan, akademik litsey, professional kollejlari qurish uchun markazlashtirilgan investitsiyalarning salmog'i sezilarli darajada ko'paydi.

**4. Kapital qurilmalarning hududiy tarkibi** kapital qo'yimalarning tumanlar, viloyatlar va iqtisodiy regionlar bo'yicha taqsimlanishini bildiradi:

– bu masalani hal qilishda iqtisodiyot hududiy tarkibini takomillashtirish vazifalari asosida hal qilinadi;

– ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini ishga tushirish hisob-kitoblari kapital qo'yimalarning taqsimlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

Kapital qo'yimalarga bo'lgan talab zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy fondlarni ishga tushirish asosida aniqlanadi.

Talab ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sarflari bo'yicha alohida aniqlanadi. Ishlab chiqarish sohasida kapital qo'yimalarga bo'lgan talab alohida. Bir xil mahsulot ishlab chiqar-

radigan tarmoqlar va nomenklaturasi keng bo'lgan tarmoqlarda hisoblanadi.

Bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan tarmoqlarda kapital qo'yilmalar hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K = K_{ud} + \Delta K,$$

bunda:

$K$  — kapital qo'yilmalar;

$K_{ud}$  — kapital qo'yilmalarning salmog'i (ya'ni, bir birlik quvvatning o'sishini ta'minlovchi kapital qo'yilmalar);

$\Delta K$  — yangi qurilish va kengaytirish hisobiga quvvatlarning o'sishi, ya'ni quvvatlarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoj.

Kapital qo'yilmalar hajmiga bo'lgan umumiy talab harakatdagi quvvatlarni ishga tushirishga, texnik jihatdan qayta qurollanishiga, yangi ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, prognozlashtirish davrida kiritilgan hamda avval ishga tushirilgan obyektlar ishlarini tamomlash va prognozlashtirish yilining oxirida qurilish zadelerini tashkil etish uchun kapital qo'yilmalarni summasi sifatida aniqlanadi.

Noishlab chiqarish sohasidagi tarmoqlarda kapital qo'yilmalarga bo'lgan talab shu soha korxonalari sonini kengaytirish va kapital qo'yilmalar salmog'iga bo'lgan talab asosida aniqlanadi. Masalan, savdoda savdo maydonining o'sishi va kapital qo'yilmalar salmog'i asosida, tabobatda kasalxonalaridagi o'rinlar sonining o'sishi va kapital qo'yilmalar salmog'i asosida va hokazo.

Kapital qo'yilmalarning **asosiy manbai milliy daromadning jamg'arma fondi hisoblanadi**. Hozirgi vaqtda kapital qo'yilmalarning asosiy moliyaviy manbalari quyidagicha:

— korxonaning o'z mablag'lari, budjet, kredit, aholining mablag'lari, chetel investitsiyalari va hokazo.

Kapital qo'yilmalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ikki guruhga bo'linadi:

- 1) umumiy mutlaq samaradorlik ko'rsatkichlari;
- 2) qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

**Umumiy mutlaq samaradorlik** ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

**III. Milliy iqtisodiyot miqyosida,** respublika va tarmoqlar bo'yicha samaradorlik ( $E_{nx}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{nx} = \frac{\Delta D}{K},$$

bunda:  $\Delta D$  – milliy daromadning o'sishi;  
 $K$  – kapital qo'yilmalar.

**IV. Alohida tarmoqlar bo'yicha:** ( $E_{ox}$ )

$$E_{ox} = \frac{\Delta ChP}{K} \text{ yoki } \frac{\Delta P}{K},$$

bunda:  $\Delta AChP$  – sof mahsulotning o'sishi;  
 $\Delta P$  – foydaning o'sishi;  
 $K$  – kapital qo'yilmalar.

3. Majmuyiy dasturlar, texnik-iqtisodiy muammolar, alohida loyihalananayotgan korxonalar, **obyektlar, tadbirlar** bo'yicha: ( $E_{ux}$ )

$$E_{ux} = \frac{T_s - S}{100},$$

bunda:  $T_s$  – yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi;  
 $S$  – mahsulot tannarxi.

**V. Tarmoqlar, korxonalar bo'yicha: (yer)**

$$E_r = \frac{S_1 - S_2}{K},$$

bunda:  $S_1 - S_2$  – kapital qo'yilmalar kiritilguncha va kiritilgandan keyingi mahsulot tannarxi.

**VI. Qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichlari.**

Bu ko'rsatkichlar har bir variantdagi minimumga keltirilgan xarajatlardir. Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$S_i + E_n, \quad K \rightarrow \min$$

bunda:

$S_i$  – joriy xarajatlar;

$K_i$  – i varianti bo'yicha kapital qo'yilmalar.



Agarda qiyoslanayotgan variantlarda kapital qo'yilmalar har xil vaqtlarda amalga oshirilsa, bunday sharoitda variantlar keltirilgan koeffitsiyentlar bo'yicha aniqlanadi:

$$B = \frac{1}{(1 + E_{un})} t$$

bunda:

$E_{un}$  — har xil vaqtlarda xarajatlarni keltirish normativi;

$t$  — mablag'larni ishga tushirishdan samara olgungacha bo'lgan vaqt.

Masalan, tarmoq bo'yicha kapital qo'yilmalar samaradorligining normativ koeffitsiyenti 0,20<sup>1</sup>.

13-jadval

Variant	Variantlar bo'yicha smeta qiymati	Yil ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi	Shartli xarajatlar
I	6,2	5,5	6,74 (5,5-0,2 0,6)
II	6,8	5,0	6,36 (5-0,2 0,8)
III	7,4	4,5	5,94 (4,5-0,2 7,4)

13-jadvaldan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy nuqtayi nazardan III variant maqsadga muvofiq.

#### 6.4. Transport, yo'l xo'jaligi va aloqa

Iqtisodiyotni izchil va barqaror taraqqiy ettirish infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda yagona transport tizimi va telekommunikatsiya tarmog'ini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, infratuzilmani kengaytirish yangi ish o'rinlari yaratish va aholining bandlik darajasini oshirish kabi ijtimoiy

<sup>1</sup> Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. — T.: O'qituvchi. 1996-y. 66-67-betlar.

ahamiyatga molik masalalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turi – temiryo'l, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metropoliten), daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transporti – temiryo'l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti mavjud.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 12,4 foizi transport tarmoqlariga to'g'ri keladi. Transport sohasida YIMning 63,2 % nodavlat va 36,8 % davlat sektori hissasiga to'g'ri keladi. Transport tarmoqlarida band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning o'rtacha yillik soni 594,7 ming kishini yoki respublikada band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning 5,1 %ga yaqini faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillikkacha respublika transportining asosiy turlari sobiq Ittifoqning Markaziy vazirliklariga yoki ularning O'рта Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temiryo'l transportiga O'рта Osiyo temiryo'l boshqarmasi, suv transportiga O'рта Osiyo davlat paroxodchiligi boshqarmasi, havo transportiga Ittifoq fuqaro aviatsiya vazirligining O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning faoliyatini tubdan yaxshilash va transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish maqsadida: «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi (1992), «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi», «O'zavtoyol» DAK (1993), «O'zbekiston temiryo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi (1994) va boshqa mahkamalar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksionerlik kompaniyalari, ochiq turdagi aksionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va jamoa korxonalariga aylantirildi.

Respublikada avtotransport vositalarining bir qismi (avtobuslar, yuk va yengil mashinalar) jamoa xo'jaliklari, fuqarolarning mulki. Sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning

o'sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi transport moddiy-texnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo'lovchilar tashish hajmlari ham orta boradi. Respublikaning umumiy yuk oborotida transport turlarining salmog'i ham o'zgardi. Bugungi kunda umumiy foydalanishdagi va sanoat transporti turlarida yuk va yo'lovchilarning asosiy qismi avtomobil transportida tashiladi (yuklarning 70% i; yo'lovchilarning esa 30%i).

2011–2015-yillarda transport tizimini rivojlantirish dasturi doirasida O'zbek milliy avtomagistrali, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga molik yo'llardan iborat mamlakatimiz avtomobil yo'llarining yagona tarmog'ini shakllantirish borasidagi ishlar davom ettiriladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatimizning barcha hududlarini transport kommunikatsiyasi bilan ishonchli tarzda o'zaro bog'lash, transport xarajatlarini qisqartirish, yuk va yo'lovchi tashish samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Asosiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilishda 4 polosali harakatni yo'lga qo'yish, yo'llar yuzasiga zamonaviy asfaltbeton va sementbeton qoplamalar yotqizish, yo'l o'tkazgichlar qurish bo'yicha eng ilg'or xalqaro standartlar joriy qilinadi.

2010-yilda qabul qilingan 2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi sementbeton qoplamali xalqaro va respublika ahamiyatiga molik yo'llarning uzunligi 2010-yilga taqqoslaganda 3,1 barobar, birinchi toifaga kiradigan avtomobil yo'llarining 4 polosali uchastkalari 1,9 barobar ko'payishi, ularning O'zbek milliy avtomagistrali tarkibidagi ulushi 2010-yildagi 47,4 % dan 2015-yilga borib 88,3 % ga o'sishini ko'zda tutadi.

Avtomobil yo'llar tarmog'ining rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 700 dan ortiq yo'l-qurilish texnikasi xarid qilish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida yo'l qurish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanadigan xizmatlarning zamonaviy texnika bilan jihozlanish darajasi 2015-yilda hozirgi vaqtdagi 39 % dan 58 % ga yetadi.

2011–2015-yillarda temiryo'l infratuzilmasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari poyezdlar nisbatan serqatnov

bo'lgan uchastkalarni elektrlashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish, lokomotivlar parkini yangilash, yuk vagonlarini ta'mirlash bazasini kengaytirish va yangi vagonlar qurish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, shuningdek, xizmat ko'rsatish, yo'lovchilarni manziliga tez va qulay sharoitlarda yetkazish sifatini yanada oshirishdan iborat.

Respublikaning transport tizimi **temiryo'l**, avtomobil yo'llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan **vokzallar, stansiyalar, yuk omborlari, pristanlar**, havo flotining yirik **aerovokzallari** va boshqa infrastruktura bo'linmalarini qamrab oladigan murakkab iqtisodiyot majmuyini tashkil etadi. Oxirgi yillarda respublika transporti majmuyi yaxshi rivojlanmoqda. Fikrimizning dalili sifatida, 2011-yilda transport va kommunikatsiya qurilishiga Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Quvayt-Arab iqtisodiy hamkorlik jamg'armasi va OPEK jamg'armasi tomonidan 152 mln dollardan ortiq mablag' ajratilganini aytish mumkin.

**Temiryo'l transporti.** Temiryo'l transportining yo'lovchilar hamda yuk tashishdagi salmog'i kattadir.

O'zbekistonda dastlabki temiryo'l 1886–88-yillarda Forob stansiyasidan Samarqandgacha yetkazilgan (Krasnovodsk – Chorjo'y temiryo'lining davomi). Bu temiryo'l 1895–1897-yillarda Qo'qongacha, 1899-yilda Toshkentgacha yetkazildi. 1906-yilda Toshkent – Orenburg temiryo'li ishga tushdi.

1994-yilning noyabrda «O'zbekiston temiryo'llari» DAK tashkil etildi. U 50 mingdan ortiq turli tipdagi yuk vagoni, refrejeratorlarga, yo'lovchilar tashiladigan vagonga ega. Kompaniyaning temiryo'ldan foydalanishga mas'ul bo'lgan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Orolbo'yi va Qarshi temiryo'l bo'limlari bor.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Qamchiq davoni orqali Farg'ona vodiysiga, 341 km lik Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog' – Nukus temiryo'li orqali mamlakatimizning markaziy hududlari bilan bog'lashga erishildi. 233 km lik G'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temiryo'li qurilishi temirbeton ko'priklaridan iborat bo'lib, dengiz sathidan 1200

m balandda. Umumiy qiymati 447 mlrd so'mni tashkil qilib, 25 mln marta portlash ishlari olib borilgan. Shu yo'ldan Afg'oniston va Eron davlatlari orqali Fors ko'rfazi portlariga chiqish rejalashtirilgan. Bu yo'llarda jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi.

Respublika quruvchilari uzunligi 133 km bo'lgan Tajang – Saraxs yo'lini qurishda faol ishtirok etayapti. O'zbekiston temiryo'li kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. Bu yo'ldan Buxoro – Deynov orqali Yevropaga, Tajang-Saraxs orqali yaqin sharq mamlakatlariga chiqish imkoniyati vujudga keladi.

Respublikada hozir temur yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu ishlar poyezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 % ga kamaytirish, yo'lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshiradi hamda 830 km lik «Toshkent – Termiz» temiryo'lini to'liq elektrlashtirish imkonini beradi.

2012-yilda uzunligi 240 km bo'lgan temiryo'lni qayta tiklash uchun ishlar davom ettirildi. Uzunligi 70 km dan ortiq bo'lgan «Dashtobod – Jizzax» temiryo'li tarmog'i ishga tushirildi.

Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari, paxta tolasi, neft va neft mahsulotlari, g'alla, sement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa yuklar tashkil etadi. Yuk tashishda teplovozlar, yo'lovchilar tashishda teplovoz va elektropoyezdlar xizmat ko'rsatadi.

O'rta hisobda har yili temiryo'l transportida 15,0 mln dan ortiq yo'lovchi tashiladi. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa, shaharlar atrofidagi qatnovda elektropoyezdlardan tobora kengroq foydalanilmoqda. Yo'lovchi tashish lokomotivlari parkini yaxshilash, yuk tashish, vagonlarni modernizatsiya qilish, qayta tiklash asosida Ispaniyaning «TALGO» kompaniyasi bilan Toshkent – Samarqand yo'nalishida tezyurar magistral yakuniga yetkazildi. Umumiy foydalanishdagi temiryo'llar uzunligi 4,3 ming km shundan 1000 km mustaqillik davrida bunyod etildi. 100 ga yaqin temir yo'l ko'priklari qurildi. Elektrlashtirilgan temir yo'llar uzunligi 727 km ni tashkil etadi.

**Avtomobil transporti.** Respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga egadir.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarda ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalarini mavjud.

1991-yildan shu kunga qadar mamlakatimizda qariyb 3000 km dan ortiq yo'l yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi va tubdan ta'mirlandi (bu yo'llarning qariyb 70–80% i yangi qurilgan yo'llar hisoblanadi) har yili o'rtacha 200 km avtoyo'llar quriladi va ta'mirlanadi.

2012-yilda 500 km lik 4 polosali zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Shundan 163 km sementbeton va 335 km esa asfaltbeton bilan qoplangan yo'llardir.

Uzunligi 116 km bo'lgan «Guliston – Ohangaron» avtomobil yo'li, Qo'qon shahrini aylanib o'tadigan avtoyo'l foydalanishga topshirildi. Samarqandni Toshkent, Qarshi va Olot shaharlari bilan bog'laydigan yo'llar rekonstruksiya qilindi.

Xalqaro va davlat ahamiyatiga ega umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash dasturini bajarish doirasida yo'l qurilishiga har yili 500 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratiladi. «Qamchiq davoni» orqali 5 mln tonna yuk tashishni ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

«Angren logistika markazi» tashkil qilindi. «Logistika» degan tushuncha – bu xalqaro yuklarni tashish va tranzit xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq atama qo'llanilayotganligini va amalda tatbiq etilayotganligi yuk hamda yo'lovchi tashish hajmining o'sganligidan dalolat beradi.

1992-yil fevralda O'zbekiston avtomobil yo'llarini qurish va undan foydalanish davlat aksionerlik konserni «O'zavtoyo'l» tashkil topgan.

Konsern tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat avtomobil yo'llari boshqarmalari, tuman avtomobil yo'llari boshqarmalari, 532 yo'llarni asrash va ulardan foydalanish bo'limlari,

«O'zyo'loyiha» respublika yo'l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta'mirlash bo'yicha loyiha-qidiruv instituti, ko'prik temirbeton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor.

2010-yil avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 378 mln dollarga yaqin mablag' o'zlashtirildi, bu o'tgan yilga nisbatan 31,5 % ko'p, shuning hisobidan 270 km lik zamonaviy avtomobil yo'li foydalanishga topshirilgan.

Respublikada umumiy foydalaniladigan avtomobil transportida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan 15,0 ming avtobus, 6 mingdan ko'proq yengil taksi mashinalari mavjud. Respublika bo'yicha 3000 dan ortiq avtobus marshrutlarida (jumladan, 593 shahar, 1768 shahar atrofi, 532 shaharlararo) avtobuslar qatnaydi.

Avtobuslar bilan har kuni 5 mln ga yaqin yo'lovchi tashiladi. Respublikada 30 ga yaqin avtovokzal, 120 dan ortiq avtostansiya xizmat ko'rsatadi.

O'zbekistonda turli maqsadlarga mo'ljallangan 200 mingga yaqin yuk avtomobillari, 35,4 ming avtobus, 45,9 ming yengil avtomobillar xizmat ko'rsatadi.

Respublikada fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lgan 900 mingdan ortiq yengil avtomobillar bor.

**Avtomobil yo'llari.** Respublika rivojlangan yo'l xo'jaligi va zamonaviy talablarga javob beradigan xalqaro, respublika, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llariga ega.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlarini xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tibor kuchaydi.

Bu borada O'zbekiston Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon – O'sh – Ergashtom – Qashqar avtomobil yo'lini ishga tushirishdi (1997-yil 21-iyul), **Hind okeaniga chiqish imkonini beradigan Termiz – Xirof – Karachi avtomobil yo'li qurilishida o'z ulushi bilan qatnashmoqda.** Shuningdek, Buxoro-Nukus avtomobil yo'lini qurish davom etmoqda.

**Havo transporti.** O'zbekiston jahondagi ko'p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlar, sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

**Respublika havo transporti – fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlanadi. 1930-yildan Toshkent – Moskva yo'lida samolyotlar muntazam qatnay boshladi.**

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin, 1992-yilning yanvar oyida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Respublikaning, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, sayyohlik aloqalarini yo'lga qo'yishda mamlakatning o'z havo transporti muhim rol o'ynamoqda. «O'zbekiston havo yo'llari»ning bir qancha Yevropa va Osiyo, Amerika mamlakatlari vakolatxonalari ochildi; yangi xalqaro marshrutlarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yildi: 1993-yildan Toshkentdan MDHdan tashqari London, Manchester, Frankfurt-Mayn, Tel-Aviv, Sharja, Jidda, Istanbul, Karachi, Dehli, Kuala-Lumpur, Bangkok, Pekin, Afina, Amsterdam, Seul va Nyu-York shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar, Xalab (Aleppo), Singapur hamda Osiyo va Yevropaning ko'pgina mamlakatlariga charter yo'lovchi tashish reyslari bajariladi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi Germaniya, Fransiya, Rossiya firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda.

«O'zbekiston havo yo'llari» xilma-xil tipdagi havo kemalariga ega. Havo transporti tarmoqlarida yangilash ishlari davom ettirilmoqda. 2010-yil «Air bus industry» kompaniyasining 6 ta A 320 – 200 rusumli samolyoti sotib olindi.

Shu yilda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi «Korean Air» kompaniyasi bilan hamkorlikda havo qatnovlari geografiyasini yanada kengaytirish, aeroport infratuzilmasini yanada takomillashtirish va yuklarni tashish uchun samolyotlar sonini ko'paytirish ishlarini davom ettirmoqda.

2013-yil milliy avia kompaniya (MAK) samolyotlari tomonidan 24559 ta qatnov bajarildi. 2 mln 677 ming 500 nafar yo'lovchi manziliga yetkazilib, 41000 ming tonna yuk



## Xalqaro aeroportlar

Toshkent

Samarqand

Navoiy

Buxoro

Urganch

Termiz

### 5-chizma. O'zbekiston Respublikasida xalqaro aeroportlar joylashgan shaharlar

tashildi, ularning katta qismi «Navoiy» aeroporti hissasiga to'g'ri keldi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tarkibida **12 zamonaviy aerovokzal (aeroport) bor** (Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg'ona, Qarshi, Qo'qon shaharlarida) (5-chizma).

**Suv transporti.** XX asr boshlarida Amudaryo va Orol dengizida suv yo'llari bo'ylab yuklar va yo'lovchilarning ancha qismi tashilgan. 1924-yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo'llarining umumiy uzunligi 887 km edi. Amudaryo harbiy floti, «Xiva», «Merkuriy» aksiyadorlik jamiyatlari kemalarida, shuningdek, xususiy qayiqlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilgan, zarur yuklar tashib berilgan. O'sha davrda O'rta Osiyo suv yo'llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming tonna bo'lgan 20 ta kema va 50 ta barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming tonna bo'lgan 1500 ta qayiq bor edi. **1980-yilda O'zbekistonda suv yo'llarining umumiy uzunligi 2800 km ga yetdi.** Amudaryo Panj (Tojikiston) bandargohidan Mo'ynoqqa qadar paroxodlar qatnovi amalga oshirildi. Hozirda mavjud suv yo'llarining uzunligi 825 km ni tashkil etib, daryo harbiy flotiga xizmat qiladi.

**Trolleybus** qatnovi 1997-yilda Xivaning 2500 yilligini nishonlash arafasida Urganch shahrida aeroport bilan temiryo'l vokzalini bog'laydigan trolleybus yo'li va 25 km li Urganch – Xiva trolleybus yo'li ishga tushirildi va faoliyat yuritmoqda. **Tramvay** Toshkent shahrida rivojlangan. Tramvay yo'llarining umumiy uzunligi 293,1 km. Toshkent shahrining o'zida tramvay bir kunda 1 mln dan ortiq yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadi.

**Avtomobil** yo'lovchilarga xizmat qilishda muhim o'rinda turadi. 85 shahar va shaharlarda ichki shahar avtobus va yengil taksi qatnovi yo'lga qo'yilgan, shaharlarda 670 dan ortiq marshrutda avtobuslar qatnaydi. Yo'lovchilar umumiy hajmining 70 % dan ko'prog'i avtobus va yengil hamda mikroavtobus taksilarga to'g'ri keladi.

**Metropoliten** yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Respublikada metro qurilishi Toshkent shahrida 1972-yilda boshlandi. **Uning uzunligi 12,2 km bo'lgan «Olmazor» — «Buyuk Ipak yo'li» stansiyalari navbati 1977-yil 6-noyabrda, 4,6 km li 2-navbati 1980-yil 18-avgustda ishga tushirildi. Toshkent metropolitenining ikkinchi yo'li «Do'stlik» — «Beruniy» stansiyalari 1984—91-yillarda 4-navbat bilan bosqichma-bosqich foydalanishga topshirildi (uzunligi qariyb 15 km).** Toshkent metropolitenining 3-yo'li shahar markazini Yunusobod dahasi bilan boglaydi. **Uzunligi 14 km. Metropolitenda sutkasiga o'rtacha 270—300 ming yo'lovchi tashiladi.**

**Quvur transporti.** O'zbekistonda birinchi 20 km uzunlikdagi neft quvuri 1908-yil Chimyon neft konidan Vannovsk (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodiga tortilgan. Keyinchalik Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyatidagi yangi neft konlari ochilishi bilan transportning bu turi jadal rivojlantirildi. Neft konlaridan Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km bo'lgan neft quvuri qurildi. Respublika janubida-Surxondaryo viloyatida 1947-yil Lalmikor — Qumqo'rg'on va 1969-yil Amudaryo — Amu — Zang liniyalari qurildi (umumiy uzunligi 40 km). Qashqadaryo viloyatida yangi neft konlari ochilgandan keyin 1977-yil G'arbiy Toshloq — Qashqadaryo stansiyasi (3,3 km), Shimoliy O'rtabuloq — Oltingugurt zavodi (72 km) neft quvurlari ishga tushirildi.

1994—97-yillarda uzunligi 100 km bo'lgan Ko'kdumaloq — Buxoro neftni qayta ishlash zavodi neft quvuri qurilib ishga tushirildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladigan Qamchiq dovoni orqali o'tadigan Xonobod — Angren neft quvuri qurilishini

loyihalash ishlab chiqarish va tashish tizimiga ta'sir qiluvchi katta o'zgarishlar bo'lgan. Ulkan gaz konlarini topilishi va ishga tushirilishi bilan O'zbekistonda **gaz quvuri transporti** ham rivoj topdi.

Transport tarmog'ining asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotning yuk tashish va passajir tashishga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun, eng avvalo, yuk tashish hajmini aniqlash va uni transport turlari o'rtasida oqilona taqsimlash kerak bo'ladi.

Yuk tashish hisob-kitoblarida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: tashiladigan yuklarning hajmi, yuk tashishning o'rtacha masofasi, yuk oborotining hajmi.

Tashiladigan yuklarning hajmini aniqlash uchun normativ yoki umumlashtirilgan hisob-kitoblar va balans usullaridan foydalaniladi.

Birinchi usul, asosan, tashiladigan yuklar hajmini aniqlashning dastlabki bosqichlarida qo'llaniladi. Shu koeffitsiyent yuklarning alohida turlari bo'yicha hisoblanadi va bundan avvalgi yillardagi tashilgan yuklar shu mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi. Masalan, 2002-yilda O'zbekistonda 3292,5 mln tonna ko'mir qazib olingan, bundan 3087,7 mln tonna tashiladigan bo'lsa, yuk tashish koeffitsiyenti quyidagiga teng bo'ladi:

$$K = \frac{3087,7}{3292,5} = 0,94.$$

Masalan, 2003-yilda 3384,2 mln tonna ko'mir qazib olingan bo'lsa, bunda tashiladigan yuklarning hajmi quyidagicha topiladi ( $3384,2 \cdot 0,94 = 3181,15$  mln tonna).

Yuklarning barcha turlari bo'yicha **tashiladigan yuklar hajmi aniqlanib, milliy iqtisodiyot bo'yicha umumiy lashtiriladi.**

Hisoblangan summaning to'g'riligini isbotlash uchun balans usulidan foydalaniladi. Bu usulni qo'llash balans hisob-kitoblar tizimiga va eng, avvalo, mahsulotning ishlab chiqarish va iste'mol qilish balansiga asoslanadi.

Tuman ishlab chiqarish va iste'mol balanslari ishlab chiqilgandan keyin mas'ul tashkilotlar tomonidan respublikaga tashib

kelinadigan va tashib ketiladigan yuklarning umumiy hajmi **transportning yig'ma balansi yordamida aniqlanadi**. Tashib ketiladigan yuklarning hajmi aniqlab berilgandan keyin **yuk tashishning o'rtacha masofasi aniqlanadi**. O'rtacha masofa tumanlararo balans yoki shaxmat shaklidagi balans yordamida aniqlanadi.

Tashiladigan yuklarning hajmi:

$$\sum P = 305 + 600 + 400 = 1305 \text{ mln t.}$$

O'rtacha masofa:

$$\ell_{on} = \frac{(305 \times 50) + (600 \times 67) + (400 \times 30)}{1305} = 60,88 \text{ km,}$$

ya'ni 
$$\ell_{on} = \frac{\sum P \cdot \ell}{\sum P},$$

bunda:

$P$  – iste'molchilar va yukni tashib beruvchilar o'rtasidagi masofa;

$\ell$  – tashib kelinadigan yukning hajmi.

Mahsulot ishlab chiqarishdan iste'molchilarga olib borishdagi transport **xarajatlari kam bo'lishi kerak**. Bu masalani yechishda ayrim shart-sharoitlarga amal qilish zarur.

1. Ma'lum bir punktdan jo'natiladigan yukning miqdori shu punktda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmiga teng bo'lishi kerak.

2. Barcha jo'natiladigan joylardan ma'lum punktga keladigan mahsulotning hajmi shu punktning ehtiyojini qondirishi kerak.

Tashiladigan yukning hajmi manfiy bo'lmasligi kerak (0 ga teng yoki undan katta bo'lishi kerak).

Bunda transport masalasini yechish iste'molchilar bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar orasidagi aloqani qulay ravishda talab etishga imkon beradi va tashiladigan yuklar o'rtacha miqdorining kamayishiga olib keladi.

Yuklarning oqimi va ularning tashish masofasini bilish uchun ularga sarflangan xarajatlar miqdorini aniqlash kerak. Bu xarajatlarning eng kam darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$C_i + E_n K_i \rightarrow \min$$

bunda:

$C_i$  – tannarx;

$E_n$  – kapital xarajatlar samaradorligini ko'rsatuvchi normativ;

$K_i$  – kapital qo'yilmalar.

Yuk oboroti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sum Pl = P_1 L_1 + P_2 L_2 + \dots + P_n L_n.$$

Prognozlashtirish amaliyotida transportning aniq turi va undan foydalanishning maqsadga muvofiq sohasini tanlashda quyidagi hisob-kitoblarning muntazamligi aniqlanadi.

1. Alohida tuman va mintaqalar miqyosida har bir transportning texnik iqtisodiy va ekspluatatsiya xususiyatlari hamda afzalligi aniqlanadi. Har bir transportning afzalligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. **Bular yukni yetkazib berish tezligi, yuklarni tashishning qiymati va bahosi, yuk ko'tara olish imkoniyati, transportning harakatchanligi, yuk tashishning uzluksizligi.**

2. Aniqlangan transportning xususiyatlari va afzalligi asosida qo'shimcha kapital mablag' sarflanmasdan yuk tashish hajmini ko'paytirish maqsadida har bir transportning o'tkazish va tashish rezervlari aniqlanadi.

3. Yuk tashishning barcha turlari bo'yicha tashish jarayonlarining tayyorlov va oxirgi operatsiyalarini, ortish, tushirish, boshqa joyga o'tkazish xarajatlarini hisobga olgan holda to'liq ekspluatatsiya xarajatlari hisoblanadi.

4. Aniqlangan o'tkazish va tashish xususiyatlarini hisobga olgan holda, agarda o'tkazish xususiyatlarining yetishmasligi ma'lum bo'lsa, transportni rivojlantirish uchun kerak bo'lgan kapital mablag'lar hajmi hisoblanadi.

5. Ekspluatatsiya sarfi va kapital mablag'lar xarajatlarining yig'indisini hisobga olgan holda yuklarni transport turlari o'rtasida taqsimlashning qulay varianti topiladi.

**Transport ishining ikkinchi asosiy vazifasi, yo'lovchilar tashishni tartibga solish hisoblanadi.**

Yo'lovchilarning tashish hajmini aniqlashda shaharlararo va shahar ichidagi **yo'lovchilar hajmi aniqlanadi**. Bularga ta'sir etuvchi asosiy omil aholi daromadlaridir.

Istiqbol va joriy davrlarda yo'lovchilar tashishni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar ishlatiladi.

**Istiqbol davrda:** aholining soni; 1 yilda 1 kishiga to'g'ri keladigan yo'lovchi/km; 1 yilda 1 kishiga to'g'ri keladigan iste'mol fondlarining o'sishi.

**Joriy davrda:** aholining daromadlari haqidagi ma'lumotlar; daromadlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan yo'lovchi, km.

Aholining transport vositalaridan foydalanishining intensivlik darajasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, aholining **transport qatnovi ko'rsatkichi hisoblanadi**.

Aholining transport qatnovi deganda kishilarning yurish harakati va qobiliyati tushuniladi. Aholining transport qatnoviga ko'p omillar ta'sir qiladi.

Bu aholining daromadlarining o'sishi, bo'sh vaqtning bor bo'lishi, transport ishining yaxshilanishi, savdo markazlarining ko'payishi va h.k. Bu ko'rsatkich bir kishiga to'g'ri keladigan passajir, km da hisoblanadi.

Aholining transport qatnovini hisoblashda har xil usullardan foydalaniladi. Masalan, aholining joriy davrdagi sonini koef-fitsiyentga ko'paytirish yo'li bilan aniqlash usuli. Bu usul, asosan, istiqboldagi ko'rsatkichlarni hisoblashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatilgan koeffitsiyent aholining real daromadi yoki iste'mol fondining bir kishiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sish darajasini ifodalaydi. Aholining transport qatnovi ( $P$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P = A_j \cdot K,$$

bunda:

$A_j$  – aholining joriy yildagi soni;  
 $K$  – koeffitsiyent.

**Transportning ishini yanada yaxshilash yuk va yo'lovchilar tashishni tartibga solishda kerakli resurslar bilan asoslashni taqozo qiladi.**

Yuk hamda yo'lovchi tashish hajmi faqatgina milliy iqtisodiyotni va aholining talablarigagina emas, balki shu talablarni qondirish imkoniyatlariga ham bog'liq. Shuning uchun milliy iqtisodiyot istiqbolida yuk, yo'lovchilar tashishning rivojlanishi faqatgina talab tomonidan emas, balki kerakli harakatdagi transport vositalari, yoqilg'i va boshqa resurslar tomonidan ham asoslanadi.

Yuk va yo'lovchilar tashishning rivojlanishi kerakli resurslar bilan asoslash jarayonida harakatdagi transportga bo'lgan talab va ularni qondirish imkoniyatlari bilan aniqlanadi.

Transportning har bir turlariga bo'lgan talab tashilishi kerak bo'lgan yuk va yo'lovchilarning hajmiga hamda harakatdagi tarkibning texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlariga bog'liq.

**Texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlari** har bir transportning xususiyatiga qarab aniqlanadi.

Temiryo'l transporti bo'yicha texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- 1) vagonga to'g'ri keladigan statik va dinamik og'irlik;
- 2) poyezdning o'rtacha massasi (brutto, netto);
- 3) yuk vagonining texnik va uchastka tezligi;
- 4) vagonning aylanish vaqti;
- 5) lokomotivning o'rtacha sutkalik yurishi (km);
- 6) yuk vagonining o'rtacha unumdorligi.

**Vagonning statik og'irligi ( $N_s$ )** quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N_s = \frac{\sum P}{K_v},$$

bunda:

$\sum P$  – yuklar hajmi;

$K_v$  – yuk ortilgan vagonlar soni.

Vagonning dinamik og'irligi harakatdagi statik og'irligiga teng. Vagonning aylanish vaqti — bu yuklangandan to ularni bo'shatishgacha bo'lgan vaqt.

**Yuk vagonining o'rtacha unumdorligi ( $P_r$ )** quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_r = \frac{N_s + l_{o'n} \cdot K}{T_{o'n}},$$

Bunda:

$N_s$  — statik og'irlik;

$l_{o'n}$  — o'rtacha masofa;

$K$  — koeffitsiyent;

$T_{o'n}$  — yuk vagonining o'rtacha oborot vaqti.

Yuk tashishga bo'lgan talab harakatdagi tarkibning kerakli soni. Yoqilg'i, elektroenergiya tomonidan ham asoslanishi kerak.

Yuk tashishni tartibga solishda transport vositalariga bo'lgan talabni aniqlashga, undan foydalanishni yaxshilash yo'llarini belgilashga katta ahamiyat beriladi.

Yuk vagonlariga bo'lgan talabni ( $P_r$ ) aniqlashda quyidagi formula qo'llaniladi:

$$P_r = \frac{P \cdot tV}{365 \cdot N_s} \cdot K,$$

bunda:

$tV$  — vagonning sutkalik aylanishi;

$N_s$  — statik og'irlik;

$K$  — vagonlarning rezerv koeffitsiyenti.

**Aloqa infrastrukturaning muhim bo'g'ini.** Aloqa O'zbekiston Respublikasi xo'jalik va ijtimoiy infrastrukturasi tarkibiy qismi bo'lib, aholi, xo'jalik subyektlari, davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf, radio va axborotning o'zga turlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog'i orqali jo'natilayotgan ashyolarni yetkazib berishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydi. **Aloqa ommaviy axborotlarni tarqatish, shuningdek, iqtisodiyotni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.**



O'zbekiston Respublikasida aloqa korxonalari aholiga hamda iqtisodiyot tarmoqlariga pochta, telegraf va mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon aloqa xizmati ko'rsatadi, shuningdek, respublikada radioaloqa, radioeshittirish va televideniye texnika vositalari bilan ta'minlaydi. **Aloqa majmuasi – matbuot tarqatish, uyali (radiotelefon) aloqa, elektr aloqa, kosmik yo'ldoshlar orqali aloqa respublika hayotida katta rol o'ynaydi. Idoraviy ichki aloqa tarmoqlari** (ayrim vazirliklar, tashkilotlar hamda shaxta, zavod, xo'jaliklarning bevosita o'ziga qarashli aloqa vositalari) ham mavjud. O'zbekistonda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning umumiy hajmida aloqa xizmati hissasi 5% ga yaqin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida milliy telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va uni mustaqil ravishda boshqarish muhim vazifaga aylandi.

1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Aloqa to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. 1997-yil 23-iyunda Aloqa vazirligi Pochta va telekommunikatsiyalar Agentligiga aylantirildi.

2002-yil 30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoniga asosan **O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi etib qayta tashkil etildi.**

Ushbu farmonga binoan axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutilgan edi.

2012-yilda telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya bo'yicha ko'zda tutilgan investitsiya loyiha-

larini amalga oshirish doirasida uzunligi 180 km dan ortiq bo'lgan «Boysun – Denov», «Urgut – Shahrisabz» optik tolali aloqa liniyasi ishga tushirildi.

Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida teleuzatuv moslamalarini o'rnatish orqali bosqichma-bosqich raqamli televideniye ga o'tish amalga oshirildi.

Bu aholini mamlakatimiz bo'yicha raqamli televideniye bilan qamrab olish darajasini 42 %ga yetkazish imkonini berdi. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi **eng muhim vazifalari** deb quyidagilar hisoblanadi:

1. Zamonaviy ishonchli va xavfsiz milliy ma'lumotlar axborot bazalarini yaratish, axborot resurslari hamda xizmatlarining bozorini rivojlantirish, axborot almashuvining elektron shakllariga izchillik bilan bosqichma-bosqich o'tish.

2. Real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo'llanishga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini kiritish.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy vositalarni, ma'lumotlarning axborot bazalarini ishlab chiqish, respublika, tarmoq va mahalliy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini shakllantirish, kompyuter va telekommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohalarida ishlash uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

5. Mamlakatning barcha hududida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnikaviy infratuzilmasini, ma'lumot uzatish vositalarini jadal rivojlantirish.

6. Milliy va xalqaro axborot tarmoqlariga g'oyat tezkorlik bilan kirib borishni joriy etish, aholi punktlari, shu jumladan, qishloq aholi punktlarining ularga kirib borishini ta'minlash.

7. Sifatli mahalliy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va ularni eksport qilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmini yaratish.

8. Mahalliy kompyuter texnikasi va unga butlovchi buyumlar ishlab chiqish hamda ishlab chiqishni tashkil etishga ko'maklashish.

O'zbekistonda aloqa sohasi pochta aloqasi, telefon (mahalliy, shaharlararo, xalqaro) aloqasi, telegraf aloqasi, radioeshittirish, televideniye, matbuot tarqatish kabi tarmoqlarga bo'linadi.

**Pochta aloqasi.** O'zbekistonda dastlabki **pochta aloqasi 1865-yil** Toshkent yaqinidagi Niyozbek qal'asi bilan Chimkent shahri o'rtasida yo'lga qo'yilgan. O'sha yili avgust oyida Toshkentda birinchi pochta stansiyasi ochildi, pochta yo'li Niyozbekdan Toshkentgacha yetkazildi. 1868-yil Toshkent bilan Samarqand o'rtasida pochta aloqasi ishga tushdi. 1868-yil fevralda Toshkentda Rossiya pochta va telegraf vazirligiga bo'ysungan Sirdaryo va Samarqand viloyatlari pochta idoralari boshqarmasi tashkil etildi.

Dastlab pochta ot-ulovda, temiryo'l qurilgandan keyin temiryo'l orqali tashiladigan bo'ldi. 1885-yil 1-yanvardan Toshkent pochta idorasi mijozlardan telegrammalar qabul qilishni boshladi. 1913-yil O'zbekistonda joylashgan 17 pochta-telegraf bo'limi, 18 pochta-telegraf idorasi ishladi. Telegraf aloqasi, asosan, tijorat maqsadlariga xizmat qildi. 10 telefon stansiyasidan 9 tasi xususiy kishilar qo'lida edi.

Pochta aloqasi respublika aholisiga xat, gazeta va jurnallar, jo'natma, pul o'tkazmalari, pensiya to'lovlarini yetkazib berdi. Pochta va matbuotni tashishda aviatsiya, temiryo'l, avtomobil transportidan keng foydalanildi.

Xat, jo'natma, pul o'tkazmalar, matbuot nashrlarini jo'natish va yetkazib berish yanada yaxshilandi. Pochta aloqasi aloqaning eng keng tarqalgan va ommaviy turiga aylandi.

Pochta aloqasi tarmoqlarida mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalaridan keng foydalaniladi.

Hozir O'zbekistonning barcha aholi punktlari pochta korxonalarini tarmog'i bilan qamrab olingan. Pochta korxonalarini «O'zbekiston pochta» konserniga (1992) kiradi. Uning tarkibida 12 viloyat, Qoraqolpog'iston Respublikasi davlat pochta korxonalarini boshqarmasi, Toshkent xalqaro pochta, 195 aloqa uzeli va 3045 aloqa bo'limi ishlab turibdi.

**Telegraf aloqasi.** O'zbekistonda telegraf aloqasi XX asrning 80-yillarida, temiryo'l qurilishi bilan bir vaqtda vujudga keldi. 1876-yil mart oyida Toshkentni Xo'jand bilan bog'lagan bir simli telegraf aloqa yo'li ishga tushirildi. 1885-yil 1-yanvardan Toshkent pochta idorasi mijozlardan telegrammalar qabul qilishni boshladi.

1932-yil Toshkentda markaziy telegraf ishlay boshladi. 1992-yilda Toshkent markaziy telegrafi tezkor zamonaviy apparatlar bilan jihozlandi; har sutkada aloqa kanallari orqali 200 mingdan ziyod xabar o'tadi, xorijdan gazetalar tasvirini fototelegraf orqali qabul qiladi.

Uning qoshida so'zlashuv punkti va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlaridan jamoa tarzida foydalanish punkti bor. Respublikadagi korxonalar hujjatli axborotlarni uzatishda abonent telegraf tarmog'idan keng foydalanadilar.

**Telefon aloqasi.** O'zbekistonda umumiy foydalaniladigan 200 raqamli dastlabki telefon stansiyasi Toshkentda 1904-yil 15-sentabrda ishga tushirilgan. Telefon tarmog'i bir simli bo'lib, yer ikkinchi o'tkazgich vazifasini bajaradi. 1924-yilga kelib telefon stansiyalarining sig'imi 1700 raqam (nomer)ni tashkil etdi.

O'zbekistonda umumiy foydalaniladigan tarmoqlarida 1,5 mln dan ko'proq telefon raqami (nomer) bor. Shahar xonadonlarining 50% (Toshkent shahrida 70 %) uy telefonlariga ega. Qishloq xo'jaligida mavjud 310 mingdan ko'proq telefonning 226000 tasi xonadonlarda o'rnatilgan.

Respublikada telefon tarmog'ining 87 % ini koordinat va mexanik sistemali stansiyalar tashkil etadi (respublika bo'yicha

1200 dan ortiq shunday stansiya ishlaydi). Kvazielektron va elektron ATS lar 12 ming nomerga ega.

Mahalliy tarmoqlarning 6 %, shaharlararo telefonlarning 13 % raqamli ATS lar bilan jihozlangan. Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi shahar abonentlari shaharlararo va xalqaro telefon tarmog'iga avtomatik ulanish tizimiga to'liq ulangan. **1994-yildan Respublikadagi barcha shaharlar, telefon tarmoqlarini avtomatlashtirilgan tizimga o'tkazish ishlari davom ettirildi.**

**Elektr aloqa korxonalari «Mahalliy telekom» kompaniyasiga uyushgan.** O'zbekiston aloqa tarmog'i jahon andozalari darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekistonning Turkiya, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Xitoydagi yetakchi firmalar bilan elektr aloqa tarmoqlarini rivojlantirishdagi hamkorligi yaxshi samara bermoqda. Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan 10 dan ortiq korxonalar ishlamoqda.

1992-yil O'zbekiston va AQSHning «Interneyshnl Kommunikayshn grupp» («Ay Si Ji») firmasi bilan tashkil etilgan «Uzdunrobita» qo'shma korxonasi Toshkent, shuningdek, Samarqand, Urganch, Qarshi, Andijon, Buxoro shaharlarida xalqaro va shahar, shaharlararo telefon stansiyalari bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan uyali telefon (radiotelefon) aloqasi stansiyalarini ishga tushirdi. **1997-yilda O'zbekiston – Malayziya qo'shma korxonasi «O'zMoqom», O'zbekiston – Indoneziya qo'shma korxonasi «Bustel» va boshqalar shaharlarida va shaharlararo uyali telefon aloqasini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatmoqda.** Koreya respublikasining «**DEU telekom**», Germaniyaning «**Simens**», «**Alkatel sel RFT**», Yaponiyaning «**Mitsui**» firmasi, «**NEK**» korporatsiyasi zamonaviy aloqa jihozlari yetkazib beradi, elektron raqamli ATS lar asosida respublika shaharlarida xalqaro hamda shaharlararo telefon stansiyalarini takomillashtiradi va quradi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishiga qadar respublikaning jahon mamlakatlari bilan cheklangan darajadagi telefon aloqasi Moskva orqali amalga oshirilgan. Mustaqillikning

dastlabki davridayoq xalqaro telefon aloqasini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

1992-yili Toshkentda Yaponiyaning «NEK» firmasi yetkazib bergan asbob-uskunalaridan abonentlarning jahon telefon tarmog'iga chiqishni hamda ikki tomonlama xalqaro teleko'rsatuvlarni ta'minlaydigan 150 kanalli raqamli xalqaro kosmik (fazoviy) telefon stansiyasi qurildi va foydalanishga topshirildi. 1997-yilda Xitoy (Shanxay) bilan Germaniya (Frankfurt – Mayn)ni bog'laydigan shisha kabelli Transosiyo – Yevropa aloqa magistralining O'zbekiston hududi orqali o'tadigan qismi (926 km) qurilishi tamomlandi.

Keyinchalik Turkiyaning «Netash», «Teletash», «Simko» firmalari 30 kanalli yana bir xalqaro kosmik telefon stansiyasini Toshkentda qurdi. Bu stansiyalarning ishga tushirilishi bilan xalqaro telefon so'zlashuvlarining 80 %ini sun'iy aloqa yo'ldoshlari orqali bevosita xorijiy mamlakatlarga uzatish va ulardan qabul qilishga erishildi.

Italiyaning «STET Interneyshtl» va Germaniyaning «Simens AG» kompaniyalari ishtirokida tuzilgan «Udiney» qo'shma korxonasi shaharlararo va xalqaro telefon aloqasini rivojlantirish, qayta qurish va undan foydalanish bilan shug'ullanadi. Shahardagi telefon egalari Yer kurrasidagi barcha mamlakatlar bilan avtomatik bog'lanish imkoniyatiga ega.

**Radio va televideniy aloqa.** Toshkent tajriba radioeshittirishlar dastlab 1926-yil o'tkazilgan. 1975-yili Toshkent radioeshittirish va ovoz yozish uyida stereofonik radioeshittirishlarni amalga oshirishga imkon beradigan apparatlar o'rnatildi. O'zbekistonda radiolashtirish ishlari 1928-yilda boshlangan. Shahar, tuman va qishloqlarda qurilgan radiouzellar xonadonlar, korxonalar, muassasalarni radiolashtirish ishiga xizmat qildi, 90-yillar boshida respublikaning 12,5 mln dan ortiq aholisi radiolashtirish xizmati bilan ta'minlangan.

Respublika radiomarkazi **sutkasiga 12 dastur bo'yicha 1700 soat eshittirishlar olib borishni ta'minlash quvvatiga ega.**

**1956-yilda Toshkentda (balandligi 180 m) televideniya mino-** rasi qurilib, Toshkent televideniya studiyasi ishga tushirildi va

muntazam ko'rsatuvlar boshlandi. Ko'rsatuvlarni Toshkent shahri va uning atrofida tumanlarda ko'rish mumkin bo'ldi. **Ikki yildan keyin teleko'rsatuvlar** Andijon, Farg'ona, Samarqand shaharlarida qabul qilindi. Keyinchalik Nukus (1961), Urganch (1964)da telemarkazlar qurildi. 1966-yilga kelib retranslatsiya stansiyalari va radiorelealoqa yo'llari (Toshkent – Andijon, 1960; Toshkent – Samarqand, 1966) yordamida ko'pgina viloyatlar alohida respublika televideniyesining 1-dasturini, Toshkent, Farg'ona vodiysi va Samarqand alohida ikki dasturini ham qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. **1965-yildan O'zbekistondagi teletomoshabinlar Moskvadan olib beriladigan ko'rsatuvlarni oq-qora, keyinchalik rangli tasvirda ko'ra boshladilar.** 1974-yil O'zbekistonda 18 ta katta quvvatli, 37 ta kichik quvvatli televideniye uzatkichlari ishladi, respublika aholisining 94,7 % birinchi, 87 % ikkinchi, 36 % uchinchi televideniye dasturlarini ko'rishga erishdi. 1977-yil Respublika televizion texnika markazi ishga tushirildi. Bu markaz biryo'la 5 dasturda ko'rsatuvlar olib borishga mo'ljallangan. Markazda 3 studiya, apparatxonalar, telekinoproyeksionxona, videoyozuv apparatxonalari, kinopreksion zallar, ko'chma televizion vositalar bazasi va boshqa yordamchi xizmatlar mavjud.

Telemarkaz radiorele yo'llari orqali O'zbekiston Respublikasi viloyatlari markazlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan bog'langan. Kabel magistrallari, radio va sun'iy yo'ldosh yo'llari yordamida ko'p mamlakatlar shaharlari bilan televizion dasturlar almashinadi.

Teleko'rsatuvlar ko'lamining kengayishi munosabati bilan kuchli radio-televizion uzatish stansiyasi qurishga ehtiyoj tug'ildi. Shu maqsadda **1978–1985-yillarda Toshkent shahridagi Bo'zsuvo kanalining o'ng sohilida balandligi 375 m bo'lgan ikkinchi teleminora** – hozirgi radio-televizion uzatish markazi qurib ishga tushirildi. Bu teleminora balandligi bo'yicha jahonda Moskvadagi Ostankino, Toronto (Kanada), Tokio (Yaponiya) teleminoralaridan keyin **4-o'rinda** turadi, Markaziy Osiyoda 1-o'rinda turadi. Teleminoraning 100 m va 200 m balandligida maxsus binolar joylashgan.

Bulardan eng yuqorisida 5 dasturli ko'rsatuvlarga mo'ljallangan televizion stansiya, ultraqisqa to'liqinli 4 dasturli eshitirishga mo'ljallangan radiostansiya, meteorologik stansiya va boshqalar, 100 m balandlikda esa «Koinot» restorani, kuzatuv maydonchasi o'rin olgan. Radio-televizion uzatish markazi Toshkent televideniyesi ko'rsatuvlarini taxminan 100 km radiusda bevosita ko'rsatilishini ta'minlaydi. Viloyatlar va boshqa joylarga bu ko'rsatuvlar maxsus retranslatiya stansiyalari orqali uzatiladi.

O'zbekistonda Toshkent telestudiyasidan tashqari Nukus, Urganch, Termiz, Namangan, Andijon, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona, Buxoroda viloyat telestudiyalari ishlaydi.

Bundan tashari, 30 mahalliy va tijorat studiyalari faoliyat ko'rsatadi. Rossiya, Qozog'iston, Turkiya teledasturlarini muntazam olib ko'rsatish, Hindiston, AQSH axborot dasturlarini qabul qilish yo'lga qo'yilgan.

**Matbuot tarqatish.** Respublikada aloqa organlari matbuot nashrlarini tarqatish va yetkazib berish ishlarini ham bajaradi. Vaqtli matbuotni tarqatishning asosiy shakli obuna bo'lib, 1991-yilga qadar gazeta va jurnallar adadining 85% obuna yo'li bilan tarqatilgan.

O'zbekistonda aloqa vazirligi tizimida obuna bo'yicha va chakana savdo yo'li bilan vaqtli matbuot nashrlari (mahalliy va chetel gazeta, jurnal, haftaliklari)ni tarqatish maorif va, umuman, madaniyatni rivojlantirishda tarixan katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1994-yil sobiq «Soyuzpechat» respublika boshqarmasi o'rnida ochiq tipdagi aksiyadorlik jamiyati bo'lgan «**Matbuot tarqatish uyushmasi**» ish boshladi.

Uning 12 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahridagi korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Uyushma chakana savdo tarmoqlariga ham ega. Ular vaqtli matbuot nashrlari bilan birga kitoblar, taqvimlar, pochta markalari, nishonlar va boshqa narsalar ham sotadi.

Respublikada 2010-yilgacha aloqa tizimini ilg'or texnologiyalar va yechimlar bazasida **xalqaro aloqa tizimlariga asta-sekin qo'shilishini ta'minlaydigan dastur ishlab chiqilgan.**



Aloqaning rivojlanish dasturini asosiy vazifasi bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini pochta, telegraf, telefon, radio va hokazolarga bo'lgan talabini to'laroq qondirish hisoblanadi. Shu vazifani hal qilishda aloqaning har bir sohasining rivojlanish darajasi va ularning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Masalan, gazeta va jurnallarni aholiga yetkazib berish dasturiga qo'yiladigan vazifa — bu gazeta va jurnallarni chop etilgan kunioq obunachilarga yetkazishdir.

Pochtani rivojlantirish dasturidagi asosiy vazifa bo'lib, pochta orqali yuboriladigan xatlarni, posilkalar va hokazolarni qisqa muddat ichida ularning egalariga yetkazish hisoblanadi.

Aloqani rivojlantirish **dasturidagi asosiy ko'rsatkichlar** quyidagilar hisoblanadi:

1. Aloqaning mahsuloti.
2. Shaharlararo telefon kanallarining uzunligi.
3. Shaharlar va qishloq joylardagi telefon stansiyalarining kattaligi (sig'imi).
4. Televizion stansiyalarning soni va quvvati.
5. Kompleks mexanizatsiyalashgan aloqa korxonalarining soni.
6. Ta'rif daromadlari hajmi, foyda, rentabellik va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Aloqa **mahsulotining hajmi** — bu ushbu tarmoq tomonidan Milliy iqtisodiyot va aholiga ko'rsatadigan barcha xizmatlarini pul o'lchovida ifodalangan yig'indisidir. Bu natura hoida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini ularga mos bo'lgan joriy baholarga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Shaharlararo **telefon aloqalarining hajmi** dasturlashtirilayotgan davrdagi aholining soni va uning har bir kishisiga to'g'ri keladigan telefon orqali gaplashishlar miqdorini oshishi asosida aniqlanadi.

**Telefon aloqalarining o'sish darajasi** Milliy iqtisodiyotda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarining sonining oshishiga mo'ljallanishi lozim. Hozirgi davrda aloqa korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, mana shu korxonalarining **tarif daro-**

**madlari** hajmi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich aloqa korxonalarini haq olib ko'rsatadigan xizmatlarini oshirishni ta'minlaydi, tarmoqning xo'jalik faoliyatini baholashdagi kamchiliklarini bartaraf etadi va hokazo.

Telefon stansiyalari **tarmoqlarini kengaytirish** har 100 ishlovchini va 100 xonadonni telefon nomerlari bilan ta'minlash normasi asosida rivojlantirilishi kerak. Ayniqsa, qishloq joylarida telefon aloqasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish lozimdir.

O'zbekiston mobil aloqa tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyodagi yetakchi 10 ta mamlakat sirasiga kiradi. 2010-yili yurtimizda mobil aloqa tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2000-yildagiga nisbatan 238 barobar ko'payib, 22,7 million kishidan oshdi. 2000-yilda respublikamiz aholisining mobil aloqa telefonlari bilan ta'minlanish darajasi har 1000 nafar aholiga 4 donadan kam bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda har ming nafar odamga 800 donadan ziyod telefon to'g'ri keldi. Kuchli raqobat muhitining shakllangani va mobil aloqa abonentlari soni ortib borayotganligi tufayli mobil aloqa xizmatining tarif narxlari pasaymoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib raqamli televideniye to'liq o'tish bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirishga kirishdi va bu boradagi ishlar 2015-yilda yakunlanadi.

***Tayanch iboralar:***

- *ishlab chiqarish majmuyi;*
- *nomeklatura;*
- *assortiment;*
- *tovar mahsuloti;*
- *yalpi mahsulot;*
- *asosiy ishlab chiqarish fondlari;*
- *mehnat unumdorligi;*
- *oborot mablag'lari;*
- *fondlar qaytimi;*
- *fondlar sig'imi;*
- *foyda;*
- *rentabellik;*

- *ishlab chiqarish ehtiyoji;*
- *eksport;*
- *import;*
- *davlat rezervi;*
- *ishlab chiqarish imkoniyatlari;*
- *ishlab chiqarish quvvati;*
- *transport majmuyi;*
- *yuk oboroti;*
- *o'rtacha masofa;*
- *passajir oboroti;*
- *aholining transport qatnovi;*
- *aloqa majmuasi;*
- *aloqa dasturi;*
- *agrosanoat kompleksi;*
- *agrar siyosat;*
- *dehqonchilik;*
- *chorvachilik;*
- *mulkchilik shakllari;*
- *davlat sektori;*
- *nodavlat sektori;*
- *paxta yakka hokimligi;*
- *natura ko'rsatkichi;*
- *qiymat ko'rsatkichlari;*
- *samaradorlik ko'rsatkichlari;*
- *shirkat xo'jaligi;*
- *fermer xo'jaligi;*
- *dehqon xo'jaligi;*
- *mashina traktor parki;*
- *xo'jalik shartnomalari;*
- *bozor infrastrukturasi;*
- *soliq siyosati;*
- *baho siyosati;*
- *qurilish kompleksi;*
- *qurilish industriyasi;*
- *xo'jalik usuli;*
- *puqrat usuli;*
- *buyurtmachi;*
- *tanlov savdolari (tender);*
- *loyiha-qurilish tashkilotlari;*

- kapital qo'yilmalar;
- yangi qurilish;
- korxonalar rekonstruksiyasi;
- investitsiya siyosati;
- qiyosiy iqtisodiy samaradorlik.

### **Nazorat savollari**

1. Ishlab chiqarish majmuyi deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun sanoat yetakchi tarmoq hisoblanadi?
3. Sanoat ishlab chiqarish dasturi nima?
4. Sanoat mahsulotining qanday qiymat ko'rsatkichlarini bilasiz? Ular qanday usullarda hisoblanadi?
5. Sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab qanday aniqlanadi?
6. Sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan taqqoslash usuli qanday?
7. Ishlab chiqarish quvvatlari balansi, uni tuzish metodikasi to'g'risida nima deya olasiz?
8. Respublika transport majmuyi.
9. Transport tarmog'ida qanday islohotlar o'tkazilmoqda?
10. Transport tarmoqlarini rivojlantirish dasturining ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usuli qanday?
11. Yuk oboroti qanday hisoblanadi?
12. Passajir oboroti-chi?
13. Aloqa tarmog'ida islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida qanday vazifalar belgilangan?
14. Aloqa tarmog'i qanday ko'rsatkichlarda ifodalanadi?
15. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini rivojlantirish borasida qanday vazifalar belgilangan?
16. Agrosanoat kompleksi, uning tarkibi va vazifalari haqida nimalar deya olasiz?
17. Qishloq xo'jaligining tarkibi qanday?
18. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdagi tutgan roli to'g'risidagi qanday fikrdasiz?
19. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
20. Respublika qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllari qanday?
21. O'zbekiston qishloq xo'jaligida dehqonchilikning tarkibi, uni rivojlantirish dasturining ko'rsatkichlari tarkibi qanday?
22. O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilikning tarkibi, uni rivojlantirish dasturining ko'rsatkichlari qanday?

23. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning natija va qiymat ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari qanday?
24. Respublika qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayoni to'g'risida nima deya olasiz?
25. Qishloq xo'jaligida shirkat, fermer, dehqon xo'jaligi tizimi. Ularning ta'rifini ayting.
26. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida nima deya olasiz?
27. Agrosanoat kompleksining isloh qilish prinsiplari va asosiy yo'nalishlari haqida qanday fikrdasiz?
28. Qurilish kompleksi. Uning mazmuni, tarkibi va iqtisodiyotda tutgan o'rni haqida nima deya olasiz?
29. Qurilish jarayonida xo'jalik va pudrat usulini qanday tushunasiz?
30. Qurilish sohasida respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar qanday kechayapti?
31. Qurilish industriyasi negizini qanday xo'jaliklar tashkil qiladi?
32. Qurilish tashkilotlari haqida nima deya olasiz?
33. Qurilish sohasidagi xalqaro hamkorlik qanday olib boriladi?
34. Qurilish qanday sotsial-iqtisodiy vazifalarga ega?
35. Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
36. Kapital qo'yilmalar tushunchasi to'g'risida nima deya olasiz?
37. Kapital qurilishi sohasidagi investitsiya siyosatining mohiyati qanday?
38. Kapital qo'yilmalarning hududiy tarkibi nimani bildiradi?
39. Kapital qo'yilmalarning hajmi qanday aniqlanadi?
40. Kapital qo'yilmalarning manbayiga nimalar kiradi?
41. Mutlaq va qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar. — T.: «O'zbekiston». 2009.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir. — T.: «O'zbekiston». 2010.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. — T.: «O'zbekiston». 2010. 80-bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2013-yil. 19-yanvar.

5. «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 20-oktabrdagi farmoni.

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. — T.: «O'qituvchi». 1996.

7. *Ergashev R.X.* Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. — T.: «Ekstrimum Press», 2011.

8. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot. — T.: 2004.

9. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi 1990–2010-yillar asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari. — T.: «O'zbekiston». 2011.

10. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

11. [www.refportal.ru](http://www.refportal.ru)

12. [www.allbest.ru](http://www.allbest.ru)

13. [www.agro.uz](http://www.agro.uz)

**Reja:**

- 7.1. *Ijtimoiy tarmoqlar majmuyi va uni rivojlantirish vazifalari.*
- 7.2. *Ta'lim tizimi va uni isloh qilish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.*
- 7.3. *Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish.*
- 7.4. *Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish.*
- 7.5. *Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini qayta qurish.*

### **7.1. Ijtimoiy tarmoqlar majmuyi va uni rivojlantirish vazifalari**

Davlatning funksiyalaridan biri – uni ijtimoiy siyosati funksiyasi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish va ular o'rtasidagi kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha davlat chora-tadbirlari tizimi – *ijtimoiy siyosat* deyiladi. Keng ma'noda ijtimoiy siyosat deganda shaxsning hayot faoliyatini shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. Bu tadbirlar shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishni rag'batlantiradi.

Aholining turmush farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilangina emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Ijtimoiy soha davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning natijasi o'z aksini topadi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy siyosat esa barcha aholi manfaatini ko'zlaydi. Aynan ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy soha** milliy iqtisodiyotning bajaruvchi tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, u xalq ta'limi va ma'daniyati, sog'liqni saqlash, aholiga nafaqa to'lash, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, fizkultura va sport xo'jaligi kabi qator sohalarni o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari, ijtimoiy soha hayot darajasini yaxshilash, iqtisodiyotda ijtimoiy adolatni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida Islom Karimov mamlakatimiz taraqqiyoti haqida to'xtalib, **yettita ustuvor vazifalarni olg'a surgan edi. Ijtimoiy sohalarning muhimligini ta'kidlab shunday degan edi:** «O'ylaymanki, ijtimoiy infratuzilmani, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarni yanada rivojlantirish, nafaqa bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, aholini ekologik va boshqa xavf-xatarlardan muhofaza etish, qisqa qilib aytganda, odamlarimizning sotsial soha bo'yicha talab va e'tirozlarini qondirish masalalarini har tomonlama kuchaytirish lozimligini isbotlab o'tirishga hojat bo'lmas kerak»<sup>1</sup>.

Ijtimoiy soha taraqqiyotning qay darajadaliği ma'lum jihatdan mamlakatdagi siyosiy va psixologik muhitni, aholining umumiy kayfiyatini belgilaydi. Ijtimoiy sohalarning o'sishi hududlarning umumiy iqtisodiy taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotning asosiy muammolariga faqat iqtisodiy jihatdangina emas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Shundan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy sohalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasi bozor munosabatlariga o'tishning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Ijtimoiy sohalar faoliyatining samaradorligi uning barcha asosiy tarkibiy qismlarining kompleks rivojlanishiga bog'liq.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy sohaning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish borasida muhim, diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya, madaniyat, dam olish, uy-joylar sharoitini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish kabi qator sohalarni yaxshilash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqloq yillarida mamlakatimiz aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid 30 dan ortiq qonunlar yaratildi va ular amaliyotda keng qo'llanilmoqda. 2007-yil «Ijtimoiy himoya yili» deb nomlandi va juda katta davlat dasturi qabul qilindi.

<sup>1</sup> I. Karimov. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. — T.: O'zbekiston. 2003. 32- bet.



Unda ijtimoiy himoyani yanada mustahkamlashga qaratilgan 7 yo'nalish bo'yicha katta vazifalar amalga oshirildi.

2013-yilda xalqimizning real daromadlari 16% ga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8% ga ko'paydi. Bularning barchasi avvalo mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan boshlab «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan prinsipni hayotga tatbiq etganimizning amaliy samarasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda uy-joy hajmining ko'rsatkichi qariyb 2 barobar oshdi, oilalarning 98,5 foizi o'zining shaxsiy uy-joyi yoki kvartirasiga, qishloqlarda yashayotgan oilalarning 97,5 foizi shaxsiy tomorqasiga ega bo'ldi.

Ayniqsa, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillardan 2000-yilda har 100 ta oilaga o'rtacha 20 ta to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 41,4 taga yetdi. Har 3 nafar yurtdoshimizdan biri internet tarmog'idan foydalanib kelayotgani xalqimizning farovonligi tobora ortib borayotganligining, uning emin-erkin yashayotganini namoyon etadi».

Ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal etishda ijtimoiy sohani moliyalashtirish ko'lami va ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish masalalari muhim hisoblanadi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy soha va aholining ijtimoiy muhofazasi uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlari 2 barobardan ziyod oshdi.

Buning dalili sifatida, ijtimoiy soha va aholining qo'llab-quvvatlashga davlat budjeti xarajatlaridan 1990-yil 31,5 % ajratilgan bo'lsa, 2000-yilda 42,5 %ni, 2012-yil 59,2 %ni tashkil qildi. Uning 34 %dan ortig'i ta'lim, 14,5 %dan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohaslarini moliyalashtirishga yo'naltirildi. Ijtimoiy sohaning mamlakatimiz YIMdagi ulushi bugungi kunda 52 % dan ziyodni tashkil etmoqda. **Ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar quyidagi vazifalarni bajarishni ta'minlashi lozim:**

1) har bir insonni, eng avvalo malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, bepul umumiy ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoit yaratishi va ta'minlashi lozim;

2) aholini kam ta'minlangan, ya'ni uning moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qismini himoya qilishga qaratilgan, eng avvalo aholining nochor guruhlarini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimini barpo etish;

3) aholini ijtimoiy himoya qilishni iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblash;

4) pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, pensiyaning real miqdorini oshirish;

5) mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholiga o'z daromadlari hisobidan yuqoriroq ijtimoiy iste'mol qilishni ta'minlaydigan iqtisodiy sharoit yaratish;

6) aholini turarjoylarga, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumovqatlash korxonalarining xizmatlariga hamda madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarga bo'lgan qonuniy talablarini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratish;

7) ijtimoiy-madaniy institutlarning rivojlanishini huquqiy va tashkiliy asoslarini shakllantirish va boshqalar.

## **7.2. Ta'lim tizimi va uni isloh qilish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**

Ta'lim jamiyatning rivojlanish tendensiyasi va holatini aks ettiradi hamda unga ta'sir ko'rsatadi. Millatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy qiyofasi ko'p jihatdan uning ziyolilar dunyoqarashi, bilimdonlik saviyasi va jasoratiga bog'liq. «**Olamga quyosh ziyo taratsa, odamzod qalbiga ziyoli nur sochadi**», deydi xalqimiz. Hozirgi vaqtda Respublikada 66 ta Oliy o'quv yurti, jumladan, 1500 ga yaqin kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va 10 mingga yaqin umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi kasb-hunar kollejlari va ularning filiallarini qurish nihoyasiga yetkazildi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim maqsadi yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Aynan shu maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda keng miqyosdagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi. Uning zahirida aholining uzluksiz ta'lim olishini ta'minlash, ta'lim tizimining jamiyatdagi o'zgarish va yangilanishlar, iqtisodiyotdagi yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bilan uyg'un va hamohang bo'lishiga erishish konsepsiyasi mujassam edi.

Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi 5 ta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi «Innovatsion global indeksi» ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotda keltirilishicha, dunyoning 141 mamlakatida innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tashkil qilingan.

Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'yicha bizning mamlakatimiz **35-o'rinni** egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston dunyoning 141 mamlakati orasida **ikkinchi o'rinni** band etgan (14-jadval).

Yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida 2012–2013-o'quv yilida 12 yillik majburiy ta'limga, jumladan, 9 yillik maktab ta'limi va undan keyingi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tish to'liq ta'minlandi.

Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi va zamonaviy xalqaro talablarga mos holga keltirildi. Zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, o'quvchilar uchun ulardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O'qituvchilar tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning yuksak malaka talab etadigan mehnatini rag'batlantirish tizimi yaratildi (6,7-chizmalar).


2004–2010-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umum-milliy davlat dasturi amalga oshirildi.

Bu davr mobaynida 7800 tadan ziyod umumta'lim maktabi yangitdan qurildi, ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning umumiy soni esa 9860 taga etdi. 8000 dan ortiq ta'lim muassasasi kapital ta'mirlandi, gaz va suv bilan ta'minlandi, markazlashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi.


Maktab ta'limi rivojining son va sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	1990-yil	2000-yil	2009-yil	2012-yil
Umumta'lim maktablari o'quvchilari soni (1-9 sinf), ming	4053	5645,8	4822,2	4676,1
Umumta'lim maktablari 1 nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi	13	13	11	11
7(6) yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning maktab ta'limi bilan qamrab olingani, maktabda o'qishi lozim bo'lgan bolalarga nisbatan foizda	92,1	97,4	99,39	9,3
Shu jumladan,				
O'g'il bolalar	92,4	98,1	99,3	99,3
Qizlar	91,8	96,6	99,3	99,3
Darsliklar bilan ta'minlanish darajasi, foizda	55,4	76	99,5	100
Nashr etilgan darsliklar soni, ming nusxa	666,7	2955,7	22699,1	33652,9
Kompyuter o'quv xonalari bilan ta'minlanish, maktablar sonidan foiz nisbatida	2,4	10,4	46,4	68,2
Zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganlik, maktablar soniga nisbatan foizda	16,4	21,5	69,3	71,5
Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari soni	371	483	563	575

Manba. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlari asosida.



6-chizma. 1991-yilgacha faoliyat ko'rsatgan ta'lim tizimi



7-chizma. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tizimi

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishi  
ko'rsatkichlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>1990-yil</b>	<b>2000-yil</b>	<b>2009-yil</b>	<b>2012-yil</b>
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni, ming o'quvchi	494,7	532,6	1510,8	1623,1
Qizlar ulushi, foiz hisobida	45,0	47,4	49,1	48,5
Umumta'lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan qamrab olish ko'rsatkichlari, foizda	32,2	41,7	96,8	97,1
Shu jumladan,				
O'g'il bolalar	33,9	33,9	97,2	97,2
Qizlar	28,6	31,0	96,5	97,0
Foydalanishga topshirilgan yotoqxonalar, ulardagi o'rinlar soni, ming kishi	—	30,2	92,0	95,0

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

O'rta umumta'lim maktablarida ta'lim davlat tilidan tashqari, yana 7 tilda olib borilmoqda: rus tilida — 806 ta maktabda, qoraqalpoq tilida — 394 ta maktabda, qozoq tilida — 483 ta maktabda, tojik tilida — 238 ta maktabda, qirg'iz tilida — 61 ta, turkman tilida — 46 ta maktabda va boshqa tillarda.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim standartlari asosida jihozlangan 1539 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey faoliyat yuritmoqda, hozirgi kunda ularda 1623,1 ming nafar o'quvchi bilim olmoqda. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar

malakali, pedagogik va amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan rahbar va o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlangan (15-jadval).

1998–2010-yillar davomida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarini yangitdan qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish uchun qariyb 2,5 trillion so'm sarflandi. Barcha kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar zamonaviy ta'lim standartlari talablari asosida jihozlandi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlanmoqda. 2013-yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kollejlarni tugatgan 500 ming nafardan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi. Ularning 43 % o'zlari ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan korxonalariga ishga joylashdi (2-diagramma).

Oliy ta'lim tizimida bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli xalqaro standartga o'tish amalga oshirildi.

Mamlakatimizda Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz instituti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot Akademiyasi, Turin politexnika universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti kabi xalqaro oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda (16-jadval).


16-jadval

**Oliy ta'limning rivojlanish ko'rsatkichlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>1990–1991- o'quv yili</b>	<b>2000–2001- o'quv yili</b>	<b>2009–2012- o'quv yili</b>
Oliy o'quv yurtlari soni	37	60	66
shu jumladan, xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari	–	–	6

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan oliy o'quv yurtlarida eng yuksak xalqaro standartlar asosida biznes, iqtisodiyot, huquq,



2-diagramma. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar dinamikasi (o'sayotgan birlikda).



axborot texnologiyalari sohalari bo'yicha talab qilinayotgan mutaxassislar, neft-gaz tarmog'i va geologiya qidiruvi muhandislari, zamonaviy mashinasozlik, sotsiologiya va psixologiya yo'nalishlari uchun kadrlar tayyorlanmoqda.

Oliy ta'limning 150 dan ziyod bakalavr yo'nalishi va 650 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari joriy etildi. Talabalarni test sinovlari natijalari asosida o'qishga qabul qilishga to'liq o'tildi.

Oliy o'quv yurtlarining ilm-fan salohiyati ham samarali natijalar bermoqda.

Faqat 2010-yilning o'zida oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida innovatsion loyiha va texnologiyalar ishlab chiqish uchun umumiy qiymati 4,7 milliard so'mdan ziyod shartnomalar tuzildi, davlat fan va texnika dasturlari hajmi esa qariyb 6 milliard so'mni tashkil etdi.

O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chetel investitsiyalarining miqdori 150 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», **Pedagogik kadrlarni** xoriyda tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash bo'yicha «Ustoz» jamg'armalari tashkil etildi. Bugungi kunda «Umid» va «Ustoz» jamg'armalari birlashtirilib, «Iste'dod» jamg'armasi tuzildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat va xo'jalik qurilishining barcha sohalarida yuqori malakali mutaxassislar mavjudligini taqozo qiladi. Shunday sharoitda ta'lim muammosi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir.

Aynan shuning uchun ham **ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqarishdagi yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi.**

Islohotlarning boshlanish davrida Respublikada maktab ta'limini tashkil qilishda qator ijobiy siljishlar yuz berdi:

1. 1996–1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

2. Shu davr maboynida 300 ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 litsey tashkil etildi, 800 ga yaqin o'quvchi chetellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida chet mamlakatlarga borib qaytdi.

3. Talabalar va o'qituvchi-murabbiylarni, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'lga qo'yildi. Masalan, 1993-yildan boshlab oxirgi kurs a'lochi talabalar va aspirantlari uchun «**Prezident stipendiyasi**» joriy qilindi. Beruniy, Navoiy, Ulug'bek, Berdaq nomidagi stipendiyalar ta'sis qilindi; konkurs va musobaqa g'oliblariga moddiy-pul rag'batlantirishlari joriy qilindi. Professor-o'qituvchilarga mehnat shartnomalarining kontrakt tizimi joriy etildi va hokazo.

4. O'rta maxsus ta'lim sohasida respublikada joylarda biznes maktabi, kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, yangi mutaxassisliklar (fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va hokazo) kiritildi.

5. Oliy maktab sohasida **test usullari joriy etildi**; viloyatlar markazlaridagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi; Chetellarga tajriba almashish va talabalarni o'qishga yuborish yo'lga qo'yildi; iqtisod va biznes sohasidagi mutaxassis va o'qituvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida 2 mingdan ortiq talaba va mutaxassislar chetellarda o'qib kelishdi; 200 dan ortiq chetel mutaxassislari respublikamiz o'quv muassasalariga jalb qilindi;

6. Davlat boshqaruvi akademiyasi, Bank, Moliya hamda «Soliq» akademiyalari tashkil qilindi.

7. «Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni» jang'armalari tuzildi.

Yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar dastlabki yillarda ta'lim jarayoni tizimida ko'pgina ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Ammo o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan bu tadbirlar bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera olmadi, natijada **ko'pgina muammolar hal qilinmay qolaverdi:**

1. Sobiq Sovet davridan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan qutilish imkoniyatini bermadi.

2. Amalga oshirilgan o'zgarishlar va tadbirlar ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yecha olmadi.

3. Amaldagi ta'lim-tarbiya jarayoni zamonaviy talablarga javob berolmasligi, mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimini jamiyatdagi bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmaganligi ko'rinib qoldi.

4. Yoshlarning sezilarli qismi (o'rta maktabni bitirganlarining 70 foizgacha bo'lgan qismi) mehnat bozoriga kirishga tayyor emas, chunki ular ma'lum bir kasb-malakaga ega emas edi.

5. Aksariyat maktablarning moddiy texnika va axborot bazasi yetarli ahvolda emasligi, o'rta va oliy maktablarning zarur uskunalar bilan ta'minlanganligi esa talab darajasidan ancha past bo'lganligi, sifatli o'quv-uslubiy adabiyotlarning kamligi sezilarli darajada edi.

6. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning ahvoli qoniqarsiz darajada qoldi. Bog'cha yoshidagi bolalarning 25 foizi maktabgacha bolalar muassasalariga qamrab olingan edi, xolos.

7. Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyatidagi juda ko'p kamchiliklar o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanmay qolishiga sababchi bo'lib qolgan edi. O'rta maktabni bitirganlarning 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirar edi, xolos.

Yuqorida ko'rsatilgan va boshqa muammolar ta'lim jarayonlarini chuqur isloh qilish lozimligini taqozo etdi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1997-yil avgust oyida «**Ta'lim to'g'risida**» qonun qabul qildi.

Bu qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta'lim tizimi va turlarining huquqiy asoslari belgilab berildi.

«**Ta'lim to'g'risida**»gi qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasi, **ta'lim ustuvor deb e'lon qilingan.**

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagicha belgilangan:**

1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xarakterda ekanligi.

2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.

3. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi.

4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.

5. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi.

6. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.

7. Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv.

8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.

9. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga binoan **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** qabul qilindi. U uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning barcha tizimi va turlarini, tizimini isloh qilishga qaratilgan.

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi quyidagi ta'lim turlarini belgiladi:**

**Maktabgacha ta'lim** bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat

maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

**Umumiy o'rta ta'lim.** To'qqiz yillik (I–IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I–IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

**O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi** umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus kasb-hunar kolleji o'quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

**Akademik litsey** davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

**Kasb-hunar kolleji** tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

**Oliy ta'lim** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

**Bakalavriat** — mutaxassisliklar yoʻnalishi boʻyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, taʼlim muddati kamida toʻrt yil davom etadigan tayanch oliy taʼlimdir.

Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan soʻng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb boʻyicha «**bakalavr**» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

**Magistratura** — aniq mutaxassislik boʻyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida taʼlim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy taʼlimdir.

«**Magistr**» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlilik dasturining intixosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

**Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim** jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy taʼlim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyulda PF-4456 «Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan oʻtkazish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga asosan taʼlim jarayoni bakalavriyat va magistratura standartlariga oʻtkazilgandan soʻng nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish mohiyatan ortiqcha ekanligini koʻrsatdi.

Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri dissertatsiyani himoya qilishni nazarda tutuvchi oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlimning bir bosqichli tizimi 2013-yil 1-yanvardan joriy qilinadigan boʻldi.

Doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi yangilanmoqda. Ilmiy kengashlar, asosan, nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtda ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim boʻlgan yetakchi oliy oʻquv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

*Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash* mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma va sertifikat topshiriladi.

*Maktabdan tashqari ta'lim* bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti hamda dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **maqsadi** — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish edi.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi **vazifalar hal etilishini nazarda tutgan edi**:

1. «**Ta'lim to'g'risida**»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuyi sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash.

2. Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash.

3. Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish.

4. Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyoj-

laridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish.

5. Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish.

6. Ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish hamda akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy qilish.

7. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi hamda barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish.

8. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish.

9. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chetel investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

10. Kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarildi.**

**Birinchi bosqich** (1997–2001-yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlari yaratildi.

**Ikkinchi bosqich** (2001–2005-yillar) – milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritildi.

**Uchinchi bosqich** (2005–2009-yil) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatning ijtimoiy-



iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Aynan shu bosqichda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilib, ularning jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topib olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

#### **Bu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilar edi:**

1. Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalarida ta'limning ustuvorligini bildiradigan davlat siyosatining mohiyatini ifodalaydi.

Respublikamizda yalpi xarajatlar tarkibida ta'lim tizimi uchun xarajatlar 1990-yilda 17,9 % dan 2013-yilda 35,0 % dan ortiqrog'i ta'lim sohasiga e'tibor oshayotganligining yaqqol isbotidir. Ta'lim uchun sarf-xarajatlarning bu miqdori bo'yicha O'zbekiston jahonning yetuk mamlakatlariga yaqinlashib borayotganligini isbotlaydi.

2013-yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etilmoqda. Reyting tuzish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi zimmasiga yuklanadi.

Reyting tizimining joriy qilinishi oliy o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobat va musobaqa muhitini shakllantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash darajasi hamda sifatini yanada oshirish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish imkoniyatini vujudga keltiradi. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha **2011–2016-yillarga mo'ljallangan dasturni** amalga oshirish uchun 277 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash.

2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish.
3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish.
4. Ma'naviy va axloqiy tarbiya hamda ma'rifiy ishlarni takomillashtirib borish.
5. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni aniqlab borish hamda o'qitish.
6. Ta'lim tizimini boshqarish.
7. Kasb-hunar ta'limi sifatining nazorat qilish tizimini shakllantirish.
8. Ta'lim tizimini moliyalash.
9. Moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash.
10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish.
11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.
12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
13. Fan va ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish.
14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish.
15. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

### 7.3. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish

Sog'liqni saqlash — bu jamiyat a'zolari sog'lig'ini himoya qilish va yaxshilash bo'yicha davlat tomonidan olib borilgan iqtisodiy hamda tibbiy tadbirlar majmuyidir.

**Sog'liqni saqlash tizimi** bu davolash va dori-darmon yetkazib beruvchi muassasalarining barchasini o'z ichiga oladigan ijtimoiy-sohaning muhim tarmog'idir. Bu muassasalarining holatiga inson salohiyatining rivojlanishi bevosita bog'liq bo'ladi. Inson sog'lig'i, insoniy salohiyat mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasida zamonaviy, yuksak jahon talablariga javob beradigan tashxis qo'yish va davolash tibbiy asbob-**

**uskunalar bilan jihozlangan, yuqori malakali vrachlar va o'rtta tibbiy xodimlari bilan ta'minlangan shoshilinch tibbiy yordamning yaxlit tizimi yaratilgan va faoliyat ko'rsatayapti.**

O'zbekiston ulkan insoniy salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir.

«Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, – deydi Prezidentimiz, – u mamlakatning islohotlari va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi». Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o'z navbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Respublika aholisi 2013-yilda 31 mln kishidan oshdi. Bundan 51,3 % shahar va shaharchalarda 48,7 % qishloqlarda yashaydi.

O'zbekistonning muhim xususiyati shundan iboratki, bunda aholining o'sish sur'atlari yuqori. 1990–2012-yillarning o'zida mamlakatimiz aholisining soni salkam 13 mln ga ko'paydi. Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati ana shu yillarda 1,8 % ni tashkil etdi yoki yiliga 500 ming kishidan sal ko'proqqa o'sdi. Umr ko'rish darajasi o'rtacha 7 yilga uzaydi va 73 yoshni tashkil qilmoqda.

Aholining sog'lig'ini saqlash holati, eng avvalo, davlat va jamiyatning ijtimoiy tuzumiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mustaqil O'zbekistonda bo'layotgan qayta qurishlar sog'liqni saqlash tarmog'ini ham chetda qoldirmadi.

1992-yildan O'zbekistonda tarmoqni intensiv rivojlantirish prinsiplariga asos solgan sog'liqni saqlashni rivojlantirish konsepsiyasi belgilandi. Sobiq Sovet davridagi sog'liqni saqlash tizimi samarasiz bo'lib, ekstensiv prinsip asosida rivojlangan. Bu tizimda sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdor ko'rsatkichlariga a'oliy e'tibor berilgan.

Masalan, mustaqillik davrining boshlarida O'zbekistonda 22 mln kishiga 70 mingdan oshiq vrach to'g'ri kelar edi.

O'zbekistondagi vrachlarning ko'pligi aholining sog'ligini davolash darajasi yuqori ekanligini aslo bildirmas edi (17-jadval).

## Sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari

	2000-yil	2010-yil
Barcha shifokorlar soni (ming kishi)	81,5	77,1
Shifokorlar har 10000 aholiga	32,8	27,8
O'rta tibbiy xodimlar soni (ming kishi)	259,7	287,3
O'rta tibbiy xodimlar soni 10000 aholiga	104,7	103,5
Kasalxona muassasalari soni	1162	1086
Kasalxonadagi o'rinlar soni 10000 aholiga	55,9	49,5
Tibbiyot oliy o'quv yurtlarini bitirganlar	2268	3300
O'rta maxsus kasb hunar kollejarini bitirganlar	22803	48300

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. – T.: «O'zbekiston», 2011.

Shunday qilib, Respublikamizda qabul qilingan sog'liqni saqlashning intensiv yo'lga o'tkazish konsepsiyasi nafaqat to'g'ri, balki zarurat ekanligini hayotning o'zi isbotladi.

O'zbekistonda 1996-yil 26-avgustda «Respublika fuqarolarining sog'lig'ini saqlash haqida» qonun qabul qilindi.

Mazkur qonun bilan Respublika aholisining sog'lig'ini saqlashning quyidagi **asosiy prinsiplari aniqlab qo'yildi:**

1. Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqini ta'minlash.
2. Aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy yordam olish imkoniyati.
3. Profilaktik tadbirlar ustuvorligi.
4. Sog'lig'ini yo'qotgan kishilarni ijtimoiy muhofaza qilish.
5. Tibbiy fan va amaliyotning birligi.

Bu qonun sog'liqni saqlash tizimining institutsional tuzilmasi va birinchi darajali faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab berdi. Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlan-

tirishning huquqiy holati va mulkchilik shakli turlicha institutsional tuzilmalarni tashkil qilish va amaliy faoliyatini yo'lga qo'yish modeli tanlab olingan. Bir vaqtning o'zida, qonunda fuqarolarning yoshi, moddiy va professional holati, shuningdek, zaruriy xizmat xarakteri aniq e'tirof etilgan tibbiy yordam olish huquqlari alohida belgilangan.

Qonunga muvofiq, xalq salomatligini saqlash maqsadida davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni boshqarish davlat zimmasiga yuklatiladi.

**Sog'liqni saqlash bo'yicha davlat tizimi tarkibiga markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, shuningdek, ularning tassarrufida bo'lgan davolash-profilaktika, ilmiy-tadqiqot muassasalari, o'quv dargohlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, tez tibbiy yordam xizmati, sud-tibbiyot ekspertizasi tashkilotlari kiradi.**

**Davlat tashkilotlari markaziy va mahalliy budjet hisobidan moliya bilan ta'minlanadi.**

Bu tashkilotlarda bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan yaratilgan hamda moliya bilan ta'minlanadigan tibbiy muassasalar ham shu guruhga kiritiladi.

**Xususiy tibbiyot muassasalari tizimi tarkibiga davolash-profilaktika, dorixona muassasalari, tibbiyot va farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, shuningdek, yakka tartibda tibbiy yoki farmatsevtik faoliyat bilan band bo'lgan jismoniy shaxslar kiradi.**

Sog'liqni saqlash sohasida barcha muassasa va tashkilotlarning, shu bilan bir vaqtda jismoniy shaxslarning faoliyati davlat tomonidan qat'iy belgilanadi va nazorat qilinadi. **Tibbiy xizmat bilan bog'liq faoliyat olib borish uchun maxsus davlat litsenziyasiga ega bo'lish lozim.**

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan 2011-yilda tasdiqlangan «**Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari**» to'g'risida maxsus dastur qabul qilindi. Bu dastur respublika hududlarida turli mulkchilik shakliga asoslangan tibbiy muassasalar tar-

mog'ini kengaytirish va sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bu respublika aholisiga zaruriy tibbiy yordam ko'rsatishning yaxlit tashkiliy tuzilmasi yaratildi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 18-iyuldagi R-3676-sonli farmoyishi bilan tuzilgan komissiyaning:**

– 2012–2015-yillarda budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan sog'liqni saqlash tizimi statsionar muassasalari tarmog'i va o'rinlar fondini maqbullashtirish;

– 2012–2014-yillar mobaynida olis qishloq aholi punktlarida qishloq aholisi uchun birlamchi tibbiy yordamdan qulay va tez foydalanishni ta'minlaydigan qo'shimcha 102 ta qishloq vrachlik punktlarini 3-ilovaga muvofiq barpo etish to'g'risida;

– 103 ta tuman tibbiyot birlashmalarini 93 mln AQSH dollari miqdoridagi «Salomatlik-3» jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirish doirasida zamonaviy laboratoriya, tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlanadigan tuman tibbiyot muassasalarining tashxis, statsionar va ko'makchi bo'linmalarini bir hududda ixcham joylashtirish asosida modernizatsiya qilish to'g'risidagi;

– 2012–2013-yillarda respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini bosqichma-bosqich aksiyalashtirish bo'yicha;

– Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari aksiyalarining 51 % ni davlatda saqlab qolgan holda, davlat ulushi bo'yicha tegishli bo'lgan dividendlarni 2020-yilni ham o'z ichiga olgan davrda, ixtisoslashtirilgan markazlarini to'liq jihozlash va qayta jihozlash uchun zamonaviy tibbiyot uskunalarini xarid qilishga yo'naltirildi<sup>1</sup>.

**Ushbu dasturga, asosan, sog'liqni saqlash sohasida:**

– ona va bola salomatligini himoyalash;

– yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish;

– dastlabki tibbiy-sanitariya yordami bazasini mustahkamlash;

<sup>1</sup>Xalq so'zi. 2011-yil, 30-noyabr.

– atrof-muhitni himoyalash kabi yo‘nalishlar ustuvor deb belgilangan.

**Mazkur dasturga muvofiq sog‘liqni saqlash sohasida ikki bosqichli dastlabki va keyingi tibbiy xizmat ko‘rsatish shakliga o‘tildi.**

**Bu vaqtda tibbiy yordam quyidagicha amalga oshirildi:**

- **qishloq sharoitida: qishloq vrachlik punkti (QVP) – markaziy hududiy kasalxonasi (MHK) va uning qoshidagi poliklinika.** Cho‘l, yaylov zonalaridagi chorvadorlar va tog‘lik joylardagi aholi uchun uchastka kasalxonalari hamda feldsher – akusherlik punktlari saqlandi;

- **shaharlarda: maslahat-diagnostik poliklinika (yoki diagnostika markazi) – shahar kasalxonasi.**

- **Tibbiy xizmat sohasida tor mutaxassislik yo‘nalishlaridan voz kechib, bosqichma-bosqich umumiy amaliyotchi vrachlarni tayyorlashga o‘tildi.** Bundan maqsad, sog‘liqni saqlash tizimining boshlang‘ich bo‘g‘inidan ko‘p sohali malakali tibbiy yordam olishni ta‘minlashdir.

Umumiy amaliyotchi vrach bu terapevt, otolaringolog, ambulatoriya sharoitida diagnoz qo‘yib og‘ir bo‘lmagan operatsiyalarni bajara oladigan xirurgdir.

Dasturga muvofiq **tibbiy hamshiralari** kollejlarda tayyorlanadi. Ular kollejlarda 3 yil o‘qigandan so‘ng Oliy o‘quv yurtiga kirishlari va xorijiy davlatlarda bo‘lgani kabi oliy ma‘lumotli hamshira kasbini olishlari mumkin.

- Respublikamizda **pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini** shakllantirish ham ko‘zda tutilgan. **Bunday tibbiyot muassasalari moliyalashtirishning ikki xili negizida shakllantiriladi. Birinchisi, xususiy moliyalashtirish.** Bunda yuridik va jismoniy shaxslardan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun pul undiriladi. **Ikkinchisi, aralash moliyalashtirish.**

Bunda sarf-xarajatlarning ma‘lum qismi davlat budjetidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga qoplanadi.

**Aralash moliyalashtirish** asosida faoliyat yurituvchi tibbiy muassasalar jumlasiga kattalar va bolalarga mo‘ljallangan ko‘p tarmoqli kasalxonalar, ixtisoslashgan markaz va kli-

nikalar, sog'liqni saqlash, sanitariya, farmakologiya sohasida izlanishlar olib boruvchi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, qisman tibbiy kadrlarni tayyorlash bilan band o'quv dargohlari kiradi.

**Xususiy moliyalashtirish** prinsipiga, asosan, shaxsiy amaliyotchi vrachlar, nodavlat davolash profilaktika tashkilotlari, homiladorlar va tug'adigan ayollarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi ayrim xususiylashtirilgan muassasalar ish yuritadi. Sug'urta kompaniyalarining maqsadli pul o'tkazmasi, yuridik va jismoniy shaxslarning xizmat haqini to'lashi tibbiy xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalarining moliyaviy ta'minot manbayi hisoblanadi.

Yalpi xarajatlar tarkibida sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlar 10 % dan 13 % ga ko'paydi.

- sog'liqni saqlash ishini takomillashtirish va «detsentralizatsiya» yo'li bilan boshqarishni tashkil etish; boshqarish va taqsimlash funksiyalarini pastki-quyi bo'g'inga — zvenoga berish; Sog'liqni saqlash vazirligi boshqarishning oliy organi sifatida sog'liqni saqlashning strategik masalalarini hal qilish bilan shug'ullanishi lozim.

Respublikada sog'liqni saqlashni isloh qilishning muhim muammolaridan bo'lib, bu majburiy tibbiy sug'urtalashga o'tish masalasidir.

Ma'lumki, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda tibbiy sug'urtalash o'z samarasini ko'rsatgan. O'zbekistonda bu masalani hal qilishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan aholining iqtisodiy, demografik, tarixan vujudga kelgan urf-odatlarini e'tiborga olish lozim.

Tibbiy sug'urtalash mexanizmini amalda qo'llashni ta'minlash maqsadida davlat fondi tashkil etilgan. Shuningdek, ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi xususiy fondlar shakllantirildi, davlat nazorati ostida faoliyat yuritayotgan boshqa sug'urta tashkilotlariga tibbiy sug'urtalash bilan shug'ullanishga ruxsat berildi.

- sog'liqni saqlash sohasida nodavlat tashkilotlarning shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz



**yangi tashkil topgan xususiy tibbiy muassasalarni ikki yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etdi.**

Respublikada xususiy tibbiy muassasalarni shakllantirish mavjud davolash-profilaktika tashkilotlarini **davlat tasarrufidan chiqarish hisobiga** ham amalga oshirilmoqda. Xususiylashtirishga tender asosida aksiyalar savdosi orqali yoki keyinchalik sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish yo'li bilan erishilmoqda.

Xususiylashtirishning asosiy shartlaridan biri, davlat tomonidan belgilangan va kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashdan iborat.

Bu degan so'z, tibbiy muassasalar xususiylashtirilishi oqibatida xuddi shu hududda istiqomat qiluvchi aholi kafolatlangan tibbiy yordamga muhtoj bo'lib qolmaydi.

**Nodavlat tashkilotlar** qatoriga xalqaro tashkilotlar va sog'liqni saqlash maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi **qo'shma korxonalar ham kiritiladi.**

Respublikada **xayr-saxovat ishlari** bilan shug'ullanuvchi jamg'arma va tashkilotlarning salmog'i oshib bormoqda. Bu xususiy tibbiy muassasalarni kuchli raqobat sharoitida ishlashga undaydi.

Natijada, bozor munosabatlarining keskin salbiy ta'siri ancha yumshatiladi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh etish va nodavlat tuzilmalarning shakllanib rivojlanishiga, ular tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatining yuksalishida **xorijiy investirlarning roli ham beqiyosdir.**

- sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturiga muvofiq davolashning yangi intensiv shakllarini qo'llash asosida oshiqcha kasalxona o'rinlari sonini qisqartirish nazarda tutilgan. 1991-yili Respublikadagi tibbiyot muassasalarida mavjud bo'lgan o'rinlar soni 260 mingdan ortiq edi.

Sog'liqni saqlashning milliy dasturini hayotga tatbiq qilish jarayonida ularning soni teng yarmiga qisqartirildi va o'rin oborotini tezlashtirish hisobiga ularning zarur miqdordagi qismi saqlanib qolindi. Tibbiy muassasalarga murojaat qilgan kishilarning 25 % igacha bo'lgan qismi uzoq muddat davomida statsionar

holda davolanar edi. Bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda 3-4 %ni tashkil qiladi, xolos.

Dasturga binoan asosiy tibbiy xizmat bu poliklinikalar va kunduzgi statsionarlarda bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 2-dekabr kuni «Aholiga shoshilinch tibbiy yordam xizmatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi.

Unda respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirayotganligi qayd qilinib, aholiga shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishni yanada takomillashtirish va uning sifatini oshirish, shoshilinch tibbiy yordam tizimining rivojlantirishni rag'batlantirish nazarda tutilgan edi.


Bu qarorga muvofiq respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi huzurida budjetdan tashqari shoshilinch tibbiy yordam xizmatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

2004-2005-o'quv yilidan boshlab «Shoshilinch tibbiy yordam» ixtisosligi bo'yicha magistratura ochiladi (8-chizma).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 1998-yilda qabul qilingan Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi mamlakatimizda butun tibbiyot tizimini tubdan qayta qurish, ko'p sarf-xarajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo'lmagan statsionar tibbiy yordamdan ambulator-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berishga o'tishda muhim omil bo'ldi.

Qishloq joylarida yaxshi samara bermayotgan feldsher-akusherlik punktlari o'rniga qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etildi.

Ambulatoriya poliklinikalar soni 5886 taga QVPlari esa 3208 taga yetdi (18-jadval).



*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.

*8-chizma. O'zbekiston Respublikasida shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etish tizimi*

## Ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyati

Ko'rsatkichlar	1990-yil	2000-yil	2012-yil
Ambulatoriya-poliklinika tibbiy xizmatini ko'rsatuvchi tibbiyot maskanlari soni	3139	4847	5886
Shu jumladan, qishloq va shahar vrachlik punktlari	—	1567	3208
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining qabul quvvati, ming kishi	275,7	391,5	416,0
Bir kishining tibbiyot muassasalariga o'rtacha tashrifi, marta	6,5	8,8	9,5

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2011-yil ma'lumotlari.

2001-yilda mamlakatimizda tibbiyot fanining eng ilg'or yutuqlari asosida keskin va kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yaxlit tizimi yaratildi. Shoshilinch tibbiy yordam tizimini tashkil etish va jihozlash uchun 11,5 milliard so'm va 61,5 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy kreditlar sarflandi.

Aholiga yuqori sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida, Respublika maxsus ixtisoslashtirilgan markazlari tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida, ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ona va bola salomatligini muhofaza qilish masalasi yetakchi o'rinda turadi.

Yodlangan tuz ishlab chiqarishning kengaytirilishi, uni boyitish dasturlarining amalga oshirilishi, aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarining olib borilishi natijasida yurtimizda yod tanqisligi, temir moddasi va foliy kislotasi 66,6 % dan 32,9 % gacha yetishmasligi bilan bog'liq kasalliklar so'nggi 10 yil ichida sezilarli kamaydi.

Mamlakatimizda kasalliklarning oldini olish va turli yuqumli kasalliklarga qarshi chora-tadbirlarning aniq maqsadli hamda samarali tashkil etilishi natijasida ko'plab yuqumli kasalliklarning oldini olish va batamom bartaraf etish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Sanitariya-epidemiologik jihatdan qulay vaziyatni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning asosiy yo'nalishi orttirilgan immunitet virusi (OIV) infeksiyasining oldini olish bilan bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS)ga qarshi kurashish bo'yicha Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi, uning viloyatlardagi 14 ta filiali, respublika, viloyat va tuman sog'liqni saqlash boshqarmalari huzuridagi 78 ta OIV diagnostika laboratoriyalarini qamrab olgan umummilliy muassasalar tarmog'i yaratildi. Bu tibbiyot maskanlarining barchasi zarur diagnostika uskunalari va materiallar bilan ta'minlangan, davlatimiz tomonidan tibbiyot xodimlarini tayyorlash sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Sog'liqni saqlash tizimining rivoji** sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2012–2015-yillarda **ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining mablag'lari** hisobiga tibbiyot muassasalari qurish rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash dasturlarini shakllantirish masalalari ijobiy hal qilinishi ko'zda tutilmoqda.

2012-yilda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan 154 ta tibbiyot muassasasini qurish va rekonstruksiya qilishga 255 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish, 7,5 ming o'ringa mo'ljallangan shifoxonalarni va 1 smenada 11 ming kishini qabul qila oladigan ambulatoriya-poliklinika obyektlarini foydalanishga topshirish imkonini berdi. Tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun jamg'arma tomonidan 8 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha «o'zbek modeli» BMT tomonidan Sharqiy

Yevropa, Boltiqbo'yi va MDH uchun «eng yaxshi mintaqaviy dastur» sifatida tavsiya etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentabrdagi PF-3923 sonli «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmonida berilgan soliq va bojxona imtiyozlari 2018-yil yanvarigacha uzaytirildi.

#### 7.4. Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish

**Kommunal xo'jaligi** – uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish, uni asrash, suv ta'minoti va kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta'minoti, aholi yashaydigan joylarni tozalash bilan shug'ullanuvchi sanitariya-texnika tashkilotlari, elektr, gaz va taqsimlovchi tarmoqlar, shahar xo'jaligini obodonlashtirish, sanoat, ta'mirlash-qurilish, loyihalash korxonalari, tashkilotlari va boshqalarni o'z ichiga oladigan ko'p tarmoqli sohalar yig'indisidir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tgungacha respublikada kommunal xizmat ko'rsatishni **kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi** va uning tegishli viloyatlar, shahar, tuman, bo'g'inlari amalga oshirar edi.

Ularning faoliyat doirasi shahar va shaharchalar, tuman markazlari bilan chegaralanar edi. Ayrim shahar va shaharchalarda, qishloq joylarda kommunal xizmat ko'rsatishni qishloq xo'jaligi, yirik sanoat korxonalari va tashkilotlari ham amalga oshirar edi.

Respublika kommunal xo'jaligida umumiy quvvati bir kecha-kunduzda 6,3 mln m<sup>3</sup> ichimlik suvni olish quvvatiga ega bo'lgan inshootlar, 16238 km uzunlikdagi suvo'tkazgich shaxobchalari va suvo'tkazgichlar, bir kecha-kunduzda umumiy quvvati 3,4 mln m<sup>3</sup> chiqindi suvlarini tozalash kuchiga ega bo'lgan inshootlar, 5114 km kollektorlar va kanalizatsiya shaxobchalari, 3671 km issiqlik tarmog'i, 16 gaz to'ldiruvchi stansiya va 72 ming km dan ortiq gaz shaxobchalaridan

foydalaniladi. Yiliga iste'molchilarga 2,1 mlrd m<sup>3</sup> ichimlik suvi, 36,5 mlrd m<sup>3</sup> dan ziyod tabiiy gaz yetkazib beriladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xo'jaligi yirik sohaga aylandi, sanoat ishlab chiqarishining rivoji va aholining tez o'sishiga bog'liq holda ildam sur'atlar bilan rivojlandi. Qishloq joylarida aholi yashaydigan joylarni obod qilishda loyihalash ishlari yo'lga qo'yildi, shaharchalar, ko'plab eksperimental agrosaharlar qurildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 15-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy kommunal xo'jaligi va undan foydalanish birlashmalari barpo etildi. 1996-yilning boshidan boshlab Respublika Kommunal xizmat ko'rsatish vizirligi tizimida ko'pgina korxonalar va inshoot xususiy lashtirildi, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini negizida 20 aksiyadorlik jamiyati barpo etildi.

Hozirgi vaqtda uy-joy komunal xo'jaligida 391,7 ming kishi faoliyat yuritmoqda. Bu mehnatga qobiliyatli bo'lgan aholining 3,4%ni tashkil qiladi.

Respublika uy-joy fondi jamoat, uy-qurilish kooperativlari, davlat, fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lgan uy-joylarni o'z ichiga oladi. XX asrning 20-yillari boshlaridan O'zbekistonda davlat yo'li bilan uy-joy binolari qurila boshlandi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy Yevropacha andozadagi binolar qad ko'tardi. Keyinchalik aholi turarjoylarini yaxshilash uchun ko'plab mablag'lar sarflandi.

Respublikada shaxsiy uy-joy qurilishning hissasi katta. Jami uy-joy fondi 300,0 mln m<sup>2</sup> dan ziyod bo'lib, uning 42,6 % shaharlarda joylashgan. Shahar uy-joy fondi markazlashtirilgan suv ta'minoti bilan 75 %, kanalizatsiya bilan 56,9 %, markazlashtirilgan isitish bilan 62,6 %, gaz bilan 92,3 % ta'minlangan, uy-joylarning 60,4 % vannaxonalari bilan jihozlangan. 2012-yilda respublikada 9,3 mln kvadrat metr, shu jumladan, qishloq joylarida 7,2 mln kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasining «**Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida**»gi qonuniga ko'ra respublikada davlat uy-joy fondini xususiylashtirish, asosan, tugallandi. Davlat uy-joy fondining qariyb 99,0 % fuqarolariga xususiy mulk qilib berildi. Umumiy maydoni 57 mln m<sup>2</sup> bo'lgan 990,6 ming kvartira arzon baholarda, shu jumladan, 18,87 mln m<sup>2</sup> bo'lgan 318,7 ming kvartira bepul (madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash xodimlariga) xususiy mulk qilib berildi.

Shahar, shaharcha va tuman markazlarida aholini suv bilan ta'minlash, shuningdek, ichimlik suvining sifatini yaxshilash maqsadida sutkasiga 381 ming m<sup>3</sup> ichimlik suvi yetkazib beradigan vodoprovod shaxobchalari qurilib ishga tushirildi, 90-yillarda Tuyamo'yin – Urganch, Tuyamo'yin – Nukus, Uchqurg'on – Namangan, Damxo'ja va boshqa suv quvurlari foydalanishga topshirildi. Respublikada vodoprovod tizimining umumiy quvvati bir kecha-kunduzda 12,0 mln m<sup>3</sup>, ko'cha vodoprovodlari yakka tarmog'i uzunligi 36231,5 km ga yetdi. Aholi jon boshiga bir kecha-kunduzda iste'mol qilinadigan suv shaharlarda 536,0 l va qishloqlarda 240,0 l ni tashkil etdi.

Uy-joylarni obodonlashtirishda **kanalizatsiya** muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda arxeologik qazilmalar davrida ayrim yirik shaharlarda (Samarqanddagi Afrosiyob qal'asi, Toshkentdagi Qoratosh hammomi xarobasidan) sopol quvurli kanalizatsiya qoldig'i topilgan. Aholi, asosan, kir o'ralar, xandaqlardan foydalangan. Kanalizatsiya – tozalash inshootlarining bir kecha-kunduzdagi quvvati esa 4,0 mln m<sup>3</sup> dan ziyodni tashkil etadi. Kanalizatsiya-sanitariya inshootlari orqali 1,39 mlrd m<sup>3</sup> oqava suv o'tkaziladi.

Mustaqillik yillarida respublika shahar va ayniqsa qishloqlarini **gazlashtirish ustuvor davlat siyosatiga aylandi**. Respublikaning shahar, shaharcha va qishloqlarida uzunligi 65,2 ming km dan ortiq yakka tortilgan gaz shaxobchalari mavjud. Jumladan 23,9 ming km dan ortiq yerosti gaz quvuri, 27,5 ming gaz taqsimlash punkti (shundan 1573 tasi ko'chmas) ishlab turibdi. 3,38 mln xonadon tabiiy gaz bilan ta'minlangan, bu umumiy xonadonlarning 70 %ga yaqinini tashkil etadi. Binolarni isitish



sohasida 935 gaz bilan ishlaydigan bug' qozonlari va 3671 ming km uzunlikdagi issiqlik tarmog'i ishlab turibti.

Respublika kommunal xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i — shahar, shaharcha va tuman markazlari sanitariya holatini yaxshilash, qattiq hamda suyuq chiqindilarni o'z vaqtida yig'ish va ularni chiqindi maydonlariga olib borib zararsizlantirishdir. Bu xizmat 113 ta shahar, 97 shaharchada yo'lga qo'yilgan. Umumiy maydoni 930 gektar bo'lgan 173 chiqindi zararsizlantiriladigan maydonlar bor. Yiliga 11 mln m<sup>3</sup> qattiq va 5 mln m<sup>3</sup> suyuq chiqindi yig'iladi va ular 5 mingdan ortiq mashina va mexanizmlar (ko'cha supuradigan, suv sepadigan, axlat tashiydigan, kanalizatsiya va kir o'rallarini tozalaydigan va boshqalar) orqali chiqindixonlarga tashiladi. Yirik shaharlar — Toshkent, Andijon, Buxoro, Namangan, Uchqo'rg'on, Farg'ona va boshqalarda maxsus ixtisoslashtirilgan avtobazalar bor. Kommunal xo'jalik tarmog'ida uy-joylar, ijtimoiy, madaniy-maishiy inshootlar, muhandislik tizimlarini kapital ta'mirlash korxonali mavjud. Tarmoqdagi sanoat korxonalari sanitariya-texnika buyumlari, sanoat gaz jihozlari, nostandart buyumlar, kichik mexanizatsiya vositalari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradi. Gaz apparatlari zavodi — Toshkentdagi «Gazavtomatika», Farg'onadagi «Gazapparatlar», Angrendagi tajriba mexanika zavodlarining mahsulotlari MDH mamlakatlariga ham chiqariladi.

Respublika Prezidentining farmoniga asosan (2000-yil 19-dekabr) **Respublika kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi «O'zkommunxizmat» agentligiga aylantirildi.** Bunday qayta qurishning asosiy maqsadi aholiga xizmat ko'rsatish tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda aholiga xizmat ko'rsatishda o'z-o'zini boshqarish va mahalliy davlat organlarining rolini va javobgarligini oshirish hisoblanadi.

Hududiy kommunal-ekspluatatsiya birlashmalari viloyat hokimiyatlari ixtiyoriga berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida**» 2001-yil 17-aprelda PF-2832 sonli Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq uy-joy mulkdorlari shirkatlarining samarali faoliyat ko'rsatishi

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar sifatini oshirish, kommunal xizmatlar haqining to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan mas'uliyatni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

2002-yilning 26-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. Unda ta'kidlanganidek respublikada aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimidagi iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Zarur qonunchilik va normativ huquqiy baza yaratilgan. Uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini shakllantirish jarayoni faol davom etmoqda.

Uy-joy mulkdorlarining salkam 1400 ta shirkatlari tashkil etilgan bo'lib, ko'p xonadonli jami uy-joy binolarining 86 %iga rahbarlik qilish ularga topshirilgan. Ko'rsatilgan kommunal xizmatlarga hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun jamoa mas'uliyati tizimi yaxshilandi. 1991-yilga qadar barpo etilgan ko'p xonadonli uy-joy binolarini kapital ta'mirdan chiqarish dasturlari ishlab chiqildi.

Ushbu yutuqlar bilan birga uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatida qator jiddiy **kamchiliklar va hal etilmagan muammolar mavjud**. Xususan, uy-joy mulkdorlari shirkatlarini zarur moddiy-texnika bazasi nochor, ularning moddiy resurslar, asbob-anjomlar bilan ta'minlashda ularga amaliy ko'mak va yordam ko'rsatish zarur edi hamda uylar atrofidagi yer uchastkalarini qonun yo'li bilan birlashtirib qo'yish kabi kamchiliklar mavjud edi. Oqibatda ko'pgina uy-joy mulkdorlarining shirkatlari uy-joylarini joriy hamda kapital ta'mirdan chiqarish, obodonlashtirish ishlarini o'z vaqtida bajarish uchun yetarlicha mablag'ga ega emas edilar.

«Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 1999-yil 15-apreldagi qonuni bajarilishini ta'minlash maqsadida uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, uy-joy fondini saqlash, ta'mirlash-tiklash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishda, uy-joylar atrofidagi hududni obodonlashtirishni yaxshilashda mazkur shirkatlarning

rolini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnikaviy va moliyaviy bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Masalan, uy-joy mulkdorlarining shirkatlari xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan daromadlardan 2007-yilga qadar barcha turdagi soliqlar va budjetga yig'imlar to'lashdan ozod etildi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aylanma mablag'larni to'ldirishga, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, uy-joy binolarini ta'mirlashga, hududni obodonlashtirishga yo'naltiriladigan bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan «kichik» xususiylashtirish natijasida 96 foizdan ziyod oila ilgari davlat tasarrufida bo'lgan uy-joylarni shaxsiy mulk qilib olishdi (19-jadval).

19-jadval

**Aholining kommunal xizmatlar bilan ta'minlanish darajasi,  
aholining umumiy soniga nisbatan foizda**

Ko'rsatkichlar	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Ichimlik suvi ta'minoti	64,0	80,4	82,6
shu jumladan, qishloq joylarda	55,0	72,3	75,8
Tabiiy gaz ta'minoti	44,6	76,1	83,7
shu jumladan, qishloq joylarda	19,3	65,9	77,7
Markaziy isitish tizimi	29,1	35,4	41,0
Oqovalashtirish xizmati (kanalizatsiya)	25,5	28,3	37,1
Bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha uy-joy maydoni, kvadrat metr hisobida	12,1	13,8	15,2

*Manba.* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi 1990-yilda har bir kishiga 12,1 kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda

bu raqam 15,2 kvadrat metrga yetdi yoki 1,26 barobar ortdi. Bugungi kunda qariyb 77,4 foiz oila alohida uy va kottejlarda istiqomat qilmoqda.

Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida, bu sohadagi vaziyat tubdan yaxshilandi.

Umuman, mustaqillik yillarida kommunal soha rivoji uchun 676,4 million dollar miqdoridagi uzoq muddatli imtiyozli xorijiy investitsiya va kreditlar jalb etildi.

Aholining toza ichimlik suvi va tabiiy gazdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda yuqorida zikr etilgan dastur bilan birga, magistral ichimlik suvi va tabiiy gaz tarmoqlarini qurish bo'yicha aniq maqsadli davlat dasturlarining amalga oshirilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1991–2009-yillarda 54 ming kilometrdan ziyod, shu jumladan, qishloq joylarda 47,9 ming kilometrlik suv tarmoqlari va ichimlik suvi quvurlari, 74 ming kilometrdan ortiq, shu jumladan, qishloq joylarda 67,6 ming kilometrlik gaz tarmoqlari qurilib, ishga tushirildi.

Qishloqlarda takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joy qurish va qishloq aholi punktlarini kompleks tarzda rivojlantirish davlat dasturining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etdi.

Zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi va ko'rkam uy-joy massivlarini barpo etish – istiqbolga mo'ljallangan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

2013-yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi uy-joylar qurish 8,5 mingtadan 10 mingtaga yetkazildi. Bu maqsadlar uchun 1 trillion 400 milliard so'm, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 54 foiz ko'p mablag' yo'naltirish mo'ljallangan.

Bu borada shuni e'tiborga olish kerakki, mazkur maqsadlar uchun tuzilayotgan pudratchi qurilish-montaj tashkilotlari, barcha hududlarda shakllantirilayotgan ularning kuchli moddiy ishlab chiqarish bazasi nafaqat uy-joylar, balki sanoat va xizmat ko'rsatish obyektlarini qurishga ham jalb etiladi.

## 7.5. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini qayta qurish

**Maishiy xizmat ko'rsatish** milliy iqtisodiyotning o'ziga xos sohalaridan biri. Hozir O'zbekiston Respublikasi aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish xizmatining o'z an'analari va tarixiga ega bo'lgan tizimi shakllangan. Maishiy xizmat sohasida 130,0 ming kishi ishlaydi. Respublikada 60,0 mingdan ortiq modda atelyelari, salonlar, qabul punktlari ishlamoqda. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish iste'molchilar bilan bajaruvchilar o'rtasidagi munosabatdir.

Bu munosabatlarni tartibga solish uchun Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O'zbekiston respublikasi aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish qoidalari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Tizim korxonalarini aholiga 800 dan ortiq xizmat turini ko'rsatadi. Ular poyafzal, kiyim-kechak, trikotaj buyumlarini yakka tartibda tikish, to'qish va ta'mirlash, radiotelevizion apparaturalar, ro'zg'orda ishlatiladigan asboblari, metall buyumlarini tuzatish va yasash, shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, mebellarni ta'mirlash, kiyimlarni kimyoviy usulda tozalash va bo'yash, kir yuvish, suratga olish, hammom, sartaroshlik xizmatlari, ro'zg'or buyumlarini ijaraga berish, transport xizmatlari, uy-joylar qurish va ta'mirlash xizmati, bog' va polizlarda qishloq xo'jaligi ishlarini bajarish xizmati va boshqa shunga o'xshash ishlarni bajaradi.

**Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini davlat, jamoa, kooperativ, shaxsiy, aksiyadorlik kabi turlicha mulk shakllariga asoslangan korxonalardan iborat.**

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida har yili aholiga xizmat ko'rsatishning 150 dan ortiq turi va usullari joriy qilindi. Barcha xizmat turlarining soni qariyb 800 ga yetdi. Lekin aholiga maishiy xizmat ko'rsatish aholining o'sib borayotgan talabini yetarlicha qondira olmadi. Respublikaning ayniqsa, qishloqlarda — maishiy xizmat ko'rsatish talab darajasidan ancha uzoqda edi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish maqsadida 1992-yil aprel oyida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini va tashkilotlari uyushmasi — «O'zmaishiyxizmat-uyushma» tuzildi.

Tizim tarmoqlarini bozor munosabatlariga o'tkazish uchun maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish — ularni ijaraga, aholiga shaxsiy mulk qilib berish hamda aksiyadorlik korxonalarini va kooperativlarni tuzish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ayni vaqtda mulkchilikning aralash shakllariga asoslangan korxonalar ham barpo etila boshlandi.

1992–95-yillarda maishiy xizmatga qarashli jami 12587 korxonaga xususiylashtirilib, 29 ijara korxonasi, 13 aksiyadorlik jamiyatlari, 565 jamoa korxonasi, 527 shaxsiy korxonaga tashkil topdi, 4 mingga yaqin shaxs yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga o'tdi. Shahar va qishloqlarning guzarlarida 474 savdo-maishiy majmualari tashkil etildi, maishiy xizmatning 218 xil yangi shakl va usullari ishlab chiqarishga joriy etildi. 1996-yil boshlariga kelib, «O'zmaishiyxizmatuyushma»ga qarashli barcha davlat korxonalarini xususiylashtirildi va ular turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarga aylantirildi, ayrim korxonalar zarurat taqozosi bilan **ko'ngilli assotsiatsiyalar va konsernlarga birlashtirildi**. Korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish ba'zan shoshilinch amalga oshirilganligi tufayli Respublika viloyatlarining yarmida maishiy xizmat uyushmalari tarqab ketdi.

Maishiy xizmatga bo'lgan aholining talabini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 12-oktabrda «**Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**» qaror qabul qildi.

Unga ko'ra, tarmoqning viloyat va tuman tuzilmalari qaytadan tiklandi. Barcha viloyat markazlari, tumanlar va shaharlarda maishiy xizmat sohasidagi kichik, xususiylashtirish hamda o'rta biznesni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash uyushmalari tuzildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997-yil

17 sentabrdagi qarori bilan aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasini markazdan turib boshqarishni tugatish va raqobat muhitini mustahkamlash, maishiy xizmat korxonalarini va mahalliy boshqaruv organlarining xo'jalik mustaqilligini oshirish maqsadlarida «O'zmaishiyxizmatuyushma» tugatildi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ishlarini hududiy (viloyat) uyushmalari, maishiy xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar tuman (shahar) uyushmalari boshqardi.

Respublikada aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishni 1996–2000-yillarga mo'ljallangan dasturi muvaffaqiyatli bajarildi.

O'zbekiston Respublikasida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi chetel investitsiyalarini jalb qilish, yangi ishchi o'rinlarini tashkil etish maqsadida chetel firmalari bilan qo'shma korxonalar tashkil etildi. Hozirda O'zbekiston – Turkiya qo'shma korxonasi «Shuhrat» (erkaklar ichki trikotaj kiyimlari), O'zbekiston – Afg'oniston qo'shma korxonasi «Imkon» (poyabzal ishlab chiqarish), Koreya respublikasi, Germaniya («Ag Vella» firmasi), Turkiya, Yugoslaviya («Loreal», «Legeran», «Per Karden», «Obreme», «Fillips» firmalari) bilan aloqalar o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil sentabrdagi «Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimida islohotlarni chuqurlashtirish haqida»gi farmoni qabul qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad aholiga xizmat ko'rsatish sohasini boshqarishda mahalliy hokimiyat organlari va korxonalarining mustaqilligini oshirish va bu sohada raqobatchilik muhitini mustahkamlashdir.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning hududiy uyushmalari viloyat va tuman (shahar) hokimiyatlari ixtiyoriga berildi.

Hozir Respublikada aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni uning doimiy yashash va ishlash joyiga yaqinlashtirish, maishiy xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash borasida katta ishlar qilinmoqda. Maishiy xizmat ko'rsatish ishlariga sanoat korxonalarini, qurilish tashkilotlari, fermer va dehqon xo'jaliklari jalb qilingan. Bu o'z navbatida, qishloq

joylaridagi maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish imkonini beradi.

**Tayanch iboralar:**

- ijtimoiy siyosat;
- ijtimoiy soha;
- ta'lim tizimi;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosati;
- ta'limning uzviyligi va uzluksizligi;
- kadrlar tayyorlash milliy dasturi;
- akademik litsey;
- kasb-hunar kolleji;
- bakavriatura;
- magistratura;
- sog'liqni saqlash tizimi;
- tibbiy xizmat;
- aralash va xususiy moliyalashtirish;
- xorijiy investorlar;
- shoshilinch tibbiy yordam;
- kommunal xo'jaligi;
- uzkommunalxizmat;
- uy-joy mulkdorlari shirkati;
- maishiy xizmat ko'rsatish tizimi.

**Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy tarmoqlar majmuyi to'g'risida nima deya olasiz?
2. Ijtimoiy siyosat tushunchasini qanday tushunasiz?
3. Ijtimoiy sohadagi islohotlarning vazifalari qanday?
4. Ta'lim tizimi o'z ichiga nimalarni oladi?
5. Ta'lim to'g'risidagi qonun haqida nima deya olasiz?
6. Ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyati nima?
7. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari qanday?
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat edi?
9. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ta'lim turlari qaysilar?
10. Maktabgacha ta'lim tizimining mohiyati nimada?
11. Umumiy o'rta ta'lim tizimining mohiyati nimada?
12. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi mohiyati nimada?



13. Akademik litsey tizimi mohiyati nimada?
14. Oliy ta'lim tizimi mohiyati nimada?
15. Bakalavriatura to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?
16. Magistratura to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?
17. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qanday tushunasiz?
18. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash to'g'risida nima deya olasiz?
19. Maktabdan tashqari ta'limni qanday tushunasiz?
20. Milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari va vazifalari qanday bajarildi?
21. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
22. Sog'liqni saqlash tizimi to'g'risidagi tushunchangiz qanday?
23. Sog'liqni saqlashning asosiy prinsiplari qaysilar?
24. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi haqida nimalarni bilasiz?
25. Kommunal xo'jaligi deganda nimani tushunasiz?
26. Respublika uy-joy fondi to'g'risidagi tushunchangiz qanday?
27. Davlat uy-joy fondi qanday xususiy lashtiriladi?
28. Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida nima deya olasiz?
29. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish haqida nima deya olasiz?
30. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish turlari qanday?
31. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi qanday isloh qilinadi?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov I.A.* Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish — ustuvor vazifamizdir. — T.: «O'zbekiston». 2007.
2. *Karimov I.A.* Barkamol avlod orzusi. — T.: «O'zbekiston». 1997.
3. *Karimov I.A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. — T.: «O'zbekiston». 2010.
4. Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2012-yil, 7-dekabr.
5. *Karimov I.A.* «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi». «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

6. *Abduraxmonov Q.X.* Mehnat iqtisodiyoti. – T.: «O'zbekiston», «Mehnat», 2009.

7. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi 1990–2010-yillar asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari. – T.: «O'zbekiston». 2011.

8. Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение». № 5–6, 2009.

9. *To'xliyev N. va boshqalar.* «O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2006-yil. 90–111-betlar.

10. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot. – T.: 2004.

11. *To'xliyev N.* Taraqqiyotning o'zbek modeli. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2012.

12. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

13. [www.refportal.ru](http://www.refportal.ru)

14. [www.mintrud.uz](http://www.mintrud.uz)

15. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

16. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

## VIII bob. IQTISODIYOTNI MUVOFIQLASHTIRISHDA DAVLATNING ROLI

---

### *Reja:*

8.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zaruriyati.

8.2. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, tarkibi va vazifalari.

### **8.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zaruriyati**

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi rejalashtirish hamda iqtisodiyotning tartibga solish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu mexanizmlar orqali davlat jamiyatning sotsial-iqtisodiy stabiligini, makroproporsiyani tashkil qilishni, iqtisodiyotning dinamik rivojlantirishni ta'minlaydigan asosiy omillarni o'z qo'lida ushlab turadi.

Har bir mamlakatda qarama-qarshi manfaatlarni, turli xil kuchlarni birlashtiradigan, jamiyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan **davlatning roli** beqiyosdir. Bu umumiy qoidani mensimaslik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, iqtisodidagi uzilishlar, makroiqtisodiy proporsiyalarni va mikroiqtisodiy bog'liqliklarning buzilishi, moliya, baho tizimidagi va hokazolardagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, shular jumlasidandir. Shuning uchun ham O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning 5 tamoyilidan biri qilib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy rivojlanishida **davlat asosiy reformator-islohotchi qilib belgilangan.**

**Davlatning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati quyidagichadir:**

1. Davlat iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi subyekt hisoblanadi.

2. Davlat soliq, subsidiya, litsenziya, boj to'lovlari kabi vositalar bilan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi. Davlatning qo'lida katta moliyaviy resurslar to'planadi.

3. Davlat siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan alohida subyektdir.

U o'z tizimini boshqa subyektlarga o'tkazadi. Uning organlari beradigan buyruq va farmoyishlar barcha iqtisodiy subyektlar uchun majburiy hisoblanadi.

Ayrim tadbirkor, ishchi yoki xizmatchi, firma, korporatsiya yoki fermer xo'jaligi faqat o'zining manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi, davlat esa yakka yoki guruhiiy manfaatlarni **yagonalikka** birlashtiruvchi va hammaning umumiy manfaatini ifodalovchi kuch hisoblanadi. Davlat mulk sohibi, ammo uning iqtisodiyot uchun ahamiyati iqtisodiy faoliyatni tartiblay olishidan kelib chiqadi. Gap shundaki, iqtisodiyot bir maromda rivojlanib borishi uchun uning turli tarmoqlari bir-biriga mutanosib bo'lishi, bir-biriga bog'lanib, bir-birini to'ldirib turishi talab qilinadi. Buni ta'minlashning **asosiy vositasi — bozor mexanizmidir**. Agar bozor mexanizmi iqtisodiyotni nuqsonsiz tartiblab turganida edi, tanglik va iqtisodiy beqarorlik hech yuz bermagan bo'lar edi. Holbuki, bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida tanglik va inqirozlar uchrab turadigan hodisalardir. Demak, **bozor mexanizmi muvozanatni to'la-to'kis va nuqsonsiz ta'minlay olmaydi, shu sababdan, davlat iqtisodiyotni albatta tartiblashi lozim**.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy (sotsial) tengsizlik, ya'ni boylar va kambag'allar mavjud. Ularning o'rtasida nizo chiqmasligi uchun davlat aholining nochor qatlamlariga ijtimoiy yordam berishdek vazifani o'z zimmasiga olishi kerak bo'ladi. **Jamiyatda hamma bahramand bo'ladigan xizmatlar bor. Ular jumlasiga umumiy ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, yurtni obod qilish, ijtimoiy tartibni saqlash va boshqalar kiradi.** Bu sohalar g'oyat serxarajat, lekin bevosita foyda olish imkonini bermaydi. Shu sababli ularga firmalar qo'l urmaydi. Bu ish hammaga zarur bo'lgani uchun mazkur sohalarni davlat o'z qo'liga oladi. Demak, davlat iqtisodiy vazifani bajarishi turgan gap.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining o'z me'yori bor. Iqtisodiyot muttasil o'sib borayotgan sharoitda davlat bozor mexanizmiga xalaqit bermaslik uchun iqtisodiyotga kamroq aralashadi. Bozor mexanizmi yaxshi ish bermay, iqtisodiy qiyyin-

chiliklar kuchaygan sharoitda davlat iqtisodiyotga faolroq aralashadi va uning tanglikdan chiqib, yaxshi ishlab ketishiga ko'maklashadi.

Masalan, o'tgan asrning 50-70-yillarida g'arb mamlakatlarida iqtisodiy inqirozlar tez-tez bo'lib turganda davlat iqtisodiyotga o'z siyosati bilan faol aralashgan.

80-yillarning o'rtalaridan boshlab bozor mexanizmi yaxshi ishlab ketganligi uchun davlat iqtisodiyotga kamroq aralashish yo'liga o'tdi.

**Davlatning iqtisodiyot uchun ahamiyati uning tartiblab turuvchi kuch bo'lishi bilan belgilanadi.**

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi qoidalarga asoslanadi:**

a) davlat iqtisodiyotni tartiblaganda umumjamiyat manfaatlarini ko'zlashi, umumiqtisodiy ahamiyatga molik chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlashi lozim;

b) davlat iqtisodiyotni tartiblashda ma'muriy vositalardan emas, balki xilma-xil iqtisodiy vositalar majmuyidan foydalanishi zarur;

d) davlat tadbirkorlar bilan raqobatlashmasligi, balki ularning erkin o'zaro raqobat qilishlari uchun sharoit yaratishi talab qilinadi, davlat raqobat kurashining bevosita ishtirokchisi emas, balki uning oliy hakami vazifasini bajaradi;

e) davlat siyosati mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, xotirjamlik, hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sish va ommaviy farovonlikni ta'minlashga qaratilishi kerak.

Mazkur tamoyillar umumiy, lekin ular turli mamlakatlarda har xil darajada amalga oshiriladi.

**Davlatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari.** Davlat ixtiyorida xilma-xil siyosiy, huquqiy va sotsial-iqtisodiy vositalar bor. Ammo ulardan qaysi birining ustuvor bo'lishi iqtisodiy vaziyatga bog'liq.

Birinchi navbatda davlat qonunchilik orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Qonun chiqaruvchi davlat organi tomonidan iqtisodiy hayotga oid qonunlar qabul qilinadi, qonunlarda iqtisodiyotning tartib-qoidalari belgilanadi. Iqtisodiy sa'y-harakatlar shu

qonunlarga binoan yuz berishi talab qilinadi, davlat qonunlarning bajarilishini nazorat qiladi va qonunbuzarlarni jazolaydi.

O'zbekistonda ham Oliy Majlis tomonidan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, bozorga xos iqtisodiy mexanizmni yaratishga oid 400 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekistonda qonunlar ustuvor, hamma unga bab-barobar rioya etishi shart. Qonunchilik iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Davlat qonunlarni ishlab chiqish bilan cheklanmay, ularning amalda joriy etilishini ham ta'minlaydi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uning siyosatida ifodalanadi. Iqtisodiy siyosat ko'zlagan maqsadlar va ularga erishish vositalari yaxlitligini talab qiladi (9-chizma).

Davlatning ixtiyorida kuchli moliyaviy vositalar mavjud. Shulardan **eng muhimi soliqdir.**


Fan-texnika taraqqiyoti yuzaga keltirgan yangi ishlab chiqarish sohalari borki, ularni jadal o'stirish talab qilinadi. Bu sohalarda chiqarilgan tovarlar bozorbop bo'lib, tez sotiladi va katta foyda keltiradi. Bu mahsulotlar sanoatning boshqa sohalarda ishlatilganida ham katta naf beradi.

Masalan, yonilg'ini tejovchi, o'tga chidamli dvigatellar ishlab chiqaruvchi korxonalariga soliqdan yengillik berilsa, ularning xarajatlari soliq hisobidan kamayadi. Natijada dvigatellarni ishlab chiqarish va ommaviy qo'llanishi ko'payadi, ular iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Soliqlar o'z-o'zidan emas, balki muqobil tanlov qoidasini ishga solish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Davlat soliqlardan tadbirkorlikni, xayr-ehson ishlarini, eksport-importni, xorij kapitalining kirib kelishini rag'batlantirish uchun ham foydalanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra yangi ochilgan kichik firmalar, fermer xo'jaliklari ma'lum muddat davomida soliqdan ozod qilinadi. Xayriya ishlariga sarflangan daromadlardan ham soliq olinmaydi. Eksportbop tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham soliq imtiyozlari oladilar.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblashning yana bir muhim vositasi moliyaviy sanatsiya (sog'lomlashtirish) hisob-



9-chizma. Davlat ixtiyoridagi moliyaviy vositalar: maqsadlari va tarkibi.

lanadi. Sanatsiyada davlat korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan moliya va kredit tadbirlarini ishga soladi. Sanatsiya iqtisodiyot uchun ahamiyati katta korxonalarni tang holatdan chiqarib, ularning normal ishlab turishini ta'minlash hamda korxonlarni ommaviy bankrot bo'lishiga yo'l bermasdan, raqobatchi korxonalar sonini kerakli me'yorda saqlab turish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sanatsiyalash yo'llari ko'p: korxonaga qarzni kechib yuborish yoki uni o'zgaralar hisobidan to'lash, qarzni to'lash muddatini kechiktirish, qarz uchun beriladigan foizni kamaytirish yoki umuman olmaslik, korxonaga soliqdan yengillik berish, soliqni kreditga aylantirish, korxonaga buyurtma berib, uning haqini oldindan to'lash, subsidiya ajratish, korxonaga ekport yuzasidan imtiyozlar berish.

**Davlatning sanatsiyadagi ishtiroki ikki shartni hisobga oladi:**  
**birinchisi** — korxonaning milliy yoki hududiy iqtisodiyot uchun ahamiyati katta bo'lishi kerak;

**ikkinchisi** — korxonaning tang ahvolga tushib qolishiga uning o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar bo'lishi lozim. Davlatning korxonaga yordami bozor talabiga zid kelmagan taqdirdagina unga qo'l uriladi.

Yomon ishlagan, bozor talabiga moslasha olmasdan moliyaviy inqirozga yuz tutgan korxonaga davlat yordam bermaydi, chunki bu bozor qoidalariga zid keladi.

**Subsidiya** ham davlat o'z siyosatida qo'llaydigan asosiy moliya vositalari sirasiga kiradi.

**Subsidiya davlat tomonidan aniq maqsad yo'lida ishlatish uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'idir.**

Subsidiyalar iqtisodiyotni devirsifikatsiyalash (tarkiban o'zgartirish), eksport-importni muvozanatlashtirib turish, innovatsiya, (yangilikni o'zlashtirish) ishlarini yo'lga qo'yish, ayrim hududlarga yordam berish. Konversiya (harbiy ishlab chiqarishdan xalqqa kerakli tovar ishlab chiqarishga o'tish) maqsadlarida ajratiladi. Aytilgan ishlar serxarajat bo'lganidan subsidiya xarajatlarni butunlay yoki qisman qoplash uchun beriladi.



Masalan, devirsifikatsiya katta joriy sarflarni talab qiladi, shu bois ularni qoplash davlat subsidiyasi ham ishtirok etadi. Subsidiyalar eksportni qisqartirish yoki to'xtatib turish uchun ham ishlatiladi. Jahon bozoridagi narxni ushlab turish uchun bozorga qo'shimcha tovarlarni chiqarmaslik zarur bo'lganda, davlat o'z tovarlarini zaxiraga o'tkazib turgan firmalarga subsidiya berib, tovarlarni saqlab turish xarajatlarini qoplaydi. Subsidiyalar milliy sanoatni o'stirish uchun ham beriladi. Tashqaridan xomashyo kiritib, tashqariga tayyor mahsulot chiqaruvchi korxonalar ham subsidiyadan bahramand bo'ladi.

Davlat texnika yangiliklarini joriy etish, resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni iqtisodiyoti sust rivojlangan hududlarga joylashtirish, eksport potensialini oshirish dasturlarini ishlab chiqadi. Bu dasturlarda davlat tavsiyalariga binoan ish tutgan korxonalar davlatdan subsidiya oladi.

Davlat **milliy iqtisodiy chegaralarni** belgilaydi, iqtisodiy chegara vazifasini esa milliy pul va bojxona to'lovlari, ya'ni boj puli bajaradi. Davlat milliy valutani mamlakat hududidagi yagona va tanho to'lov vositasi sifatida kiritadi. Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlarni faqat shu pulga olish mumkin, bu bilan milliy bozor himoya qilinadi. Shunday vazifani O'zbekiston Respublikasi puli — **so'm** ham o'taydi.

Davlat iqtisodiy o'sish uchun ahamiyatli, lekin serxarajat ishlarni o'zi hisobidan moliyalashtiradi.

Shu boisdan davlat inflatsiyani iloji boricha me'yoriy darajaga pasaytirishga qaratilgan siyosat olib boradi. **Inflatsiyaga qarshi tadbirlar ikki yo'nalishda olib boriladi: birinchidan**, ishlab chiqarishni o'stirish orqali tovar va xizmatlarni ko'paytirish va shu yo'sinda pulni moddiy jihatdan ta'minlash; **ikkinchidan**, pul miqdorining keragidan ortiqcha bo'lishiga yo'l bermaslik uchun pul emissiyasi ustidan qattiq nazorat o'rnatish, ya'ni ortiqcha pulni muomalaga chiqarmaslik. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida inflatsiya sur'atlari pasayadi.

Kuchli inflatsiya kezarida pulni ishlab chiqarishga qo'yish xatarli ishga aylanadi. Shu boisdan davlat inflatsiyaga yo'l bermaydigan qulay investitsiya muhitini yaratib, iqtisodiy

o'sishga ko'maklashadi, natijada, **birinchidan**, kredit olishni yengillashtiradi, qarz berishning xatari kam bo'ladi, **ikkinchidan**, pulga uning qadri pasayib ulgurmasdan resurs olib ishlab chiqarishga joylashtirish mumkin. Inflatsiyani davlat naqadar jilovlay olishiga qarab iqtisodiyotda o'zgarish yuz beradi.

**Kredit siyosati.** Iqtisodiyotga kuchli ta'sir etuvchi vosita — bu foiz stavkasidir. Bozor qoidasiga ko'ra foiz kamaysa, qarz puliga talab oshadi, binobarin, kredit ko'proq olinadi va ko'proq ishlab chiqarishga qo'yiladi. Kreditning iqtisodiy o'sishga aloqadorligini hisobga olgan holda davlat uni arzonlashtirish choralarini ko'radi. Davlatning qo'lida katta pul to'planadi, bu pul bankka qo'yiladi va ishlatilishiga qadar kredit resursini tashkil etadi. Davlatning puli kapital bozoriga chiqib, kreditning taklifini ko'paytiradi va bu foizni kamaytiradi.

Davlat bo'sh turgan pulning tarkibini o'zgartirish orqali bozordagi pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirishga erishadi. **Bo'sh pullar hozir qarz berish uchun ajratilgan va zaxiradagi kredit rezervi sifatida turgan pullarga bo'linadi.** Zaxiradagi rezerv pulning kamayishi taklif etilgan pulning ko'payishini bildiradi va aksincha, uning ko'payishi pul taklifini qisqartiradi. Odatda, kredit resursining 20 foizi zaxirada bo'lsa, 80 foizi bevosita kredit ishiga ajratiladi, ya'ni sotishga qo'yiladi. Davlat shu nisbatni o'zgartiradi. U pul rezervini qisqartirish hisobidan uning kredit sifatida taklifini ko'paytiradi. Natijada foiz pasayadi, binobarin kredit arzonlashganidan uni ko'proq olib, investitsiya uchun ishlatish qulay bo'ladi.

Davlat kredit resursiga o'zi nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni, chunonchi, aksiya, obligatsiya, xazina majburiyatlarini sotish orqali ta'sir etadi. Bu qog'ozlar sotilganda bo'sh pullar davlat olgan qarzga aylanib qoladi va ular kredit sifatida berilmaydi.

Natijada kredit taklifi qisqarib, foiz o'sadi. Davlat bu qog'ozlarni qaytadan sotib olganda o'z qarzini uzgan bo'ladi, uning qo'lidagi pul qimmatli qog'ozlarni sotganlar qo'lga o'tib, bo'sh pulni ko'paytiradi, binobarin, pulning kredit sifatida taklifini oshiradi. Natijada foiz pasayib, kredit arzonlashadi.

Davlat tadbirkorligining o'ziga yarasha ziddiyatlari bor, bu tadbirkorlik, bir tomondan, iqtisodiyot uchun zarur, ikkinchi tomondan, u g'oyat serxarajat.

Davlat bozorga iste'molchi — xaridor sifatida ham chiqadi. Davlat buyurtmachilariga binoan ishlash firmalar uchun qulay bozor yaratadi, chunki tovarlar va xizmatlar oldindan belgilangan miqdorda va kelishilgan narxda albatta sotiladi.

Davlat xususiy sektorda jamg'arilib, bozorga chiqmay qolishi mumkin bo'lgan pulni soliq undirish orqali o'z qo'liga olib, uni o'z buyurtmasini xarid etishga jalb etadi, ya'ni bozorni kengaytiradi. Demak, davlat o'z xaridi bilan iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi.

**Bozor tizimida davlatning iqtisodiyoti tartiblashdan iborat faoliyati ma'muriy tazyiq orqali emas, balki iqtisodiy vositalar bilan amalga oshiriladi.**

Davlat iqtisodiyotni boshqarishdagi asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro'yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini ta'minlash;

— tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash;

— mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

— insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

— tegishli xususiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

— soliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

## **8.2. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, tarkibi va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan davlat boshqaruv organlari quyidagilar:

1. O'zbekiston fuqarolarining umumiy saylov yo'li bilan tayinlanadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshga to'lgan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi.

Prezident devoni tarkibida:

1. Tashkiliy kadrlar xizmati.
  2. Oliy majlis, siyosiy va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish xizmati.
  3. Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatini muvoqlashtirish xizmati.
  4. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish xizmati.
  5. Fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish masalalari xizmati.
  6. Ommaviy axborot vositalari, madaniyat, san'at va ijodiy tashkilotlarni rivojlantirish masalalari xizmati.
  7. Ishlar boshqarmasi.
  8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining protokol xizmati.
  9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
  10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kanselyariyasi
  11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi milliy xavfsizlik kengashi kotibining xizmati kabi bo'limlar mavjuddir.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Uning Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senati (yuqori palata), tegishli hay'at va qo'mitalari.

Oliy majlisning Qonunchilik palatasi qonun yaratishdek muhim va zarur ish bilan shug'ullanadi. Qonunchilik palatasi sessiyalari sentabrning birinchi ish kunidan boshlab, kelgusi yilning oxirgi ish kuniga qadar, demak, 10 oy mobaynida o'tkaziladi. Shunday qilib, Qonunchilik palatasi doimiy faoliyat yuritadi. Quyi palatada 150 ta deputat, (saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, Senat a'zosi bo'lishi mumkin). Ularning ichidan palataga rahbarlik qiluvchi spiker (notiq) va uning o'rinbosarlari faoliyat yuritadi. Ishni samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish maqsadida qonunchilik palatasi kengashi tuziladi. Shuningdek, quyi palata tarkibida qo'mitalar ham faoliyat yuritadi. Ushbu qo'mitalar qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib boradi. Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qiladi. Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadir.

#### **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi quyidagi tarkibga ega:**

1. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri.
2. Oliy Majlis spikerining 5 ta o'rinbosarlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi qo'mitalari:

- Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi;
- Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;
- Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi;

- Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi;
- Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi;
- Fan, ta'lim madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;
- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqaroning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitasi;
- Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi devoni.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati to'g'risidagi Konstitutsiyaviy Qonun yuqori palataning huquqiy maqomini belgilab bergan. Ma'lumki, Respublikada 14 ta ma'muriy hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) mavjud. Ularning har biridan 6 nafardan vakil tegishli qo'shma majlislarda Senatga (oqsoqollar kengashi ma'nosida) saylanadi.

Shuning uchun mazkur palata Qonunda hududiy vakillik palatasi deb ataladi. Shunday qilib, joylardan saylangan jami 84 nafar senator yoniga yuqori palataning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, shuningdek, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

#### **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibi:**

1. Senat raisi.
2. Raisning 2 ta o'rinbosari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qo'mitalari:
  - Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi;
  - Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;
  - Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi;

- Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasi;
- Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi;
- Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi;

#### 4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Devoni.

Quyida palata doimiy faoliyat yuritadi, yuqori palata zaruratga qarab, lekin u yilida kamida 3 marta to‘planadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari har kungi faoliyatlarida qonun ijodkorligi bilan shug‘ullansa, senatorlar, asosan, xalq hayotining qaynoq nuqtalaridan kelib, taqdim etilgan qonunlarga xalq, davlat nuqtayi nazaridan baho berishadi.

Quyida palatada deputatlar fraksiya va guruhlariga bo‘linib, o‘zlari mansub bo‘lgan partiya manfaatlarini ko‘zlashsa, senatda hududiy mansublikka ko‘ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi. Nima uchun? Quyida palata o‘z partiyaviy manfaati yoki guruhi g‘oyasi uchun kurashsa, yuqori palata a‘zolari esa faqat davlat, millat manfaatlarini asosida kelajakni ko‘zlagan holda qonunchilik palatasidagi tortishuvlarga o‘z bahosini beradi, ana shu tomonlari bilan ham yuqori turadi.

Respublika Parlamenti qabul qilgan 2 palatali tizim yagona maqsadni ko‘zlaydi va bu maqsad azaliy qadriyatlarimiz va dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib ish ko‘radi.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** — ijro etuvchi organ. Respublikada quyidagicha ijro etuvchi organlar tashkil qilingan.

#### **Vazirliklar**

1. Iqtisodiyot vazirligi.
2. Moliya vazirligi.
3. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi.
4. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
5. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.
6. Xalq ta‘limi vazirligi.
7. Sog‘liqni saqlash vazirligi.
8. Madaniyat va sport ishlari vazirligi.
9. Mudofaa vazirligi .
10. Ichki ishlar vazirligi.

11. Favqulodda vaziyatlar vazirligi.
12. Tashqi ishlar vazirligi.
13. Adliya vazirligi.
14. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi.

### **Davlat qo'mitalari**

1. Davlat statistika qo'mitasi.
2. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi.
3. Davlat soliq qo'mitasi.
4. Davlat bojxona qo'mitasi.
5. Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi.
6. Davlat geologiya qo'mitasi.
7. Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi.
8. Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi.
9. O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi.

### **Markaziy muassasalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi.
2. Konstitutsiyaviy sud.
3. Oliy sud.
4. Oliy xo'jalik sudi.
5. Harbiy sud.
6. Milliy xavfsizlik xizmati.
7. Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi.
8. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti.
9. Fanlar akademiyasi.
10. Badiiy akademiya.
11. Oliy attestatsiya komissiyasi.
12. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi.
13. Milliy olimpiya qo'mitasi.
14. Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi.



### **Agentliklar**

1. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi.
2. «O'zstandart» agentligi.
3. «O'zkommunxizmat» agentligi.
4. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi.
5. Mualliflik huquqini himoya qilish agentligi.
6. Qimmatbaho metallar agentligi.
7. «O'zarxiv» agentligi.
8. O'zbekkino milliy agentligi.
9. O'zbekiston milliy axborot agentligi.
10. «Jahon» axborot agentligi.
11. «Turkiston-press» axborot agentligi.

### **Qo'mitalar**

1. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi.
2. «O'zdavxaxira» qo'mitasi.
3. Din ishlari bo'yicha qo'mita.

### **Markazlar**

1. Prognozlashtirish va makroiqtisodiyot tadqiqotlar instituti.
2. Ijtimoiy tadqiqotlar instituti.
3. Normativ hujjatlarni amalga oshirish ustidan monitoring qilish markazi.
4. Davlat test markazi.
5. Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy markazi.
6. «Sifat» markazi.
7. O'zgidromet markazi.
8. Respublika ma'naviyat-targ'ibot markazi.
9. «Milliy g'oya va mafkura» ilmiy-amaliy markazi.
10. «Oila» ilmiy-amaliy markazi.
11. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi.

### **Inspeksiyalar**

1. «Davavianazorat» inspeksiyasi.
2. «O'zdavtemiryo'lnazorat» inspeksiyasi.

3. «Davsuvxo'jaliknazorat» inspeksiyasi.
4. «O'zdavneftgazinspeksiya».
5. «O'zdavdoninspeksiya».
6. «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi.
7. «Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi.

### **Banklar**

1. Markaziy bank.
2. Tijorat banklari.

### **Uyushmalar**

1. «O'zagromashservis» uyushmasi.
2. «O'zbekcharmpoyafzal» uyushmasi.
3. «O'zpaxtasanoat» uyushmasi.
4. «O'zmontajmaxsusqurilish» uyushmasi.
5. «O'zeltexsanoat» uyushmasi.
6. «Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati» uyushmasi.
7. «O'zgo'shtsutsanoat» uyushmasi.
8. «Hunarmand» uyushmasi.
9. «Tasviriy oyna» ijodiy uyushmasi.
10. O'zbekiston Fermerlari kengashi.
11. Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi.
12. «O'zfarmasanoat» davlat-aksiyadorlik konserni.

### **Kompaniyalar**

1. «O'zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi.
2. «O'zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi.
3. «O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi.
4. «O'zkitobsavdo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi.
5. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi.
6. «O'zdonmahsulot» kompaniyasi.
7. «O'zavtosanoat» kompaniyasi.
8. «O'zqishloqxo'jalikkimyo» kompaniyasi.
9. Qurilish-lizing kompaniyasi.
10. «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi.
11. «O'zulgurjisavdo» kompaniyasi.

12. «O'zbekyengilsanoat» kompaniyasi.
13. «O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi.
14. «O'zbekiston temiryo'llari» kompaniyasi.
15. «Dori-darmon» kompaniyasi.
16. «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi.
17. «Fayz» xolding kompaniyasi.
18. «O'zvinosanoat-xolding» kompaniyasi.
19. «O'zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasi.
20. «O'zbekturizm» kompaniyasi.
21. «O'zinvestloyiha» kompaniyasi.
22. «O'zbekinvest» kompaniyasi.

### **Birlashmalar**

1. «O'zbeknavo» estrada birlashmasi.
2. «O'zbekteatr» birlashmasi.

### **Boshqa tashkilotlar**

1. Savdo-sanoat palatasi.
2. Davlat patent idorasi.
3. «Madad» agentligi.

### **Jamg'armalar**

1. «Tiklanish va taraqqiyot» jamg'armasi.
2. «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi.
3. «Ekosan» jamg'armasi.
4. «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi.
5. «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi.
6. «Nuroniy» jamg'armasi.
7. «Mahalla» jamg'armasi.
8. «Iste'dod» jamg'armasi.
9. «Oltin meros jamg'armasi.
10. «Mehr-shafqat va salomatlik» jamg'armasi.
11. «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi» markazi.
12. «Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash» assotsiatsiyasi.
13. «Amir Temur» jamg'armasi.
14. «SOS-O'zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasi.

15. «Sen yolg'iz emassan» jamg'armasi.
16. «Mehr nuri jamg'armasi.
17. «Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvatlash» jamg'armasi.
18. «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi.
19. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi.
20. O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi.
21. O'zbekiston mustaqil bosma axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi.
22. Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti.

### **Jamoat tashkilotlari**

1. «Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi.
2. Xotin-qizlar qo'mitasi.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengashi.
4. «Vatanparvar» tashkiloti.
5. «Avtomotohavaskorlar» ko'ngilli jamiyati.
6. «Bastakorlar» uyushmasi.
7. «Nogironlar» jamiyati.
8. «Qizil yarimoy» jamiyati.
9. Karlar jamiyati.
10. Yozuvchilar uyushmasi.
11. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi.
12. O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi.
13. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi.
14. O'zbekiston musulmonlar idorasi.
15. Eparxiya boshqarmasi.

Bevosita iqtisodiyotni boshqaradigan, davlat iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etadigan boshqaruv bo'g'inlari bu — Prezident devonida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha Davlat masla-

hatchisi mavjud. Bosh Vazir, bosh vazir birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Markaziy va tijorat banklari, Xalq banki, Davlat boj, soliq va mulk qo'mitalari, barcha vazirliklarning iqtisodiy boshqarmalari va hokimliklar.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy jihatdan 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, viloyatlar yana tumanlarga bo'linadi. Ushbu mintaqalarning boshqaruv organlari va ularning huquqiy, mulk chegaralariga o'zgartirishlar kiritildi.

Mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan qonunlar va farmonlar qabul qilish xalq tomonidan saylangan tuman, viloyat deputatlari, ularning kengashlari zimmasiga yuklatilgan. **Mahalliy** darajada Oliy boshqaruv va ijrochi organ – viloyat va tuman hokimiyat organlari tuzilgan. Hokimlar Respublika Prezidentining joylardagi vakili bo'lib, ular Prezident tomonidan tavsiya etiladi va mahalliy deputatlar kengashida tasdiqlanadi. Shu bilan birga ular mahalliy kengash raislari etib saylanadi. Mahalliy hokimiyatning mulk huquqlari asosiy qonunda qat'iy belgilanib, ularning shakllanish manbalari ham aniq ko'rsatilgan.

Munitsipal mulk deb atalmish ushbu mulk mahalliy sanoat, tijorat va boshqalar hisobiga tashkil etiladi va ular to'liq mahalliy hokimiyatlar tasarrufida bo'ladi. Mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiyotning boshqaruv bo'g'inlari yuqorida sanab o'tilgan respublika organlarining bo'limlari hisoblanadi. Respublikamiz viloyat hokimliklari, Toshkent shahar hokimligi, qishloq va shahar tuman hokimliklari boshqaruv apparatining namunaviy tarkibi mavjud.

**Milliy iqtisodiyotning boshqaruv vazifalari umumiy tarzda quyidagicha belgilangan:**

1. Bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslari va ijtimoiy muhitni yaratib berish.
2. Mulq dahlsizligini ta'minlash.
3. Raqobat halolligini saqlash va uni himoya qilish.
4. Daromad va milliy boyliklarni taqsimlash va qayta taqsimlash.

5. Milliy mahsulot tarkibini yaxshilash maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash.

6. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, uni modernizatsiyalash, inflatsiya jarayonlarini nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

7. Aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlash, uning sog'lig'ini muhofaza qilish, fan, ta'lim, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish.

8. Aholining bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini oshirishga erishish.

9. Yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatish sohaslariga jalb qilish.

10. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlarining uzviyligini ta'minlash va uni takomillashtirish.

11. Respublika aholisining tarkibiy o'sish sur'atlari va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi ish joylarini tashkil etish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash, mehnat birjalari va mehnat bozorlarini tashkil etish.

12. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi-yangi ish o'rinlarini yaratish, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini oshirish.

13. Iste'mol bozorining himoyasini tashkil etish.

14. Milliy pul birligi kursining qat'iyiligini ta'minlash va hokazolar.

15. Hududlarning ekologik holatini yaxshilash, uni doimo nazorat qilib borish.

Bozor iqtisodiyotiga og'ishmay borishni ta'minlash uchun, birinchi navbatda, ana shu qayd etilgan ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga mahalliy xususiyatlarni hisobga olish, oldingi markazlashgan davlat boshqaruvchi tizimining ham maqsadga muvofiq jihatlarni saqlab qolish kerak bo'ladi.

**Tayanch iboralar:**

- Davlat — asosiy Reformator-islohotchi;
- Davlat — subyekt;
- Davlat — tartiblab turuvchi kuch;

- iqtisodiy siyosat;
- subsidiyalar;
- inflatsiya;
- soliqlar;
- kredit siyosati;
- dastur;
- prognoz;
- induksiya;
- deduksiya;
- eksperiment;
- metod;
- metodika;
- metodologiya.

### **Nazorat savollari**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini qanday?
2. Davlatning asosiy reformator – islohotchi ekanligi?
3. Iqtisodiyotni tartiblashga zarurat bormi? Bor bo'lsa, u qanday amalga oshiriladi?
4. Davlatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy siyosat nima? Ijtimoiy siyosat-chi?
6. Davlat ixtiyoridagi moliyaviy vositalar qaysilar?
7. Inflatsiyaga qarshi tadbirlar qanday amalga oshiriladi?
8. Kredit siyosati nima? U qanday tashkil qilinadi?
9. Davlatning boshqaruv organlari qaysilar?
10. Ikki palatali parlamentning mohiyati, vazifalari nima?
11. Ijro etuvchi organlar, ularning vazifalari qanday?
12. Mahalliy boshqaruv organlari qaysilar? Ularning tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
13. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv vazifalari qanday?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston». 2010.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqloq iqtisodi, siyosat, mafkura» – T.: «O'zbekiston». 1996.
3. Karimov I.A. «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari». – T.: «Sharq» nashriyoti, 1998.
4. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir». Oliy

Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.  
2005-yil 28-yanvar.

5. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2012-yil 7-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-noyabrdagi «Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni.

7. Respublika davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 09.12.2003.Y №PF-3358.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

9. M. Sharifxo'jayev. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati – T.: «Sharq». 2005.

10. To'xliyev N. va boshqalar. «O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari». O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2006.

11. To'xliyev N. va boshqalar. «Taraqqiyotning o'zbek modeli». O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2012.



## IX bob. STRATEGIK REJALASHTIRISH VA UNI TASHKIL ETISH

---

### *Reja:*

9.1. *Strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va vazifalari.*

9.2. *Strategik rejalashtirishning metodologiyasi.*

### **9.1. Strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va vazifalari**

Ma'lumki, **bozor munosabatlari** ishlab chiqarish vositalariga va iste'mol buyumlariga bo'lgan xususiy mulkchilikka, tovar ishlab chiqaruvchilarning erkin faoliyatiga, erkin raqobat va iqtisodiyotning ochiqligiga asoslanadi.

**Iqtisodiyotning markazdan turib boshqaruv tizimiga** xos xususiyatlari bo'lib barcha bosqichlarni qamrab olish, ishlab chiqarishning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi va uni davlat korxonalarida monopollashganligi, ishlab chiqarish faoliyatining xalq xo'jaligi samaradorligiga yo'naltirilganligi, mamlakatning yagona xalq xo'jalik majmuyining **yopiqligi** bo'lib hisoblanadi.

Sobiq SSSRda rejalashtirishning umumdavlat tizimi mavjud edi. U yuqoridan toki quyigacha bo'lgan boshqaruv va xo'jalik organlari faoliyatining barcha qirralarini nazorat qilar edi. Bozor iqtisodiga o'tilishi munosabati bilan vaziyat tubdan o'zgardi. Bozor iqtisodiga har qanday ma'muriy buyruqbozlik bilan kiritiladigan rejalar yotdir, chunki xo'jalik subyektlari ham huquqiy, ham iqtisodiy jihatdan davlat boshqaruvida emas.

Sobiq Ittifoq davrida tepadan tushirilgan rejalar **qonun darajasigacha** ko'tarilgan bo'lsa ham ulardan samara bo'lmadi. Shuning uchun iqtisodiy islohotlar jarayonining boshlanishidan rejalashtirishga bo'lgan e'tibor susaya bordi. Hozir ham bu masalaga byurokratning kamchiliklarga ega bo'lgan hol deb qarash uchrab turadi. **Iqtisodiy rivojlanishni, aholining turmush darajasini yaxshilashni asosiy vazifa qilib qo'ygan har bir davlat uning mexanizmlarini, bajarish muddatlarini oldindan belgilaydi.**

Holbuki, yetti marta o'ldirib bir marta kesgan kishi yutqazmaydi. Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan har qanday muammo pirovard natijalarni oldindan ko'ra bilishni, bashorat qilishni va rejalashtirishni talab qiladi. **Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish va prognozlashtirish o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.**

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining rivojlanish tajribasi bozor munosabatlari tizimini ma'muriy buyruqbozlik, byurokratik tizimga asoslangan jamiyatga nisbatan hayotiy faoliyatning barcha qirralarining samarasi yuqori bo'lishini ko'rsatmoqda. Uning sabablaridan biri bozor munosabatlari tizimiga asoslangan barcha davlat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni **davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalanishidir.** Masalan, Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarini misol keltirsa bo'ladi.

**Yaponiya** iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligi tufayli dunyoda iqtisodiy quvvati bo'yicha ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Yaponiyada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat rejalari, qonun bo'lmasa ham, iqtisodiyot tarkibining ayrim bo'g'inlarini umummillat manfaatlarini ta'minlashga safarbar qiladigan davlat **dasturlari bo'lib** hisoblanadi. Yaponiyaning birinchi 1956–1960-yillarga mo'ljallangan «Iqtisodiy o'z-o'zini ta'minlash 5 yillik rejasi» Yapon iqtisodining asosini tashkil qiladigan xususiy korxonalar ekanligidan kelib chiqdi.

Bundan keyingi tuziladigan mamlakatning sotsial-iqtisodiy umumdavlat rejalari Yaponiyaning **umummillat-iqtisodiy rejalashtirish shakliga aylandi.**

Bozor munosabatlari sharoitida umumdavlat rejalashtirish yuzasidan **Fransiyada** ham qiziqarli tajriba mavjuddir. Ikkinchi jahon urushi tugashi bilanoq hukumatni boshqargan general Sh.De-Gol iqtisodni tiklash va rivojlantirish yo'llarini qidira boshladi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1946-yilgacha bozor sharoitida rejalashtirish tajribasi yo'q edi.

Fransuz iqtisodiyotini rejalashtirishning bosh markazi 1946-yilda reja tuzishni tashkil qiladi. Fransiyaning birinchi davlat rejasi «Mooneplani» 1947–1953-yillarga mo'ljallangan edi.

Sanoati rivojlangan ko'pchilik davlatlarni, ayniqsa, Osiyodagi yangi industrial davlatlar iqtisodining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bozor va reja nafaqat muvaffaqiyatli amal qilgan, balki bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan. Chunki tadbirkorlik va erkin raqobatning rivojlanishi uchun sharoit yaratgan bozor mexanizmlarining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Bu sohada **Janubiy Koreyani** misol qilib keltirsa bo'ladi. Bu yerda dinamik va qat'iy rivojlanishning bozor modelini tuzishda davlat asosiy rol o'ynaydi. 1963-yilda Janubiy Koreyada iqtisodiy rejalashtirish boshqarmasi tuzildi. Unga umumiy iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish, rivojlanishning joriy shakllarini tuzish, Davlat budjetini tuzish va bajarilishini nazorat qilish, moliya resurslarini jalb qilish va undan foydalanish siyosatini muvofiqlashtirish, tashqi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalar yuklatildi. **Keyin bu boshqarma iqtisodiy rejalashtirish vazirligiga aylantirildi.** Besh yillik rejalar amalga oshirilmoqda. Rejalashtirish u yerda rivojlangan bozor iqtisodiyotini yaratishning muhim elementi bo'lib qolgan.

**Strategik rejalashtirishning mazmuni bu milliy iqtisodiyoti, uning barcha tarmoqlari faoliyati rivojlanishini reja asosida tartibga solishdir.**

**Rejalashtirishning mohiyati** shundaki, kishilar o'z harakatlarni ongli ravishda belgilaydilar. Bu harakatlarni resurslar bilan solishtirib chiqadilar, tashqi muhitga bevosita va bilvosita bog'liq holda olib boradilar. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining rivoji shuni ko'rsatyaptiki, rejalashtirish har bir mehnat aktiga taalluqli bo'lib, jamiyatning rivojlanishiga, mehnat taqsimoti va koperatsiyasiga qarab rivojlana boradi. U bir ishlab chiqarish birligidan ajralib chiqib, tadbirkorlar uyushmasi, milliy korporatsiyalar, davlatning o'ziga ham tarqalib ketadi. Shunday qilib, boshqaruv rejalashtirish moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan tijorat tarmoqlariga ham, jamiyat va uning ayrim olingan tarmoqlariga ham taalluqlidir.

**Rejalashtirish turlicha shaklda bo'ladi:**

• tarmoqlar, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, ekologiya, moliya va boshqa aspektlar;

- umumdavlat, regionlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning birlashmalari bo'yicha va hokazo;

- uzoq muddatli, o'rta muddatli va joriy rejalar.

Hal qilinayotgan muammolar darajasiga qarab — ular **strategik va taktik** rejalar bo'linadi. Strategik rejalashtirish — bu kishilarning alohida bajaradigan amaliy faoliyatidir.

Bu faoliyat prognozlar, dastur va rejalar loyihasini tuzish bilan bog'liq bo'lgan ishlardir.

Mamlakat rivojlanishining va davlat iqtisodiy siyosatining asosiy **mezoni** bo'lib, rejalashtirish, ayniqsa, tarmoqning rivojlanishini prognozlash hisoblanadi.

**Strategik rejalashtirish quyidagi xususiyatlarga egadir:**

- bir yildan ortiq bo'lgan o'rta va uzoq muddatli istiqbolga intilish;

- e'tiborni sotsial — iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan eng dolzarb masalalarni hal etishga qaratish;

- belgilangan vazifalarni resurslar hajmi va tarkibi bilan chambarchas bog'lash;

- rejalashtirilayotgan obyektga ta'sir qiladigan ko'pdan-ko'p tashqi omillarni hisobga olish va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va hokazo.

Strategik rejalashtirishning mohiyatini uning jarayonlari belgilaydi. Ular quyidagilardir:

- Strategik prognozashtirish (ayrim tarmoqlar va sohalarni rivojlantirish, demografik prognozlar, sotsial prognozlar, davlat prognozlari, tashqi iqtisodiy prognozlar, ekologik prognozlar);

- Strategik programmalash (strategik dasturlar loyihasi);

- Loyihalash (milliy iqtisodiyoti rivojlantirishning strategik rejalar loyihasi). Uning mohiyati, strategik rejalar loyihasini ishlab chiqishdir.

Strategik rejalashtirish orqali amalda strategik prognozlar, dasturlar loyihasi va rejalar tuzish, bozor iqtisodiyotini belgilaydigan obyektiv qonunlarni o'rganish, strategik rejalashtirishning ko'pgina muammolarini hal qiluvchi metodika va metodologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish hamda uni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

**Strategik rejalashtirish obyekti** xo'jalik subyektlarini milliy iqtisodning tarkibiy elementlarini va butun mamlakatning milliy iqtisodini hozirgi rivojlanishidan kelib chiqqan holda yaqin kelajakdagi va istiqboldagi **faoliyati** hisoblanadi.

**Strategik rejalashtirish nazariyasining 3 muhim tamoyili mavjud:**

1. **Sotsial-iqtisodiy.** U sotsial iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishini ta'minlaydigan aniq qonuniyatlarni o'rganishdan iborat.

2. **Strategik rejalashtirish metodologiyasi.** U sotsial-iqtisodiy jarayonlarni bilish quroli hisoblanadi.

3. **Tashkiliy.** U o'z ichiga strategik jarayonida qatnashadigan tashkilotlar tizimini, uning aniq funksiyalarini belgilash kabi ishni tashkil qilishni o'z ichiga oladi.

## 9.2. Strategik rejalashtirishning metodologiyasi

Metodologiya – bu haqiqat (voqe'lik)ni bilish maqsadida qo'llanilgan barcha usullar yig'indisidir.

Strategik rejalashtirish metodologiyasi quyidagi beshta muhim savolga javob olish imkoniyatini beradi:

1) strategik rejalashtirish obyektlarini rivojlantirishning maqsadi;

2) prognozlar, dastur va rejalar ishlab chiqish jarayoni qanday ketma-ketlikda bo'lishi lozimligi;

3) strategik prognozlar dastur va rejalari qanday bo'lishi kerak va ular qanday talablarni qondirishi kerak;

4) strategik rejalashtirishda ma'lum muammolarni hal qilishda qanday yondashuvlardan foydalaniladi;

5) strategik prognozlar, dastur va rejalarini optimallashtirish qanday metod va ko'rsatkichlar tizimi yordamida ta'minlanadi.

Boshqaruvning, demak, strategik rejalashtirishning har qanday muammosini hal qilish o'z mantiqiga egadir. **Strategik rejalashtirishning mantiqi** deganda strategik rejalashtirishning barcha muammolarini hal qilishda tartibli ketma-ketlik, o'zaro bog'liqlik va bajariladigan ishlarning asoslanganligi tushuniladi.

Strategik rejalashtirishning mantiqiy mazmuni uning quyidagi **tarkibiy elementlarini yoritib beradi:**

1) strategik rejalashtirish davrida subyektning maqsadini aniqlash va shakllantirish;

2) strategik rejalashtirishning erishilgan darajasi va tarkibini aniqlash, uni tahlil qilish;

3) rejalashtirish davrida jamiyat talabining hajmi va tarkibini aniqlash;

4) rejalashtirish davrining boshlanishiga mavjud bo'lgan resurslar hajmi va tarkibini aniqlash;

5) sotsial-iqtisodiy tarmoqlar talab va resurslarini muvozanatlashtirish, bir-biri bilan bog'lash.

Strategik rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning metodikasi hisoblanadi.

**Metodika** – bu prognozlar, strategik dasturlar va rejalarning reja ko'rsatkichlarini tahlil qilish, asoslash va tuzishda qo'llanilgan barcha metodlar, usullar yig'indisidir.

Strategik rejalashtirishning **metodi** bu prognozlar, dastur va rejalarning **ayrim ko'rsatkichlarini** hisoblash, rejalashtirishda muammolarini hal qilishda foydalaniladigan **aniq uslub, texnik yondashuvdir**. Rejalashtirishda normativ metod, balanslash metodi, iqtisodiy matematika metodi va modeli, ekspert (baholash) metodi, sotsial-iqtisodiy tahlil qilish metodi, tizimli tahlil va sintez hamda ko'pgina boshqa metodlardan foydalanadi.

**Strategik rejalashtirish metodologiyasini aniqlash** uning quyidagi xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi:

– tarkibiy birlik;

– strategik prognozlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqarishning mantiqi (*logikasi*);

– maxsus uslubiy prinsip va yondashuvlar;

– strategik rejalashtirish jarayonida, prognozlashtirish va rejalashtirish ko'rsatkichlarini tuzish va asoslashda foydalaniladigan usullar tizimi.

Strategik rejalashtirishning metodologiyasining tizimi prognozlar, dastur va rejalar ishlab chiqarishning ilmiy asosi hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish metodologiyasining prinsiplari. Strategik rejalashtirish jamiyatning boshqaruv tizimida markaziy element bo'lib hisoblanadi va uning mantiqiy rejalashtirish prinsiplariga suyanadi.

Rejalashtirishning **asosiy prinsiplari** bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) iqtisod va siyosatning birligi prinsipi;
- 2) markazlashtirish va mustaqillik prinsiplarining birligi;
- 3) boshqaruv yechimlarining samaradorligi va ilmiy asoslanganlik prinsipi;
- 4) umumiy va lokal (ayrim olingan) manfaatlarning birligi prinsipi. Strategik dasturlar va rejalarni bajarishda shaxsiy va jamoa manfaatini rag'batlantirish.

**Ko'rsatkichlar tizimi va strategik rejalashtirish metodlari.** Prognozlashtirish, dastur va rejalarni tuzishda ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi.

Faqat ko'rsatkichlar tizimi orqali strategik rejalashtirishning mantiqi, prinsiplari va metodologik yondashuvlarini amalga oshirilishi mumkin.

Ko'rsatkich, deganda hozirgi zamon hisoboti va statistikasida jamiyatdagi sotsial-iqtisodiy voqelik va jarayonlarni miqdor va sifat jihatidan tavsiflash tushuniladi.

Ko'rsatkich tizimi 4 guruhga bo'linadi:

1. Miqdor va sifat ko'rsatkichlari.
2. Tasdiqlanadigan va hisoblanadigan ko'rsatkichlar.
3. Natural va qiymat ko'rsatkichlari.
4. Absolut va nisbiy ko'rsatkichlar.

Ularni yana boshqacha tizimga ham bo'lish mumkin:

– umumiy rejalashtirishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi;

– mamlakatni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishda, davlat budjetida foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

– federatsiya subyektlarining rivojlanishi va mahalliy budjetni rejalashtirishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

– ayrim tarmoqni rivojlantirishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi;

– korxonalar, birlashmalar, tijorat tashkilotlarini rivojlantirish prognozlarini, dasturlari va rejalarini tuzishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi.

Strategik rejalashtirishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar ma'lum talablarga javob berishi lozim:

1. Rejalashtirishning ma'lum darajasi uchun ko'rsatkichlarning majburiylik va ularning birligi.

2. Reja ko'rsatkichlari statistika ko'rsatkichlari bilan mos kelishi kerak.

3. Ko'rsatkichlar ma'lum o'lchov birligida o'lchanadigan va ifodalanadigan bo'lishi kerak.

4. Ko'rsatkichlar tizimi rejalashtirilayotgan obyektning barcha qirralariga kompleks xarakteristika bera oladigan bo'lishi kerak.

5. Ko'rsatkichlar bukiluvchan, egiluvchan bo'lishi, rejalashtirilayotgan obyektlar holatining barcha o'zgarishlarini aks ettira oladigan bo'lishi kerak.

6. Ko'rsatkichlar tizimi reja topshiriqlarida bajaruvchilar aniq ko'rsatilgan, ya'ni adresli bo'lishi kerak.

7. Ko'rsatkichlar mahsuldorlik va samaradorlikning o'sishiga undashi kerak.

8. Ko'rsatkichlar tizimi son jihatdan chegaralangan bo'lishi lozim.

O'zbekistonda sotsial-iqtisodiy rivojlanishni strategik rejalashtirish va samarali boshqarishni zarur sharti bo'lib maxsus tashkilotlar tizimining mavjudligi hisoblanadi. Ana shu tashkilotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi **Iqtisodiyot vazirligi alohida o'rin tutadi**. Prognozlar, asosan, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqiladi. Umumiy iqtisodiyot bo'yicha esa hali bunday prognozlar ishlab chiqilmagan.

Mamlakatni rivojlantirish dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha 2011–2016-yillarga mo'ljallangan dastur.



2. 2012–2016-yillarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha dastur;

3. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash bo'yicha 2012–2016-yillarga mo'ljallangan dastur.

4. 2011–2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishi rivojlanishini jadallashtirish to'grisidagi dastur.

5. 2012-yil va undan keyingi yillarda qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha dastur.

6. 2013-yil ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi.

#### *Tayanch iboralar*

- *strategik rejalashtirish;*
- *rejalashtirish shakllari;*
- *strategik rejalashtirish tamoyillari;*
- *davlat – asosiy reformator;*
- *bozor mexanizmi;*
- *itisodiyotni tartiblash vositalari;*
- *soliq;*
- *moliyaviy sanatsiya;*
- *inflatsiya;*
- *monetar siyosat;*
- *kredit siyosati;*
- *davlat tadbirkorligi;*
- *ijtimoiy siyosat;*
- *indutsiya;*
- *deduktsiya;*
- *mantiq;*
- *ko'rsatkich.*

#### *Nazorat savollari*

1. *Strategik rejalashtirish, uning mohiyati nimada?*
2. *Strategik rejalashtirish boshqaruv elementi ekanligi.*
3. *Rejalashtirish elementlari nimalardan iborat?*
4. *Strategik rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, uning obyeksi va tamoyillari qaysilar?*

5. *Strategik rejalashtirishda foydalanadigan ko'rsatkichlar qaysilar va ularga qanday talablar qo'yiladi?*
6. *Iqtisodiyot vazirligi va uning vazifalari qaysilar?*

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov I.A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. — T.: «Iqtisodiyot». 2010.
2. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. — T.: «O'zbekiston». 2009.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» 2013-yil 19-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi 1990—2010-yillar asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari. — T.: «O'zbekiston». 2011.
5. Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение», № 5—6. 2009.
6. *Саидова Г.* «Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий — необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке». — T.: «Узбекистан». 2009.
7. *To'xliyev N.* Taraqqiyotning o'zbek modeli. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. — T.: 2012.
8. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot. —T.: 2004.
9. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)
10. [www.parlament.gov.ru](http://www.parlament.gov.ru)
11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
12. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
13. [www.LEX.uz](http://www.LEX.uz)

**Reja:**

- 10.1. *O'zbekiston mustaqilligi va uning tashqi iqtisodiy faoliyati prinsiplari. Ochiq iqtisodiyot modeli.*
- 10.2. *Tashqi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikning asosiy shakllari va yo'nalishlari.*
- 10.3. *Tashqi iqtisodiy faoliyat va uni boshqarishni tashkil qilish.*

### **10.1. O'zbekiston mustaqilligi va uning tashqi iqtisodiy faoliyati prinsiplari. Ochiq iqtisodiyot modeli**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi bo'ldi. O'zbekiston xalqaro munosobatlarda mustaqil suveren davlat sifatida faoliyat olib boradi. Mustaqillik tufayli ko'pchilik xorijiy davlatlari bilan mustaqil iqtisodiy hamkorlik aloqalari o'rnatdi. Bu hamkorlik davlat siyosatining muhim qismi bo'lib, respublika iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston davlat siyosatining maqsadi respublika iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash va haqiqatda ochiq iqtisodiyotga erishishdir.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat** — deganda mazkur mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston o'tmishda juda ko'p mineral xomashyo resurlariga, katta ishlab chiqarish texnika imkoniyatlariga, boy mehnat resurslariga ega bo'lgani holda, strategiya jihatidan juda qulay geopolitik holatda joylashgan bo'lishiga qaramay tashqi dunyodan ajralib qolgan edi. Respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi xalqaro mehnat taqsimotida, boshqa davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishni nafaqat imkoniyatini, balki uning zaruratini ham ochib berdi.

Prezidentimiz I. Karimov o'zining asarlari, ma'ruza va nutqlarida tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning asosiy tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosatga tinchlik barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi (10-chizma).

– xorijiy sarmoya ishtirokida 4312 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda;

– tashqi savdo oboroti miqdori 2000-yilda 6 mlrd dan ortiq bo'lib, 2013-yilda bu ko'rsatkich 24,6 mlrd dollarni tashkil etdi;

– jahonning 80 mamlakatiga O'zbekiston mahsulotlari eksport qilinadi va turli xizmatlar ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy prinsiplari to'g'risida», «Chetel investorlari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlari uning xalqaro maydonda faol va keng ko'lamlı hamkorlik qilishi uchun huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

1992-yilning 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish-irodasi va taklifiga ko'ra eng nufuzli xalqaro tashkilot – BMTga qabul qilindi va shu kuni BMTning Nyu-Yorkdagi binosi olidida Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'i ko'tarildi.

1993-yilda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston jahon hamjamiyatining to'la, teng huquqli a'zosi sifatida BMT faoliyatida ishtirok etmoqda.

2010-yil O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov BMT sammiti «Ming yillik rivojlanish» maqsadlariga bag'ishlangan majlisda ishtirok etib, AQSH, NATO, Rossiya, Afg'oniston bilan bevosita qo'shni mamlakatlarni kiritish zarurligi 6+3 muloqot guruhining eng muhim maqsadlarini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan Xalqaro tashkilotlar:

- Jahon metrologiya tashkiloti (JMT) – 22.01.1993.
- Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti – 22.05.1992.
- Jahon intellektual mulk tashkiloti – 05.05.1993.

Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati darajasini quyidagilar ifodalaydi

O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini 165 ta nufuzli davlat tan oldi

125 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatildi

Toshkentda 42 ta davlatning elchixonalari ochildi

Dunyodagi 31 ta mamlakatda respublikamiz elchixonalari faoliyat yuritmoqda

O'zbekiston 43 ta xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlarning a'zosi

150 ga yaqin davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan

Bosh konsulliklar 1 ta (BAA)

- Jahon pochta tashkiloti – 04.1992.
- Xalqaro fuqaro aviatsiyasi – 12.11.1992.
- Xalqaro mehnat Tashkiloti (XMT) – 13.07.1992.
- Xalqaro elektr aloqasi tashkiloti – 10.07.1992.
- BMTning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) – 29.10.1993.
- BMTning savdo va taraqqiyot tashkiloti (YUNIDO) – 1994.
- Xalqaro valuta fondi (XVF) – 1992.
- Butunjahon banki (BJ) – 1992.
- Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – 1992.02.
- Shanxay hamkorlik tashkiloti – 2001.06.
- Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki (YET va TB) – 1992.
- Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – 1995.

2010-yil 4-mayda Osiyo taraqqiyot bankining 43 yillik majlisi Toshkentda bo'lib o'tdi «O'zbek modeli»ning 60 dan ortiq mamlakat iqtisodchilari, ekspertlari, axborot xodimlari ishtirok etib, OTB tomonidan uzoq muddatli kreditlar berilib, 20 dan ortiq (qishloq xo'jaligi, moliya, kichik biznes, atrof-muhit, sog'liqni saqlash, transport va boshqa) sohalarda hamkorlik qilish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o'zining mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini o'tkazmoqda. Quyidagi prinsiplar unga asos qilib olingan:

- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;
- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish; respublika biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi darkor;
- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish va ularni rivojlantirish;

– umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o'tish.

Butun tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqelarini mustahkamlashga, uning to'lov balansini kuchaytirishga, qulay investitsiya muhitini vujudga keltirilishiga qaratilgan.

**Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagilar ustuvor yo'nalish deb belgilanadi.**

**Birinchidan**, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish.

**Ikkinchidan**, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish zarur.

**Uchinchidan**, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o'tkazish.

**To'rtinchidan**, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotini chetellarda sotishga erkinlik berish.

**Beshinchidan**, qo'shma korxonalarni tashkil qilishda ko'maklashish, shuningdek, sarmoyalarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash.

**Oltinchidan**, tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalari, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish.

**Yettinchidan**, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisob sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish. Bundan tashqari, respublika fuqarolar va yuridik shaxslarning aqliy mulkini himoya qilish uchun o'zimizning **patent-litsenziya ishlari tizimini yo'lga qo'yish** zarur. Mahsulotni standartlash va sertifikatlash xalqaro tizimiga izchillik bilan o'tish zarurdir.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatning ana shu va boshqa yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o'rin egallash imkoniyatini beradi.**

Shunday qilib, mustaqillik tufayli O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va «ochiq iqtisodiyot»ga o'tish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

**Ochiq iqtisodiyot** — bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot *yopiq iqtisodiyot* deb ataladi. Jahon tarixida shunday voqealar ham bo'lib turadi.

Masalan, biror-bir mamlakat u yoki bu sabablar bilan o'z hududlari chegarasida o'ralashib qolgan bo'ladi va xorijiy davlatlar bilan juda kam ayriboshlash qiladi.

Masalan, Sobiq SSSRda urushgacha bo'lgan davrda shunday bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda mutlaq yopiq iqtisodiyot mavjud emas.

Ochiq iqtisodiyot qurishning **asosi** bo'lib, xalqaro mehnat taqsimoti, mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida keng qatnashishi hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqatgina mamlakatlararo iqtisodiy aloqalar, kapital va tovar ayriboshlash bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning sur'atlarini ta'minlaydi.

Amaliyot **ochiq iqtisodiyotning baholash mezonini** ham aniqlab bergan.

1. Tashqi savdo oborotining rivojlanish darajasi mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bunga eksport va import aloqalarini kengaytirish yo'li bilan erishish mumkin.

2. Xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish mamlakat ishlab chiqarish tarkibini tashkil qiladi va takomillashtiradi. Bu, o'z navbatida, mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan samarali va arzon tovarlar ishlab chiqarishga e'tiborni qaratishga undaydi.



Pirovard natijada iqtisodiyotning ochiqligi bu mamlakatni jahon iqtisodiyoti bilan erkin raqobatga kira olishini bildiradi.

**Ochiq iqtisodiyot** tushunchasi o'zining rivojlanish tarixiga egadir. Bu tushuncha mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligini ifodalaydi.

Ochiq iqtisodiyot milliy iqtisodiy tizimlarni birlashtiradigan uch yo'lda, ya'ni **mahsulot (tovarlar) bilan savdo qilish, kapitalning harakati va o'zaro milliy valuta almashinishida o'z aksini topadi.**

### **10.2. Tashqi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikning asosiy shakllari va yo'nalishlari**

Respublikamizda juda qisqa vaqt mobaynida nafaqat iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtiradigan va uning o'sishini ta'minlaydigan, balki tashqi iqtisodiy aloqalarni muvoffaqiyat bilan amalga oshirish imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq qilindi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish tizimini qayta qurish:**

1) tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun xalqaro me'yorlarga va standartlarga to'g'ri keladigan huquqiy-me'yoriy bazaning yaratilishiga.

2) tashqi savdoda demonopolizatsiya va detsentralizatsiyaning amalga oshirilishiga.

3) butun jahonda qabul qilingan ma'muriy jihatdan chegaralaniladigan usuldan tariflar orqali boshqariladigan (tartibga solinadigan) iqtisodiy usulga o'tilishiga.

4) rivojlangan tashqi savdo infrastrukturasi tashkil qilish kabilarga bevosita bog'liqdir.

Yuqoridagilarning barchasi respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarining sezilarli darajada faollashishiga hamda eksport hajmining oshishi va assortimentini kengaytirishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning quyidagi shakllari keng tarqalgan:

1. Tashqi savdo.

2. Qo'shma tadbirkorlik faoliyati.

3. Erkin iqtisodiy zona.

4. Xalqaro turizmning rivojlanishi.

5. Fan-texnika sohasidagi hamkorlik va hokazo.

Tashqi savdo davlatlararo iqtisodiy hamkorlikning birinchi va ustuvor yo'nalishi sifatida tan olingan.

**Tashqi savdo** jahon mehnat taqsimotining zaruriy shart-sharoiti bo'lib hisoblanadi. Tashqi savdo jahon xalqlarini turli tovarlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi va shu bilan birga har bir mamlakatning ixtisoslashuvini rivojlantirish, o'z resurslaridan foydalanish samarasini oshirish natijasi bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi savdoning darajasi, uning harakati va ahamiyati mamlakat iqtisodining rivojlanish darajasiga, milliy iqtisodning tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Xalqaro savdoda millatning didi, qiziqishi va mamlakat aholisining xarid qilish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Qadimdan xalqimiz mentalitetida **ilm olish ishtiyoqi kuchli bo'lgan**. Shu sababdan istiqlol yillarida ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bunday sharoitda AQSH, Olmoniya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlardan zamonaviy kompyuterlarni sotib olishga katta mablag'lar sarflandi.

Shuni aytib o'tish kerakki, tashqi savdo, ya'ni tovarlarni chetga chiqarish (eksport) va chetdan tovar keltirish (import) bizning **mamlakatimizda juda qadim zamonlardan buyon mavjud**.

**Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom «rizqning o'ndan to'qqiz qismi tijoratdir»**, deb, u bilan shug'ullanishni buyurganlar. «Buyuk ipak yo'li»ning anchagina qismi mamlakat hududidan o'tganligi tufayli tadbirkor ajdodlarimiz xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini yaxshigina rivojlantirganlar va uni xalqaro savdoda jozibador mamlakatlardan biriga aylantirganlar.

Tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini yalpi milliy mahsulotda eksport va importning hajmiga qarab aniqlash mumkin. Umuman olganda, mamlakat iqtisodiy ahvoriga baho berishda eksport va import o'rtasidagi nisbatni aniqlash zarurati

yuzaga keladi. Ushbu nisbat mamlakatning **to'lov balansini** tuzayotganda aniqlanadi. Savdo balansi to'lov balansining tarkibiy qismi hisoblanadi. **To'lov balansini umumlashtiruvchi ko'rsatkich uning saldosi hisoblanadi.** U import va eksport orasidagi farqqa teng. Balansda importning eksportdan oshib ketishi to'lov balansini **salbiy saldog**a ega ekanligidan dalolat beradi. U tashqi savdo **defitsitiga** olib keladi.

Tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi **eng muhim omil eksport va import mahsulotlarining tarkibi**, ya'ni mamlakat nimani chetga chiqaradi-yu, nimani chetdan olib kelayotganidir. Chetdan sotib olinayotgan tovarlar ichida qayta ishlashga mo'ljallangan xomashyoning ulushi qancha katta bo'lsa, shu mamlakat importdan ko'riladigan naf shuncha yuqori bo'ladi. Chetga chiqarilayotgan tovarlar ichida xomashyoning ulushi qancha ko'p bo'lsa, shu mamlakat eksporti shuncha samarasiz bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasining eksportida paxta tolasi ulushining yildan-yilga kamayib borayotgani ijobiy tendensiyadan dalolat beradi.

Xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish, eksport va importning tarkibini takomillashtirish sohasida respublika hukumatining olib borayotgan sa'y-harakatlari o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarining O'zbekiston importidagi ulushidan ko'rsa bo'ladi.

Eng muhimi, O'zbekistonda xorijiy davlatlardan keltirilayotgan tovarlar ichida texnologik asbob-uskuna va jihozlarning salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda va endilikda u jami importning yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Gap shundaki, milliy iqtisodiyotning taraqqiyoti va O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi uchun avvalambor moddiy ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar asosida qayta qurish talab qilinar ekan, import tarkibining bunday o'zgarishi o'ta ijobiy holdir.

Tashqi savdoning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini kuchaytirishning muhim omili eksport bilan import orasidagi

ijobiy saldogga, ya'ni eksport hajmining import hajmidan ortiq-  
ligiga erishishdir. Shuning uchun O'zbekiston davlat mustaqilligining ilk davridan boshlab respublika hukumati mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportni har tomonlama rag'batlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Eksportbop, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilangan va amalga oshirilayapti.

**Qo'shma tadbirkorlik faoliyati** iqtisodiy hamkorlikning muhim shakli sifatida keng rivoj topib bormoqda. Bunday faoliyatning keng tarqalgan turi — bu qo'shma korxonalaridir. Ular ishlab chiqarish, savdo-vositachi yo'nalishida hamda xizmat ko'rsatish va boshqa yo'nalishlarda tuzilgan.

Qo'shma korxonalarni ochish chetel kapitalini jalb qilishning bir shakli bo'lib, u ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirishni, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishchi kuchining malakasini oshirishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda qo'shma korxonalarni tuzish mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boshlangan. «Sovplastital» korxonasi, Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda tuzilgan «O'zDEU» avtomobil zavodi, Samarqand shahridagi «SamKoch-Avto» qo'shma korxonasi, Muruntov oltin konida O'zbekiston — Amerika «Zarafshon — Nyumont», Amerikaning «Keys» firmasi bilan TTZ qo'shma korxonalari tashkil topdi. Andijonda ekskavator ishlab chiqaradigan qo'shma korxonasi, Farg'onada nemis «Salamander» firmasi bilan birgalikda «O'zsalaman» qo'shma korxonasi, Toshkent viloyatida O'zbek — Koreys «Kabul — Toytepa — tekstaylz» kabi yirik qo'shma korxonalari tuzildi. Eng yirik qo'shma korxonalardan yana Kabul — O'zbek, Qizilqum sement, O'zDEU elektroniks, AY-Sel, Uzdunrobita, DEU tekstil va ko'pgina boshqalar faoliyat ko'rsatishgan. Hozirda yangi qo'shma korxonalar, jumladan «GM — O'zbekistan», Ucell, Beeline, Korean Air va hokazolar faoliyat ko'rsatmoqda.

**Erkin iqtisodiy zona (EIZ)** — bu xo'jalik faoliyatini tashkil qilishning hamda mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining yangi shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining hududida

EIZlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (boj-xona, valuta, soliq va boshqalar) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

Erkin iqtisodiy zonalarini belgilash va tuzish qo'yilgan maqsadga bog'liq. Agarda rivojlangan davlatlarda erkin iqtisodiy zonalarini tuzishdan maqsad faoliyati, asosan, xalqaro savdoni rivojlantirish bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa xomashyoni qayta ishlashni tashkil qilish ularning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**O'zbekistonda 1996-yilda «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida» qonun qabul qilingan.**

Mazkur qonunda:

- erkin iqtisodiy zonalar;
- erkin savdo zonolari;
- erkin ishlab chiqarish zonolari;
- erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuzilishi

mumkin deb ko'rsatib qo'yilgan.

Ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taqdim-nomasiga asosan Oliy Majlis qarori bilan tuziladi.

Erkin iqtisodiy zonani tuzish jarayoni O'zbekistonda alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikada uzoq vaqt mobaynida rejali markazlashgan boshqaruv tizimi hukm surgan. Bu erkin iqtisodiy zonani tuzish xususiyatini, uning maqsad va vazifalarini belgilashda asosiy omil bo'lib hisoblangan.

MDH davlatlarida erkin iqtisodiy zonani tuzish chetel kapitalini jalb qilishni, yangi texnologiyaning importini ta'minlaydi. Oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy potensialini oshiradi, uning dunyo xo'jaligiga teng huquqli hamkor sifatida integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Rossiyada erkin iqtisodiy zona sezilarli darajada faoliyat ko'rsatayotganiga qaramasdan MDH davlatlarida hozirgacha ham erkin iqtisodiy zona tuzish, ularning faoliyati prinsiplarini huquqiy masalalari aniqlangan emas.

Amaliyotda erkin iqtisodiy zonalar quyidagi aniq **prinsiplarga** rioya qilgan taqdirdagina samarali ishlashlari mumkinligi tasdiqlanmoqda:

1. Har qanday erkin iqtisodiy zona mamlakatning mustaqil xo'jalik birligi sifatida tuzilishi va o'z faoliyatini o'z budjeti asosida qurishi lozim.

2. Erkin iqtisodiy zona budjetining **daromad qismi** quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan korxonalar, birlashma tashkilotlari va u hududda yashaydigan kishilardan tushadigan soliqlar;

- bojxona yig'implari, mustaqil tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan tushumlar;

- homiylik mablag'lari;

- erkin iqtisodiy zona ehtiyojlariga uzoq muddatli kredit shaklida beriladigan davlat budjeti mablag'lari.

3. Erkin iqtisodiy zona davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar va dotatsiyalarsiz faoliyat ko'rsatishi kerak.

4. Erkin iqtisodiy zona hududidan yig'ilgan barcha soliqlar va budjetga to'lovlarni hududiy boshqarmalar ixtiyorida qoldirish lozim.

Respublikada birinchi erkin iqtisodiy zona – Navoiy EIIZ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda PF-4059 Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Navoiy EIIZ yaratilishi konsepsiyasi quyidagi 4 tarkibiy markazlarning o'zaro mantiqiy bog'liqligiga asoslangan:

- sanoat;

- logistika;

- innovatsiya;

- sayyohlik, madaniy rekreatsion.

Navoiy EIIZning **yaratilish asoslari:**

- qulay geografik joylashuv;

- energetik resurslar bilan ta'minlanganlik;

- yetarli xomashyo bazasi;

- rivojlangan sanoat bazasi;

- kadrlar salohiyati.

Ishlab chiqarishning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

- elektrotexnika mahsulotlari;

- aniq mashinasozlik va avtomobil ehtiyot qismlari;

- farmatsevtika sanoati va tibbiyot mahsulotlari;
- oziq-ovqatni qayta ishlash va qadoqlash;
- plastik mahsulotlar va polimerlar.

Hozirgi vaqtda yuqorida sanab o'tilgan korxonalariga 43,73 mln dollardan ziyod investitsiya kiritilgan 397 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

**Fan-texnika hamkorligi** tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim shakllaridan biridir.

Respublikada hal qilinayotgan strategik vazifalar jahon hamkorligida ilmiy-izlanish, laboratoriya va ishlab chiqarishda ishtirok etish kabi shakllarda faol olib borilishi kerak.

Jahon tajribasi bunday hamkorlikning turli shakllarini ishlab chiqqan:

1) hamkorlikda fundamental va amaliy ishlanmalarni olib o'tish va ularning natijalarini almashinish;

2) ilmiy-texnik imkoniyatlarni birlashtirib, hamkorlikda ishlab chiqarishni tashkil qilish;

3) muhim umuminsoniy muammolarni hal qilishda ilmiy-texnika jamoatchiligi vakillarining xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarda qatnashishi;

4) texnologik yutuqlar, axborotlar va hokazolar bilan ayriboshlash hamkorligida qatnashish;

5) kadrlar, mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishda qatnashish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan hamkorlikni hayotga tatbiq qilish respublikaning intellektual va iqtisodiy salohiyatini o'stirishga xizmat qiladi hamda jahon iqtisodiy hamjamiyatida respublika reytingini sezilarli oshirishga sharoit yaratib beradi.

**Xalqaro turizm.** O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida eng katta sayyohlik salohiyatiga ega bo'lgan davlatdir. Yurtimiz o'zining tarixiy maskanlari, Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishini o'ziga aks ettiradigan ko'p asrlik tarixiy va madaniy 4 mingdan ziyod tarixiy-arxitektura yodgorliklari bo'lgan boy merosga egaligi jihatidan dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon kabi qadimiy madaniy yodgorliklarga boy shaharlar

butun dunyoga mashhur. Bu azim shaharlar betakror tarixiy qiyofasi bilan har qanday odamni maftun etadi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizning betakror tarixiy, arxitekturaviy tizimlari va yodgorliklari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan, O'zbekistonning barcha hududlari bo'ylab yuzdan ortiq sayyohlik yo'nalishlari tashkil etilgan bo'lib, bu tarixiy obyektlarning 140 tasi BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan muhofazaga olingan.

Mamlakatimizdagi mavjud rekreatsion imkoniyatlar sayyohlik yo'nalishlarning har xil turlarini tashkil etadi va sayyohlarni yil davomida qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yildagi farmoniga binoan, turistik tashkilotlar negizida «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi tashkil etildi. «O'zbekturizm» MK O'zbekiston Respublikasida sayyohlik rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni, harakatlarni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanadi.

Bu tashkilot barcha turlarini rivojlantirish uning moddiy-texnik bazasini va infrastrukturasi vujudga keltirish sayyohlarga xizmat ko'rsatish darajasini jahon andozalariga ko'tarish, chetel valutasini tushumini ko'paytirish, Respublikadagi tarixiy va madaniy yodgorliklar haqidagi ma'lumotlarni jahonga yoyish, sayyohlik sohasi uchun kadrlar tayyorlash, yangi ish joylarini tashkil etish kabi qator masalalar bilan shug'ullanadi.

### 10.3. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uni boshqarishni tashkil qilish

Mustaqil O'zbekistonning tashqi bozorga chiqishi, tashqi iqtisodiy faoliyati 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan qonun bilan bog'liqdir.

Bu qonunda tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish tartibi va asosiy prinsiplari belgilangan. Bu qonun tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda katta rol o'ynadi. O'zbekistonda **Tashqi iqtisodiy aloqalar, Investitsiyalar va savdo vazirligi, Respublika tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Bojxona**



**qo'mitasi** tashkil etilishi bilan O'zbekistonda tashqi iqtisodiy kompleksni boshqarish tizimi yaratildi.

Hozirgi paytda respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi, asosan, shakllangan va uning tarkibiga kirgan tashkilotlar faoliyatlari takomillashtirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:**

1) Respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;

2) tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini o'rganish;

3) mulkchilik ko'rinishining turli shakllaridan qat'i nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;


4) milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli isloh etish uchun tashqi iqtisodiy omildan to'liq foydalanish.

Hozirgi kunga kelib, **tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish** Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Ular O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish strategiyasini aniqlaydi, uning normativ bazasini ishlab chiqadi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari harakatiga umumiy rahbarlikni va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:**  
— yagona tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni, xalqaro aloqalarning barcha ishtirokchilari, ya'ni davlat, shirkat, paychilik, jamoat, xususiy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi;

— tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning davlat usullarini ishlab chiqadi va qo'llaydi (bojxona tariflari, eksport kvotalari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat beradi va boshqalar);

— vazirlikka taqdim etilgan ro'yxatga mos keluvchi mahsulot bo'yicha eksport-import operatsiyalarini o'tkazadi;



11-chizma. TIF boshqaruv tizimi.

– tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan tuziladigan tashqi iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarni tekshirishni amalga oshiradi (11-chizma).

«Innovatsiya», «O'zagroimpek», «Interservis», «O'ztashq-rans», «O'zekspomarkaz» – Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tizimidagi yirik tashqi savdo va iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi.

Ular shu tashkilotlar uchun belgilangan mahsulot va xizmat turlari bo'yicha tijorat-xo'jalik faoliyatini amalga oshiradilar.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat banki yoki Respublika Milliy banki:**

- tashqi iqtisodiy operatsiyalarga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlar tuzadi;

- korxonalar, tashkilotlar va xususiy shaxslarning valutilari hisob-kitoblarini olib boradi;

- xorijiy valuta sarmoyalarini jalb etadi, ularga xizmat ko'rsatadi, valutadagi kredit zaxiralarini yig'adi va valutada kreditlashni amalga oshiradi;

- valuta zaxiralarini yaratadi, saqlaydi va respublikaning valuta manfaatlarini himoya qiladi.

1997-yil iyul oyida Respublika Prezidenti Farmoniga asosan **Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi**. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- bojxona masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga hamkorlik qilish;

- respublikaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- bojxona qonunbuzarlari va kontrabandaga qarshi kurashish va boshqalar.

«O'zbekinvest» davlat sug'urta kompaniyasi mamlakat va xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha tashkilotlar hisoblanadi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning tarmoq tashkilotlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi vazirliklar, idoralar,**

yirik korxonalar va tashkilotlarning maxsus bo'linmalaridan tashkil topgan.

Ular tarmoq, idora, korxonalar va tashkilotlar tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi, xorijiy sheriklar bilan shartnoma va bitimlar tuzadi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning aniq yo'nalishlari bo'yicha Respublika Vazirlar Mahkamasiga takliflar tayyorlaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tashkilotlarining tuzilishi hamda ularni tashkiliy-huquqiy mexanizmining ishlab chiqilishi, yaratilishi respublikada boshqarishning ma'muriy usullarini chegaralaydigan liberalizatsiya prinsiplarini hayotga tatbiq qilishni ta'minladi va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish hamda boshqarishni bozor instrumentlari (dastaklari)ning rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi.

**Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:**

- tashqi savdoni liberalizatsiyalash;
- eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish ixtisoslashuvining ustuvorligini ta'minlash;
- tashqaridan respublikamizga sotib olinadigan (import) mahsulotlar ro'yxatini maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqish va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda **funksional tashkilotlar** ham muhim rol o'ynaydi. Bu tashkilotlarga Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Statistika, Soliq va Bojxona qo'mitalari, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi va boshqalar kiradi. Bu tashkilotlarning har biri o'z mas'uliyat doirasiga kiruvchi masalalarni hal etadi va ularning natijasi uchun javobgardir.

Iqtisodiyot vazirligi tashqi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va istiqbolini belgilashni amalga oshiradi, tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotni ichki omillar vositasida ko'tarishga asoslangan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni tayyorlaydi.

**Respublika Moliya vazirligi** respublika valuta zaxiralarini jamlash, taqsimlash va foydalanishga javobgar bo'lib, bu

jarayonlarni boshqarish usullarini ishlab chiqadi va qo'llaydi. Respublika hukumati topshirig'iga ko'ra va tuzilgan bitimlar, shartnomalar asosida valuta fondi hisobidan qanday mablag'larni olish, o'tkazish yoki qo'yishni hal etadi. Vazirlikning Valuta boshqarmasi, shuningdek, respublikaning to'lov balansini ishlab chiqadi.

Unda uning tashqi iqtisodiy faoliyatidan kelib tushadigan barcha daromadlar va xarajatlar aks ettiriladi.

**Respublika soliq qo'mitasi** tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi soliq solish masalalarini tartibga soladi, bu masalalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ishtirokchilari mulkchilikning turli ko'rinishlaridagi korxonalar va tashkilotlar bo'lib qoladi.

Shu jumladan, qo'shma korxonalar ham tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisi bo'lib, ular «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Respublika qonuniga muvofiq xorijiy sheriklar bilan eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlarni tuzishda ma'lum huquqlarga ega.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsati bo'lgan korxonalar va tashkilotlarga ma'lum banklarda o'z valuta hisoblari bo'lishiga va bu mablag'lardan foydalanishga ruxsat berilgan.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, umuman iqtisodiyot sohasini liberalizatsiyalash bo'yicha sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Respublika iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olib va 2000-yil may oyida Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida «**Respublika tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida**» yangi tabriirdagi qonun qabul qilindi.

TIF to'g'risidagi qonunning asosiy vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasining **iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash** uning iqtisodiy suvereniteti va **iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, milliy iqtisodiyot rivojini rag'batlantirish,**

**mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.**

Mazkur qonunda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini, iqtisodiy mustaqilligi va iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzadi;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini ishlab chiqadi.

- Cheteldan olinadigan kreditlar uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolatlarini beradi;

- O'zbekiston Respublikasining chetellardagi mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi **vakolatli davlat organi bo'lib, tashqi iqtisodiy aloqalari, investitsiyalar va savdo** vazirligi hisoblanadi.

Bu organ:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat siyosati olib borilishini, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishiga doir vazifalar bajarilishini ta'minlaydi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizi takomillashtirilishiga doir takliflarni ishlab chiqadi;

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va tartibga solib turadi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruv organlari ishini muvofiqlashtiradi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:**

- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlariga muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

#### *Tayanch iboralar*

- xalqaro hamjamiyat;
- tashqi iqtisodiy faoliyat;
- yuridik shaxslar;
- jismoniy shaxslar;
- tashqi iqtisodiy siyosat;
- ochiq iqtisodiyot;
- yopiq iqtisodiyot;
- baholash mezonlari;
- demonopolizatsiya;
- detsentralizatsiya;
- savdo infrastrukturasi;
- tashqi savdo;
- erkin iqtisodiy zona;
- fan-texnika hamkorligi;
- xalqaro sayyohlik;
- qo'shma korxonalar;
- tashqi iqtisodiy aloqa;
- funksional tashkilotlar;
- vakolatli davlat organi;
- tashqi aloqalar agentligi.

#### *Nazorat savollari*

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Tashqi iqtisodiy siyosat, uning prinsiplari va asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda qanday yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi?

4. *Ochiq iqtisodiyot modeli deganda nimani tushunasiz?*
5. *Tashqi iqtisodiy aloqalarning qanday shakllarini bilasiz?*
6. *Tashqi savdning mohiyati nimada?*
7. *Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish zarurati nimada?*
8. *Xalqaro sayyohlik rivojlanishining qanday yo'nalishlarini bilasiz?*
9. *Fan-texnika sohasidagi qanday hamkorliklarni bilasiz?*
10. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
11. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi to'g'risida nimalar deya olasiz?*
12. *O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, uning vazifalari nimalardan iborat?*
13. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning qanday yo'llarini bilasiz?*

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni.
2. *Karimov I.A.* BMT bosh assambleyasining ming yillik rivojlanish majlisidagi nutqi. Xorijiy ijtimoiy-siyosiy vakillarning munosabatlari va sharxlari. – T.: «O'zbekiston». 2010.
3. Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2012-yil 7-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi qonuni. – T.: 2000.
6. *Mirsaidov M.S.* Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: «Iqtisod-moliya». 2007.
7. *Ishmuxammedov A.E., Asqarova M.T.* «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti». T. 2004.
8. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi 1990–2010-yillar asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari. – T.: «O'zbekiston». 2011.



9. Регионы Узбекистана. Инфраструктура. Конкурентоспособность. Качество жизни. «Экономическое обозрение»ю № 5–6, 2009.

10. *Yusupov A.T., Xodiyev B.Y.* Iqtisodiyot o'zbekcha-ruscha qisqacha lug'ati. T. «O'zbekiston». 2012.

11. *Саидова Г.* «Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке». – Т.: «Узбекистан». 2009.

12. *Yo'ldashev Z.* Milliy iqtisodiyot. – Т.: 2004.

13. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

14. [www.parlament.gov.ru](http://www.parlament.gov.ru)

15. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

16. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)

17. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)

## XI bob. GLOBALLASHUV JARAYONI VA XALQARO IQTISODIYOTGA INTEGRATSIYALASHUV

---

### Reja:

- 11.1. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv rivojlanishning yangi bosqichi.
- 11.2. Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashish jarayonlari, omillari, shakllari va mexanizmi.

### 11.1. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv rivojlanishning yangi bosqichi

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida «Bugun shiddat bilan tez o'zgarayotgan **globallashuv** davrining keskin talablariga, dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan shafqatsiz raqobat kurashiga bardosh bera oladigan, faqat qat'iyatlik bilan oldinga intilayotgan, o'zining uzoqni ko'zlagan taraqqiyot strategiyasiga ega bo'lgan davlatgina rivojlanishning katta yo'lida o'z ezgu maqsadlariga erishmog'i mumkin»<sup>1</sup>, degan edi.

XX asr oxiridagi jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri — bu **globallashuvdir**. Ilgari milliy xo'jaliklar o'rtasidagi munosabatlar ko'proq mintaqaviy tashkilotlar yoki davlatlararo ikkiyoqlama shartnomalar asosida rivojlantirilgan bo'lsa, iqtisodiyotning umumbashariy tus olishi natijasida bu jarayon yanada chuqurlashib, mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro bog'liqlik darajasi ortdi. Globallashuv avvalo, rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda namoyon bo'lib, u keyinchalik o'z ichiga rivojlanayotgan davlatlar milliy xo'jaligini ham qamrab oldi.

Globallashuvning lug'aviy asosi inglizcha *global* — *jahongaroid*, *umumjahon*, degan ma'noni anglatib, dunyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi zamonaviy jarayonlarni umum-

---

<sup>1</sup> «Xalq so'zi» gazetasi 2012-yil, 1-sentabr.

lashtiruvchi ma'noni beradi. Globallashuv dunyoning turli davlatlari taraqqiyotida o'zining ijobiy va ba'zan salbiy ta'sirini ham ko'rsatmoqda. Globallashuv tushunchasi davlatlar o'rtasida tovarlar va ishlab chiqarish omillari hisoblangan mehnat, kapital, moddiy, innovatsion resurslar va tadbirkorlik qobiliyatlarining erkin harakati ta'minlanishi bilan izohlanadi.

Globallashuvning mohiyati jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvi bilan yanada kengaydi. **Baynalmilallashuv** milliy xo'jaliklar faoliyatining, xususan, biror mamlakatdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki iqtisodiy o'sish jarayonlarining bir nechta mamlakat rezidentlari ishtirokida, ko'pmillatli asosda amalga oshirilishini bildiradi.

Boshqacha aytganda, transmilliy kompaniyalar faoliyati milliy xo'jaliklarning taraqqiy etishida salmoqli ta'sirga ega bo'ladi.

Globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishining tarixiy jihatdan tadrijiy natijasidir. **Globallashuvning zamonaviy belgilari quyidagilardan iborat:**

– yangi xorijiy valuta va kapitallar bozorining shakllanib, rivojlanishi; bu bozorlar uzluksiz faoliyatda bo'lib, bir vaqtning o'zida dunyoning turli moliyaviy markazlari o'rtasida yirik moliyaviy va valuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyati mavjud;

– yangi vositalar va dastaklar orqali operatsiyalarning tezligini va ishonchligini ta'minlash imkoniyatining mavjudligi; Internet tarmog'i, uyali telefon aloqasi, axborot tizimi va boshqalar;

– yangi institutsional tizimning shakllanganligi; jahon savdo tashkiloti, transmilliy korporatsiyalar, nodavlat tashkilotlari va h.k.

– yangi qoidalarning ishlab chiqilganligi;

– ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo, xizmatlar va intellektual salohiyatdan foydalanish bo'yicha shartnomalarning tuzilishi hamda bu shartnomalar milliy davlatlar tomonidan amal qilinishi majburiyati yoki milliy qonunchilikning ularga muvofiqlashtirilishi.

Globallashuvni obyektiv zaruriyatga aylantirgan, jahon iqtisodiyotida keyingi 25–30 yillarda chuqurlashgan hamda bir vaqtning o'zida bir nechta yoki o'nlab davlatlarni qamrab olgan **muammolar** mavjud.

Ular xalqaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda, ijtimoiy hayotda paydo bo'lgan, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda shakllangan global muammolar hisoblanadi.

Jahonda termoyadro urushi xavfi, terrorchilik va ekstremizmning avj olishi, rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutlarning ortib borishi, dunyoning ba'zi mintaqalarida aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligi va milliy davlatlarning bu jarayonni yetarli darajada tartibga solish imkoniyatining cheklanganligi, atrof-muhitning ifloslanishi, inson hayoti uchun eng zarur resurslar — oziq-ovqat, energiya manbalari, xomashyolarning ba'zi mintaqalarda tanqisligi ana shunday muammolardan hisoblanadi.

Globallashuv muayyan mamlakatdagi **ishlab chiqarish** kuchlarining sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga o'tishi bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning xalqaro doirada integratsiyalashishi hamdir. Globallashuv xo'jalik yurituvchi birliklarning xalqaro miqyosda kengayishi va jahon iqtisodiyotida salmoqli mavqeni egallashi, tovarlar, xizmatlar, ish kuchi, yangi texnologiya va kapitalning xalqaro miqyosda erkin harakatlanishi, investitsiyalar, moliya-xo'jalik, milliy qadriyatlar, madaniyat va san'at kabi yo'nalishlarda hukumatlar, alohida olingan tashkilotlar, millat va elatlar faoliyatining milliy doirasidan chiqib, erkinlashtirilishi, inson kapitali, xususan, intellektual kapitalning dunyoning taraqqiy etgan markazlariga ko'chib o'tishi jarayonlarini ham bildiradi.

Ilg'or texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot almashuvining qulaylashishi, sovuq urush va siyosiy qutblashuvning barham topishi, transport xizmatining keng miqyosda taraqqiy etishi va mamlakatlar o'rtasida yuk tashish va yo'lovchi qatnovining ortishi kabilar ham jarayonni tezlashtirgan omillardan hisoblanadi.

Globallashuv **jarayoni** ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab olib, pirovardda alohida mamlakatlarni jahon hamjamiyatining turli mintaqalari bilan yaqindan bog'lanishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, yangi bozorlarning (kapital, valuta va sug'urta bozori) ilg'or yangi vositalar — turli **axborot tizimlari**, internet, uyali aloqa orqali yanada uzviy integratsiyalashishini ham ta'minladi.

Globallashuv dunyodagi barcha mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va yo'nalishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu ishchi kuchidan foydalanish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, inson omiliga kapital sarflash sohalarini keng qamrab oladi, natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, mehnat unumdorligi o'sadi, raqobatning keskinlashish tendensiyalari kuchayadi.

Globallashuvning iqtisodiy jihatlari bir qancha yo'nalishlarda, xususan, xalqaro savdo, investitsiyalar moliyaviy va texnologik globallashuvda yaqqol namoyon bo'ladi.

Aytish mumkinki, iqtisodiyotni erkinlashtirish har qanday mamlakatning globallashuv jarayonida faol ishtirok etishi va undan yuqori darajada manfaat ko'rishining asosiy shartlaridan biridir. Iqtisodiy erkinlik, jamiyatning yuqori darajada demokratik fuqarolik jamiyatiga aylanishi globallashuvning muhim ijobiy natijalaridan hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishi va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol bo'lishini taqozo etadi.

Chunki, yangi shart-sharoitlar milliy iqtisodiyotning tashqi omillari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, iqtisodiy o'sishning dinamikligini ta'minlashni, **xalqaro bozor resurslarini** (moliyaviy, texnologik, boshqaruv kabilar) oqilona jalb etishni shart qilib qo'ymoqda.

Globallashuv milliy xo'jaligini qisqa davrlarda shakllantirgan va rivojlantirayotgan O'zbekistonning istiqboldagi taraqqiyoti oldiga dolzarb va keng qamrovli vazifalarni qo'yadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda jahon iqtisodiyotining kapital va ilg'or texnologiyalar sohasidagi salohiyatidan unumli

foydalanish hamda sifatli, raqobatbardosh tovar va xizmatlarni dunyo bozoriga taklif qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## 11.2. Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashish jarayonlari, omillari, shakllari va mexanizmi

**Jahon iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning qamrovi kengayib borayotganligidir.** Bu jarayon rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari nafaqat savdo-sotiq sohasida, balki boshqa ko'lamlarda ham erkinlashib borayotganligi, ularning milliy iqtisodlari tobora ko'proq o'z qobig'ini yorib, bir-biri bilan bog'lanib ketayotganligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonlar quyidagi g'oyat muhim ikki holat natijasi hisoblanadi:

– **bir tomondan**, amaliyotda tobora ko'proq milliy bozorlarning yaratilishi, milliy iqtisodlarning tashqi aloqalarga urg'u berishi;

– **ikkinchi tomondan**, xalqaro xo'jalik munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish yo'lida uchraydigan transport, kommunikatsiya sohaslarida g'ov-to'siqlarni darhol bartaraf etuvchi texnologik innovatsiyalar.

1980-yillarning o'rtalaridan boshlab jahon iqtisodi xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy muomalalar haddan tashqari yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan davrga qadam qo'ydi.

1980-yildan 1996-yilgacha bo'lgan davr ichida xalqaro savdo oboroti hajmi bir yilda o'rtacha 6,5 % ga ortdi va 10 yil ichida 1,9 barobar ko'paydi. Ushbu yillar mobaynida xalqaro xizmatlar savdosi 2,4 marta ko'paydi.

1985–1995-yillar ichida xalqaro savdoning jahon yalpi mahsulotidagi salmog'i oldingi 10 yillikdagiga nisbatan 3 marta va 1996–2010-yillarda esa qariyb 8 marta ko'proq jadallashdi. Bu milliy iqtisodlar kashfi tezlashganidan, ularning bir-biriga muhtojligi kuchayib borganligidan dalolat beradi.

Xuddi ana shu davrda bevosita chetel investitsiyalarining o'sishida jiddiy o'zgarish yuz berdi, ularning jahon yalpi mahsulotidagi salmog'i ikki barobar ko'paydi.

Ishlab chiqarish kuchlarining internatsionallashuvi va buning oliy shakli bo'lmish jahon iqtisodiyotining globallashuvidan iborat umumiy jarayon dunyoning ko'pgina mintaqalarida integratsiya holatlarining rivojlanishi hamda integratsion birlashmalarning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi.

**Iqtisodiy integratsiya** — xo'jalik faoliyatining internatsionallashuvida oliy bosqich bo'lib, o'ziga xos huquqiy tizimlari bilan ajralib turuvchi, ham davlatlararo, ham milliy negizga tayangan bamaslahat siyosat asosida faoliyat ko'rsatuvchi bir butun yagona xo'jalikdir.

Bunga esa turli milliy iqtisodiyotlarning birlashuvi jarayonida erishiladi (misol — Yevropa Ittifoqi).

**Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning** mohiyati milliy xo'jaliklar o'rtasida o'zaro chuqur va barqaror aloqalarni rivojlantirish, mehnat taqsimotini yo'lga qo'yish, ularning turli darajadagi, turli shakllardagi qayta ishlab chiqarish tizimlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatlarning xo'jalik hamda siyosat sohalarida birlashuvi jarayonidan iboratdir.

**Mikro darajada** qo'shni mamlakatlardagi ba'zi xo'jalik subyektlari (korxonalar, firmalar)ning kapitali bir-biri bilan iqtisodiy bitimlar tuzish usullarini shakllantirish, chetelda o'z bo'linmalarini ochish yo'li bilan o'zaro hamkorlik qilish, demakdir.

**Davlatlararo (makro) darajada** esa integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarini muvofiqlashtirish asosida ro'y beradi.

Natijada milliy iqtisodlar bir-birlariga «kirib bormoqda». Xo'jalik asosining internatsionallashuvi yaqqol ko'zga tashlanmoqda — fan-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, moliyat-tijorat faoliyatining ko'p va turli bosqichlari bir-biriga chatishib ketmoqda. Mamlakatlar va xalqlarning iqtisodiy o'zaro bog'liqligi aniq haqiqatga aylanmoqda.

**Iqtisodiy integratsiya asosiga** xo'jalik hayotining o'sib borayotgan internatsionallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, milliy iqtisodning ochiqligi darajasining ortib borishi kabi omillar ham kiradi. Iqtisodiy

integratsiyaning shart-sharoitlari sifatida integratsiyada qatnashayotgan mamlakatlar bozorining rivojlanish darajasini solishtirish, ularning geografik yaqinligi, ular oldida turgan muammolarning umumiyligi, bozor islohotlarini tezlashtirishga intilish, integratsion jarayonlardan chetda qolmaslik kabi xususiyatlarni qayd etib o'tish kerak.

Integratsiyaning eng muhim umumiy iqtisodiy tavsifi quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo miqyosda yo'lga qo'yish.
2. Bir-biridan u yoki bu darajada mustaqil hisoblangan milliy xalq xo'jalik majmualari o'rniga umumiy mutanosiblikka, umumiy qayta ishlab chiqarish tizimiga ega bo'lgan biron mintaqaviy internatsional majmuani asta-sekin shakllantirish.
3. Mintaqa doirasida mahsulotlar, ishchi kuchi, moliyaviy resurslarning davlatlararo harakati uchun hududiy sharoitlarni kengaytirish hamda bunday harakatga monelik qiluvchi ko'pdan-ko'p ma'muriy va iqtisodiy g'ovlarni bartaraf etish.
4. Integratsion birlashmalarda qatnashuvchi davlatlarning ichki iqtisodiy shart-sharoitlarini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning iqtisodiy rivojlantirish darajalarini tenglashtirish.

Odatda, u yoki bu jo'g'rofiy mintaqa, unda joylashgan qo'shni mamlakatlar shunday integratsion birlashmalarning asosiy o'zagini tashkil etadi.

Hozirda qariyb 100 ga yaqin mintaqaviy tashkilotlar va 70 mingdan oshiq millatlararo korporatsiyalar mavjud.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** jahon iqtisodiyotining uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasi bo'lib, bir nechta bosqichlarda rivojlandi:

– **birinchi bosqichda** turli mamlakatlar o'rtasida **erkin savdo** munosabatlari shakllangan va bojxona cheklavlari, eksport kvotalari bekor qilingan bo'lsa;

– **ikkinchi bosqichda** erkin iqtisodiy zonalar shakllantirilib, bunga bir nechta davlatlar a'zo bo'lgan. Erkin iqtisodiy zonalarda nafaqat tovar va xizmatlar, balki sanoat ishlab chiqarishi, bank, sug'urta xizmati va texnologiyalar savdo sotig'ida ham erkin munosabatlarga shart-sharoit yaratilgan;



– **uchinchi bosqichda** a'zo mamlakatlar hududida umumiy bozor shakllantirilib, bu amalda milliy bozorlarning o'zaro qo'shilishini bildirdi;

– umumiy bozor qoidalariga ko'ra, ishchi kuchi, kapital, tovar va xizmatlarning milliy bozorlar o'rtasida erkin harakatlanishi ta'minlandi, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy chegaralarga barham berildi. Umumiy bozor tarixan birinchi marta Yevropada shakllantirilgan bo'lib, rasman bu bozorning barpo etilganligi 1957-yilda tasdiqlangan;

– **to'rtinchi bosqichda iqtisodiy va valuta ittifoqi** doirasida rivojlangan bo'lib, bu tizimda davlatlar o'rtasida moliya, pul muomalasi va bank xizmati sohasida integratsiyalashuv ro'y bergan. Jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo 15 davlatdan 12 tasida yagona pul birligi – yevro 2001-yildan to'la amal qila boshladi va milliy pul birliklari muomaladan chiqmoqda. Hozirda Yevropa Ittifoqida yagona soliq tizimi, milliy budjetlar bilan yonma-yon yagona budjet tizimi ham joriy qilingan.

– **beshinchii bosqichda** davlatlar o'rtasida siyosiy butunlikni ta'minlash tendensiyalari kuchayib, integratsion birlashmaga a'zo davlatlar xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga nisbatan yagona yondashuvini ishlab chiqadi.

Bu keyingi o'n yillikda Yevropa Ittifoqining siyosiy tashkiliy tuzilmalari (Yevropa parlamenti, Yevropa komissiyasi, YEXHT kabilar) faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro integratsion aloqalarning yo'lga qo'yilishi a'zo mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun moddiy, moliyaviy, mehnat, ilmiy-texnik va innovatsion resurslardan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Bundan tashqari, milliy bozorlarning yaqinlashishi va qo'shilib ketishi natijasida tovar ishlab chiqaruvchilari **miqyos** samarasidan foydalanadi, ijtimoiy va ekologik muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Jahon iqtisodiyoti rivojida keyingi davrda mehnat taqsimotining yanada chuqurlashishi, axborot almashish tezligining ortishi va ko'lamining kengayishi, aloqa va transport xizmat-

larining baynalmilallashuvi integratsion aloqalarni yangi, sifat bosqichiga olib chiqmoqda.

Hozirgi davrga kelib, jahon iqtisodiyoti milliy xo'jaliklar va mintaqaviy integratsion birlashmalarning ma'lum ma'noda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar, moliya-sanoat guruhleri hamda milliy hukumatlar tomonidan tartibga solinadigan munosabatlari tizimidan iborat bo'lmoqda. Iqtisodiyotning baynalmilallashuvi, jahon bozorlarining shakllanishi, milliy xo'jaliklarning bir-biriga yaqinlashishi va qo'shib ketishi obyektiv tarixiy mazmun kasb etmoqda.

O'tgan asrda xalqaro iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlandi va milliy xo'jaliklarning taraqqiyot yo'nalishlariga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Tovar va xizmatlar savdosi, kapital chiqarish va kiritish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnika hamkorligi va ishchi kuchi migratsiyasi kabi yo'nalishlarni qamrab olgan tashqi iqtisodiy aloqalar miqdor va sifat jihatidan keskin o'sdi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va baynalmilallashuvi doirasi kengaydi.

Ayniqsa, **transmilliy kapitalning** faoliyati milliy xo'jaliklar tizimi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Keyingi yillarda jahonning yalpi mahsuloti o'sish sur'atlariga nisbatan yalpi eksport hajmi o'sish sur'atlari yuqori bo'lmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashib borishida ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning natijalarini ishlab chiqarishda qo'llashning roli ortib bormoqda. Zamonaviy fan, texnika-texnologiya taraqqiyoti **yangi turdagi tovarlar va xizmatlarni** ishlab chiqarish miqyosini shu darajada kengaytirish imkoniyatini bermoqdaki, natijada, bir tomondan, milliy bozorlar torligi muammosi kelib chiqmoqda, mintaqaviy bozorlarni kengaytirish va xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurati yanada ortmoqda, ikkinchi tomondan esa, mamlakatlarning ilmiy-texnika sohasida o'zaro hamkorlik qilishlari dolzarb vazifaga aylanmoqda.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** hozirgi davrda tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashishni emas, balki tarmoq ichi ishlab chiqarishga ixtisoslashishni taqozo etmoqda. Avtomobillar, kompyuterlar

va boshqa maishiy texnikalarni ishlab chiqarishda bir necha mamlakatlar o'zaro kooperatsiya aloqalarini birgalikda tashkil etmoqdalar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jadallashishiga **axborot va kommunikatsiya** vositalarining rivojlanishi ham katta ijobiy turtki bo'lmoqda.

Natijada, yangi texnika va texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar hamda yangiliklar dunyoning istalgan mintaqasiga yoki davlatiga qisqa muddatlarda yetib bormoqda va keng tatbiq etilmoqda, bu kapital va ishchi kuchining mobilligi darajasini ham oshirmoqda.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarida xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojida **moliya kapitalining** roli ortdi. Jahon moliya bozori markazlarining mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati ularning yirik xususiy va davlat investitsion loyihalarini amalga oshirishga qulay **moliyaviy** shart-sharoitlar yaratishi bilan bog'liqdir.

**Turli** moliyaviy dastaklarning ortib borishi xalqaro moliyaviy tizimning takomillashishiga va milliy chegaralardan tashqarida moliyaviy munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi.

**Xalqaro valuta bozorining** institutsional tarkibiy qismi bo'lgan banklar, valuta birjalari, brokerlik idoralari, boshqa moliyaviy muassasalar dunyoning istalgan nuqtasida faoliyat yuritishga ega bo'lyaptiki, bu xalqaro iqtisodiy integratsiyaning yanada rivojlanishiga shart-sharoit yaratmoqda.

London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt-Mayn, Singapur kabi jahon valuta bozori markazlari nafaqat o'zlari joylashgan mintaqalarda, balki boshqa mintaqalarda ham integratsion aloqalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashishi bir qator **obyektiv omillarning ta'siri bilan izohlanadi**. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashishi, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi;

- mintaqaviy integratsion aloqalarning mustahkamlanishi va kengayishi;
- xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvi;
- transmilliy kompaniyalar va moliya-sanoat guruhlarining tashkil topishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti alohida olingan mamlakatning mahsulot va xizmatlar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashishini bildiradi. Mamlakatlararo ixtisoslashuv va kooperatsiya bo'lganligi sababli milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvi sodir bo'lmoqda.

Bu, o'z navbatida, transmilliy korporatsiyalar, moliya-sanoat guruhlari va boshqa tashkiliy-hududiy tizimlar shakllanishiga olib kelmoqda.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining zamonaviy bosqichida kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish evaziga ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi yangi sifat bosqichiga o'tdi.

Mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy va ilg'or texnologik mahsulotlarning ayirboshlanishi jadallashdi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro miqyosda yangi kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va markazlari, moliya-sanoat guruhlari shakllandi va rivojlandi.

Globalashuv jarayonida ilgari shakllangan integratsion birlashmalar faoliyati takomillashgan bo'lib, undan tashqari **yangi tuzilmalar paydo bo'ldi.**

Agar Yevropa Ittifoqi, NAFTA, OPEK, MDH, BRIK, BRIKS kabi integratsion tashkilotlar faoliyati kengaygan yoki chuqurlashgan bo'lsa, Jahon banki, Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi kabi xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning funksiyalari kengaydi, ularning milliy iqtisodiyotlar rivojlanishidagi roli oshdi.

Globalashuv jarayonining **keyingi bosqichida jahon bozori va uning segmentlarining** ahamiyati ortmoqda.

Bular jahon tovar va xizmatlar bozori, kapital, qimmatli qog'ozlar, mehnat, axborot hamda texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar (patent va litsenziyalar), valuta va pul-kredit bozorlaridir.

Qayd etilgan bozorlar o'zaro bog'langan va mintaqaviy hamda kontinental doirada murakkab amal qilish tizimini tashkil etadi. Natijada ishlab chiqarish va iqtisodiy sohadagi mehnat taqsimoti ana shu bozorlarning amal qilish xususiyatlari va yo'nalishlari ta'sirida chuqurlashdi.

Globalashuv jarayonidagi jadal rivojlanish tendensiyasiga ega yo'nalishlardan biri bu — **transmilliy kompaniyalar** faoliyatining kengayishi va milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotidagi ta'siri kuchayganligidir. **Transmilliylanish** — bu xususiy firmalar doirasida amalga oshayotgan davlatlararo integratsiyalashish hisoblanadi.

BMT yondoshuviga ko'ra, transmilliy **kompaniyalar maqomi quyidagi kompaniyalarga beriladi:**

— faoliyat turi va yuridik maqomidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatda o'z shu'ba korxonasiga ega kompaniyalar;

— o'zlarining xorijiy firmalari faoliyatini muvofiqlashtirib, boshqarib turgan kompaniyalar.

Transmilliy kompaniyalar faoliyati milliy iqtisodiyotlarni geografik joylashuviga ko'ra emas, balki takror ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro mosligi va uyg'unligidan kelib chiqib bir-biriga bog'laydi.

Hozirgi kunda dunyoda 40 mingdan oshiq transmilliy kompaniyalar (TMK) faoliyat ko'rsatadi, shundan 500 tasi jahon xo'jaligida, xususan, milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotida salmoqli mavqeni egallaydi.

Mazkur 500 TMK dunyo ishlab chiqarishining qariyb 50 foizi va savdosining taxminan 60 foizini nazorat qiladi. Jumladan, bu TMK lar dunyo bug'doy, kofe, makkajo'xori, tamaki, yog'och materiallari, temir rudasi savdosining 90 foizini, mis va boksit savdosining 85 foizi, tabiiy kauchuk va neft xomashyosi savdosining 75 foizini nazorat qilmoqda.

Transmilliy kompaniyalarda yirik kapitalning jamlanishi bozordagi mavqeyini mustahkamlash bilan birga texnik va texnologik taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirishga imkon bermoqda.

Shu sababli yangi texnika va zamonaviy texnologiyalar patenti va litsenziyalari hajmining qariyb 80 foizi ular hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda har bir tarmoqda 2–3 TMK jahon bozorida hukmron mavqeni egallaydi. Masalan, yiliga 16 ming dona yo'lovchi samolyoti sotiladigan va umumiy hajmi deyarli 1 trln. AQSH dollariga teng dunyo bozorida amerikaning «Boing» va Yevropaning «Eyrbus industri» kompaniyalari hukmron mavqega ega.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, integratsion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi.

Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa, mantiqiy **ketma-ketlikda bosqichma-bosqich shakllanadi.**

Integratsion munosabatlarning amal qilishi, asosan, **quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:**

- tovar va xizmatlar xalqaro savdosi;
- ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik;
- xalqaro ilmiy-texnika hamkorligi;
- mintaqaviy integratsion birlashmalarning shakllanishi va rivojlanishi.

Xalqaro savdo dunyodagi barcha mamlakatlarning tashqi savdosini qamrab oluvchi jamlama tushuncha bo'lib, xalqaro tovar-pul munosabatlari sohasi hisoblanadi.

Bu bozorda xaridor va sotuvchilar sifatida davlat, davlat korxonalari, transmilliy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, turli firmalar, alohida jismoniy shaxslar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Mamlakatlar o'zaro integratsion aloqalarining asosini **tovar va xizmatlar** savdosi tashkil etadi.

Shu sababli ular mazkur savdo aloqalarini erkinlashtirish, o'zaro qulay savdo shart-sharoitlari yaratish, protektsionistik vositalarga barham berish, tarifli savdo tartibini takomillashtirib borish, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish kabilar orqali integratsion munosabatlarini tartibga solish va rag'batlantirishga harakat qiladilar.

Integratsiyaning muhim mexanizmlaridan yana biri ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishdagi xalqaro hamkorlik hisoblanadi. Buning asosida alohida tovarlar guruhi, tovar yoki tovar qismini ishlab chiqarishda tarmoq va tarmoq ichi ixtisoslashuvi yotadi. Boshqacha aytganda, u yoki bu mamlakat yuqori mehnat unumdorligiga erishish, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va xarajatlarini imkon qadar kamaytirish uchun muayyan ishlab chiqarish yo'nalishiga ixtisoslashadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **xalqaro hamkorlikning asosiy shakllari tovar ishlab chiqarish va sotishdagi kooperatsiya, korxonalariga birgalikda egalik qilish (qo'shma korxonalar), qurilish sohasidagi konsorsiumlar tashkil etish kabilar hisoblanadi.**

Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik integratsion aloqalarda o'zining barqarorligi va doimiyligi bilan, loyihalarni keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli shartnomalar asosida bunday hamkorlikni nafaqat rivojlangan davlatlar o'rtasida, balki taraqqiyot darajasida tafovut katta bo'lgan sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ham rivojlantirib borish imkoniyati keng hisoblanadi.

Xalqaro integratsiyada **ilmiy-texnika hamkorligining** ahamiyati so'nggi o'n yilliklarda ortib bormoqda. Chunki, ilmiy-texnika taraqqiyoti milliy xo'jaliklarning jadal rivojlanishiga, ijtimoiy-maishiy muammolarni nisbatan tez hal qilishga imkoniyat yaratmoqda.

Ilmiy-texnika hamkorligi **ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, texnik va muhandis xodimlar guruhini shakllantirish hamda qo'shma loyihalarda qatnashish, ilmiy-tadqiqot markazlari, laboratoriyalari, byurolari tashkil etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabilar namoyon bo'lmoqda.**

Ayni vaqtda, dunyo mamlakatlarining ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyati jahonning muayyan markazlarida to'planib qolishi tendensiyasi kuchaymoqda.

Bu markazlar, asosan, AQSH, Yevropa va Janubiy-sharqiy Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya kabilar) hisoblanadi. Rivojla-

nishning hozirgi bosqichida ilmiy-texnika taraqqiyotini jadal-  
lashtirish ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va  
takomillashtirish oldiga yuqori innovatsion salohiyatni, yuqori  
ilmiy malakali xodimlarni, chuqur fundamental va ilmiy  
tadqiqotlar majmuasini shakllantirish talabini qo'ymoqda. Bu,  
o'z navbatida, mamlakatlarning axborot ta'minoti va alma-  
shinuvida, ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda  
hamkorlikda ishlashini taqozo etmoqda.

Mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar savdosini kengay-  
tirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini ta'minlash, ilmiy-texnika  
hamkorligini chuqurlashtirish ularning hududiy jihatdan yaqin  
bo'lishini obyektiv zaruratga aylantirgan. Shu sababli, rivojlanish  
darajasidan qat'i nazar, ba'zi mamlakatlar **hududiy integratsion  
aloqalarni shakllantirgan.**

**Integratsiya yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'lanadi.** Ulardan  
birinchisi, mintaqa, **ikkinchisi**, xalqaro miqyosdagi integ-  
ratsiyadir. Integratsiyaning ana shu ko'rinishlari o'zaro to'ldiruv-  
chanlik xususiyatiga ega.

Mintaqaviy va xalqaro integratsiyadan maqsad iqtisodiy va  
ijtimoiy jihatdan mamlakatlarning manfaatlarini yanada kengroq  
ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Mamlakatlarning geografik joylashgan o'rni, ijtimoiy-  
iqtisodiy rivojlanish darajasi va shu kabi boshqa omillar  
integratsiyaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan  
integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, mintaqaviy integ-  
ratsiyani ustun takomillashtirib boradi.

Bunga Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo  
hududi (NAFTA), Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi,  
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va boshqalarni misol  
qilib ko'rsatish mumkin.

Mamlakatlarning **mintaqa miqyosida** integratsiyalashuvi  
orqali xalqaro integratsiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-  
sharoitlar yaratilib boriladi. Chunki, mamlakatlar o'rtasidagi  
o'zaro savdo mintaqaviy integratsiyaning rivoji uchun asos  
bo'lgani singari, mintaqaviy integratsiya ham xalqaro integ-  
ratsiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi.



**Mintaqaviy** doirada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o'zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to'siqlarni bartaraf qiladi. Shundan so'ng, **yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integratsiyaga a'zo mamlakatlar uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib, uning to'la amal qilishiga erishiladi.**

Bu jarayon mamlakatlardagi ishlab chiqarishning rivojlantirishini yanada rag'batlantirish uchun, soliq tizimidagi imtiyoz va turli cheklovlarni bekor qilish maqsadida, integratsion hududga kiruvchi davlatlarda soliq stavkalarining yaqinlashtirilishini ham taqozo etadi.

**Bojxona bojlari va soliq stavkalarining yaqinlashtirilishi yoki tenglashtirilishi hududiy doirada ishlab chiqarishni rag'batlantirib, miqyos samarasiga olib keladi.**

Integratsion hududga kiruvchi mamlakatlarning birortasidagi iste'mol hajmining ko'payishi, ishsizlikning ortishi, daromadlar miqdorining o'zgarishi kabi tendensiyalar qolgan mamlakatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bu, o'z navbatida, integratsion birlashma doirasida institutsional mexanizmning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqining siyosiy-tashkiliy tuzilmalari (Yevropa parlamenti, Yevropa komissiyasi, EXHT kabilar), iqtisodiy-tashkiliy tizimi (yagona pul birligi, yagona budjet, iqtisodiy qo'mitalar) faoliyati bunga yaqqol misol bo'ladi (20-jadval).

O'zbekiston a'zo bo'lib kirgan integratsion birlashmalarning ham shakllangan va **rivojlanayotgan mexanizmi mavjud.** YevrAzYeS, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ular amal qilishining iqtisodiy mexanizmlari ham rivojlanmoqda.

Biroq, aytish kerakki, bu integratsion tuzilmalar bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, milliy xo'jaliklarning tub iqtisodiy manfaatlariga to'la javob berishi va milliy davlatchilik asoslariga zid bo'lmasligi maqsadga muvofiq.

Aks holda, ular muvaffaqiyatli amal qilmaydi, davlatlar o'rtasidagi integratsion munosabatlar takomillashmaydi.

Jahondagi ba'zi integratsion birlashmalarning tarkibi va shakllari

Integratsiyala-shuv shakli	Integratsion birlashmaning nomi	Integratsion birlashmaning tashkil topish sanasi	Integratsion birlashmaga a'zo davlatlar soni
Erkin savdo zonalari	1. Yevropa Erkin savdo Uyushmasi (EESU)	1960	4
	2. Shimoliy Amerika Erkin savdo Uyushmasi (NAFTA)	1994	3
Bojxona ittifoqlari	1. Ening Turkiya bilan shartnomasi	1963	20+1
	2. Arab umumiy bozori (ASM)	1964	7
Umumiy bozor	1. Janubiy Konus umumiy bozori (MERKOSUR)	1991	14
	2. Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi	1981	6
Iqtisodiy ittifoqlar	1. Yevropa Ittifoqi	1957	27
	2. Benilyuks iqtisodiy ittifoqi	1948	3
Erkin savdo hududlarini tashkil etish arafasida bo'lganlar	1. Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN)	1967	10
	2. Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi	1989	21
Iqtisodiy hamkorlik	1. BRIK	2001	4
	2. BRIKS	2011	5

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining chuqurlashuvi mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, bir hududda joylashgan mamlakatlar o'rtasida **integratsion aloqalarning** faollashuviga olib kelmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy integratsiya tashkilotlariga a'zo mamlakatlarning globallashuv sharoitlariga moslashishi, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan foydalanish samarali tarzda kechmoqda.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi turli xalqaro va hududiy integratsion tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish orqali mamlakatimizda mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, jahon xo'jalik tizimida o'ziga xos o'rin egallashga harakat qilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti** kabi xalqaro va hududiy integratsiya tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi.

Bu esa respublikamiz uchun dolzarb hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mustahkam hamkorlik munosabatlari shakllangan.

Mamlakatlar iqtisodiyoti asosiy va yetakchi tarmoqlarining o'xshashligi, ularning yaxlit hududiy birlikka ega ekanligi, suv va energetika manbalarining yagonaligi va ulardan birgalikda foydalanish zaruriyati, yagona transport va kommunikatsiya tizimining mavjudligi, ekologik muammolarning o'xshashligi mintaqa respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy bo'lishini ta'minlaydi.

Mintaqa xalqlarning diniy, madaniy, til, urf-odat, an'ana va ma'naviy birligi esa hamkorlik aloqalarining yanada chuqurroq va har tomonlama bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib, mustaqillikni mustahkamlash, iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy qilish va jahon iqtisodiyoti tizimida o'z

o'rnini egallash g'oyalari Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini birlashtirishni taqozo qilmoqda.

Mintaqa davlatlari orasida o'zaro manfaatdorlik va ixtiyoriylikka asoslangan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish barcha respublikalarda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlari tomonidan mintaqa mamlakatlari o'rtasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1994-yil aprelda **yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi** mintaqada o'zaro hamkorlik aloqalari va integratsion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan jiddiy amaliy qadam bo'ldi.

Bu shartnomani imzolashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining mintaqa bo'ylab erkin harakatini ta'minlash, kelishilgan soliq, budget, narx, bojxona va valuta siyosatini yuritishdan iborat edi.

Mintaqa davlatlari rahbarlari 1996-yil 5-aprelda yoqilg'i energetika va suv resurslaridan foydalanish, Markaziy Osiyo mintaqasida gaz quvurlarini qurish va ishga tushirish to'g'risidagi bitimga imzo chekdilar.

Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston 1998-yil 17-martda Sirdaryo havzasining suv-energetika resurslaridan foydalanish to'g'risidagi uzoq muddatli shartnomani imzoladilar. Bir yildan so'ng bu shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi va 1998-yil 26-martda mazkur respublika va Yagona iqtisodiy hudud to'g'risidagi shartnomaning to'laqonli a'zosiga aylandi.

Mazkur yilning o'zida ushbu «to'rtlik» davlatlari **Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi tashkilotiga** asos soldi. Bu tashkilot doirasidagi vazifalarni hal etish uchun Davlatlararo Kengash, Bosh vazirlar, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari Kengashi, tashkilotning ishchi organi — Ijroiya qo'mita kabi instituttsional tuzilmalar tashkil etildi.

Bundan tashqari, a'zo davlatlarining ulushlari hisobiga Markaziy Osiyo banki barpo etildi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi tashkilotiga a'zo davlatlar boshliqlari 1999-yilning iyun oyida Bishkekda Bojxona ittifoqini tuzishga erishish to'g'risidagi fikrni ilgari surdilar.

Bir yildan so'ng esa Dushanbeda «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligining 2005-yilgacha mo'ljallangan integratsion rivojlanish Strategiyasi»ni tasdiqladilar.

Ushbu hujjatda hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar iqtisodiyoti integratsiyasi har bir mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari va xavfsizlik ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv jarayon ekanligi ta'kidlandi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligiga a'zo davlatlar rahbarlari 2001-yil dekabrda Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida mintaqaviy integratsiya shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligini «**Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti**» (MOHT) ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildilar.

Olmaota shahrida 2002-yil 28-fevralda bo'lib o'tgan uchrashuvda esa Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari «Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti»ni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

MOHT rahbarlarining uchrashuvlarida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini faollashtirish, ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlarda mavjud eng dolzarb muammolarni hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalaridagi ijobiy holat shundan iboratki, respublikamiz ushbu mamlakatlar bilan tashqi savdoda **ijobiy saldoga** ega.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalaridagi o'zgarishlar natijasida mintaqa mamlakatlari bilan o'zaro savdo aloqalarining jami savdo aloqalaridagi salmog'ida tegishli o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bog'liqligini yanada kuchaytirish lozim, chunki Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston uchun qator afzalliklarga ega.

**Birinchidan**, respublikamiz geografik nuqtayi nazardan **anklav davlat** hisoblanadi. Boshqacha aytganda, O'zbekistondan bevosita dengiz yo'llariga chiqish imkoniyati mavjud emas.

Bu, o'z navbatida, transport xarajatlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish esa katta transport xarajatlarini talab qilmaydi.

**Ikkinchidan**, Markaziy Osiyo O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar **energiya va material sig'imining** yuqoriligi, sifat darajasining nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli tayyor mahsulotlarni xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor yetarli darajada to'yinmagan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa O'zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

**Uchinchidan**, mintaqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzavot, ko'mir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi.

Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo'yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va ularni eksport qilish bo'yicha yagona siyosatni yurgizish maqsadga muvofiq.

Agar mintaqadagi respublikalar jahon bozoriga alohida chiqsa, ular o'zaro raqobatchiga aylanadilar, ularning birgalikda chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotining **bozor konyukturasiga** bog'liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

**To'rtinchidan,** Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarining faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag'lar talab etuvchi ulkan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ta'kidlash lozimki, savdo aloqalari mintaqada integratsion aloqalar rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Savdo aloqalarining rivojlanishi esa Markaziy Osiyoda bosqichmabosqich erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

– mintaqada integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida, eng avvalo, **milliy xo'jaliklarning tarmoq tarkibi** takomillashadi, chunki iqtisodiy hudud doirasida moddiy ishlab chiqarishning samarali tarmoqlarini tanlash va kapital qo'yilmalarni iqtisod qilgan holda import qilish maqsadga muvofiq bo'lgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan voz kechish imkoniyati paydo bo'ladi;

– mintaqaviy integratsion tashkilotga a'zo bo'lgan har bir mamlakatda zamonaviy ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi, mahsulot ishlab chiqarishning texnik darajasi va sifati yaxshilanadi;

– fan va texnika sohasida yagona siyosat yuritish va integratsiyaning chuqurlashuvi natijasida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va uning natijalarini amaliyotga joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi;

– mintaqada doirasida tovarlar umumiy bozorining shakllanishi natijasida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi oshadi. Yirik miqdorda ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yagona eksport siyosati yuritish natijasida esa ularning jahon bozoridagi mavqeyi yaxshilanadi, jahon bozori konyunkturasidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun imkoniyat paydo bo'ladi;

– Markaziy Osiyo bo'yicha xizmatlar umumiy bozorining shakllanishi **gorizontal iqtisodiy aloqalar** rivojlanishini ta'minlaydi, qo'shma korxonalar, birlashmalar, firmalar tuzish imkoniyati yaxshilanadi. Natijada yangi, samarali xo'jalik aloqalari vujudga keladi va rivojlanadi;

– mehnat resurslari umumiy bozorining shakllanishi natijasida mamlakatlararo ishchi kuchi harakati faollashadi, kadrlar tayyorlash va ulardan foydalanish samaradorligi oshadi, bandlik tarkibi takomillashadi.

MDH mamlakatlari bilan **ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlarini** rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz dastlabki yillardanoq hamdo'stlik tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning muassislaridan biri sifatida qatnashdi.

1991-yilning dekabr oyida Belorussiya, Ukraina va Rossiya Federatsiyasi davlat rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini barpo etish to'g'risidagi bitimni imzoladilar.

Bu bitimda sobiq Ittifoqning xalqaro huquq va geosiyosiy tizim sifatida barham topganligi va MDH tashkil topganligi e'lon qilindi.

Belorussiya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston va Ukraina MDHga a'zo bo'lib kirdi.

1992-yilda Armaniston, Moldova, Qirg'iziston va O'zbekiston, 1993-yilda Ozarbayjon va Gruziya MDHga a'zo bo'ldi.

MDH faoliyatining dastlabki (1991–1994-yillarda) Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlarda milliy manfaatlar ustuvor o'ringa ega bo'ldi. Buning natijasida o'zaro tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada zaiflashdi.

MDH mamlakatlarining aksariyati uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ustuvorlik berdi. Ekspertlarning fikricha, sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning buzilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi 35–40 foizga kamaydi.

MDH doirasida qabul qilingan dastlabki hujjat **Iqtisodiy ittifoq** to'g'risidagi hujjat hisoblanadi (1993-yil sentabr). Mazkur



hujjatda iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning quyidagi asosiy bosqichlari belgidab berildi:

- davlatlararo (ko'p tomonlama) erkin savdo uyushmasi;
- bojxona ittifoqi;
- tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi umumiy bozori;
- valuta (pul) ittifoqi.

1994-yilning aprelida **erkin savdo zonasi**, 1994-yilning oktabrida **to'lov ittifoqi** va Iqtisodiy ittifoqning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi sifatida **Davlatlararo Iqtisodiy Qo'mita (DIQ)** tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolandi.

Uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida yuzaga kelgan chuqur integratsion aloqalar, ishlab chiqarishning mamlakatlar bo'yicha ixtisoslashuvi, korxonalar va tarmoqlar darajasidagi keng tarmoqli kooperatsiya, umumiy infratuzilmaning mavjudligi MDH tashkil topishining obyektiv asosi hisoblanadi.

MDH ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, ular MDHga a'zo mamlakatlarga yirik raqobat afzalliklarini taqdim etadi va jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallashga imkoniyat yaratadi. Yer shari **hududining 16,3 foizi, jahon aholisining 5 foizi, jahon sanoat ishlab chiqarishining 10 foizi MDH hissasiga to'g'ri keladi.**

Hamdo'stlik hududida jahon bozorida talab yuqori hisoblangan tabiiy resurslarining yirik zaxiralari mavjud. Faqat Rossiyada aniqlangan neft zaxiralari jahon neft zaxiralari 13 foizini tashkil etadi.

Ozarbayjonda bu ko'rsatkich 10 foizdan ko'proqqa, Qozog'iston va Turkmanistonda qariyb 10 foizga teng. Rossiyada jahon gaz zaxiralari 35 foizi joylashgan bo'lsa, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonda birgalikda qariyb 20 foiz gaz zaxiralari joylashgan.

Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya, Ukraina va Qozog'iston jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi.

Olmos, boksit, mis, nikel, kobalt va qo'rg'oshin rudalarining asosiy zaxiralari Rossiyada joylashgan bo'lsa, temir rudalari,

boksitlar va mis rudalarining yirik zaxiralari Ukraina, Qozog'iston va Gruziyada joylashgan. Rossiya va Belorusiyada eng yirik o'rmon hududlari (yer sharidagi o'rmonlarning to'rtidan bir qismi) va kaliy tuzining eng yirik zaxiralari mavjud.

Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyoni tutashtiruvchi eng qisqa quruqlik va dengiz (Shimoliy muz okeani orqali) yo'li MDH hududidan o'tib, u XXI asrda eng muhim global iqtisodiy markazga aylanadi.

MDH ning raqobatbardosh resurslari jumlasiga, shuningdek, arzon ishchi kuchi va energiya resurslarini kiritish mumkin. Hamdo'stlik bo'yicha har yili jahon elektr quvvatining 10 foizi ishlab chiqariladi va bu iqtisodiy o'sish uchun muhim shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

MDH ga a'zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining strategik maqsadlari xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish, MDH ga kiruvchi barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini yaxshilash hisoblanadi.

Garchi, MDH doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish sohasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, unga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi past darajada qolmoqda. Sobiq Ittifoqda respublikalararo tovar aylanmasi ittifoqdosh respublikalar jami tashqi savdo aylanmasining 69 foizini, Yevropa Ittifoqida unga a'zo mamlakatlar o'zaro tashqi savdo aylanmasining jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 62 foizni tashkil etsa, MDH da bu ko'rsatkich 28 foizga teng, xolos.

MDH doirasida qabul qilingan bitimlar va shartnomalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinmoqda:

– integratsion aloqalarni rivojlantirish ixtiyoriylik asosida, ham ikki yoqlama, ham ko'p tomonlama shartnomalardan foydalanish yordamida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda;

– hududiy integratsiya o‘zaro manfaatdorlikka asoslanmoqda va hamkor davlatlarga ziyon yetkazmaslikka alohida e’tibor qaratilmoqda;

– zaruriyat tug‘ilganda, MDH a‘zolariga ularning mas’uliyati ostida va aniq iqtisodiy natijalarni ko‘zda tutib jamoaviy yordam ko‘rsatilmoqda;

– hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlar rag‘batlantirilmoqda va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatilmoqda;

– mamlakatlararo munosabatlarda bozor subyektlari orasidagi gorizontaal aloqalarga ustuvorlik berilmoqda, mikro-darajadagi integratsion aloqalarni, iqtisodiy hamkorlikning yangi-yangi shakllarini keng ko‘lamda rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiyaga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammo tashkiliy-huquqiy asos va hamkorlikka a‘zo mamlakatlar o‘zaro harakat mexanizmining takomillashmagani hisoblanadi.

Shuningdek, MDHga a‘zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi kabi omillar ham integratsiya imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

Erkin savdo zonalarini tashkil etish, to‘lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsiya va axborot makonini barpo etish, ilmiy-texnika va texnologik hamkorlikni takomillashtirish asosida umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish orqali MDHga a‘zo mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion aloqalarni yanada rivojlantirish mumkin.

A‘zo mamlakatlarning investitsiya salohiyatlari integratsiyasi va Hamdo‘stlik doirasida kapital oqimini samarali yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

***Tayanch iboralar:***

- *globallashuv;*
- *globallashuv jarayoni;*
- *baynalmilallashuv;*
- *kapital, valuta va sug‘urta bozori;*

- *axborot tuzilmalari;*
- *xalqaro bozor resurslari (moliyaviy texnologik boshqaruv);*
- *integratsiya;*
- *integratsiya jarayoni;*
- *iqtisodiy integratsiya;*
- *xalqaro iqtisodiy integratsiya;*
- *mikrodarajadagi integratsiya;*
- *makrodarajadagi integratsiya;*
- *iqtisodiy integratsiya asoslari;*
- *erkin iqtisodiy zona;*
- *valuta ittifoqi;*
- *xalqaro mehnat taqsimoti;*
- *moliya kapitali;*
- *xalqaro valuta bozorining tarkibiy qismlari;*
- *transmilliy kapital;*
- *transmilliylashtirish;*
- *xalqaro hamkorlik;*
- *ishlab chiqarish sohalaridagi xalqaro hamkorlik (kooperatsiya, qo'shma korxonalar konsortsium);*
- *ilmiy-texnika xalqaro hamkorligi;*
- *mintaqa integratsiya;*
- *xalqaro miqyosidagi integratsiya;*
- *integratsion aloqalar;*
- *markaziy Osiyo iqtisodiy Hamdo'stligi Tashkiloti;*
- *erkin savdo zonasi;*
- *MDH davlatlari orasidagi iqtisodiy integratsiya.*

#### **Nazorat savollari**

1. *Globalashuv mohiyati, uning muommalari.*
2. *Globalashuvning zamonaviy belgilari.*
3. *Globalashuv jarayoni.*
4. *Kapital, valuta va sug'urta bozori.*
5. *Axborot tizimlari (Internet, uyali aloqa orqali integratsiyalashuv).*
6. *Xalqaro bozor resurslari (moliyaviy, texnologik, boshqaruv kabilar).*
7. *Integratsiya jarayonlari.*
8. *Integratsiya holatlarining rivojlanishi va integratsiya birlashmalarining paydo bo'lishi.*
9. *Iqtisodiy integratsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya, mikro va makrodarajadagi integratsiya.*

10. *Iqtisodiy integratsiya asosi. Xalqaro mehnat taqsimoti, uning chuqurlashuvi, FTT, Milliy iqtisodiyotning ochiqligi darajasining ortib borishi.*
11. *Xalqaro iqtisodiy integratsiya va rivojlanish bosqichlari.*
12. *Xalqaro iqtisodiy integratsiya jadallashishning axborot va kommunikatsiya vositalarini ta'siri.*
13. *Xalqaro iqtisodiy integratsiyani rivojlanishiga banklar, valuta birjalari, brokerlik idoralari va boshqa moliyaviy institutlarni ta'siri.*
14. *Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga ta'sir etuvchi omillar.*
15. *Globalashuv jarayonidagi integratsion birlashmalar va yangi tuzilmalar (Yevropa Ittifoqi, NAFTA, OPEK, MDH, Jahon banki, Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqalar).*
16. *Globalashuv jarayoni va transmilliy kompaniyalar.*
17. *Integratsion munosabatlarning amal qilish shakllari.*
18. *Integratsiya yo'qolishlar: Mintaqa va xalqaro miqiyosidagi integratsiya.*
19. *O'zbekiston va Markaziy Osiyo. O'zbekistonning mustaqillik yillarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik kabi xalqaro va hududiy integratsiya tashkilotlariga a'zo bo'lib kirishi.*
20. *O'zbekiston va MDH.*

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. *Karimov I. «Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz». – T.: «O'zbekiston». 2009.*
2. *Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida»: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T.: «O'zbekiston». 1997.*
3. *Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995.*
4. *Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston». 1999.*
5. *Karimov I.A. «2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi». – T.: «O'zbekiston». 2012.*
6. *I. Karimovning. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. – T.: «Xalq so'zi». 1-sentabr 2012-yil.*
7. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga*

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

8. *To'xliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari.* – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.

9. *Shodiyev R., Maxmudov E. Jahon iqtisodiyoti.* – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.

10. *Мухитдинова Н. Иновационные аспекты развития национальных экономик в условиях глобализации (Макроуровень)* Т. 2011.

11. *To'xliyev N. Taraqqiyotning o'zbek modeli.* – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2012.

12. *Matatov B, Sharifxo'janeva K. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirish istiqbollari.* – T.: «Moliya» ilmiy jurnali. № 3–2012.

## XII bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

---

*Reja:*

12.1. Rivojlangan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.

12.2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalar.

### 12.1. Rivojlangan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga ega rivojlangan mamlakatlar jahon iqtisodiyotining asosiy subyektlari hisoblanadi. Bu mamlakatlar «rivojlangan» yoki sanoat jihatidan taraqqiy etgan mamlakatlar deb ataladi.

Rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri daromadlarning aholi qatlamlari o'rtasida nisbatan tekis taqsimlanishi va mamlakat hududining bir tekis o'zlash-tirilishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilganligi, xususan, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ilm-fanning rivojlanishiga katta miqdorda mablag' sarflash (YIMga nisbatan 2–3 %) uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishi, tibbiyot, ta'lim, madaniyat sohalariga sarflanayotgan xarajatlarning yuqoriligi va atrof-muhit muhofazasiga ajratilayotgan sarf-xarajatlarning (YIMga nisbatan 3–4%) yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rni quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1. Miqdoriy ko'rsatkichlar<sup>1</sup>:

– sanoat ishlab chiqarishi 57 %;

– qishloq xo'jaligining 40 %i mamlakat hissasiga to'g'ri keladi.

---

<sup>1</sup> Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar». O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya» 2011-yil, 78-bet.

## 2. Sifat ko'rsatkichlar:

– iqtisodiyotning ko'p tarmoqli tarkibga egaligi, xizmatlar sohasi YIMda 60 % dan ortiq;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarish 80 %;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va yuqori texnik mahsulotlar 90%;

– aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YIM hajmi 15 ming dollardan 38 ming dollargacha;

– jamiyatning ijtimoiy tarkibida tabaqalashuv darajasining pastligi va yuqori turmush darajasiga ega o'rta sinf mavjudligi.

XXI asr boshlarida bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar guruhi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan qirqqa yaqin mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Ularning 34 tasi Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) a'zolari.

Ushbu mamlakatlarni jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga qarab 3 guruhga bo'lish mumkin.

**Birinchi guruh.** Rivojlangan yettilik mamlakatlari. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya.

**Klub tarixi:** «G6» klubi dastlab 1975-yil 15–17-noyabr kunlari Rambuye saroyida Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, GFR, Italiya va Yaponiya davlat rahbarlarining uchrashuvida (bunaqa uchrashuvlar 70-yillarning boshlaridan shu davlatlarning moliya vazirlari doirasida o'tkazilib turilar edi) paydo bo'ldi.

**G6 ning kengayishi:** 1976-yilda katta oltitalik o'z tarkibiga Kanada davlatini qo'shib oldi va katta yettitalik deb atala boshlandi. 1991-yildan bu uchrashuvlar 7+1 doirasida bo'lib, Rossiya ham qo'shildi va 2002-yildan «katta sakkizlik» deb atala boshlandi. Biroq aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha Rossiya iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar qatoriga kirmaydi.

«Katta sakkizlik» xalqaro tashkilot hisoblanmaydi va u ustavi, kotibiyatiga ega emas, shuningdek, «Katta sakkizlik» doirasida



qabul qilingan kelishuvlarning bajarilishi majburiy shartnomaviy tusga ega emas (21-jadval).

Jahonda rivojlangan yettilik guruhidan alohida bo'lgan «**Katta yigirmatalik**» mamlakatlar guruhi ham mavjud bo'lib, ushbu guruh dunyo yalpi milliy mahsulotining 90% ni, dunyo savdosining 80% ni va dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. «G20» quyidagi davlatlardan tashkil topgan: Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yevropa ittifoqi, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, JAR, Koreya Respublikasi, Yaponiya.

Zamonaviy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash dunyo mamlakatlari olib borayotgan iqtisodiy siyosatni ko'p tomonlama muvofiqlashtirishni talab etadi. Bu borada jahon iqtisodiyotini xalqaro darajada samarali tartibga solishda «20 guruhi» alohida rol o'ynaydi. Ushbu guruh a'zolari tomonidan 2008–2011-yillarda Vashington, London, Pitsburg, Toronto, Seul, Parij sammitlari o'tkazildi.

**Vashington sammiti.** 2008-yil 15-noyabrda Vashington shahrida bo'lib o'tgan katta yigirmatalik davlatlari (G20) majlisida moliyaviy amaliyotlarni nazorat qilishni takomillashtirish uchun milliy tizimlar ustidan qo'shimcha xalqaro hay'atlar tashkil etish g'oyasi muhokama etildi.

Aksariyat siyosatchilar xalqaro nazoratni kuchaytirish inqirozning to'xtashi uchun samarali vosita bo'lishiga ishonch bildiradilar. Shu bilan birga mazkur taklifga mutlaqo qarshi bo'lgan guruhlar ham mavjud. Ular moliyaviy tizimni nazorat qilishga urinish asrlar davomida shakllangan erkin iqtisodiy munosabatlarga zid, degan fikrdalar.

**London sammiti.** Ushbu sammitda «20 guruhi» mamlakatlari barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi barcha bozor tamoyillari va qadriyatlarini masalalari bo'yicha yangi global konsernyaga erishish istagini bildirishdi. 2008-yil 2-aprelda London shahrida 20 ta mamlakat rahbarlari sammitida qabul qilingan qarorlar:

«Rivojlangan yettilik» davlatlarining aholisi va jahon YIMdagi ulushi to'g'risida ma'lumot

№	Mamlakatlar	Maydoni (ming km <sup>2</sup> )	Aholisi (min kishi)	YIM (trln.\$)	Milliy daromadi	Ishlab chiqarish tarmoqlari
1.	AQSH	9629	314,9	15,075	48 450 \$	Energetika, yoqilg'i energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati
2.	Yaponiya	377,9	127,5	5,866	45 180 \$	energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati
3.	Germaniya	357,1	81,9	3,607	43 980 \$	energetika, ko'mir sanoati, metallurgiya, mashinasozlik
4.	Buyuk Britaniya	244,1	60,2	2,431	37 780 \$	energetika, yoqilg'i energetika, mashinasozlik, kimyo sanoati
5.	Fransiya	640,6	65,3	2,77	842 420 \$	energetika, metallurgiya, mashinasozlik
6.	Italiya	301,3	60,8	2,198	35 330 \$	mashinasozlik
7.	Kanada	9984,6	35	1,738	45 560 \$	energetika, metallurgiya yoqilg'i, energetika

Manba. «Xalqaro Valuta Fondi» hisob-kitobiga binoan muallif tomonidan tayyorlandi – 2011.

– jahon moliya bozori qatnashchilari (davlatlar, tijorat banklari, reyting kompaniyalari, auditor kompaniyalari, investitsion, xedj fondlari) ustidan nazoratni kuchaytirish va yangi xalqaro moliya bozori ustidan nazorat qiluvchi organ tuzish;

– rivojlanayotgan mamlakatlarga krizisga qarshi chora-tadbirlar uchun 2012-yil oxiriga qadar 1,1 trln dollardan iborat mablag' jamlanadi va ular xalqaro valuta fondi Jahon banki orqali taqsimlanadi;

– hammasi bo'lib sammit qatnashchilari 2010-yil oxiriga qadar qo'shimcha krizisga qarshi chora-tadbirlar uchun 5 trln dollar mablag' sarflash va ushbu pullarni taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning bank tizimini tiklash, kambag'al mamlakatlarga moliyaviy yordam berish uchun yo'naltirish (100 mlrd dollar);

– xalqaro valuta fondining faoliyatini isloh qilish va ustav kapitali 250 mlrd dollardan 750 mlrd dollarga yetkazish. Xalqaro valuta fondini turli shaklda moliyalashtirishda yigirmatalik davlatlarining qatnashuvi;

– xalqaro moliya institutlarini isloh etish (XVF) va moliyaviy barqarorlik forumi rolini kuchaytirish;

– offshor zona va moliyaviy markazlarga nisbatan kuchli sanksiyalarni qo'llash to'g'risida kelishib olindi.

**Pitsburg sammiti.** Pitsburg sammitida ishonchli, barqaror va muvozanatlashgan o'sishni ta'minlashga qaratilgan hamkorlikdagi chora-tadbirlarni belgilab beruvchi cheklangan kelishuvlar qabul qilindi.

Cheklangan kelishuvlarni amalga oshirish mexanizmi o'zida a'zo mamlakatlar tomonidan iqtisodiy siyosat masalalarini o'zaro baholashni bildiradi.

**Toronto sammiti.** Ushbu sammitda keng miqyosda islohotlarni amalga oshirish muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosat yurtishni talab etishi va o'rta muddatli istiqbolda quyidagilarga erishish mumkinligi takidlab o'tildi:

– jahon ishlab chiqarish hajmini 4 trln AQSH dollariga yetkazish;

– 52 mln ishchi o'rnini yaratish;

- 90 mln kishini kambag'allik holatidan olib chiqish;
- joriy operatsiyalar schyotidagi global manfiy muvozanatni qisqartirish.

«20 guruhi»ning rivojlangan mamlakatlari 2013-yilga borib davlat budjeti kamomadini 2 barobarga qisqartirish va 2016-yilgacha davlat qarzining YIM dagi ulushini barqarorlashtirish majburiyatini olishdi.

**«Seul» sammiti.** «Seul» sammitida makroiqtisodiy va valuta siyosatini birgalikda olib borish zarurligi takidlandi. Chunki moliyaviy inqirozning chuqurlashuvi valuta-moliya sohasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Jumladan, AQSH Xitoyning yuan kursini suniy ravishda pasaytirishda ayblasa, Xitoy va Yevropa Ittifoqining ba'zi mamlakatlari AQSHning iqtisodiyotga qo'shimcha 600 mlrd dollar mablag' sarflaganini tashqi savdodagi hamkor mamlakatlarning valutalariga nisbatan dollar kursini pasaytirishga yo'naltirishda aybladi.

«20 guruhi» mamlakatlari Seul sammitida bozor orqali belgilanadigan valuta kurslari tizimini o'rnatish yordamida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, moliya bozorlari barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat yuritish majburiyatini olishdi.

**Parij sammiti.** Ushbu sammitda barqaror global tengsizliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlarni tanlab olishga kelishildi:

- ichki makroiqtisodiy siyosat ko'rsatkichlari – budjet kamomadi, davlat qarzining hajmi, xususiy jamg'armalar darajasi, xususiy qarz miqdori;

- tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar – savdo balansining holati, investitsiyalardan keladigan daromadlarning sof oqimi, bir tomonlama o'tkazmalar.

Qayd etib o'tilgan ko'rsatkichlar dinamikasi soliq, budjet, pul-kredit, valuta kursi siyosatini baholashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari Parij sammiti qatnashchilari xalqaro valuta tizimini mustahkamlashga qaratilgan ishchi dasturni qabul qilishdi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy-siyosat maktablarida to'plangan boy tajriba, g'oya va dastaklarni mavjud iqtisodiy holat va iqtisodiy rivojlanish modeli xususiyatlariga mos ravishda samarali qo'llashga harakat qilishadi.

**Ikkinchi guruhni** hududiy jihatdan nisbatan katta bo'lmagan, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega (Avstriya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya va b.) mamlakatlar tashkil etadi.

**Uchinchi guruhga** «ko'chirib o'tkazilgan kapitalizm» mamlakatlari (Avstraliya, JAR, Yangi Zelandiya, Izroil) kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda «aralash iqtisodiyot»ning bir nechta modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

**Liberal (amerikacha) model** — ushbu modelga xususiy mulkchilik, ishlab chiqarish, savdo, investitsiya, ishchi kuchidan foydalanish sohalarida bozor-raqobat mexanizmining ustuvorligi va ijtimoiy tabaqalanishning yuqori darajasi xosdir. Hukumat iqtisodiyotni makro va mikro darajada qonunlar chiqarish orqali soliq hamda pul-kredit siyosatini olib borish, raqobatni rivojlantirish, monopoliyalar hukmronligini cheklash, aholining ayrim ijtimoiy guruhlari manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlarda tartibga soladi.

Ushbu model AQSH va Buyuk Britaniya uchun xos bo'lib, hozirda Irlandiya va Italiyaning iqtisodiy tizimi ham ma'lum darajada liberal modelga yaqinlashmoqda.

**Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli** (Germaniya) — ushbu model raqobatga asoslangan bozor mexanizmi rivojlangan ijtimoiy infratuzilmaga ega ijtimoiy bozor xo'jaligini o'zida aks ettiradi.

Bu model tartibga solinmaydigan kapitalizm sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini (kam ta'minlanganlar, ishsizlar, yoshlar, kichik va o'rta firmalar) muntazam qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi. Davlat yetarli daromad darajasini mustaqil ta'minlay olmaydigan ijtimoiy toifalarning iqtisodiy farovonligini ta'minlashda keng qamrovli majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

**Shved modeli** — ushbu modelda ijtimoiy konsensusga erishish maqsadida daromadlarni keng ko'lamda qayta taqsimlash

asosida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga erishiladi. Bu maqsadga erishishda umumjamiyat manfaatlari va xususiy sektor manfaatlari muvofiqlashtirishga yordam beradigan kasaba uyushmalari va turli xil «erkin uyushmalar» muhim o'rin tutadi. Bu jarayon tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining kelishuvlari hamda siyosiy kuchlarning muzokaralari vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu model iqtisodiy qarorlarning turli guruhlar qarama-qarshiligi va maqsadlarini davlatning faol ishtirokida muvofiqlashtirilishi orqali amalga oshirilishi tufayli «korporativ model» ham deb nomlanadi.

**Yapon modeli** – iqtisodiy rivojlanishning yapon modelini shved modelining yana bir ko'rinishi sifatida keltirish mumkin. Yapon modeli tartibga solinuvchi «korporativ kapitalizm» modeli hisoblanadi.

Bunda xususiy kapitalni jamg'arish imkoniyatlari davlatning iqtisodiy rivojlanishini dasturlash, tarkibiy, investitsiya, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohalaridagi faol roli bilan uyg'unlashib ketadi. Tadbirkorlik sektorida davlatning ulushi yuqori bo'lmaydi. Davlat asosiy e'tiborni uzluksiz kasbiy tayyorgarlik orqali ishchi kuchining malakasini oshirishga qaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanishida globallashtirish jarayoni yetakchi tendensiya hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning eksport kvotasi, kapital qo'yilmalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi, ishchilar tarkibida xorijlik ishchilar ulushi, intellektual mulk savdosining hajmi ortib bormoqda. AQSH va Yaponiya eksportining geografik tarkibida rivojlangan mamlakatlarning ulushi taxminan 50 % ni tashkil etdi. Keyingi yillarda ushbu mamlakatlar tashqi iqtisodiy geografiyasida rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ulushi ortib bormoqda.

Globalashuv natijasida rivojlangan mamlakatlarning o'zaro bir-biri bilan iqtisodiy bog'liqligidan tashqari, boshqa mamlakatlarga ham ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida yana bir muhim tendensiya *integratsiya* hisoblanadi. Jahonning

yetakchi davlatlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar faol, integratsion guruhlar va ularning a'zolari o'rtasida yanada jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi muhim jihatlaridan biri iqtisodiyotga davlat aralashuvining kamayishi, iqtisodiyotning **erkinlashish jarayonidir**.

Birinchi jahon urushidan XX asrning 80-yillariga qadar rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan iqtisodiyotga aralashish darajasi davlat xarajatlari va iqtisodiyotda davlat sektori ulushining o'sishi shaklida jadal sur'atlarda ortib bordi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va integratsiya jarayonlarining chuqurlashishi natijasida aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarining YIM dagi ulushi qisqarib bordi. Bundan tashqari, xususiylashtirish, transport, aloqa, energetika, kommunal xo'jalik kabi tarmoqlarda davlat mulkini xususiy kompaniyalarning boshqaruv ixtiyoriga topshirish boshlandi.

XXI asrning boshlariga kelib rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi postindustrial tarkibga ega bo'la boshladi. Iqtisodiyot tarkibida birlamchi (qishloq xo'jaligi, qazib olish, o'rmon, baliqchilik), ikkilamchi tarmoqlar (sanoat, qurilish) qisqargani holda uchlamchi tarmoqlar (xizmatlar sohasi) ulushi osha boshladi.

XX asrning birinchi yarmida transport, savdo maishiy xizmat, ta'lim iqtisodiyotning asosiy xizmatlar sohasidagi tarmog'iga aylangan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin xizmatlar ijtimoiy soha – ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat, san'at, uy-joy kommunal xo'jaligi ijtimoiy ta'minot hisobiga keyinchalik esa moliya xizmatlari, axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobiga jadal rivojlandi. Rivojlangan mamlakatlarda moliya sektori iqtisodiyot holatini ifoda etuvchi asosiy indikatorga aylanib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarining ortishi budjet taqchilligiga va davlat qarzlarning vujudga kelishiga olib keldi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 % dan oshadi, 2012-yilda Gretsiya,

Italiya, Islandiya, Belgiyada 100 % lik ko'rsatkichlardan oshib ketdi.

Ushbu mamlakatlarda inflatsiya darajasi o'zgarib turibdi.

**Ijtimoiy soha** rivojlangan mamlakatlarda aholining daromadlar bo'yicha tabaqalashuvidagi farqning qisqarishi kuzatildi. Aholi daromadlarining o'sishi bilan bir vaqtda boy va kambag'al qatlamlar daromadlaridagi farqlar qisqardi. Aholi daromadlarining keskin oshishi natijasida o'rta sinfning shakllanishi ijtimoiy tabaqalashuvning qisqarish sabablaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ish vaqti davomiyligi va ishsizlik darajasi o'rtasida ham farq kuzatiladi. Aholi turmush darajasining yuqoriligiga qaramasdan bir ishchiga hisoblangan rasmiy ish soatlari 1800 soat atrofida.

Ishsizlik darajasi 2012-yilda G'arbiy Yevropada Ispaniya 30 %, Gretsiya 26 %, Italiya 20 % kuzatildi. Ishsizlik darajasi va iqtisodiy o'sish suratlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini Yaponiya misolida ko'rishimiz mumkin. 2010-yildagi iqtisodiy o'sish suratlarning pastligiga qaramasdan, yapon firmalari o'z ishchi, xizmatchilarini kamdan-kam hollarda ishdan bo'shatishadi.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, G'arbiy Yevropa mamlaktlarida demografik jarayonlarda umumiy aholi sonida keksa yoshlilar (65 yoshdan oshgan) – demografik vaziyat – aholining qarishi muammosi haqida bormoqda. Agar keksalar sonining ulushi 12 % dan oshsa, ushbu mamlakatlar aholisi qariyotgan hisoblanadi.

Masalan, G'arbiy Yevropada 15 %, AQSH 12 %, Yaponiya 15% ni tashkil etadi. Aholining qarishi pensiya to'lovlari, keksalarni parvarishlashni tashkil etish ularga tibbiy xizmat kabi qo'shimcha mablag'larni talab etadi.

Aholining qarishi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. G'arb iqtisodchilari aholi qarishi muammosini iqtisodiy salohiyatning pasayishi bilan baholaydi.



## 12.2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalar

BMT Ekspertlarining fikricha, Transmilliy korporatsiyalar (TMK) Jahon iqtisodining «dvigatellaridir». 100 ta eng yirik xalqaro kompaniyalarning 40 % mulki (shu jumladan moliyaviy mulki) boshqa davlatlar hududida joylashgan. Transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, YI davlatlari, Yaponiya, Rossiyada joylashgan. TMK jahon sanoat ishlab chiqarishining 40%igacha, xalqaro savdoning yarmini nazorat qiladi. TMK korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori yiliga 1-trln. dollardan oshib ketadi.

Xo'sh, **transmilliy korporatsiyalar** nima, ularga qanaqa kompaniyalar kiradi? An'anaviy ravishda xalqaro korporatsiyalar faoliyatini o'rganadigan BMT uzoq vaqt mobaynida ularga yillik aylanmasi 100 mln dollardan oshuvchi va kamida 6 davlatda filiali bo'lgan firmalarni qo'shadi. Keyingi yillarda boshqa bir ko'rsatkich: rezident davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdori kiritildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda Shveyt-sariyaning «Nestle» firmasi (98%) ilg'orlardan biri sanaladi.

BMT metodologiyasiga ko'ra, xalqaro korporatsiyani uning aktivlari strukturasi qarab ham aniqlash mumkin. Transmilliy korporatsiyalar ichida eng ko'p xorijiy aktivga (moliya sektori – transmilliy banklardan tashqari) Angliya – Gollandiya konserni «Royal-Dutch shell», keyin AQSHning 4 firmasi: «Ford», «Jeneral-motors», «Ekson» va «IBM» ega. G'arb iqtisodiy adabiyotlarida xalqaro monopoliyaning ko'plab turlarini uchratish mumkin: ko'p milliy korporatsiyalar, baynalmilal korporatsiyalar.

Rossiyalik iqtisodchilar quyidagi klassifikatsiyani beradi.

**Transmilliy korporatsiyalar** – bu xorijiy aktivga ega bo'lgan milliy monopoliyalalar. Ularning ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyatlari bir davlat chegarasidan chiqib ketadi.

**Korporatsiya** deb AQSHda hissadorlik jamiyatini aytishadi. Zamonaviy Transmilliy korporatsiyalarning ko'pchiligi Amerika kompaniyalarining ekspansiyasi vujudga kelganligi tufayli bu

termin kirib keldi. Transmilliy korporatsiyalarning huquqiy rejimi filiallar va sho'ba korxonalari tashkil etish orqali turli davlatlarda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

Bu kompaniyalar nisbatan mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy tadqiqot, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish xizmatlariga ega. Umuman, ular yagona ishlab chiqarish-sotish majmuyini tashkil etadi va bu majmuada hissadorlik kapitalga faqat ta'sischi davlat egalik qiladi. Shu bilan birga filial va shu'ba korxonalari aralash korxonalar bo'lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi mumkin.

**Ko'pmilliy korporatsiyalar (KMK)** – ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotchilik asosida bir necha davlat milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyadir. Bunga 1907-yildan buyon mavjud bo'lgan Angliya – Gollandiya «Royal-Dutch shell» konsernini ko'rsatish mumkin. Bu kompaniyaning hozirgi kapitali 60:40 nisbatda taqsimlangan. Ko'pmilliy korporatsiyalarga mashinasozlik, elektron injeneriyaga ixtisoslashgan, Yevropada mashhur Shveysariya-Shvetsiya AVV (Asea Brown Boveri) kompaniyasini ko'rsatish mumkin. Yevropaning ilg'or ko'pmilliy korporatsiyalari qatoriga Angliya – Gollandiya kimyo-texnologiya «Yunilever» konsernini ham qo'shish mumkin.

Transmilliy va ko'pmilliy korporatsiyalarga xalqaro kompaniyalar ichida ajralib turuvchi **global korporatsiyalarni (GK) ham** qo'shish kerak. Ular 80-yillarda vujudga keldi va kuchga kirib bormoqda. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini namoyon qiladi. Globalizatsiyaga ko'proq kimyo, elektrotexnika, elektron, neft, avtomobil, axborot, bank va boshqa bir necha sohalar moyil.

#### **Transmilliy korporatsiyalar paydo bo'lishiga sabab nima?**

Ular paydo bo'lishining eng umumiy sababi milliy – davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvidir. Ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi yirik kompaniyalar tomonidan xorijda o'z bo'limlarini tashkil etishi va milliy korporatsiyalarning transmilliy korporatsiyalarga

aylanishi orqali ekspansiya xarakteriga ega bo'ladi. Kapital olib chiqish xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omiliga aylanmoqda.

Transmilliy korporatsiyalar vujudga kelishining aniq sabablari qatoriga haddan oshiq foyda olishga intilishni ko'rsatish mumkin. O'z navbatida, o'tkir raqobat, bu kurashda tirik qolish zaruriyati ham xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi va TMK paydo bo'lishiga olib keldi.

Jahon xo'jaligida ro'y beruvchi iqtisodiy jarayonlarning obyektiv natijasi sifatida vujudga kelgan transmilliy korporatsiyalar qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. TMK xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo'lib, uning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi.

Transmilliy korporatsiyalar kapitalining harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo'layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda ro'y beradi.

Transmilliy korporatsiyalar yirik investitsiyalar va yuqori malakali personal talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilmtalab sohalarga kirib boradi.

Bunda ushbu sohalarni transmilliy korporatsiyalar tomonidan monopoliya qilish tendensiyasi sezilmoqda. Kapitalistik

dunyo sanoat mahsulotining  $\frac{3}{4}$  qismi 2 mingga yaqin eng yirik korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan. Ularning bir necha yuztasi eng muhim mahsulotlarning 50 % idan 80% igacha bo'lgan qismini ishlab chiqaradi.

500 ta eng kuchli transmilliy korporatsiyalardan 85 tasi barcha xoriydagi investitsiyalarning 70 % ini nazorat qiladi. Bu 500 gigant elektronika va kimyoning 80 %, farmatsevtikaning 95 %, mashinasozlikning 76 % mahsulotini sotadi. G'arb iqtisodchilarning prognozlariga ko'ra, jahon xo'jaligida 300—600 transmilliy korporatsiyalar hukmronligi o'rnatildi. Bunda 300 korporatsiya jahon yalpi mahsulotining 75 % ini nazorat qiladi, o'z ishlab chiqarishlari va xizmatlarini sezilarli ravishda diversifikatsiya qiladilar.

Masalan, Shvetsiyaning «Volvo» avtomobil konserni hozirdayoq nafaqat avtomobil chiqarmoqda. Bu transmilliy korporatsiya Shvetsiyada 30 ta, xorijda bir necha o'nta turli ixtisosli yirik shu'ba korxonalariga ega bo'lib, katerlar uchun motorlar, aviadvigatellar, mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. O'z navbatida, AQSHning 500 eng yirik transmilliy korporatsiyalari o'rtasida 11 sohada, eng kuchlilari esa 30—50 sohada korxonalariga ega. 100 ta ilg'or sanoat firmalaridan Angliyada — 96 ta, Germaniyada — 78 ta, Fransiyada — 84 ta va Italiyada — 90 tasi ko'p sohalidir.

Kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarishni, tovar bozorlarini samarali rejalashtirishni ta'minlovchi ishlab chiqarish — savdo siyosatini yurgizadi.

Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshiriladi va shu'ba korxonalariga tarqatiladi.

Xalqaro korporatsiyalar vujudga kelishi va rivojlanishiga misol qilib, o'z qo'lida jahon kundalik elektr jihozlari va sanoat uskunalari bozorining 25%ini ushlab turgan «Elektrolyuks» TMKni ko'rsatish mumkin. 1912-yilda ikki shved kompaniyalarining birlashishi natijasida vujudga kelgan «Elektrolyuks» 20-yillardayoq Avstraliya va Yangi Zelandiya bozoriga chiqib, u yerda o'z ishlab chiqarishini tashkil qildi. Oxirgi o'n yillikda «Elektrolyuks» AQSHda uchinchi o'rinda turuvchi, «Vestingauz», «Gibson» va boshqa markalar ostida kundalik texnika ishlab chiqaruvchi «Uayt Konsolideyted» kompaniyasini, Italiya va butun janubiy Yevropada eng yirik elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi «Zanussi» firmasi va shuningdek, GFR asosiy elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi «AEG» firmasini sotib oldi.

Bu uch firmani qo'shib olganidan keyin «Elektrolyuks» 75 mamlakatda kundalik elektrotexnikani ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha rivojlangan tizimga ega bo'lgan, o'z sohasida jahonda lider kompaniyaga aylandi (14-chizma).

O'z ekspansiyasini kengaytira borib, transmilliy korporatsiyalar jahon bozorini o'zlashtirishning turli shakllaridan foydalanadilar.

Bu shakllar ko'p jihatdan shartnomaga asoslanadi va hissadorlik kapitalida boshqa firmalarning qatnashishiga bog'liq emas. **TMK iqtisodiyotining bunday shakllariga ko'pincha quyidagilar kiritiladi:** 1) litsenziya berish; 2) franchayzing; 3) boshqaruv shartnomalari; 4) texnik va marketing xizmatlari ko'rsatish; 5) korxonalarni «kalit ostida» topshirish; 6) vaqt bo'yicha cheklangan qo'shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar.

**Litsenzion kelishuv** — yuridik shartnoma bo'lib, unga ko'ra litsenziar litsenziantga bir qancha muddatga ma'lum to'lov evaziga ma'lum huquqlar beradi. Litsenziya berish transmilliy korporatsiyaning ichki firma shartnomalari bo'yicha ham, texnologiya berishning tashqi kanallari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

**Franchayzing** — uzoq muddatga mo'ljallangan litsenzion kelishuvdir. Bunda franchayzer klient firmaga ma'lum huquqlar beradi. Bu huquqlar o'z ichiga ma'lum to'lov evaziga savdo markasi yoki firma nomidan foydalanish, shuningdek, texnik yordam ko'rsatish, ishchi kuchi malakasini oshirish, savdo va boshqarish bo'yicha xizmat ko'rsatishni oladi.

**Texnik xizmat ko'rsatish** — shartnomaga ko'ra transmilliy korporatsiyalar ushbu firma faoliyatining qandaydir maxsus tomoniga bog'liq bo'lgan texnik xizmatlarni amalga oshiradilar. Ko'pincha bunday shartnomalar mashina va uskunalarni remont qilish, «nou-xau»dan foydalanish bo'yicha maslahatlar, avariylarni tugatish va sifatni nazorat qilish bilan bog'liq bo'ladi.

**Korxonani «kalit ostida» topshirish haqidagi shartnomalar.** Bunda transmilliy korporatsiya ma'lum obyektini rejalashtirish va qurish uchun zarur bo'lgan barcha (yoki asosiy ko'pchilik) faoliyatni amalga oshirish javobgarligini oladi.

**Boshqaruv shartnomalari** — shartnomaga ko'ra korxonanani ma'lum to'lov evaziga boshqa korxonalarga beriladi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan xalqaro bozorlarni egallashning eng yangi shakllaridan biri xorijda maxsus investitsion kompaniyalar tashkil qilishdir. Bu kompaniyalarning

vazifasi TMKning shu'ba va hamkorlikdagi korxonalarining mahsulotlarini mintaqaviy bozorlarga chiqarishni rag'batlantirish uchun ularni investitsiyalashdir.

Bunday usuldan alkogolsiz ichimliklarni sotish bo'yicha eng yirik xalqaro kompaniyalar «Pepsi-kola» va «Koka-kola» foydalanishadi.

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon xo'jaligining muhim ishtirokchilariga aylandi.

Sanoati rivojlangan davlatlar uchun aynan TMK larining xorijdagi faoliyati ularning tashqi iqtisodiy aloqalarning xarakterini belgilab beradi.

MDH hududida ham TMKlar mavjud bo'lib ular asosan neft, gaz sohasida faoliyat yuritadi (12-chizma).


Bu davlatlar eksportida milliy kompaniyalarning o'zlarining xorijdagi filiallariga tovar yetkazib berishlari va xizmat ko'rsatishlarining ulushi kattadir.

Transmilliy korporatsiyalarning sohaviy strukturasi ham turli-tumandir. Xalqaro korporatsiyalarning 60 %i ishlab chiqarish sohasida, 37 %i xizmatda va 3 %i qazib chiqarish va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritadi.


Transmilliy korporatsiyalar investitsiyalarining mintaqaviy-sohaviy yo'nalishi juda xarakterlidir. Odatda, ular «yangi industrial davlatlar» nisbatan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qayta ishlovchi sanoatiga kapital qo'yadi. Bunda kapital oluvchi davlatlar orasida investitsiyalar uchun raqobatchilik kurashi ro'y beradi. Shu jumladan TMKlar 3 ta yirik guruhga ham ajratiladi (13-chizma).

Transmilliy korporatsiyalar u yoki bu davlatning xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimidagi taqdirini aniqlovchi omilga aylanmoqda. TMKning faol ishlab chiqarish, investitsion, savdo faoliyati tufayli ular ishlab chiqarish va mahsulotlarni taqsimlashning xalqaro tartibga soluvchisiga aylanmoqda va hatto BMT ekspertlarining fikricha jahonda iqtisodiy integratsiyasiga sharoit yaratmoqda. Ularning quyidagi turlari mavjud (14-chizma).

Transmilliy korporatsiyalarning jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi faoliyatining yaxshi tomon-



**12-chizma. MDH hududidagi eng yirik xorijiy aktivga ega transmilliy korporatsiyalar.**



**13-chizma. TMK larni 3 ta yirik guruhga ajratish sxemasi.**

**Sanoat ishlab chiqarishi**

**Telekommunikatsiya kompaniyalari**

**Transmilliy bank**

**Auditor**

**Sug'urta**

**Investitsiya**

**Pensiya fondi**

*14-chizma. TMK larning turlari.*



larini aytganda, ularning faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar iqtisodiyotiga negativ ta'sirini ham aytib o'tish lozim. Mutaxassislar quyidagilarni alohida ko'rsatadilar:

- TMK faoliyat ko'rsatadigan davlatlarning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga xalaqit berish;
- davlat qonunlarini buzish;
- monopol narxlar o'rnatish, rivojlanayotgan davlatlarning huquqini cheklovchi shartlarga majburlash.

Umuman, transmilliy korporatsiyalar— xo'jaliklararo aloqalarning doimiy e'tibor, o'rganish va xalqaro nazorat talab qiluvchi yetarli darajada murakkab va doimiy ravishda rivojlanib borayotgan fenomenidir.

#### **Tayanch iboralar:**

- «Rivojlangan yettilik» davlatlari;
- «Katta sakkizlik»;
- «Katta 20 lik»;
- Shved modeli;
- Yapon modeli;
- liberal (amerikancha) model;
- Germaniya modeli;
- franchayzing;
- transmilliy korporatsiya;
- xedj;
- korporatsiya;
- global korporatsiyalar;
- ko'pmilliy korporatsiyalar.

#### **Nazorat savollari**

1. Rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan asosiy belgilarni ayting.
2. Rivojlangan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari nima?
3. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining modellarini tushuntiring.
4. Transmilliy korporatsiyalar nima?
5. Ularning qanday turlari mavjud?
6. TMK larning vujudga kelishining asosiy sabablari nima?
7. TMK lar jahon bozorini o'zlashtirishning qanday shakllaridan foydalaniladi?
8. MDH hududidagi TMK larni ayting.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.

2. *Гурова И.П.* Мировая экономика. Учебник. – М.: Омега-Л., 2007.

3. *Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г.* Глобализация и бедность. Мировая экономика и международные отношения. №9ю 2010 . стр.412.

4. *Ломакин В.К.* Мировая экономика. Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА , 2007. стр 671.

5. *Shodiyev R., Mahmudov E.* Jahon iqtisodiyoti. –T.: 2005.

6. *Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh. X.* Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: «Moliya». 2011.

7. *Mirsaidov M.S.* Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: «Iqtisod-moliya»ю 2007.

8. Доклад о мировом развитии. Развитие и изменение климатаю Журнал. Всемирный Банк Вашингтон. 2010 .

Saytlar:

1.[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

2.[www.economywatch.com](http://www.economywatch.com)

3.[www.data.worldbank.org](http://www.data.worldbank.org)

4.[www.mapsofworld.com](http://www.mapsofworld.com)

*Reja:*

- 13.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.
- 13.2. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar.
- 13.3. Jahon iqtisodiyotida yangi industrial mamlakatlar.

**13.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari**

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ko'proq ahamiyatli tomonlaridan biri, ularning sobiq koloniyalar va ularga qarashli territoriyalaridagi roli va ahamiyatini kuchaytirishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Bu mamlakatlarni hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ularni tez-tez ozod etilgan mamlakatlar, «uchinchi dunyo mamlakatlari», «janub» mamlakatlari, «periferiya» mamlakatlari sifatida ham tilga olishadi. «Rivojlanayotgan mamlakatlar» atamasi bir qadar shartli bo'lib, bularning ba'zilari siyosiy mustaqillikka XIX asrda, ba'zilari esa XX asrning ikkinchi yarmida jahon urushi tugagandan keyingi o'n yilliklarda erishgan.

Bunday mamlakatlarga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Okeaniyadagi **125 ta mamlakat** hamda dunyoda rivojlanish darajasi past bo'lgan **40 ga yaqin mamlakat** kiritiladi. Ular yer yuzasining 60 foizi maydonini egallagan bo'lib, yer yuzi aholisining deyarli 80 foizi ushbu mintaqalarda istiqomat qiladi. Ularning umumjahon YIMdagi hissasi 18 foizi sanoat ishlab chiqarish 14 foizni tashkil etadi. Osiyo, Afrika, mamlakatlarning ko'pchiligi o'tmishda Angliya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Portugaliya va Ispaniya kabi davlatlarning mustamlakalari edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

a) ichki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadagi o'tish davri xususiyatlari (dualizm, ko'p ukladlilik);

b) ishlab chiqarish kuchlarining past darajada rivojlanganligi (qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish sohasidagi qoloqlik);

d) jahon xo'jaligi tizimidagi qaramlik.

«Uchinchi dunyo» mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rnini, ularning tabiiy boyliklarga mo'ligi, aholisi sonining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda sanoat xomashyolarining mavjudligi.

– tabiiy resurslarning (mis, neft, gaz, nikel, boksit) 2/3 qismi;

– temir rudasi, uranning 1/3 qismi;

– volfram, marganets, qo'rg'oshinning 1/4 qismi mavjud.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatbaho ma'danlari va tabiiy resurslari bo'yicha dunyo zaxiralarida muhim o'rin egallaydi (bularga neftni eksport qiluvchi davlatlar) kiradi. Rivojlangan mamlakatlarda foydali qazilmalar tekis joylashmagan. Foydali qazilmalar ushbu mamlakatlarning 45 tasidagina mavjud.

Masalan, energetika zaxiralariga ham 2/3 qism mamlakat ega emas. Vyetnam 25 %, Marokash 20 %, Pokiston 22 %, Janubiy Koreya 30 % ularni chetdan olib keladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi rivojlangan mamlakatlardan keskin farq qiladi. Bu mamlakatlarda demografik portlash muammosi bilan birgalikda aholi daromadlari borasida kuchli ijtimoiy tabaqlashuv, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma mavjud.

Bularga ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi, savodsizlik darajasi juda yuqori bo'lgan davlatlar ya'ni Braziliya 11 %, Nigeriya 3 %, Xitoy 39 %, Misr 29 % kabi davlatlar kiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni tavsiflashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

– geografik joylashishi;

– sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish rivojlanganligi;

– sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi;

– iqtisodiy rivojlanish darajasi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot darajasi eng past, o'rtacha, yuqori, daromad mezoni kabi toifalarga bo'lish bilan belgilanadi:

**1. Eng past daromadli mamlakatlarga** Afrikadagi mamlakatlarning ko'pchiligi, Osiyoda 10 tadan ortiq hamda Karib havzasidagi Gaiti kiradi.

**2. O'rtacha daromadga ega bo'lgan mamlakatlarga** Iordaniya, Eron, Yaman, Livan, Lotin Amerikasi, Karib havzasidagi davlatlarning aksariyati, Okeaniyadagi Papua, Yangi Gvineya davlati kiradi.

**3. Yuqori daromadli mamlakatlar** toifasiga ikki turdagi mamlakatlar kiradi. Bular:

- neft eksport qiluvchi mamlakatlar;
- yangi industrial mamlakatlar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YMD bo'yicha<sup>1</sup>:

1. Singapur – 62.200 \$;
2. Gonkong – 45.600 \$;
3. Janubiy Korea – 30.200 \$;
4. Saudiya Arabistoni – 24.200 \$.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 2010-yilda dunyodagi barcha mamlakatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 65,144,4 mlrd dollarni tashkil etadi.

Shundan:

- rivojlangan mamlakatlar – 38.133,5 mlrd \$ – 36,100 \$;
- rivojlanayotgan mamlakatlar – 15.613,9 mlrd \$ – 4,500 \$;
- rivojlanish darajasi past mamlakatlar – 1935,2 mlrd \$ – 1494 \$ (jahon bo'yicha o'rtacha 9832 \$).

2010-yilda ba'zi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bir yilda aholi jon boshiga to'g'ri kelgan daromadlar (AQSH dollari hisobida):

---

<sup>1</sup> Список стран по ВВП (ППС) Международное валютного фонда за 2010 год.

1. Lixtenshteyn — 122.000 \$;
2. Qatarl — 45.300 \$;
3. Lyuksemburg — 81.200 \$;
4. Norvegiya — 59.100 \$;
5. Quvayt — 57.500 \$;
6. Bruney — 50.300 \$;
7. Monako — 33.000 \$.

Izoh. Bu ko'rsatkichlar o'zgarib turishi ham mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikning yanada kengroq tarqalishining kuchayishiga olib keluvchi omil kam taraqqiy etgan holda mamlakatdagi boylar hamda kambag'allar o'rtasidagi tafovut o'sib borishidan iborat. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining 65 % dan ortig'i qishloq joylarda istiqomat qiladi va qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning salmog'i 60% ni tashkil qiladi (22-jadval).

Rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda birlamchi xomashyodan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ikkilamchi va uchlamchi tarmoqlar keyingi o'rinlarda turadi.

### 13.2. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar

Neft jahonning 80 mamlakatida qazib chiqariladi. Bu ayrim davlatlar uchun xalqaro ixtisoslashgan soha hisoblanadi. Jahon neft sanoatining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, neft zaxirasining 4/5 qismidan ortig'i, qazib chiqarishning 1/2 qismiga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlar, neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti a'zolari, chetga neft chiqaruvchi asosiy mamlakatlardir. Bular yaqin va O'rta Sharq, ya'ni Fors ko'rfazi davlatlariga jahonda aniqlangan neft zaxirasining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Neft qazib chiqaradigan mamlakatlar orasida birinchi o'rinni Saudiya Arabistoni egallaydi (1 kunda 10.8 mln barrel) keyingi o'rinlarda Rossiya, Eron, Xitoy va boshqalar. Neftni eng ko'p eksport qiluvchi mamlakatlar ichida Saudiya Arabistoni (kuniga 8.7 mln barrel) (Rossiya, Eron, BAA va boshqa mamlakatlar).

## Inson omili ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Past darajada rivojlangan	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo bo'yicha
O'rtacha umr ko'rish ehtimoli (yil hisobida)	59	64	78	66
Katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi (% hisobida)	49,2 (boshlang'ich ta'lim)	70,4 (boshlang'ich ta'lim)	98,6	77,6
YIM (AQSH dollari hisobida)	1935,2	15613,9	38133,5	57937,460
YIM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi	1494	4543	36100	9852
Go'daklar o'limi koeffitsiyenti	77	65	13	60
Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar (salmog'i)	76	60	4	48
Sanoatda band bo'lganlar (salmog'i)	-	16	33	20
Xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlik	15	23	57	31

Dunyo bo'yicha eng ko'p tabiiy gaz qazib oluvchi davlatlar orasida Rossiya 1-o'rinni egallaydi (662 mlrd.m<sup>3</sup>) keyingi o'rinlarda AQSH, Kanada, Eron, Norvegiya, Aljir va O'zbekiston ham ma'lum o'rin egallaydi, eng ko'p tabiiy gaz zaxirasiga ega davlatlar Rossiya (47.6 trln.m<sup>3</sup>) va undan keyingi o'rinlarda Eron, Qatar, Saudiya Arabistoni, AQSH, BAA va O'zbekiston 14-o'rinda turadi. Dunyoda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti ham mavjud.

**OPEK ning asosiy maqsadi a'zo mamlakatlar o'rtasida, neft siyosatini koordinatsiya qilish, neft ishlab chiqaruvchilar o'rtasida neft narxini haqqoniy va barqaror saqlashdan iborat.** OPEK ka a'zo bo'lish uchun mamlakatlar uning 3/4 qism a'zolari roziligini olishlari kerak.

OPEK neft bozorini nazorat qilmaydi, lekin a'zo davlatlar dunyodagi neft xomashyosining 41 % ini va gaz xomashyosining 18 % ini ishlab chiqaradi. Shu orqali neft bozorida katta ta'sir kuchiga ega, ayniqsa bu kuch neft qazib chiqarish miqdorini kamaytirganda yaqqol ko'rinadi. OPEK butun dunyo neftining 8 % ini iste'mol qiladi. Hozirgi kunda uning neft zaxiralari 800 mlrd barreldan ko'proq.

OPEK 1960-yil tashkil etilgan. Shtab kvartirasi Venada joylashgan. Hozirda uning 11 ta a'zosi bor. Ular: Jazoir, Eron, Quvayt, Qatar, Iroq, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Nigeriya, Saudiya Arabistoni, Venesuela, Indoneziya.

### **13.3. Jahon iqtisodiyotida yangi industrial mamlakatlar**

«Yangi industrial mamlakatlar» Lotin Amerikasi, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari yetakchi o'rinni egallab, jahon iqtisodiga shiddat bilan kirib kelishdi.

Bir davlatni yangi industrial mamlakat jumlasiga qo'shish uchun umumiy mezon yo'q. Lekin ba'zi olimlarning fikricha, sanoat tovarlari ishlab chiqarish yuqori o'rinni egallaydi, bular (Braziliya, Meksika, Argentina, Hindiston, Singapur, Indoneziya, Janubiy Korea, Tayvan, Gankong va h.k.) «Osiyo yo'l-



barslari»ning iqtisodiyotdagi keskin burilishi o'z rivojiga, eksportida yuqori natijalarga erishdi.

Yangi industrial mamlakatlar o'z tarixida inflatsiyadan deyarli qiynalmadilar, ularda ishsizlar deyarli bo'lmadi, aholining hayot darajasi juda yuqori bo'ldi.

Ularning eksporti AQSH va Yaponiyaga qaratilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning umumiy importida bu mamlakatlarning ulushi 7 %, AQSH importida 14 % gacha, Yaponiya importida 11 % ni tashkil etdi.

Yangi industrial mamlakatlarning Amerika bozoriga moslashganligini to'qimachilik mahsulotlari kiyim-kechaklar importida ularning ulushi 46 %, maishiy texnikada 37 % ni tashkil qilganidan bilsa bo'ladi.

AQSH bozoriga sanoat mahsulotlarining oqib kirishi ko'p jihatdan Amerika va Yaponiya transmilliy kompaniyalar faoliyati natijasi hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar Yangi industrial mamlakatlardagi imtiyozli tadbirkorlik sharoitidan foydalanishadi. Ya'ni raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun arzon ishchi kuchi va xomashyo, soliq imtiyozlari aynan shu mamlakatlarning manfaatlari ular iqtisodiyotidagi ustuvor yo'nalishlarga tashqi savdo tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi bejiz emas.

Sanoat mahsulotlari eksporti ulushi Gonkong 96 %, Janubiy Koreya 85 %, Hindiston 60 %, Singapurda 45 %, Braziliyada 33 %, Argentina va Meksikada 26 % ni tashkil etadi.

Yangi industrial mamlakatlarning **asosiy tavsiflari**:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning miqdori;
- YIMning o'rtacha yillik o'sish surati;
- YIM tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori. U 20 % atrofida bo'lish kerak;
- chiqariladigan tovarlar umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori;
- xorijiy mamlakatlarda chiqariladigan to'gridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning miqdori.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining **asosiy omillari**:

1. Birinchi navbatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning o'sishiga zarur bo'lgan sharoitlarning yaratilganligi.

2. Eksportdan tushgan daromadlar tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta'mirlash uchun foydalanilganligi.

3. Sanoati rivojlangan mamlakatlardan texnika-texnologiyalarning ko'p jalb qilinganligi.

### **Yangi industrial mamlakatlarning modellari:**

1. Janubiy sharqiy Osiyo industrial mamlakatlari modellari milliy iqtisodiyotni tashqi bozor va eksportga tomon yo'naltirilganligi.

2. Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarning modeli import o'rni egallashga qaratilgan.

Janubiy-sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarining Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlariga nisbatan tezroq rivojlanishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

— geografik o'rni;

— siyosiy demokratik o'rni;

— aholisiga xos tartiblilik, matonatlilik va intiluvchanlik kabi noiqtsodiy omillar.

Shu nuqtayi nazardan **Malayziya** tashqi savdo ko'rsatkichlari ancha ibratlidir. Mamlakat importining katta qismini oraliq tovarlar tashkil etadi. **Oraliq tovarlar deganda yakunlovchi operatsiyalarning bajarish uchun chetdan keltirilgan xalqaro bozorga chiqariladigan tovarlar tushuniladi.** Shuning uchun eksportda qayta ishlovchi elektron sanoat mahsulotlari yetakchi rol o'ynaydi. Kauchuk, palma yog'i, ishlov beruvchi sanoat mahsulotlari, gazlama, kiyim-bosh, poyafzal, elektron mahsulotlari va boshqalar tashkil etadi.

**Janubiy Korea** iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan rivojlanishida eksport g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hukumati litsenziya, qarz berish, importni kreditlash asosida eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish bilan tashqi bozorga mo'ljal olish yo'lidan og'ishmay bordi. Natijada milliy firmalar orasida raqobat kuchaydi, eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni kuchaytirish «o'ziga xos» tarzda rag'bat-

lantirildi. Janubiy Korealik iqtisodchi B. Songning aytishicha, hukumat ko'rsatkichlarini bajarmagan yoki uning rejasiga mos ish yuritmagan korxonalar iqtisodiy infratuzilmadan uzib qo'yilgan (suv, elektrenergiya berish to'xtatilgan). Mutaxassislarning fikricha, bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish cho'qqisiga chiqishiga asosiy sabab, ularning qulay geografik mintaqada joylashganligidir. Masalan, Gonkong qadimdan Xitoyga borishdagi Janubiy darvoza vazifasini o'tagan.

Tinch va Hind okeanlari tutashadigan Singapurni har doim sharqning **G'arbiy darvozasi**, deb atashgan. Mutaxassislarning fikricha, ushbu mamlakatlarning rivojlanishida ko'pgina omillarning uyg'unlashuvi uddaburonlik bilan yuritilgan soliq siyosati alohida ajralib turadi.

Bu siyosat **Gonkong** va **Singapura** ko'pgina chetel savdosotiq, sanoat kompaniyalarining moliya kapitalini jalb qilishiga imkon berdi. Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvanga yirik g'arbiy biznesni tortgan magnit bu **ishchi kuchining arzonligidir**. Masalan, birgina kiyim-bosh ishlab chiqaradigan korxonada ishchi kuchi qiymati AQSHda 19 \$, Koreyada 9 \$, Indoneziyada 6 \$, Turkiyada 5 \$ ni tashkil etadi.

Yangi industrial mamlakatlar jahon iqtisodiyoti rivojining yangi zamonaviy bosqichidan uddaburonlik bilan foydalandilar:

- iqtisodiyotning internatsionallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining yanada rivojlantirilishi;
- yirik ko'lamli ishlab chiqarishdan mayda seriyali ishlab chiqarishga o'tish;
- ishlab chiqarishni bir joyga to'planishidan chiqarish, mayda, o'rtacha korxonalar ahamiyatini oshirish;
- mulkchilik shakllarining ko'pligi;
- inson omilining roli oshganligi iqtisodining intellektuallashishi, fan yutuqlariga tayanishi.

Ushbu mamlakatlar yuksalishida Yaponiya alohida rol o'ynaydi, chunki bu davlatga kapitalni joylashtirish juda qulay. Yaponiya bo'yicha mutaxassis Ronald Morzening fikricha, «Yaponiya yangi mamlakatlarning iqtisodiy kuchayishiga yordam berdi hamda siyosiy strategik tayanchga ega bo'ldi».

Vaqt o'tishi bilan ushbu mamlakatlar murakkab texnologiyalarni yaratish, fan yutuqlariga asoslangan ishlab chiqarishning rag'batlantirishning malakali kadrlar tayyorlash uchun katta mablag'lar sarflashni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda AQSH, Germaniya va Yaponiya bilan jiddiy raqobatchiga aylandi.

Mamlakatda demokratiya rivojlanishining muhim shartlaridan biri aholining farovonligini muayyan darajaga yetkazishdir.

«AQSHning ulug'vorligi — farovonligi oqibati» degan xitoy maqoli bor. Demokratiya — aqlning ulug'vorligini, ya'ni sening e'tiqodning va manfaatlariga zid bo'lsa ham murosaga borishga, kelishishiga tayyorgarlikni bildiradi. Bu esa aholining farovonlik darajasi yuqori bo'lishini hech bo'lmaganda umumiy surunkali ocharchilik bo'lmasligini taqozo etadi.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti rivojining yanada muhim sabablaridan biri umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilishidir.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, transmilliy korporatsiyalar «uchinchi dunyo» mamlakatlarning rivojlanishida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bir qator tarmoqlarda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar yetkazib berish (yengil sanoat, to'qimachilik sanoati, elektron sanoati).

Transmilliy korporatsiyalar investor sifatida ham, shuningdek, investitsiya tovarlari yoki texnologiyalarini (litsenziyalarini) yetkazib beruvchilar sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni xomashyo eksport qiluvchilardan tayyor mahsulotlarning sotuvchilarga aylantirish.

Bunday bevosita qo'yilma, rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yo'nalishidagi moliyaviy resurslarni oddiy joylash-tirishga nisbatan ancha muhim hisoblanadi. Shu jumladan, transmilliy korporatsiyalar an'anaviy jarayonlarining tezlashuvini ta'minlaydi.

Texnologik innovatsiyalar, asosan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda to'plangan bo'lib, so'nggi 10 yilliklarda ular bir

qator mamlakatlarda, asosan, «yangi industrial muhitda» ko'proq tarqalgandir.

Texnologiyalarning qo'llanishi, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lishi mumkin. TMK filiallarining faoliyati ular tanlagan mamlakatlarning tabiati uchun, shuningdek, insonlarning manfaati va ularning hayotiga tahdid solmasligi lozim.

Shu munosabat bilan xususiy, shuningdek, xorijiy korxonalar ustidan nazoratni o'rnatish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlardagi tartibot milliy organlarining faoliyatini kuchaytirishni talab etadi.

**Rivojlanayotgan mamlakatlardagi kambag'allik muammosi.** Bu jahon iqtisodiyotidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Jahon banki kambag'allikni aniqlashda uy xo'jaliklarida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichidan foydalanadi.

Aholi xarajatlarida:

- insonning oziq-ovqatga bo'lgan minimal ehtiyojlari;
- yashash minimumiga mos keluvchi tovarlar va xizmatlar uchun xarajatlar.

Bir kunda bir kishi 1,25 dollar (xarid qobiliyati bo'yicha) oshmaydigan mutlaq kambag'allik tushunchasi.

Hozir dunyoda 1.4 mlrd kishi ushbu chegarada yashamoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining – 31 %i kambag'allik darajasidan past darajada yashaydi. Zambiya – 64 %, Nigeriya – 78 %, Liberiya – 84 %, Nepal – 68 %, Bangladesh – 58 %ni tashkil etadi.

Jahon banki bashoratiga ko'ra, 2015-yilga borib, 1 dollardan kam daromadga yashayotgan aholining jahon aholisi tarkibidagi ulushi 10,2 % ga qadar pasayadi. 2005-yilda 27,9 % bo'lgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirish yo'llari:

- bir qator iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- ishlab chiqarish hajmining ortishi va ish haqining o'sishi;
- yangi ish joylarini ochish va bandlikning o'sishi;
- ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi;
- inflatsiyaning barqarorlashuvi.

Bu har bir mamlakatdagi ichki holat va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga bog'liq.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasi pastligining asosi quyidagilar bilan belgilanadi:

- oziq-ovqatni yetarlicha iste'mol qilmaslik;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning kamligi;
- uy-joy sharoitlarining nobopligi;
- yuqori darajadagi kasallanish;
- ta'lim darajasining pastligi;
- yuqori darajadagi bolalar o'limi;
- umidsizlik kayfiyati.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi rolining ortib borishi **uzoq muddatli tendensiyaga** ega. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega bo'lishgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish tendensiyasi quyidagi sabablar bilan belgilanadi.

- budjet taqchilligining yuqori emasligi;
- boshqariladigan davlat qarzi;
- barqaror bank tizimi;
- past siklik ishsizlik;
- barqaror o'sish sur'atlari.

Rivojlangan mamlakatlarda aksincha, budjet taqchiligining yuqoriligi, davlat qarzining kattaligi, bank tizimidagi muammolar, ishsizlik darajasining yuqoriligi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy farqni bartaraf etishning **strategik vositasi** – bu sanoatlashtirish siyosatidir.

Ular amaliyotida 3 xil sanoatlashtirish dasturi qo'llanilgan:

1. Sanoatning asos (bazis) tarmoqlarining rivojlanishi (Jazoir, Efiopiya, Misr, Vyetnam) orqali iste'mol tovarlari ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish.

2. Import o'rnini qoplash siyosati – og'ir sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, xorijiy kapitalni cheklash orqali milliy iqtisodiyotning rivojlanishi (Lotin Amerikasi mamlakatlari).

3. Eksportga yo'naltirilgan siyosat – tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish (Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari).

### **Tayanch iboralar:**

- rivojlanayotgan mamlakatlar;
- janub mamlakatlari;
- periferiya mamlakatlari;
- yuqori daromadli mamlakatlar;
- past daromadli mamlakatlar;
- o'rtacha daromadli mamlakatlar;
- neft eksport qiluvchi mamlakatlar;
- ko'p ukladlilik;
- inson omili ko'rsatkichi;
- kambag'allik muammosi;
- yangi industrial mamlakatlar;
- sanoatlashtirish siyosati;
- budjet taqchilligi;
- barqaror rivojlanish;
- demografik portlash muammosi.

### **Nazorat savollari**

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar qanday guruhlanadi?
2. Iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra qanday toifalarga bo'linadi?
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda inson omili ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
4. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar qaysilar?
5. OPEK qanday tashkilot?
6. Kambag'allik muammosi nima?
7. Kambag'allik muammosini hal etish yo'llari qanday?
8. Yangi industrial mamlakatlarning umumiy tavsifi nima?
9. Ular qanday guruhlanadi?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish tendensiyasi qaysi sabablarga ko'ra aniqlanadi ?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

2. Гурова И.П. Мировая экономика. — М.: «Омега» — Л., 2007.

3. *Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г.* Глобализация и бедность. *Мировая экономика и международные отношения.* №9, 2010, стр.412.

4. *Ломакин В.К.* Мировая экономика. Учебник. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. стр 671.

5. *Shodiyev R., Mahmudov E.* Jahon iqtisodiyoti. T., 2005.

6. *Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh. X.* Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: «Moliya». 2011.

7. *Mirsaidov M.S.* Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. –T.: «Iqtisod-moliya», 2007.

8. Доклад о мировом развитии. Развитие и изменение климата. Журнал. Всемирный Банк Вашингтон. 2010.

9. *Iminov O.* Yangi iqtisodiyot: o'tmish, bugun, kelajak, Risola. – T.: «Akademiya», 2012.

10. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

11. [www.economywatch.com](http://www.economywatch.com)

12. [www.data.worldbank.org](http://www.data.worldbank.org)

13. [www.mapsofworld.com](http://www.mapsofworld.com)

14. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com)



## XIV bob. O'TISH DAVRIGA XOS BO'LGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

### *Reja:*

14.1. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining xususiyatlari.

14.2. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari.

14.3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodiyoti.

14.4. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

### 14.1. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining xususiyatlari

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari sobiq sotsialistik tizimga mansub 28 mamlakatni o'z ichiga oladi. Ular rivojlangan industrial bazaga ega va rejali ma'muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq holda chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlardir.

Ular 2 guruhga ajraladi:

- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (15 ta).
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Mongoliya (13 ta).

XX asrning 80-yillarida sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida quyidagi krizis holatlari kuzatila boshlandi:

- iste'mol va investitsiyalar hajmi pasaydi;
- tashqi qarzi o'sdi;
- ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi;
- raqobatbardoshlik pasaydi;
- inflatsiya jarayonlari kuchaydi;
- ishsizlik yashirin xarakterga ega bo'ldi.

Bu rejali iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarda iqtisodiy inqiroz texnologik taraqqiyot, iqtisodiy samaradorlik, ekologiya, aholining turmush darajasiga jiddiy ta'sir o'tkazdi va salbiy oqibatlariga olib keldi.

<sup>1</sup> A.V. Vahobov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar». O'quv qo'llanma. — T.: «Moliya». 2011.

1980–90-yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi siyosiy voqealar SSSR, Chexoslovakiya, Yugoslaviyaning parchalanishi, Varshava shartnomasining barbod bo'lishi, o'zaro iqtisodiy yordam kengashi o'z faoliyatini to'xtatishi kuzatildi.

Jahon iqtisodiyotida **o'tish davri iqtisodiyoti bir xo'jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi.**

Bu jarayon uzoq davrni o'z ichiga oladi.

Xalqaro iqtisodiy institutlar tomonidan o'tish davrida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda quyidagi klassik tamoyillarni ta'minlash tavsiya etiladi:

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- narxlarni erkinlashtirish;
- xususiy mulkni shakllantirish;
- davlat mulkini xususiylashtirish;
- ochiq iqtisodiyotni shakllantirish;
- davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvini cheklash.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

- barqaror siyosiy rejimni o'rnatish;
- xo'jalik yuritishning bozor mexanizmini rivojlantirish, takomillashtirish;
- qulay investitsiya muhitini shakllantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- tashqi siyosatni faol olib borish;
- iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lini rag'batlantirish.

Bozor iqtisodiyotini o'sishida davlat alohida rol o'ynaydi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- oqilona soliq siyosatini yuritish;
- aholining ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish;
- infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish.

Bozor munosabatlariga o'tishda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olish bilan iqtisodiyotni isloh qilishning xorij tajribasidan, o'zgarishlarning barcha

foydali iqtisodiy vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

## 14.2. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari

Markaziy va Sharqiy Yevropa ittifoqiga a'zo 10 ta Markaziy Yevropa (Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya) va Janubiy Sharqiy Yevropa (Sloveniya, Bolgariya, Ruminiya), Boltiqbo'yi (Litva, Latviya, Estoniya) hamda Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lmagan Janubiy-sharqiy Yevropaning 6 ta (Albaniya, Xorvatiya, Bosniya, Gertsogov, Makedoniya, Serbiya va Chernogoriya) mamlakatlari kiritiladi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlarda markazlashgan rejali, samarasiz iqtisodiy tizimdan turli *mulk shakllariga*, tadbirkorlik tashabbuskorligiga erkin bozor va demokratik institutlarida asoslangan samarali bozor tizimiga o'tish maqsadida amalga oshiriladi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- islohotlarni amalga oshirishning ratsionalligi va ketma-ketligi;
- iqtisodiyot tarkibining shartlari va xarakteriga mosligi;
- rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy texnik yordami;
- xorijiy kapitalning roli.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ushbu omillar ta'siriga bog'liq holda iqtisodiy jihatdan turli natijalarga erishishdi. Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya intensiv islohotlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Bolgariya, sobiq Yugoslaviya respublikalari va Ruminiyaga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga erishdi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari Xalqaro Valuta Fondi tomonidan taklif etilgan quyidagi tuzilmaviy elementlarga ega islohotlar modeliga amal qilishmoqda:

**1. Makroiqtisodiy barqarorlik va nazorat.** Barqarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish:

- qattiq soliq siyosati;
- qattiq kredit siyosati;
- inflatsiyaga qarshi siyosat;
- tashqi hisob-kitoblarni tartibga solishga qaratilgan xarajatlarni qayta ko'rib chiqish.

**2. Bozor va narx islohoti:**

- ichki narxlarni isloh qilish;
- tashqi savdoni erkinlashtirish;
- ish haqi va ishchi kuchi bozorini erkinlashtirish;
- bank tizimini isloh qilish.

**3. Xususiylashtirish, xususiylashtirish, milliy ishlab chiqarish tarkibini isloh qilish:**

- korxonalarni ochish va yopish, xususiylashtirish huquqini rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish;
- tarmoq va ishlab chiqarish islohotlari, monopoliyalarni bekor qilish.

**4. Davlatning quyidagi sohalaridagi rolini qayta ko'rib chiqish:**

- huquqiy islohotlar (konstitutsion, mulk, shartnoma, bank, raqobat);
- axborot tarkibini isloh qilish (hisobga olish, nazorat);
- iqtisodiyotni bilvosita boshqarishning institutsional tizimi;
- ijtimoiylashtirish soha (ishsizlikdan sug'urtalash, pensiya ta'minoti, mehnatga layoqatsizlik, ijtimoiylashtirish xizmatlari: sog'liqni saqlash, ta'lim).

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlarda markazlashgan rejali, samarasiz iqtisodiy tizimdan turli mulk shakllariga, tadbirkorlik tashabbuskorligiga, erkin bozor va demokratik institutlarga asoslangan samarali bozor tizimiga o'tish maqsadida amalga oshirildi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining Yevropa Ittifoqiga kirishi – 2004-yilda Yevropa Ittifoqiga Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan sakkiztasi, 2007-yilda esa

yana ikkitasining a'zo bo'lishi ushbu mamlakatlarning qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

**Birinchidan,** G'arbiy Yevropa bozorlarining ochilishi bu mamlakatlar YIMning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishga tayyorgarlik davri va undan keyingi davrlarda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari Yevropa Ittifoqi 15 mamlakatlari ko'rsatkichlaridan 1,7 marta yuqori bo'ldi.

**Ikkinchidan,** Yevropa Ittifoqiga a'zolik Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ishsizlik darajasining pasayishiga olib keldi, jumladan, ishsizlik darajasi 2003–2007-yillarda 11,3 % dan 7,8 % gacha pasaydi. Ushbu holatning asosiy sababi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga ishchi kuchining oqib o'tishi (3 mln kishi) hisoblanadi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning ba'zi mamlakatlarida migrantlar tomonidan jo'natiladigan pul o'tkazmalari tashqi moliyalashtirishning xorijiy investitsiyalardan keyingi salmoqli manbasiga aylandi.

Misol uchun, 2010-yilda Polshaga 9,1 mlrd dollar, Serbiyaga 5,5 mlrd dollar, Ruminiyaga 4,5 mlrd dollar miqdorida pul o'tkazmalari kirib kelgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bu mamlakatlarda ishsizlik darajasining oshishiga olib keldi. Misol uchun, ishsizlik darajasi 2010-yilda Serbiyada 19,6 %ni, Slovakiyada 14,4 %ni, Vengriyada 11,2 %ni, Bolgariyada 10,3 % ni tashkil etdi.

**Uchinchidan,** ushbu hududga G'arbiy Yevropa kapitalining kirib kelishi rag'batlantirildi hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida investitsiyalarning jamg'armalardan sezilarli darajada ortib borish jarayoni yuz berdi.

**To'rtinchidan,** rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan birlashish bu mamlakatlarda mehnat unumdorligining jadal sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ushbu Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ko'rsatkichning yillik o'sishi o'rtacha 2–3 % ni tashkil etgani holda, Yevropa Ittifoqi – 15 ta mamlakatlarida boryo'g'i 0,75 % ga teng bo'ldi.

Yevropa Ittifoqiga barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega, raqobatbardosh bo'lmagan, to'ldiruvchi xarakteridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarning a'zo bo'lishi Yevropa Ittifoqi – 15 mamlakatlari iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu holat G'arbiy Yevropaga mahsulotlar, xizmatlar, yuqori texnologiyalarni sotish uchun yangi bozorlarning vujudga kelishi, arzon ishchi kuchidan foydalanish imkonini yaratadi.

Hozirda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari dunyoning jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mintaqalaridan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish 2010-yilda 4,5 % ga teng bo'ldi.

Iqtisodiy o'sish omillari tarkibida ichki iste'molning kengayishi, jumladan, sanoatda investitsiyalarga bo'lgan talabning ortishini alohida qayd etish mumkin. Sanoatning jadal sur'atlarda o'sishi milliy valutalarning yevroga nisbatan past kursi bilan qo'llab-quvvatlanayotgan eksport hajmining ortishiga olib keldi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi asta-sekin postindustrial tarkibga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, xizmatlarning ulushi YIMga nisbatan 52–58 % dan (Albaniya, Ruminiya, Makedoniya) 75 % ga teng bo'ldi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari YIMda sanoat va qurilishning ulushi hozirgi davrda past (Janubi – Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 20–30 %) yoki juda yuqoriligi (Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 30–40 %) bilan ajralib turadi. Bu holat ayrim mamlakatlarda sanoatlashish jarayonining tugallanmaganligi yoki ayrimlarida esa industrial tarkibdan postindustrial tarkibga o'tilganligidan dalolat beradi. Sanoat tarkibida an'anaviy tarmoqlar (yengil, oziq-ovqat, yoqilg'i) ulushi qisqarib, elektrotexnika, avtomobilsozlik, yuqori texnologik tarmoqlar jadal rivojlanib, hissasi ortib bormoqda.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishdagi ijobiy omillardan biri – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bank va kredit tizimiga xorijiy kapitalni jalb etish sur'atlarining keskin ortishi hisoblanadi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari moliya tizimi davlat xarajatlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Davlat

xarajatlarning ulushi YIMga nisbatan Ruminiya va Estoniyada taxminan 26 % ni, Bolgariya, Chexiya, Slovakiya, Polshada 35–40 % ni tashkil etsa, Vengriya, Sloveniya va Xorvatiyada 40 % dan oshdi.

### **14.3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodiyoti**

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ikkinchi yirik guruhi MDH mamlakatlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning ba'zilar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqori guruhiga kirgan bo'lsa, ba'zilar rivojlangan mamlakatlarning quyi guruhiga kiradi. Sobiq Ittifoq iqtisodiyoti ustun darajada ichki iqtisodiy aloqalarga asoslangan yagona majmua sifatida uzoq vaqt inqirozni o'z boshidan kechirdi.

1991-yilda sobiq Ittifoq respublikalaridan iborat MDH tashkil etildi (Rossiya Federatsiyasi, Armaniston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Gruziya, Moldaviya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Ukraina, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi). Boltiqbo'yi respublikalari MDHga kirishdan bosh tortdi. Gruziya 2009-yilda MDH tarkibidan chiqib ketdi.

MDH mamlakatlarini amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlarning sur'atlari va chuqurligiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «radikal» yo'lini tanlagan mamlakatlar (Rossiya, Qirg'iziston va Qozog'iston);
- iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich yo'lidan borayotgan mamlakatlar (O'zbekiston, Turkmaniston, Belorussiya);
- «oraliq guruh» mamlakatlari (MDHning boshqa barcha mamlakatlari).

«Radikallar» guruhiga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «falajli davolash» usulini qo'llagan mamlakatlar

kiradi. «Oraliq guruh» mamlakatlariga iqtisodiy islohotlarni «radikal» islohotlarga nisbatan sekinroq, «bosqichma-bosqich» islohotlarga nisbatan jadalroq amalga oshirayotgan mamlakatlar guruhi kiradi. Ushbu guruhlash shartlidir. Misol uchun, Belarussiyada boshqa MDH mamlakatlariga nisbatan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy model shakllandi. Korxonalarining aksariyat qismi, jumladan, yirik korxonalar davlat ixtiyorida bo'lib, ular mamlakat YIM ning taxminan 75 %ini ishlab chiqaradi.

Shu bilan bir vaqtda xo'jalik yuritish mexanizmi bozor mezonlari bo'yicha amal qiladi: direktiv rejalashtirish cheklangan, davlat korxonalarining o'zi hamkorlarni qidirib topadi, hamkorlik shartlari mahsulot narxi bo'yicha kelishadi, ishlab chiqarish va ishchilar tarkibini belgilaydi.

Mamlakatda keng qamrovli ijtimoiy kafolatlar saqlanib qolgan.

MDH ning barcha mamlakatlari iqtisodiyotida XX asr 90-yillarida bozor munosabatlarning asoslari shakllandi:

– aksariyat mamlakatlarda xususiy mulk yetakchi mavqega ega bo'ldi;

– narxlarning shakllanishi erkinlashtirildi;

– tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida bozor islohotlari amalga oshirildi va tashqi bozorlarning ochiqligi ta'minlandi;

– aholi mentalitetini bozor munosabatlari qoidalariga moslashishga yo'naltirilgan qayta o'zgarishlarni amalga oshirish boshlandi.

MDH mamlakatlarining 1991–2010-yillardagi iqtisodiy rivojlanishini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin.

**Birinchi bosqichda** (1991–1995) sobiq ittifoq respublikalarida siyosiy mustaqillikning huquqiy asoslari yaratildi, xalqaro iqtisodiy, moliya tashkilotlariga a'zo bo'lishdi, o'zaro shartnomalar imzolandi, mustaqil davlat uchun xos moliyaviy-iqtisodiy, budjet-soliq, bojxona va boshqa iqtisodiy institutlar shakllantirildi.

Shu bilan birga bu davrda yagona valutaga asoslangan yagona iqtisodiy makon barham topdi, respublikalar o'rtasidagi koperatsiya aloqalari buzildi, uchinchi mamlakatlar bozoriga



qayta ixtisoslashish boshlandi va milliy iqtisodiyotlarda inqiroz holatlari kuchayib bordi. Deyarli barcha respublikalarda YIM ning keskin qisqarib, eng chuqur pasayish mamlakatlarda turli yillarda ro'y berdi.

**Ikkinchi bosqich** (1996–2000) yangi mustaqil mamlakatlarda siyosiy suverinitetning mustahkamlanishi, mustaqil faoliyat olib boruvchi moliyaviy-iqtisodiy tizimning yaratilishi, uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi va rivojlanishi bilan izohlanadi.

Bu bosqichda MDH mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorlashdi, inflatsiya darajasi pasaydi.

**Uchinchi bosqichda** (2001–2010) MDH ning barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning mustahkamlanishi sodir bo'ldi, iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun mavjud resurslardan to'liq foydalanildi, iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq islohotlar amalga oshirildi, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish jarayoni faollashdi.

MDH mamlakatlari amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning salbiy oqibatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– islohotlarning ijtimoiy yo'qotishlar bilan birga sodir bo'lishi. MDH mamlakatlarida ishlab chiqarishning pasayishi natijasida aholi turmush darajasining pasayishi, ishsizlik darajasining ortishi, ijtimoiy xizmatlar hajmining qisqarishi ro'y berdi;

– MDH mamlakatlarining aksariyatida ilmiy-texnik taraqqiyotning orqada qolishi, mehnat unumdorligining past darajada ekanligi;

– yashirin iqtisodiyotning mavjudligi;

– MDH mamlakatlarining xalqaro mehnat taqsimotida homashyo va yoqilg'i yetkazib beruvchilar sifatida ixtisoslashib qolishi.

Sanoatning yengil sanoat va uzoq muddatli iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari sifatli hamda keng assortimentga ega import bilan raqobat qila olmaganligi sababli Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining ayrim mamlakatlarida muzlatkichlar, videomagnitofonlar, kompyuterlar ishlab chiqarish to'xtab qoldi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida xomashyo, yoqilg'i ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda ishlab chiqarishning pasayishi sodir bo'lmadi hamda bu mahsulotlar eksporti xorijiy valuta tushumlarining asosiy manbasi va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash vositasiga aylandi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga qaratilgan qonunlar qabul qilinmoqda. Xorijiy kompaniyalarning aksariyati tabiiy resurslarga boy mamlakatlarga qiziqish bildirmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etish natijasida Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya, Moldaviya va Qirg'izistonda sanoatning katta qismi xorijiy investorlar nazoratida bo'lib, kapital qo'yilmalarning 15–30 % tashqi manbalardan moliyalashtiriladi. Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalarida AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya kabi an'anaviy kapital eksportyorlaridan tashqari Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya kompaniyalari investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

#### **14.4. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari**

O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun O'zbekiston Markaziy Osiyoda mahsulotlarni sotishning istiqbolli, yirik ichki bozorga, qulay investitsiya muhitiga, boy xomashyo, inson va ilmiy-texnik salohiyatga ega muhim hamkori hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi va iqtisodiy hamkorlikning barcha sohalaridagi munosabatlar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. O'zbekiston Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya bilan «Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi» kelishuvlarga ega. Mazkur kelishuvlar doirasida bu mamlakatlar bilan mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi asosida ikki tomonlama savdo aloqalari o'rnatilgan.

O'zbekistondan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga paxta tolasi, matolar, rangli metallar, noorganik kimyo mahsulotlari, turli xil xizmatlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari (tomat pastasi, meva va sabzovatlar, soklar), avtomobilsozlik sanoati mahsulotlari, kabel eksport qilinadi. O'zbekistonga ushbu mintaqadan un, tayyor matolar va kiyim-kechak, keramika mahsulotlari, mexanika va elektr asbob-uskunalari, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, farmatsevtika mahsulotlari, mebel, transport vositalari olib kiriladi.

O'zbekistonda 150 dan ortiq Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari kapitali qatnashgan qo'shma 40 dan ortiq to'liq xorijiy kapitalga asoslangan korxonalar faoliyat yuritadi. Ushbu korxonalar oziq-ovqat, spirtli ichimliklar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, mashinasozlik, savdo, transport xizmatlari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston uchun Ruminiya va Bolgariyaning Qora dengizdagi portlari orqali yuklar tashish sohasida hamkorlik imkoniyatlarini rivojlantirish istiqbollari muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston mahsulotlarini Ruminiyaning Konstansa porti, Qora dengizning Dunay — Reyn daryo transporti tizimi bilan bog'lovchi Sulin kanali orqali Yevropa markaziga tashib keltirish, keyin mintaqaning Shimoliy dengiz portlariga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari O'zbekistonning asosiy savdo iqtisodiy hamkorlari hisoblanadi. Shunga qaramasdan, mamlakat tashqi savdo aylanmasida bu mamlakatlarga nisbatan uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi. Shunday qilib, O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollashishi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi hamda global jahon bozoriga integratsiyalashishdan o'zaro manfaatlidir.

**O'tish davrida ijtimoiy himoya.** Qashshoqlik bu kurashish, inson kapitalini asrash, uni bozor iqtisodi ehtiyojlariga tayyorlash iqtisodiy yuksalishga, ijtimoiy adolatga, siyosiy barqarorlikka ko'maklashadi.

Kambag'allik darajasi qanday aniqlanadi?

**Mutlaq kambag'allik** shaxsiy yoki oilaviy daromadlar (xarajatlar) ni muayyan miqdordagi tovarlar, xizmatlar qiymatiga taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

**Nisbiy kambag'allik** daromadlarni boshqa shaxslar yoki oilalarning daromadlariga taqqoslab belgilanadi.

**Subyektiv kambag'allik** amaldagi daromadlarni muayyan shaxslar o'zlarini kutayotgan va tasavvur qilayotgan daromadlarga taqqoslab belgilanadi.

**Kambag'allik muammolarini hal qilishning kaliti — iqtisodiy o'sishni tiklash.** Lekin aholining ba'zi toifalari masalan, malakalari darajasi bozor talablariga mos bo'lmagan xodimlar, keksalar, bolalar, ko'p bolali oilalarning muammolarini faqatgina iqtisodiy o'sish bilan hal qilib bo'lmaydi. Aholining bu guruhi uchun egasiga borib yetadigan (adresli) yordam dasturini ishlab chiqarishi zarur.

Insonning salomatligiga 4 guruhdagi omil ta'sir ko'rsatadi:

- daromad;
- yashash tarzi;
- atrof-muhit;
- kasbga doir kasalliklar — tibbiy sifat xizmati.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi **4 usulda mablag'ni ta'minlaydi:**

1-usul — naqd pul bilan ta'minlash — budjetdan mablag' ajratish;

2-usul — xususiy sug'urtalash tizimi — AQSHda;

3-usul — ijtimoiy himoyalash — Argentina, Koreya, Urugvay, Chili, O'zbekistonda;

4-usul — soliqlik tushumlaridan mablag' ajratish — Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikada.

**Erkinlashtirish va iqtisodiy o'sish.** O'tish davrini boshdan kechirayotgan barcha mamlakatlarda iqtisodiy ahvolni yaxshilashda keng ko'lamli erkinlashtirish va barqarorlashtirish omillari muhim rol o'ynaydi. Erkinlashtirish narx-navoni erkin belgilashni, savdning davlat tomonidan nazorat qilishning to'x-

tatilishini, yangi kompaniyalarni hech bir to'siqsiz tuzish mumkinligini taqozo etadi.

**Barqarorlashtirish** inflatsiyaning qisqartirilishini, xalq xo'jaligi tashqi iqtisodiy sohalardagi nomutanosibliklar bartaraf qilinishini ko'zda tutadi. Bozor iqtisodiga erishgan turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, agar inflatsiya darajasi taxminan 50 % dan oshsa, iqtisodning rivojlanishi keskin sekinlashadi. Inflatsiyaning yuqori bo'lishi nisbiy narx omilini buzib aks ettiradi, mavhumlikni keltirib chiqaradi.

Mavhumlik omonatlarning jamg'arilishiga investitsiyalashga halaqit beradi. Shuning uchun erkinlashtirish har doim iqtisodiy o'sishning asosi hisoblanadigan narxlarni barqarorlashtirish bilan birga olib borilishi lozim. Erkinlashtirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sish bir-birlari bilan uzviy bog'langan. Bu Osiyo, Yevropa davlatlari uchun ham taalluqli.

Barcha mintaqalarda iqtisodiy o'sishning sabablari yangi kompaniyalarning ochilishiga, xizmat ko'rsatish, eksport, ishlab chiqarish sohalari, qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan izohlanadi.

***Tayanch iboralar:***

- *jahon iqtisodiyoti;*
- *jahon bozori;*
- *xalqaro mehnat taqsimoti;*
- *iqtisodiy salohiyat;*
- *eksport;*
- *iste'mol savati;*
- *turmush darajasi;*
- *mehnat resuslari;*
- *iqtisodiy taraqqiyot darajasi;*
- *globallashuv;*
- *xalqaro valuta fondi;*
- *kommunikatsiya;*
- *konsolidatsiya;*
- *konvergensiya;*
- *integratsiya;*
- *o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari.*

### **Nazorat savollari**

1. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga qaysi mamlakatlar kiradi?
2. O'tish iqtisodiyotida davlatning roli?
3. Bozor munosabatlarini rivojlantirishning qanday shart-sharoitlari mavjud?
4. O'tish davrida ijtimoiy himoya deganda nimani tushunasiz?
5. Sotsialistik xo'jalik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotining afzalligini ta'riflab bering.
6. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohoatlarga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
7. MDH mamlakatlari iqtisodiyotiga xos xususiyatlarni ayting.
8. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ayting.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2013-yil 19-yanvar.

2. *Vahobov A.V va boshqalar.* Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T. 2011.

3. *Shodiyev R., Maxmudov E.* «Jahon iqtisodiyoti». – T.: 2005.

4. *Вашанов А.* Распад СССР и его последствия для постсоветских республик. Экономист. №11, 2011.

5. *Шумский Н.* Содружество независимых государств: первые двадцать лет.// Вопросы экономики. №12, 2011, стр.101.

6. Перспективное развитие мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор МВФ. Сентябрь. 2012 г.

7. Узбекистан в цифрах. – Т.: 2011.

Saytlar:

5. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

6. [www.economywatch.com](http://www.economywatch.com)

7. [www.data.worldbank.org](http://www.data.worldbank.org)

8. [www.mapsofworld.com](http://www.mapsofworld.com)

9. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com)

## TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

### A

**Agent** – ko'tara savdo vositachisi, sotuvchining manfaatini ko'zlovchi, mahsulot sotilishida ishtirok etuvchilar va tovarlarni sotish huquqiga ega bo'lmaganlar. Agentlar o'zlarining mijozlar bilan bo'ladigan munosabatlarini uzoq muddatli shartnoma asosida amalga oshiradi, bu esa mijozlarga mahsulotni sotish hajmini, moliya resurslarining cheklanganligiga qarabmasdan ko'paytirishga imkon yaratadi.

**Aylanma fondlar** – korxonada ishlab chiqarish fondining bir qismini tashkil qiladi. U bir ishlab chiqarish davrida ishlatiladi va o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulotga to'laligicha o'tkazadi. Muomala fandlari tayyor mahsulotni iste'molchilarga yuborilgani, lekin to'lanmagani, bank va kassa hisobidagi pul mablag'ini o'z ichiga oladi.

**Aksioner jamiyat** – turli korxonada, tashkilot, bank, kompaniya va ayrim shaxslar pul mablag'larini sherikchilik asosida va sohibkorlik maqsadida birlashtiradigan jamiyat.

**Auksion** – tovarni ommaviy savdoda sotish turi bo'lib, tovar unga eng yuqori narx taklif qilgan xaridorga sotiladi.

**Aholining xarid qobiliyati** – aholining iste'mol bozorida tovar va xizmatlar sotib olishga sarflashi mumkin bo'lgan pul mablag'lari hajmi.

**Aholi pul daromadlari** – pul shaklida mehnatkashlar qo'lga tegadigan daromad va tushumlar.

**Aholi pul xarajatlari** – aholining tovar sotib olishga xizmati va boshqa turli xil to'lovlarga sarflanadigan mablag'lari.

### B

**Balans** – muvozanat, muttasil o'zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar sistemasi.

**Bankrot** – bu jismoniy yoki yuridik shaxs (xo'jalik yurituvchi subyekt), xo'jalik sudi qarori bilan oshkora iqtisodiy qobiliyatsiz qarzdor deb atalishidir.

**Barter** – barter kelishuvi valutasiz bevosita tovar ayirboshlash, ko'proq uncha rivojlanmagan tovar munosabatlari davri uchun xos bo'lgan kelishuv.

**Biznes** – sohibkorlik-tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish.

**Biznes reja** – investitsion loyihaning asosiy xarakteristikalari va ularning amalga oshirilishi bilan bog'liq moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat standartlashtirilgan hujjat.

**Birja** – standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori.

**Birja kursi** – fond birjasida muomalada bo'ladigan qimmatbaho qog'oz qiymati.

**Boj** – mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import tovarlardan undiriladigan pul yig'implari.

**Bojxona** – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi.

**Bozor** – sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabati.

**Bozor infratuzulmasi** – bozorning asosiy ishtirokchilariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va muassasalar tizimi (har xil xizmat ko'rsatuvchi birjalar, auksonlar, savdo uylari va boshqalar).

**Bozor islohotlari** – xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirilishi.

**Bozor konyunkturasi** – ayrim bozorlarda muayyan davrdagi muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi holati.

**Broker** – maklerlar – fond, tovar, valuta birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachi ayrim shaxs yoki firma.

**Butunjahon savdo tashkiloti** – xalqaro savdo shartnomalarining bajarilishiga ko'maklashish maqsadida 1993- yilda BMT huzurida tuzilgan tashkilot.

**Budjet** – davlat, viloyat, shahar, muassasa, tashkilot va korxonaning ma'lum muddatdagi daromadi va xarajatlarining pul hisobi.

## D

**Davlat buyurtmasi** – davlat tomonidan muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste'molchiga yetkazib berish, ishlab-chiqarish va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ma'lum ishni bajarish bo'yicha korxonalar va xo'jaliklarga beriladigan topshiriq.

**Davlat budjeti** – davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalanadigan yillik majmuyi.



**Davlat qarzi** – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi.

**Devalvatsiya** – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valuta bozorlarida milliy valuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

**Deflatsiya** – inflatsiya davrida chiqarilgan muammolaridagi qog'oz pulni kamaytirish.

**Diversifikatsiya** – korxonaning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulot turlarining kengayishi.

**Diler** – ishbilarmon savdogar: o'z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug'ullanadi.

**Dotatsiya** – davlat budjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish: iqtisodiyotga budjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri.

**Do'kon** – xaridorlarga xizmat ko'rsatish uchun savdo zaliga ega bo'lgan, tovarlarning chakana sotish joyi.

## G

**Giperinflatsiya** – haddan tashqari inflatsiya, narxlarning shiddat bilan o'sishi, pul topishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

**Gipermarket** – savdo maydoni 3 ming kv.m dan kam bo'lmagan, keng assortimetdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish orqali sotadigan universal do'kon.

## I

**Ijara** – bir tomonning ikkinchi tomonga ma'lum to'lov evaziga mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun berishi, ijara haqqi mulk egasi mol-mulkning qiymati va keltiradigan daromadiga bog'liq bo'lib, o'zaro kelishuv bilan belgilanadi.

**Import** – ichki bozorda sotish uchun mamlakatga xorijiy tovarlar va xizmatlar keltirish.

**Investitsiya** – ishlab chiqarishi rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chetellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish.

**Innovatsiya** – korxonaning savdo ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatida boshqaruv yoki texnologiyaning yangi yutuqlaridan foydalanish.

**Integratsiya** – mustaqil xo'jalik faoliyatning milliy mintaqa va xalqaro miqyosida o'zaro birlashib yaxlit xo'jalik organizmni tashkil etishi.

«Iste'mol» savati — muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta'minlashga yetarli bo'lgan miqdori.

Iste'mol tovarlari — aholining shaxsiy va umumiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan tovarlar.

## J

**Jamoa mulki** — madaniylashgan jamiyatdagi mulkchilikning bir shakli, muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi.

**Jahon bozori** — xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlari jahon bozorida ayirboshlash xalqaro narxlar va xalqaro valuta vositasida amalga oshiriladi.

## K

**Kvota** — davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning joriy etilishi, kvota o'rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshiriladi.

**Kelishilgan narxlar** — turli ishlab chiqarish korxonalarini va savdo tashkilotlari o'rtasida har ikki tomonning roziligi bilan oldindan kelishib belgilangan narxlar.

**Konsalting** — bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

**Konsortsium** — firmalar yoki firmalar bilan hukumat o'rtasida muayyan amaliy, juda keng ko'lamdagi iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida shartnoma asosida tuzilgan vaqtinchalik birlashma.

**Kontrakt** — mamlakatlar, firma va korxonalar o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarni o'rnatish, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi ikki tomonlama yozma kelishuv shartnomasi.

**Konsern** — ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tartib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya.

**Kredit** — pul vositalari, tovar va xizmatlarini ma'lum ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan noma'lam muddatga qarz berish.

**Krizis** — iqtisodiy tanglik, tanazzul.

**Kichik biznes** — bozor iqtisodiyoti rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda o'ziga mustaqil mayda korxonalarining daromad ko'zlovchi sohibkorlik faoliyati.

**Ko'p ukladli iqtisod** – turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

## L

**Lizing** – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga olish, davlat, odatda, ularga bakndan qarz olishlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratib beradi.

**Litsenziya** – texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun beradigan ruxsati.

**Lombard krediti** – qarz oluvchi ko'chib yuruvchi mulkining garov kafolati ostida beriladigan moliyaviy kredit.

## M

**Marketing** – tovarlarning xaridorlarga samarali harakati va ularning sotish hajmini kengaytirishga mo'ljallangan korxonalar sotish faoliyati boshqaruv tizimi.

**Marketing vazifasi** – bu tadbirkorlikning muhim vazifasi korxonani ishlab chiqqan tovar va xizmatini almashuv jarayoni bilan bog'liq boshqaruv tizimi.

**Menejerlar** – yollanma professional boshqaruvchilar.

**Mehnat bozori** – bu ish kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi. Bu yerda tovar bozorida farqli o'laroq, insonning o'zi emas, balki uning mehnat qilish qobiliyati, oldi-sotdi tuzish asosida, ma'lum muddatga sotiladi. Ish kuchi avval iste'mol etilib, so'ngra uning haqi to'lanadi.

**Milliy valuta** – muayyan mamlakatning pul birligi.

**Monetar siyosat** – bu davlat tomonidan davlat milliy banki orqali muomalaga tushadigan pul massasini nazorat qilish-boshqarish demakdir. Monetar siyosat turlari sxematik tarzda quyidagi ko'rinishga ega: siyosat, harakat, samara.

## N

«**Nou-xau**» – korxonalar tomonidan patentlanmagan, lekin rasman hujjatlashtirilgan texnika, texnologiya, axborot, tijorat, boshqaruv bilimlari yig'indisi.

## O

**Ofshor zona** – soliqqa tortish darajasi juda past bo'lgan zona (hudud)lar.

## P

**Patent** — xususiy tarzda biror tadbirkorlik farliiyati bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma.

**Privatizatsiya** — davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiy-lashtirish.

## R

**Raqobat** — mustaqil davr ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta hajmda sotish, bozorda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash.

**Reklama** — tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot: talabni ko'paytirish maqsadida xaridorlarga tovarning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish.

## S

**Samara** — xo'jalik faoliyatini amalga oshirish hisobiga olinadigan natija.

**Samaradorlik** — moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar sarflarining samara ko'rsatkichlari bilan munosabati.

**Sanoat nusxasi** — bu mahsulotning taalluqli bo'lgan badiiy va badiiy-konstruktorlik yechimidir. Sanoat nusxalari hajmli (buyurtma shaklda: ya'ni model), tekis yuza (rasm) va aralash (kombinatsiyalashgan) ko'rinishda bo'lishi mumkin.

**Sertifikatsiya** — bu mos kelish sertifikatini yoki tamg'asi yordamida mahsulot, ish yoki xizmati ma'lum me'yorlarga yoki texnik shartga mos kelinishi aniqlash maqsadida qilinadigan harakatdir. Sifat sertifikatini bozor iqtisodiga asoslangan ilg'or davlatlarga yetkazib beriladigan mahsulotning sifatini tasdiqlovchi va unga ilova qilinadigan hujjatdir. U «Xaridor-sotuvchi» sohasida o'rnatilgan munosabatlarning zarur to'ldiruvchisi vazifasini bajaradi va Dunyo bozorida mahsulotning raqobatbardoshligining oshishida belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

**Sof daromad** — tovar narxiga kiruvchi soliq to'lovlari chiqarib tashlangan korxonaga yalpi daromadi summasi.

**Subvensiya** — davlat budjetidan muhim xo'jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun hokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag'i.

**Subsiya** — davlat budjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'.

**Supermarket** — savdo maydoni 400 kv m dan kichik bo'lmagan va tovarlarni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish usulida sotadigan yirik universal do'kon.

## T

**Tadbirkor** — bu kishidagi tugʻma isteʼdod va qobiliyat, uning dunyoqarashi, fikr-mulohazasi va yurish-turishi. Tadbirkorlik — bu madaniyat. Aytishlariga qaraganda, madaniyatli odam tadbirkor boʻlishi shart emas, ammo tadbirkor inson madaniyatli boʻlishi kerak, chunki u doimo muvaffaqiyatga intiladi.

**Talab narxi** — bu isteʼmolchi mehnat mahsulini sotib olishga rozi boʻlgan narxdir.

**Talab** — isteʼmol bozoriga chiqarilgan tovarlarga xaridorlarda ehtiyojning nomoyon boʻlish shakli.

**Talab va taklif qonuni** — talab va taklifning dialektik birligini, ularning oʻzaro boqliqligini, oʻzaro harakati va obyektiv ravishda muvozanatga intilishini anglatadi.

**Talab va taklif hajmi** — isteʼmolchilar sotib olishga, ishlab chiqaruvchilar bozordagi narxda sotishga tayyor boʻlgan tovarlar va xizmatlar miqdoridan iborat. Shunday ekan, talab va taklif — isteʼmol bilan ishlab chiqarishning bozordagi ifodasidir.

**Tender** — konkurs asosida amalga oshiriladigan savdolar shakli.

**Tijorat siri** — ishlab chiqarish va savdo-sotiqning bevosita ishtirokchilarigagina maʼlum boʻlgan va boshqalarga eʼlon qilinmaydigan maʼlumotlar.

**Tovar belgisi** — muayyan firma tovarlariga qoʻyiladigan va uni boshqa firmalar mahsulotlaridan farqlantiruvchi belgi.

**Tovar birjasi** — bir yoki bir necha xil tovar bilan ulgurji savdo-sotiqni amalga oshiruvchi tijorat korxonasi, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismi.

## V

**Valuta kursi** — mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

**Valuta fondi** — markaziy bank va moliya organi ixtiyorida xalqaro hisob-kitob va toʻlovlar uchun foydalanadigan chetel valutasini va oltin jamgʻarmalari.

**Valuta munosabatlari** — valuta va pul bozorlarida xalqaro hisob-kitoblar, kredit va valuta harakatlarini amalga oshirish yoʻlida davlat muassasalari.

**Venchur moliyalashtirish** — vositachi korxonasi va tashkilotlar yordamida moliyaviy mablagʻ topib ishlatish.

**Venchur korxonalar** – kichik biznesning bir turi, venchur korxonalar texnikaning yangi yo'nalishlarida ish ko'rib, fan-texnika taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

## Y

**Yevropa iqtisodiy hamjamiyati** – «Umumiy bozor» – 12 ta G'arbiy Yevropa davlatlari a'zo bo'lgan iqtisodiy uyushma.

**Yevropa erkin savdo uyushmasi** – Yevropadagi qator rivojlangan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy tashkiloti.

## Z

**Zamonaviy iqtisod** – bu ko'p sonli xo'jalik subyektlarining ishtirokida amalga oshiriladigan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mulkchilikning turli shakllari va tartibga solingan bozor dastklarining qo'llanishi yordamida barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish imkonini beradigan iqtisod.

### *Manba:*

1. *Yusupov.A.T., Xodiyev B.Y.* Iqtisodiyot. O'zbekcha-ruscha lug'at. – T.: «O'zbekiston», 2012.
2. *Jh. William.* Economics. Англо-русский словарь. – М.: 1997.
3. *Мировая экономика: прогноз до 2020 года/под ред. акад. А.А. Дынкина.* – М.: 2007.
4. **Internet saytlari:**  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz)  
[www.agro.uz](http://www.agro.uz)  
[www.chamber.uz](http://www.chamber.uz)  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz)  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz)  
[www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz)

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### **I bob. MILLIY IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

1.1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi, mazmuni, kursning predmeti.....	6
1.2. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi.....	11

### **II bob. MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR**

2.1. Milliy iqtisodiyotning faoliyatini ta'minlovchi omillar.....	22
2.2. Iqtisodiyotning shakllari va rivojlanishini belgilaydi- gan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi.....	25
2.3. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari.....	30

### **III bob. MILLIY BOYLIK, AHOLI VA MEHNAT RESURLARI**

3.1. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibi.....	36
3.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish asoslari.....	41

### **IV bob. MODERNIZATSIYA VA MILLIY IQTISODIYOT**

4.1. Innovatsion texnologiyalar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....	48
4.2. Modernizatsiyalash — davr talabi.....	52
4.3. Lokalizatsiya.....	60
4.4. Diversifikatsiyaning iqtisodiyotdagi o'rni.....	62

### **V bob. MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI**

5.1. Milliy iqtisodiyot tarkibi, uning mazmuni va asosiy shakllari.....	68
--	----

5.2. Iqtisodiy faoliyat tarkibini tahlil qilish.....	76
5.3. Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	83

#### **VI bob. REAL SEKTOR TARMOQLARI**

6.1. Sanoat – milliy iqtisodiyotning yirik sohasi.....	95
6.2. Qishloq xo'jaligi.....	105
6.3. Kapital qurilish.....	122
6.4. Transport, yo'l xo'jaligi va aloqa.....	133

#### **VII bob. IJTIMOIIY INFRATUZILMA**

7.1. Ijtimoiy tarmoqlar majmuyi va uni rivojlantirish vazifalari.....	163
7.2. Ta'lim tizimi va uni isloh qilish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.....	166
7.3. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish.....	183
7.4. Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish.....	195
7.5. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini qayta qurish.....	202

#### **VIII bob. IQTISODIYOTNI MUVOFIQLASHTIRISHDA DAVLATNING ROLI**

8.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zaruriyati.....	208
8.2. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, tarkibi va vazifalari.....	217

#### **IX bob. STRATEGIK REJALASHTIRISH VA UNI TASHKIL ETISH**

9.1. Strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va vazifalari.....	230
9.2. Strategik rejalashtirishning metodologiyasi.....	234

#### **X bob. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT**

10.1. O'zbekiston mustaqilligi va uning tashqi iqtisodiy faoliyati prinsiplari. Ochiq iqtisodiyot modeli.....	240
10.2. Tashqi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikning asosiy shakllari va yo'nalishlari.....	246
10.3. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uni boshqarishni tashkil qilish.....	253

#### **XI bob. GLOBALLASHUV JARAYONI VA XALQARO IQTISODIYOTGA INTEGRATSIYALASHUV**

11.1. Jahon iqtisodiyotidagi globallasuv rivojlanishning yangi bosqichi.....	263
--	-----



11.2. Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashish jarayonlari, omillari, shakllari va mexanizmi.....	267
--	-----

## **XII bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI**

12.1. Rivojlangan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	292
12.2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalar.....	302

## **XIII bob. IQTISODIYOTI RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR**

13.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning guruhlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	313
13.2. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar.....	316
13.3. Jahon iqtisodiyotida yangi industrial mamlakatlar.....	318

## **XIV bob. O'TISH DAVRIGA XOS BO'LGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI**

14.1. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning xususiyatlari.....	327
14.2. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari.....	329
14.3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodiyoti.....	333
14.4. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari.....	336
Tayanch so'z va iboralar.....	341

**Zokir Yoʻldoshevich Yoʻldoshev**  
**Xurshida Teshayevna Xalilova**

## **MILLIY VA JAHON** **IQTISODIYOTI**

*Oliy oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻllanma*

*Muharrir Xudoyberdi Poʻlatxoʻjayev*

*Badiiy muharrir Sardor Kurbanov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhah Umida Rajabova*

*Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2014-yil 10-sentyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qogʻozi. Tayms garniturası. Shartli bosma tabogʻi 20,46. Nashr tabogʻi 15,8. Adadi 500 nusxa. Shartnoma № 75–2014. Buyurtma № 847. Bahosi kelishilgan narxda.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30.  
Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

•TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI• masʼuliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor koʻchasi, 10.